

ONA TILI

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
10-sinfi uchun darslik**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2(O'zb)ya72

O-58

Tuzuvchilar:

Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim,
Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov, Saodat Atoyeva

Xalqaro ekspert:

Iannuzzi Susan

Taqrizchilar:

- | | |
|------------------|--|
| B. Bahriiddinova | – filologiya fanlari doktori, professor. |
| D. Yuldasheva | – pedagogika fanlari nomzodi, professor. |
| G'. Hamroyev | – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. |
| M. Rahmonova | – Farg'ona viloyati Farg'ona shahardagi 33-maktabi oliy toifali o'qituvchisi |
| D. Nurmuhamedova | – Surxandaryo viloyati Termiz shahridagi 23-maktabning oliy toifali o'qituvchisi |
| L. Rustamova | – To'raqo'rg'on tuman 1-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi |

Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.

MUNDARIJA

I BOB

5

MUHABBAT O'ZI NIMA?

NUTQIY MAVZULAR:

muhabbat tushunchasi;
muhabbatga yondosh
tushunchalar;
ota-onaga muhabbat.

LINGVISTIK MAVZULAR:

nutq uslublari;
argumentli esse;
iboralar uslubiyati;
sinonim va antonimlar
uslubiyati.

II BOB

26

JAMIYATNING BIR BO'LAGIMAN

NUTQIY MAVZULAR:

jamiyatdan ayro inson;
jamiyatdagi odat va
illatlar;
ism qo'yish;
insonning jamiyatdagi
o'rni.

LINGVISTIK MAVZULAR:

nutq so'zlash;
uslubiy xatolar, paronimlar;
eskirgan so'zlar uslubiyati;
olmoshlar uslubiyati;
bosh harflar imlosi.

III BOB

46

HUQUQDAN BURCHGACHA

NUTQIY MAVZULAR:

mualliflik huquqi;
gender tengligi;
shaxs mas'uliyati.

LINGVISTIK MAVZULAR:

atamalar;
unlilar imlosi;
undoshlar imlosi.

IV BOB

66

MEN VA BOSHQALAR

NUTQIY MAVZULAR:

shaxsning "men"i;
olomon madaniyati;
shaxsning o'zgalar bilan
munosabati.

LINGVISTIK MAVZULAR:

nutq sofligini buzuvchi
birliklar;
kirish va kiritmalar
uslubiyati;
ko'plik qo'shimchasi uslubi-
yati.

V BOB

80

RUHIY TARBIYA

NUTQIY MAVZULAR:

vijdon erkinligi;
halollik;
keng ildiz otgan illatlar.

LINGVISTIK MAVZULAR:

qo'shma gap uslubiyati;
gap bo'laklari tartibi
uslubiyati;
argo va jargonlar.

VI BOB**102****TILIM – BOYLIGIM****NUTQIY MAVZULAR:**

so'z mas'uliyati;
so'z tarixi;
"yumshoq" birliklar;
tillar taraqqiyoti va
tanazzuli;
til "ekologiyasi".

LINGVISTIK MAVZULAR:

so'z yasovchi qo'shimchalar
uslubiyati;
shevaga xos so'zlar
uslubiyati;
asos va qo'shimchalar
imlosi.

VII BOB**122****FAN VA TEKNOLOGIYALAR****NUTQIY MAVZULAR:**

Nobel mukofoti;
Nobel mukofoti
laureatlari nutqi;
kelajak kasblari;
tabiat va ixtiolar;
Innovatsion rivojlanish
vazirligi.

LINGVISTIK MAVZULAR:

og'zaki nutqda noverbal
vositalardan foydalanish;
fe'llarda nisbat, zamon,
shaxs-son uslubiyati;
qo'shib, ajratib va chiziqcha
bilan yozish imlosi.

VIII BOB**142****BOY BO'LSAM...****NUTQIY MAVZULAR:**

asl boylik;
qashshoqlik sabablari;
boylarga kechagi va
bugungi munosabat;
millarderlar hayotidan.

LINGVISTIK MAVZULAR:

matn maqsadini aniqlash;
vulgarizm va varvarizmlar;
mustaqil nutq;
yozma nutqning kirish va
asosiy qismlarini
shakllantirish;
nuqta, so'roq va undov
belgilarining qo'llanishi.

IX BOB**170****KINO SANOATI****NUTQIY MAVZULAR:**

kino;
25-kadr;
seriallar;
kino va adabiyot.

LINGVISTIK MAVZULAR:

qo'shtirnoqning qo'llanishi;
nuqtali vergulning
qo'llanishi;
ikki nuqtaning qo'llanishi.

X BOB

192

TABIAT VA INSON

NUTQIY MAVZULAR:

olam va ekologiya;
insonning tabiatga ta'siri;
Orol fojiasi;
Qizil kitob;
Greta Tunberg.

LINGVISTIK MAVZULAR:

matnni qisqartirish;
matnni kengaytirish;
matnni tushunish;
turli nutqiy vaziyatlarda
muloqot.

XI BOB

210

TAKRORLASH

MUHABBAT O'ZI NIMA?

1-dars

Topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering va matn bilan tanishib chiqing.

1. Siz muhabbatni qanday tushunasiz?
2. Bu so'zni eshitganingiz zahoti xayolingizda kim yoki nima gavdalanadi?
3. O'zi muhabbatga ishonasizmi?



Muhabbat nima? ↗

1 Muhabbatni oshiqlar umr mazmuni deb biladilar. Ayrimlar uchun u – azob, biroq totli azob. Vafo ko'rmanalar: "Muhabbat yo'q narsa ekan", "Muhabbatga ishonmayman", – deb yozg'irib ham qo'yishadi. Bundan ko'rindiki, muhabbatga turli taqdir **sohiblari** har xil ta'rif berishar ekan. Biroq adabiyot sahifalarini varaqlar ekanmiz, bir narsaga **amin bo'lamiz**: oshiq uchun muhabbat mangu bor, ba'zan yor bevafo yoki berahm bo'lishi mumkin, xolos.

Muhabbatni "Sevib qoldim", "Ko'nglimda muhabbat uyg'ondi", "Ishqim tushdi" kabi jumlalar bilan izhor qiladilar. Biroq sevgi, muhabbat, ishq deganlari bir narsamikan?

6

Ingliz tilida "Love", nemischada "Liebe", lotinchada "Amor", ruschada "Любовь" deb nomlanadigan tuyg'uga nisbatan o'zbek tilida sevgi, muhabbat, ishq so'zlari qo'llanadi. Biroq bu so'zlar ayrim jihatlari bilan o'zaro farqlanar ekan.

Adib va adabiyotshunos Pirimqul Qodirov mavzuga **doir** maqolasida sevgi bir qalbda bo'lsa, muhabbat ikki qalb o'rtasida bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, siz kimnidir sevsangiz-u, lekin u sizni sevmasa ham sevgi haqida gapirish mumkin, biroq muhabbat so'zi ikki qalb bir-birini sevgan holatda ishlataladi.

2 "Sevgi" so'zi o'zbekcha (turkiy) bo'lsa, "muhabbat" arab tilidan o'zlashgan. Manbalarda "muhabbat" so'zi "hubb", ya'ni xum so'zidan olingani aytildi. Xum **to'lsa**, uning ichiga boshqa narsa solib bo'lмаганidek, qalbda muhabbat bo'lsa, boshqa kishiga joy qolmaydi. "Sharq yulduzi"da bosilgan maqolada shunday yoziladi: "Yana boshqa ba'zilar "muhabbat" so'zining "habb" (don) so'zidan kelib chiqqani to'g'risida fikr bildirishadi. Jumladan, "habb" so'zi to'g'risida har bir mag'izli narsaning doni bor, deydilar. Shundan kelib chiqib, yurakning o'rtasini "habbat ul-qalb" (yurak doni) deydilar va do'st (sevgili, suyukli, mahbub, ma'shuq) o'sha joydan o'tsa, shuni "muhabbat" deb ataydilar".


Shu o'rinda bir savol tug'iladi: kundalik hayotda ham biz bu ikki tushunchani farqlaymizmi? Shoир va yozuvchilarimiz-chi? Xalqona she'rlar ijodkori Muhammad Yusufga murojaat qilib ko'ramiz:

Sevgi, sevgi der ekan,
Sevgi dilni yer ekan.
Qizga mehring berguncha,
Muzga bag'ring ber ekan.

Muhabbat, ey go'zal **iztirob**,
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u,
Ko'krugimga qo'lingni tirab,
Yuragimni to'kib qo'yding-ku.

Bu satrlardan ko'rindik, biz sevgi va muhabbat tushunchalarini deyarli farqlamaymiz. Lekin muhabbat negadir sevgidan ko'ra **kengroq** va yukli tushunchadek tuyulaveradi. Sizda ham **shunaqami?**

3 Endi oshiq, ma'shuqa, ushshoq so'zlarining asosi bo'lmish *ishq* haqida gaplashsak. "Ishq" so'zi "ashaqa" – "chirmovuq o't"dan olingen. Chirmovuq daraxtga chirmashib unga ziyon yetkazadi, oxir-oqibat quritadi. Ishq bir dard bo'lib, u odamning fikri-yu yodini, o'y-u xayolini "chirmab" oladi, kuni kelib kasal qiladi. Bu ma'lumotlarni o'qiy turib **bexos** Majnunni eslagan bo'lsangiz, ajab emas. Binoyidek Qays ishq domiga tushib majnunga **aylandi-qoldi**. Laylini har ko'rganida hushidan ketib qolishlari, "Layli, Layli"dan boshqa narsa aytmasligi, **sahroda** hayvonlar bilan do'st tutinishi – bularning hammasi ishqning sevgi-muhabbatdan yuqori daraja ekanini anglatadi.



1.1-mashq. Matn asosida quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Sevgi, muhabbat va ishq so'zlarining barchasi arab tilidan o'zlashtirilgan.

T

N

Muhammad Yusuf ijodidan keltirilgan parchalarda sevgi va muhabbat so'zları butkul boshqa-boshqa tushunchalarni anglatgan.

T

N

Pirimqul Qodirov fikricha, muhabbat ikki tomonlama munosabatni anglatishi bilan sevgidan farqlanadi.

T

N

MATN TURLARI

Matn – gaplardan tarkib topgan, mazmun va shakl jihatidan yaxlit murakkab birlik.

Matn ifoda shakliga ko'ra yozma va og'zaki; ko'rinishiga ko'ra monologik va dialogik; hajmiga ko'ra mikromatn va makromatn; ifoda maqsadiga ko'ra hikoya matn, tasviriy matn va muhokama matn kabi turlarga bo'linadi.

8

1.2-mashq. "Muhabbat nima?" matnining turini aniqlang.

yozma matn	og'zaki matn	
monologik matn	dialogik matn	
mikromatn	makromatn	
hikoya matn	tasviriy matn	muhokama matn

NUTQ USLUBLARI

Til nutq sharoiti, qo'yilgan maqsad, qo'llanish doirasi, muloqot qiluvchilarning kimligiga qarab turlicha vogelanadi. Bunda bir tushuncha har xil ifodalar, bir fkr turli sintaktik qurilmalar bilan beriladi. Tilning bunday ko'rinishi nutq uslubidir. Tilda so'zlashuv, publisistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar farqlanadi. Bu uslublarda qo'llanuvchi birliklar so'zlashuv (*anaqa*), kitobiy (*o'shal*) va betaraf (*bu, o'sha*) birliklarga bo'linadi.

1.3-mashq. "Muhabbat nima?" matnida ajratib ko'satilgan so'zlarni guruhlang:

- 1) so'zlashuvga xos so'zlar:
- 2) kitobiy so'zlar:
- 3) betaraf so'zlar:



TAQIM

Tizzaning orqa tomonidagi chuqurcha taqim deyiladi. Inson tanasining bu qismi ko'p tillarda nomga ega emas. Internetda tilga oid faktlar orasida "Tizzaning orqa qismi hech qaysi tilda nomga ega emas" degan jumlaga duch kelishimiz mumkin. Biroq bu fakt xabarchilar o'zbek (turkiy) tilidan bexabar ko'rinishadi. Bobolarimiz sochi uzun qizlarni ta'riflashda "sochi taqimiga tushar ekan" deyishgan; uloq (ko'pkari) o'yinida "ulojni taqimiga bosdi" degan ifoda hamon qo'llanadi.

Menimcha...

"Sevadi, sevmaydi, sevadi, sevmaydi..."

Ayrimlar biror kishi uni sevish-sevmasligini aniqlash uchun moychechak ("romashka")dan foydalanishadi: uning gulini bitta-bitta yulib chiqishadi. Buni filmlarda ham ko'rgan bo'lsangiz kerak? Nima deb o'ylaysiz: bu bilan nimaga erishish mumkin? Nega aynan moychechak tanganan?



9

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. "Muhabbat nima?" matnidan quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping. Notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan ko'rib oling.

banogoh

ko'ks

haqiqiy

iztirob

nolimoq

ilalabad

qator

qo'llanmoq

ne tong

tuzukkina

kirib kelmoq

2-dars

2.1-mashq. “Muhabbat nima?” matni asosida quyidagi test savollarining to‘g’ri javobini aniqlang.

1-test. Muallif fikricha, kishilar muhabbatni ...dan kelib chiqib ta’riflaydilar.

A	ko‘rgan-bilgan ma’lumotlari
B	o‘z shaxsiy tajribasi
C	o’sha ondagi kayfiyati
D	ijtimoiy kelib chiqishi

2-test. Matnning 3-qismida bir o‘rinda Majnun (bosh harf bilan), boshqa o‘rinda maj-nun (kichik harf bilan) yozilishi qaysi qatorda to‘g’ri izohlangan?

A	Bir o‘rinda shaxs ismi, boshqa o‘rinda kishi laqabi ifodalangan.
B	Bir o‘rinda so‘zga xos bosh ma’no, boshqa o‘rinda ko‘chma ma’no ifodalangan.
C	Bir o‘rinda kishi nomi, boshqa o‘rinda shaxs belgisi ifodalangan.
D	Bir o‘rinda Qaysning asl ismi, boshqa o‘rinda uning sifati ifodalangan.

2.2-mashq. Tilda fikrni ta’sirli ifodalash maqsadida bir-biriga zid tushunchalar yonma-yon qo’llanadi (“tirik murda”, “yolg‘on haqiqat” kabi). “Muhabbat nima?” matnining 1-qismida ham shunday ifoda mavjud. Uni toping va izohlang. O‘zingiz ham shunday ifodaga misollar to‘qing.

2.3-mashq. Matndan quyidagi iboralar ma’nosiga mos so’zlarni toping.

yodga olmoq	
xamirdan qil sug’urgandek	
almisoqdan qolgan	
bag‘ri tosh	
dunyo turguncha	

RASMIY USLUB

Ariza, rezyume, tilxat, dalolatnama kabilar, shuningdek, qonun, qaror, nizom, xalqaro hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi. Har bir hujjat matni o'ziga xos qolipi va maxsus so'zlariga ega. Shu bois ularni yozishda namunaga yoki davlat tilida ish yuritishga doir kitoblarga murojaat qilish tavsiya qilinadi.

2.4-mashq. Quyida berilgan rezyume (ma'lumotnama, og'zaki nutqda "obyektivka", CV ham deyiladi) namunasi bilan tanishib chiqing.

MA'LUMOTNOMA Qosimova Gulnora Azamatovna

2021-yil 2-sentyabrdan:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasи o'qituvchisi

Tug'ilgan yili:

03.11.1976

Tug'ilgan joyi:

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

Millati:

o'zbek

Partiyaviyiligi:

yo'q

Ma'lumoti:

oliy

Tamomlagan vaqtি:

1999-yil, O'zbekiston Milliy universiteti (kunduzgi)
2001-yil, O'zbekiston Milliy universiteti (magistratura)

Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi:

lingvistika (o'zbek tili)

Ilmiy darajasi:

yo'q

Ilmiy unvonи:

yo'q

Qaysi chet tillarini biladi:

ingliz tili, turk tili, rus tili

Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa)?

O'zbekiston Respublikasi Xalq maorifi a'llochisi

Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a'zosimi (to'liq ko'rsatilishi lozim):

yo'q

MEHNAT FAOLIYATI

1995–1999-y. – O'zbekiston Milliy universiteti talabasi


1999–2001-y. – O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

2001–2010-y. – Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 4-sonli umumta'limg maktabi-ning ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Menimcha...

2.5-mashq. O + D = S; Oqil + Diyora = Sevadi

Ayrimlar devor, daraxt, qog'oz kabilarga yuqoridagidek "sirli ma'lumotlar"ni yozib qo'yishadi. Agar bu yozuv ijrochisi Oqil bo'lsa, bundan nimani ko'zlagan? Oqil va Diyoradan boshqa kishi yozgan bo'lsa, uning maqsadi nima? Siz ham shunday yozuvlarni yozganmisiz? Bunday "madaniyat"ga qanday qaraysiz?



"JUDA ESKI"

Tilimizda "juda eski" ma'nosini anglatuvchi iboralar ko'p. Ularning ayrimlari bilan tanishsak:

1. **Almisoqdan qolgan.** "Almisoq" so'zi Alloh odamlar dunyoga kelishidan oldin ularga o'zini tanitgan, ahslashgan jarayonni anglatadi. "Almisoqdan qolgan" deganda insoniyat hali yaratilmagan juda qadim zamon nazarda tutilgan.

2. **Daqyonusdan qolgan.** Daqyonus tarixiy yunon shohi bo'lib, undan qochgan va 300 yil uxlatib qo'yilgan kishilar – "G'or egalari" haqida islomiy manbalarda ma'lumot berilgan. 300 yil uxbab turganlardan biri non olish uchun yonidan chaqa pul chiqarganda do'kondor: "Axir bu pul Daqyonusdan qolgan-ku. Eski-ku", – deydi. Iboraning kelib chiqishi shu voqeaga borib taqaladi.

12

Mantiq vaqtি



Inglizzabonlar rus tilini o'rghanishda ajoyib usulni qo'llashadi: ko'p qo'llanadigan ruscha ibora va gaplarni ularga talaffuz jihatidan yaqin bo'lgan inglizcha iboralarga bog'lab yodlashadi. Shunday iboralardan biri "Yellow-blue bus" sanaladi. O'ylab ko'ringchi, "sariq-ko'k avtobus" ma'nosidagi inglizcha iboradan rus tilidagi qaysi ganni oson yodlashda foydalaniladi?

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. O'zingizning rezyume-ma'lumotnomangizni tayyorlang.

3-dars

Topshiriq. Quyidagi ikki matnni o'qing. Ularning yozilish uslubiga e'tibor qarating.

1-matn



Fanda sevgining o'z ta'rifi, xususiyatlari, hatto baholash mezonlari ham mavjud. Amerikalik psixolog Artur Aron o'z ilmiy tadqiqotida kishining kimgadir oshiq bo'lishi-bo'la olmasligini aniqlash mumkin degan xulosa beradi. Qizig'i shundaki, buni o'rtacha 90 soniyadan 4 daqiqagacha bo'lgan vaqt ichida amallasa bo'lar ekan. Olimning fikricha, bizga mos keladigan odamni topish uchun bir nechta asosiy xususiyat ko'zdan kechirilsa bas. Bu jarayonda tana "tili"ning roli juda yuqori, aniqrog'i, 55%. Bu shuni anglatadiki, miya potensial juftning tana harakatlarini tahlil qiladi va undan sizda qiziqish uyg'otadigan qandaydir javob signallarini izlaydi. Insonning harakatlari sizga qanchalik mos kelsa, siz uni sevib qolishingiz ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Ovoz va uning ohangi, shuningdek, chastotaning o'zgarishi ham muhim: jarayonda uning ulushi 38%. Qolgan 7% i o'sha kishining bayonotlariga, so'zlarni tanlashiga aloqador.

Mavzu doirasida Artur Akonning yana bir olamshumul tadqiqoti mavjud. Olim 36 ta savol ishlab chiqadi va ularni tartiblaydi. Tajriba uchun tanlab olingan notanish juftliklar bir-biriga shu savollarni tartib bilan berib chiqadi va javoblantiradi. Shundan so'ng juftlik 4 daqiqa davomida bir-biriga so'zsiz boqib turadi. Tajribada ishtirok etganlar uzoq vaqt o'zaro bog'liqlik paydo bo'lganini his qilib yurganlar. Yarim yil o'tgach, juftliklardan biri turmush ham qurban.

2-matn

Otabek bir necha kunlardan beri Hasanalining ko'ziga boshqacha ko'rinar edi. Hasanali Otabekda shu kungacha ko'rilmagan qiziq bir holatka besh-olti kundan beri ajabsinib yurar edi. Hasanalini ajabsindirgan holat ham bekning shuning singari xayol ichida barchani unutib qo'yishi va boshqa ishlarga e'tibor va parvosizligi edi. Hasanali bekning hozirg'i ipidan ninasigacha bo'lg'an qiziq holini uzoq kuzatib turdi. Lekin Otabek xayol surishdan zerikmasa ham Hasanali kuzatishidan zerikdi.

— Menda yumushingiz yo'qmi?



Otabek bu gapni onglamadi, shekillik, Hasanaling yuziga ko'tarilib qaradi-da, yana ko'zini bir nuqtag'a tikib qoldi. Bu holatdan Hasanaling andishasi ortib, bekning bunchalik angravlanishig'a qanday ma'no berishini ham bilmash edi. Otabek shu holda tag'in qanchag'achadir olturdi, nihoyat uyqudan uyg'ong'an kishidek sochib o'zini kuzatkuchiga qaradi:

- Chiqib yotmaysizmi?
- Menda yumushingiz yo'qmi?
- Nima yumushim bo'lsin, sham'ni ham olib keting...

Oradan yana bir necha daqiqa fursat o'tib, Hasanali tamom tinchlandi, ham turib ketmakchi bo'ldi va shu holatda ichkaridan uyqusirash eshitdi:

- «Qora ko'zları, kamon qoshları...»
- A-a-a, — dedi Hasanali va qaytadan qulog'ini tirqishg'a olib bordi. Endi uning butun borlig'i qulog bo'lib aylangan, o'zini unutib barcha diqqati hujra ichiga oqg'an edi. O'rtadan ko'b fursat o'tmadi, boyag'i uyqusirash yana takrorlandi: «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff». Hasanali uchun birinchida onglashilmay qolg'an ma'nolar bu keyingi gap bilan yeshildi. Hasanali endigi olturishni ortiqcha topib o'rnidan turdi, hujrasiga kirar ekan, boshini chayqab o'zicha so'zlandi:
- Bek oshiq!

14

ILMIY USLUB

Ilmiy uslub ilm-fanga doir fikrlarni bayon etishga mo'ljallangan. Bu uslubdagi matnlarda:

- 1) sohaga doir terminlar faol qo'llanadi;
- 2) ta'rif-qoidalar keltiriladi;
- 3) bo'yoq dor birliklar, ibora va maqollardan foydalaniilmaydi;
- 4) murakkab jumlalar, kirish va kiritmali qurilmalar ko'p uchraydi.

Ilmiy maqolalar, konferensiya tezislari, dissertatsiya, monografiya kabilar ilmiy uslubdagi matnlarga misol bo'ladi.

Ilmiy ma'lumotlar mutaxassis bo'limgaganlar – keng ommaga ilmiy-ommabop shaklda yetkaziladi. Bunda matn hammaga tushunarli bo'lishi uchun:

- 1) terminlar, tushunarsiz birliklarga izoh beriladi;
- 2) ayrim o'rnlarda ko'chma ma'no, badiiy-ta'siri vositalardan foydalananishga ruxsat beriladi.

Ommabop nashrlardagi ilm-fanga doir maqolalar, bolalar ensiklopediyalari, maktab darsliklari shu shaklda yaratiladi.

3.1-mashq. Birinchi matn ilmiy uslubning qaysi shaklida yaratilgan: sof ilmiy yoki ilmiy-ommabop shaklida? Javobingizni asoslang.

BADIY USLUB

Badiiy uslub tilning bor imkoniyatini namoyish qila oladigan uslubdir. Bu uslubdagi matnlarda:

- 1) ko'chma ma'nolar, bo'yoq dor birliklar faol qo'llanadi;
- 2) inversiya, parallelilik, tavtologiya(ortiqcha takrorlar)dan ta'sirchanlikni oshirishda foydalaniadi;
- 3) ritorik so'rqlar va his-hayajon gaplar uchraydi;
- 4) eskirgan so'zlardan aniq maqsadlarda foydalaniishi mumkin;
- 5) muallifning yangi so'z va ma'nolar ijdod qilishi kuzatiladi.

Nasriy va she'riy badiiy asarlar, insholar badiiy uslubda yaratiladi.



KUNDOSH

"O'tkan kunlar"da Otabek Kumushdan so'ng Zaynabga ham uylanishga majbur bo'ladi, natijada Kumush va Zaynab kundosh bo'lib qolishadi. Bu so'z "bir kunni bo'lib olgan" degani emas. Eshqobil Shukur yozadi: "Hozir ham Surxondaryoda "kunilash" degan fe'l ishlataladi. Ukasiga ko'rsatilayotgan e'tibordan xafa bo'lib, yaqinlarining yaxshi munosabatini qizg'anayotgan, ukasini ko'rolmayotgan bolaga nisbatan "Bola ukasini kunilayapti" deyishadi. "Kundosh" so'zi aynan shu "kunilash" so'zi bilan aloqador. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ham "kuni" so'zi qadimgi turkiy tilda "qizg'an", "g'ayirlik qil" degan ma'nolarni anglatgani aytilgan".



15

3.2-mashq. Ikkinci matnda qo'llangan quyidagi shakllarni hozirgi o'zbek tili me'yorlariga ko'ra yozib chiqing.

onglamadi

nuqtag'a

o'lturdi

holatka

yeshildi

shekillik

angravlanishig'a

ipidan ninasigacha


uyg'ong'an

so'chib

3.3-mashq. Ikkala matn asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

	Matn uslubi	Matn uslubiga xos birliklar	Notanish so'zlar	Matnga mos sarlavha
1-matn				
2-matn				

Menimcha...



1-rasm

1-rasmdagi kitob varaqlayotgan bola qanday kishining timsoli deb o'ylaysiz.
Fikrlaringizni izohlang.

2-rasmda qanday kishilar tasvirlangan deb o'ylaysiz?
Fikrlaringizni izohlang.




2-rasm

16

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. Quyidagi rasm asosida esse yozing. Tavsiya etiladigan hajm: 120–150 ta so'z.



4-dars

Diqqat! Mashqlar darslikning uchinchi soatidagi matnlar asosida tuzilgan.

4.1-mashq. Birinchi matn asosida quyidagi testlarning to'g'ri javobini belgilang.

1-test. Tadqiqotga ko'ra, yigitdagi qaysi jihat qiz uni yoqtirib qolishida ko'proq rol o'yaydi?

A	qizning savoliga javob berayotganda yigitning ohangida o'zgarish sezilishi
B	yigitning nutq jarayonida zarur so'zlarni topolmay qiynalishi
C	yigit gapirayotib qizga yoqishi mumkin bo'lgan so'zlardan foydalanishi
D	yigitning gap orasida bir-bir yoqimli kulib qo'yishi

2-test. Matnda qo'llangan tana "tili" – ...

A	tashqi muhitdan inson tanasi orgali qabul qilingan signallar
B	o'zganing tana tuzilishiga qarab u kishi haqida chiqarilgan xulosalar
C	tilning shakllanishida tana holatining ahamiyati
D	o'zganing tana harakatini tahlil qilib olingan ma'lumotlar

17

4.2-mashq. Birinchi matnda yoritilgan ilmiy tadqiqotga qanday munosabatdasiz? Uning natijasiga ishonasizmi? Nega?

Topshiriq. Matnni o'qing. Muhabbat tushunchasi bilan bog'liq sinonim so'zlarning ma'no nozikliklari qayd etilgan o'runga diqqat qiling.

"Muhabbat" degan so'z hamma tilda bor. Albatta, barcha tillarda bu so'zning bir necha xil ifodasi ham bor. Ammo o'zbek tilida "muhabbat" degan so'z shu qadar rango-rang ma'no-larga egaki, hayratda qolasiz! *Yoqtirib qolmoq, ko'ngil bermoq, moyil bo'lmoq, xushtor bo'lmoq, oshufta bo'lmoq, dil bermoq, bedil bo'lmoq, mubtalo bo'lmoq, maftun bo'lmoq, mahbub bo'lmoq, oshiq bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq, ishqil tushmoq, ishqil foniyl, ishqil boqiy, sevgi, muhabbat, mehr va hokazolar...* Tabiiyki, bular orasida boshqa tillardan kirganlari ham bor. Biroq ularning barchasi – teng huquqli o'zbek so'zlari!

Mumtoz adabiyotda **ishq** so'zining o'zi ikki xil ma'noni ifodalaydi. Ishqi foniy – mahbubaga nisbatan sevgi. Ishqi boqiy – Tangrining diydoriga yetish... Bugungi kunimizga kel-sak... Boshqa tillarda uchrashi mushkul bo'lgan g'alati holatlarni ko'ramiz. "Vatanga moyil bo'lmoq" degan ibora kulgili tuyuladi. "Vatanni sevmoq" deyiladi. "Ota sevgisi" degani shakkoklikka o'tib ketadi. "Ona ishq" degani gunoh sanaladi. "Ota-oni mehri", "Farzandning ota-onani yaxshi ko'rishi", "Farzand mehri" deyiladi... Shunday qilib, yoqtirib qolmoq bilan ko'ngil bermoq, ko'ngil bermoq bilan oshiq bo'lmoq, oshiq bo'lmoq bilan sevmoq, sevmoq bilan muhabbat, muhabbat bilan yaxshi ko'rmoq, yaxshi ko'rmoq bilan mehr orasida uzoq, juda uzoq masoфа bor... Tilimiz naqadar rango-rang! Tilimiz naqadar boy! (O'. Hoshimov)

4.3-mashq. *Yaxshi ko'rmoq o'rniга sevmoq, oshiq bo'lmoq со'zlarini qo'llab bo'lmaydigan holatlarga misollar keltiring va uni izohlang.*

4.4-mashq. Quyida berilgan argumentli esse bilan tanishib chiqing.

MAKTABNI BITIRGACH QAY YO'LDAN BORGAN MA'QUL: OLIY TA'LIMDA O'QISH YOKI ISHGA KIRISH?

O'quvchilar 10- va 11-sinflarga kelib mактабдан keyingi hayot haqida o'ylay boshlashadi. Ayrimlar oliy ta'lim muassasasiga kirishni rejalashtirsa, kimlardir tezroq ishga joylashishni – karyera qilishni ma'qul ko'radi.

Moliyaviy holatiga ko'pchilik havas qiladigan mashhurlarning hayot tarzini tahlil qilar ekanmiz, kimdir birinchi, boshqasi ikkinchi yo'ldan borganiga guvoh bo'lamiz. Demak, har ikki yo'l bilan muvaffaqiyat qozonish mumkin ekan.

Maktabni bitirib oshga kirishning qator afzalliklari bor: moliyaviy barqarorlikka tezroq erishiladi, oila qurish yoshida o'z ishxonasi va mablag'iga ega bo'ladi. Qolaversa, hozirda ko'pchilik ish beruvchilarga diplom emas, balki ish malakasi muhimroq. Masalan, daromadli sohalardan bo'l mish axborot texnologiyalari bo'yicha ishlayotganlarning ko'pchiligi oliy ta'limda o'qimagan.

Biroq masalaning boshqa jihatni ham bor: ayrim sohalarni faqat oliy ta'lim muassasasida o'qibgina egallah mumkin. Xirurg, stomatolog, terapevt bo'lmoqchimisiz, marhamat, o'qing. Davlat idoralarida kursilarni egallah uchun, albatta, diplom kerak. Qolaversa, talabalik yillari – oltin davr: unutilmas onlar, yangi do'stlar, yoqimli mashaqqatlar... Ko'pchilik universitetlarda xorijga chiqish uchun imkoniyat mavjud. Eng muhimi, talaba o'qish bilan birga ishni ham olib ketishi mumkin. Bunga to'sqinlik yo'q. Ham o'qib, ham ishlash imkonini bo'la turib faqat ishni tanlashdan nima naf?!

Yuqorida fakt va dalillarga asoslanib men maktabni bitirib oliy ta'limda o'qish kerak deb hisoblayman.



ARGUMENTLI ESSE

Bunday esseda muallif biror masalada o'z nuqtayi nazarini fakt va dalillar bilan qo'llab-quvvatlaydi. Avval har ikki tomon uchun faktlar keltiradi, yakunda kuchli dalillar bilan o'z pozitsiyasini himoya qiladi.

Menimcha...

4.5-mashq. Xo'janazar Huvaydoning mashhur bayti bor:

"Muhabbatdan muhabbat bo'lди paydo,
Muhabbatsiz kishidan qoch, Huvaydo".

Siz baytning birinchi misrasini qanday tushundingiz?



QITMIR

Qiliq'i birovlarining g'ashiga teguvchi, asabini o'ynovchi kishilarni qitmir deymiz. "Qitmır odam ekan", "Yana qitmirlik qilyaptı", "Qitmır savol berdi" deganda shu ma'no nazarda tutiladi. Arabchadan kirib kelgan bu so'z, aslida, xurmo danagini qoplab turuvchi yupqa pardani anglatadi. Shuningdek, manbalarda Daqyonus zulmidan qochgan "G'or egalari"ning iti ham Qitmır nomi bilan berilgan. Darvoqe, Daqyonus haqida "Daqyonusdan qolgan" iborasi tahlilida ma'lumot berilgan edi.

19

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Tanishilgan namuna va ma'lumot asosida argumentli esse yozing. Quyidagi mavzulardan birini tanlashingiz yoki o'zingiz mavzu topishingiz mumkin.

Nima deb o'ylaysiz: televideniyada dorilar reklamasi berilishi kerakmi yoki yo'q?

Maktab uchun bir xil kiyim tanlanishiga qanday qaraysiz?

Ayimlar laboratoriyalarda tadqiqot uchun hayvonlardan foydalanishga qarshi ekanini aytishadi. Siz qanday fikrdasiz?

Boylar va kambag'allar bir xil soliq to'lashini to'g'ri deb bilasizmi?

Shaxmat olimpiada o'yinlari sirasiga kiritilishi kerakmi yoki yo'q?


"Samsung" yoki "Ayfon"?

Esse hajmi 170–250 so'zni tashkil qilsin.

5-dars

5.1-mashq. Ota-onaning inson hayotidagi o'rni qanday? Buni namunadan foydalanib, tushuntiring. Nutqingizda antonimlarni qo'llang.

Namuna. Men ota-onani bulutga qiyoslayman: bulutdan tushgan yog'in bilan o'simliklar unadi, ko'karadi; yog'in bo'lmasa, o'simliklar quriydi, yer qaqraysdi.



20

Topshiriq. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning onasi vafoti munosabati bilan musofirlikda yozilgan xotirasi bilan tanishing.

1 Onajonim!!! Volidayi mehribonim!!!

Sizdan ajrab qolish musibati hammamiz uchun **og'ir**. Har kim o'zidan o'tganini o'zi biladi. Bu musibat Sizning qariyb yarim asrlik umr yo'ldoshingiz, bizning Qiblagohimizga esa o'ziga xos, boshqacha ta'sir qilibdi. Umrlarining ko'p qismi mo'min-musulmonlarning janozasini o'qish, dafnlarida qatnashish bilan o'tgan bu zot Sizning janozangiz o'qilishi va dafningiz paytida ishtirokchilarga murojaat qilib: «Xaloyiq, birodarlar, guvoh bo'linglar, men marhumadan **ming marta** roziman!» debdilar. Sizni yo'qotganlariga ko'p **o'rtanibdilar**. Yaqin kishilariga «Onamdan ajrab ham yetimlikni sezmagan ekanman, Otamdan ajrab ham yetimlikni sezmagan ekanman. Endi esa o'zimni haqiqiy yetim sezmoqdaman», deb yig'labdilar. **Uzoq** muddat masjidga ham bora olmay, **xastalanib qolibdilar**. Ha, mo'min inson vafot etsa, yaqinlari yaxshi bir odamlaridan ajrab qolganlari uchun ana shunday qayg'u chekadilar...

2 Onajonim!!! Volidayi mehribonim!!!

Muhaddis ulamolarimiz Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisi sharifda Payg'ambarimiz alayhissolatu vassalom: «Odam bolasi o'lsa, amallaridan uziladi. Ammo uch narsadan: sadaqayı joriyadan, manfaat beradigan ilmdan va haqqiga duo qilib turadigan solih farzanddan uzilmaydi», deganlar. Biz – Sizning farzandlaringiz ham ushbu hadisi sharifda zikr qilingan solih farzandlardan bo'lib, haqqingizga duo qilib turishga, nomayi a'molingizga yozilib turgan amallaringiz kesilib qolmasligiga harakat qilamiz. Zotan bu bizning farzandlik burchimizdir. Alloh taoloning O'zi ushbu burchni ado etishimizda bizga madadkor bo'lsin.

3 Onajonim!!! Volidayi mehribonim!!!


Siz azizamning dorulfanodan dorulbaqoga rihlat qilganingiz xabari yetganidan bir necha kun o'tib, Baytulloh jivorida turib, Siz haqingizda bir narsa yozishni niyat qilgan edim. Ochig'ini aytsam, yaxshi bir narsa yoza olmadim. Umuman, farzand uchun ona haqida marsiya yozish **oson** ish emas shekilli. Endi, bu ish boshimizga tushgan paytda ushbu masala yuzasidan biror narsa o'qimaganim, hattoki uchratmaganim ayon bo'lmoqda. Ehtimol, onasi vafot etgandan so'ng unga atab bir narsa yozish oson bo'lmagani uchun

ham **o'tgan** salafi solihlardan biror narsa topa olmayotgandirmiz. Lekin ahd qilganim uchun, ko'nglimdagidek chiqmasa ham, yozaverishni o'zimga **ep bilib**, yig'lab o'tirib yozmoqdaman. Oddiy holatlarda bir kunda o'n-o'n ikki sahifa yozish men uchun **hech gap emas** edi. Hozir esa bir kunda bir sahifa ham yoza olmay qoldim. So'z topsam, jumla topolmayman, jumla topsam, yig'imni **bosa olmayman**. Chunki men oddiy narsa emas, Siz – Volidayi mehribonim haqida xotira yozmoqchi edim. Sizsiz o'tgan kunlarimni yozmoqchi edim. Sizning meni sog'inganlaringizni yozmoqchi edim. Bemorligingizda Sizni borib ko'ra olmaganlarimni yozmoqchi edim. Vafotingizdan oldin Sizning bir og'iz so'zingizni eshita olmay qolganimni eslab yozmoqchi edim...

4 Onajonim!!! Volidayi mehribonim!!!

Alloh taolo Sizni rahmat aylasin! Qabringizni **purnur** aylasin! Yotgan joyingizni jannat aylasin!

Savol-javobingizni **oson** qilsin! Bu dunyoda qilgan ibodatlaringizni va solih amallaringizni o'zingizga hamroh aylasin! Sizni yo'qlab qilayotgan duolarimizni **qabul aylasin!** Qiyomat kuni yuzingizni yorug' aylasin! O'shal kunda Sizga jannati Firdavsdan joy ato aylasin! O'shal joyda Sizni anbiyolar, shuhadolar, avliyolar va siddiqlarga hamroh aylasin! Omin!



Hijriy 1419-sana, 26-safar. Yakshanba, soat 9:26.

Milodiy 1998-sana, 21-iyun.

("*Islomga bag'ishlangan umr*" kitobidan qisqartirishlar bilan olindi)

5.2-mashq. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Matnning qaysi qismida xotiraning yozilish sababi keltirilgan?
2. Matnga asoslanib muallifning otasi haqida ma'lumot bering.
3. Matnning 1-qismida otaning xaloyiqqa murojaati mazmunini tushuntirib bering.
4. Muallif nima uchun yashab o'tgan solihlarning o'z onasiga bag'ishlab yozgan ishlari bilan tanish emas?
5. Onasining vafoti haqida eshitgan muallif hayotida nimalar o'zgardi?
6. Matnning 3-qismi oxirida muallif nega ketma-ket bir necha jumlanib xil so'z bilan yakunlagan? Bundan qandaydir maqsad ko'zlanganmi yoki buni ortiqcha takror sifatida baholash kerakmi?

ANTONIMLARNING QO'LLANISHI

Antonimlar, ya'ni o'zaro zid ma'noli birliklardan fikrni tushunarliroq berish, ta'sirchanlikni oshirish maqsadida ham foydalaniladi. *Ilm bilan hayot charog'on* gapining mazmunini *Ilmsiz hayot zulmatdir* jumlesi orqali ham berish mumkin va ikkinchi holatda ilmnинг ahamiyati, hayotdagi o'rni ta'sirliroq ifodalanmoqda. Bir qator maqollarimizda antonimlardan xuddi shu maqsadda foydalanilgan:

1. To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan; egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan.
2. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan – dog'.

Bu maqollarning birinchi qismi umumiy mazmun uchun kifoya qilsa-da, ikkinchi qism orqali ta'sirchanlikni oshirishga erishilgan.

22

5.3-mashq. Matn ajratib ko'rsatilgan so'zlarga jumladagi ma'nosidan kelib chiqib antonim bo'la oladigan so'z va iboralarni toping.

Mantiq vaqtি



Siz topishingiz kerak bo'lgan so'zlar o'zaro sinonim bo'lib, birinchisi – o'zbekcha (turkiy) so'z, ikkinchi esa fors-tojik tilidan o'zlashgan.

Negadir birovni maqtashda, olqishlashda birinchi so'zdan, qarg'ashda esa ikkinchi so'zdan foydalanamiz.

Darsimiz mavzusidan uzoqlashmagan holda har ikki so'zni ham toping.

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. Onangizga/otangizga maktub yozing.

Maktubingizda dil izhoringiz, minnatdorchililingiz, uzringiz, maqsadlaringiz va boshqalar bo'lishi mumkin.

Tavsiya etiladigan hajm: 160–200 ta so'z.

Maktubni konvertga solib onangizga/otangizga taqdim qiling.



JAMIYATNING BIR BO'LAGIMAN

6-dars

6.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Jamiyatda yashash kishiga qanday talablarni qo'yadi?
2. Jamiyatdan ayro yashashning nimasi yomon?
3. Robinzon Kruzoning kimsasiz oroldagi hayotida jamiyat ichida yashayotgan kishida bor nimalar yetishmagan deb o'ylaysiz?

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Hikikomori

1 Yaponiya hozirda eng ko'p hikikomori yoki qisqacha hikki deb ataluvchi shaxslar yashaydigan mamlakat sanaladi. Xo'sh, hikkilar kimlar?

Hikkilar o'z ixtiyorlari bilan jamiyatdan uzilgan, ijtimoiy aloqalardan deyarli uzoq yuradigan, o'qishni ham, ishni ham tashlab qo'ygan odamlardir.

Bugungi kunga kelib Yaponiyada 800 000 dan ortiq (Yaponiya Sog'lqnvi saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 1 millionga yaqin) hikki istiqomat qiladi. Ularning o'rtacha yoshi o'ttizni tashkil etadi.

2 Hikki umrini oddiy, deyarli bir xil ssenariyda o'tkazadi. U o'zining jonajon xonasida uxlaydi, kompyuter, telefon yoki televizor bilan "ishlaydi", maxsus anonim forumlarda suhbatlashadi, anime tomosha qiladi, komikslar o'qiydi, ijod qiladi yoki shunchaki yolg'izlik va jimjitlikdan rohatlanadi.

3 Hikikomoriga aylanib qolish sababi hammada ham bir xil emas: bunga kimdadir shaxsiy fe'l-atvor, kimdadir sotsiofobiya va yana kimdadir tushkunlik yoki autistik spektrning buzilishi sabab bo'ladi. Ijtimoiy hayotdagi muammolar, masalan, o'qish yoki ishdagi zo'ravonlik (bullying) fonida hikkilar sohiliga o'tib olganlar ham uchraydi. Bir narsani unutmaslik kerakki, shunchaki mana shu turmush tarzini yoqtirib, qulay hisoblab tanlaganlar ham talaygina: ular "Hech narsaga javobgarmasman, qaror qabul qilishim ham shart emas, axir qarindoshlarim va ishsizlik nafaqasini to'laydigan davlat menga g'amxo'rlik qilyapti-ku" degan qarash bilan yashaydilar.

4 Hikkilar uchun haqiqiy hayot tunda – hamma uxlagandan keyin boshlanadi. Xona sharoitida nimani xohlashsa, shuni amalga oshirib vaqt o'tkazishadi. Ular do'konlarga ham chiqib turishadi va bu jihatli bilan agorafovlardan farqlanishadi. "Eng yaxshi taklif" (asliyatda





"The Best Offer") filmidagi Klerni esladingizmi (albatta, filmni ko'rgan bo'lsangiz), o'sha qiz – agorafov, ya'ni ko'chaga chiqishdan, begona kishiga duch kelishdan qo'rqadi. Hikkilar esa qo'rqishmaydi, shunchaki xohishlari yo'q.

5 Yaponiyada hikikomori muammosiga yechim topish va uni hal qilishga davlat miqyosida e'tibor qaratiladi. Bu yerda jamiyatdan uzoqlashishga harakat qilayotgan odamlar uchun maxsus yordam markazlari tashkil etilgan.

Savol tug'iladi: bunday xonanishinlikning nimasi yomon? Nega "hikikomori muammosi" deyilyapti? Yordam markazlari tashkil etilishi nimasi?

6 Hammasi mana bunday boshlangan: yapon psixoterapevti Tamaki Saitoning huzuriga bir ota-onan xavotir bilan kelishadi va o'z xonasidan chiqmay yashayotgan farzandlari haqida gapirib berishadi... Bir necha yil shunday mijozlarni kuzatgan Saito 1998-yilda ular haqida "Hikikomori: abadiy o'smirlar" nomli kitobini yozadi. Ikki yil o'tib hikikomori fenomeni haqidagi xabarlar OAVda katta rezonans keltirib chiqaradi. Xabarlarda aytishicha, hikkilardan biri internet-forumda avtobus yo'lovchilariga pichoq bilan hujum qilishni rejalashtirgani haqida yozadi va buni amalga oshiradi; politsiya yana bir hikki 10 yil davomida bir qizni asirlikda saqlab kelayotgani, hozir u hibsga olingani haqida xabarni e'lon qiladi. Bunday xabarlardan so'ng minglab yapon xonanishinlari birdan hammaning diqqat markazida bo'lib qoldi.

7 Albatta, bu yapon fenomeni boshqa mamlakatlarda ham uchrab turadi, lekin aynan Yaponiyada keng ko'lamli hodisaga aylangan. Ehtimol, kunchiqar yurtda hikikomorining ildiz otishi ko'pchilikning o'smir yoshidagi farzandlarini to'liq ta'minlash uchun yetarlicha shart-sharoitga egaligi bilan bog'liqdir. Bu nazariya asossiz emas: daromadi pastroq bo'lgan oila vakillari orasida hikikomorilar juda kam uchraydi. Bundan tashqari, yapon mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari ham bu hodisaga eshik ochib beradi: Yaponiyada yoshlar kattalarga qattiq tayanadi: ota-onan qaramog'ini afzal ko'rgan 30 yoshli "o'smir"lar bu yurtda ko'p uchraydi.

8 Hikikomori hodisasi 1989-yilda Yaponiyada kasallik turi deb e'lon qilingan. Hikkilarni davolash uchun odatda ota-onalarning o'zlari harakat qilib ko'rishadi. Natija bo'lavermagach, psixolog yollashadi. Davolashning bu turi bo'yicha xizmat ko'rsatadigan nodavlat tashkilotlar ham talaygina. Afsuski, ko'p hollarda barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi. Samarali yakun topgan muolajalar tahlili diqqatni tortmay qo'ymaydi: hikkini jamiyatga qaytara olgan mutaxassislarning aksari sobiq hikkilar ekan.

Mansur Siddiqov

6.2-mashq. Savollarga javob bering.

1. O'zbekistonda ham hikkilar bor deb o'ylaysizmi?
2. Hikkilar hayot tarzining jamiyatga qanday xavfi bor deb o'ylaysiz?
3. Hikikomori atamasini o'zbekcha qanday nomlash mumkin?

6.3-mashq. Matnni tushunishda quyidagi so'z va birikmalardan qaysilari sizga xalal berdi? Ularning ma'nosini internetdagи izlash xizmatlari yordamida aniqlang.

ijtimoiy aloqalar

bir xil ssenariy

anonim forumlar

anime

komikslar

bulling

fenomen

sotsiofobiya

autistik spektrning buzilishi

agorafob

xonanishinlik

nodavlat tashkilotlar

yapon mentaliteti

kunchiqar yurt

USLUBIY XATOLAR

Birliklarni (qo'shimcha, so'z, iboralarni) qo'llashga doir me'yorlarning buzilishi oqibatida uslubiy xato kelib chiqadi. Uslubiy xatoning ko'rinishlariga misollar:

1. Choyxonada uchta do'stlarim bilan o'tirdik. (qo'shimchani keraksiz qo'llash)
2. Kitobni bitta varag'i yo'q ekan. (qo'shimchani yanglish qo'llash)
3. Ozg'ingina, **suluv** yigit ekan. (sinonimlarni yanglish qo'llash)
4. Qishloqqa – bobomni **yoqlashga** ketyapman. (paronimlarni yanglish qo'llash)
5. **Sen** haqingda **sendan** so'ray qolay degandim. (keraksiz takror)
6. U qaytmaydi: bu yerlardan butkul **oyoq uzatgan**. (iborani yanglish qo'llash)
7. U **nafaqat** kitdan, balki akuladan ham katta ekan. (mantiqiy xatolik)

6.4-mashq. Nazariy ma'lumotlarda keltirilgan 7 ta jumladagi uslubiy xatoni sinfdoshlar bilan to'g'rilang va daftarga ko'chiring.

25

6.5-mashq. Quyidagi gaplarni uslubiy xatoni bartaraf etgan holda ko'chiring.

1. Men va Sodiq teatrga bordim.
2. Har bir xabarlar nazoratdan o'tadi.
3. Menimcha, sen o'qishga aniq kirasan.
4. "Xamsa" – Navoiyning shox asari.
5. X asrga mos yodgorliklar bilan tanishdik.

6.6-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning paronimini aniqlang. Aniqlagan so'zingizga mos ma'noni toping. Diqqat! Ma'nolardan ikkitasi ortiqcha.

adabiyot va
yozuvchilikka oid

ko'chatni yerga
qadash

ruhiy horg'inlikni
ifodalash

tana va xulqning
o'ziga xosligi

mangu,
doimiy

tanadagi
dog'cha

sadoqatli,
vafo
qiluvchi

anglash,
tushunib
yetish

yaxshi,
ustun

ot anjomi



MUNCHOQ

Ayollar bo'yniga taqadigan munchoqni yaxshi bilasiz...

"Kitob at-tuhfa"da munchoq so'zi bonchuq shaklida beriladi va ayni shu shaklda munchoq so'zining tub ildizini ko'rish mumkin. Ya'ni bonchuq so'zi bo'yinchiq so'zining o'zgorganidir.

Tilimiz tabiatida b tovushi bilan m tovushining almashib turish hodisasi ko'p kuzatiladi. Masalan, buni so'zini goho muni deymiz. Murch so'zi aslida burch bo'lgan. Xuddi shu kabi tilimizda bo'yin so'zi mo'yin ham deyiladi. Bu hozirgacha ba'zi shevalarimizda bor. Yana bir narsaga e'tibor qilish kerak: hozirgi imlomizga ko'ra biz munchoq deb yozamiz, lekin ko'p hollarda bu so'z mo'nchoq deb talaffuz qilinadi va shu shaklda asliga yaqin bo'ladi.

Xullas, munchoq so'zi "mo'yinga – bo'yinga taqiladigan taqinchoq" ma'nosidan kelib chiqqan.

(*"Boboso'z izidan"*)

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. Ushbu rasmga diqqat bilan qarang. Rasm orqali muallif nima demoqchi ekanini tushunishga harakat qiling. Unda ochib berilgan illat haqida nutq so'zlashga tayyorlaning.


26

Nutqingiz quyidagi qismlardan iborat bo'lsin:

Kirish. Bu qismda qaysi illat haqida so'zlab bermoqchililingiz haqida ma'lumot bering, uni qisqacha tavsiflang. Nutjni noan'anaviy kirishdan ham boshlappingiz mumkin. Bunda mavzuni e'lon qilgunga qadar biror kichik voqeа yoki iqtibos keltirib o'tsangiz bo'ladi.

Asosiy qism. Bu qismda illatning qay ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, jamiyat inqirozidagi roli haqida gapirasiz; o'z fikrlaringizni bildirasiz.

Xulosa. Bu qism so'ngso'zlar va chorlovlар asosiga quriladi. Nutq so'ngida tinglovchilarga tashakkur bildirib qo'yish ham lozim.



7-dars

7.1-mashq. “Hikikomori” matni asosida quyidagi test savollarining to'g'ri javobini aniqlang.

1-test. Hikkilar kimlar?

A	yaqinlaridan yiroqda, yolg'iz yashaydigan kishilar
B	barcha ishi faqat kompyuter bilan bog'langan kishilar
C	uydan chiqishga qo'rqb qolgan kishilar
D	hayotini xonaga qamalib o'tkazadigan kishilar

2-test. Matnning 3- va 7-qismlari qanday umumiylikka ega?

A	Hikkilarga xos jihatlar tavsiflangan.
B	Hikikomori kasalligini davolash chora-tadbirlari yoritilgan.
C	O'smirlarning hikkiga aylanib qolishi sabablari keltirilgan.
D	Hikkilarning jamiyat uchun qanchalik xavfli ekani ochib berilgan.

3-test. Matn asosida berilgan hukmlardan qaysi biri to'g'ri?

A	Hikkilar umuman ko'chaga chiqishmaydi.
B	Hikkilar faqat tunda xonaga qamalib olishadi.
C	Hikkilar keyinchalik xavfli shaxsga aylanishi mumkin.
D	Hikkilarni davolashning hozircha imkonи yo'q.

Topshiriq. Turli jamiyatlarga xos odat va tartiblar bilan tanishib chiqing.



Yaponiyada yomg'irli kunlarda avtobus haydovchilari yo'lovchilarga qo'shimcha xizmat ko'rsatishadi. Yo'lovchi avtobusdan tushib yomg'irpo'shini ochgunicha ivib qolishi **hech gap emas**. Shu bois haydovchi hammadan oldin tushadi va yo'lovchilar o'z yomg'irpo'shlarini ochgunlariga qadar ularni yomg'irdan pana qilib turadi.



Gruziyada kelin-kuyovga Adliya vazirligi tashabbusi bilan nikoh guvohnomasiga qo'shib "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" asari ham **taqdim etiladi**. Shota Rustavelining ushbu asari yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, adolat, mardlik tuyg'ularini shakllantiradi deb ishonishadi.

28



Italiya kinoteatrlariga **xos** bir tartib bor: filmning yarmida yoki kulminatsiyasi oldidan namoyish to'xtatiladi va 5 daqiqalik tanaffus beriladi. Tanaffus chog'ida chiroqlar yoqiladi, ekranda esa tanaffusga ishora qiluvchi yozuv paydo bo'ladi.



Shvetsiyada qurilish ishlari borayotgan hududlarni o'rab turuvchi to'siqlarga ichkaridagi jarayonni **kuzatish** uchun oynavand darchalar o'rnatiladi. Darchalar ham kattalar, ham bolakaylar uchun mo'ljallangan bo'lib, turli balandliklarda joylashgan.

Meksikada yaqinlar o'rtasida laqab bilan chaqirish ko'p uchraydi. Ayrim odamlarning ismidan ko'ra laqabi ko'proq **qo'llanadi**. Laqablar asosan kishining bo'y-basti, soch ko'rinishi kabilarga qarab qo'yiladi.



Norvegiyada jamoat transportida katta yoshlilarga joy berishmaydi. Chunki buni keksalar hurmat ifodasi sifatida emas, jismoniy ustunlikni ko'z-ko'z qilish deb **qabul qilishadi**.

7.2-mashq. Yuqoridagi odat va tartiblarga munosabat bildiring. Ulardan qay birini bizning jamiyatga ham tatbiq qilish kerak deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang va og'zaki bayon eting. Gapirish chog'ida adabiy til me'yorlariga amal qiling.

7.3-mashq. Odat va tartiblar haqidagi matnlarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimlarini aniqlang. *Diqqat!* 6 ta so'z ortiqcha.

tushunmoq

nolimoq

ishlatilmoq

tarqalmoq

tomosha qilish

ta'qib qilish

aniq

mumkin

mos

tegishli

berilmoq

namoyish etmoq

29

SINONIMLAR USLUBIYATI

Sinonimlarning ma'nosi yaqin bo'lsa-da, ammo bir xil emas. Ular turli jihatlariga ko'ra farqlanadi:

1. Kambag'al – yo'qsil; bo'sh – latta. (*bo'yoqning kuchli-kuchsizligiga ko'ra*)
2. Jilmaymoq – tirjaymoq. (*bo'yoqning ijobiyligi-salbiyligiga ko'ra*)
3. Ruxsat – izn; bermoq – taqdim qilmoq. (*uslubiy xoslanishiga ko'ra*)
4. Osmon – gardun; dushman – yog'iy. (*davriy xoslanishiga ko'ra*)

Bundan tashqari, sinonimlar nutqda qanday ma'noda kela olishi, qaysi so'zlar bilan birika olishiga ko'ra ham farqlanadi. Osmon so'ziga samo, ko'k so'zlar ma'nodosh, biroq Bozorda narxlar osmon ekan jumlasida samo va ko'k so'zlarini qo'llab bo'lmaydi. Bu jumlada osmon so'zining ma'nodoshlari baland, qimmat hisoblanadi. Buncha osmon bo'lmasa bu bola gapida osmon – mag'rur sinonimligini ko'rishimiz mumkin. Bulardan xulosa qilishimiz mumkinki,

- 1) bir so'z turli ma'nolari bilan har xil so'zlarga sinonim bo'lishi mumkin;
- 2) so'zning sinonimi nutqda (jumla, matn ichida) oydinlashadi;
- 3) bir so'z ko'chma ma'noda boshqa turkumdag'i so'zga sinonim bo'lishi mumkin.

7.4-mashq. “Hikikomori” matnidan olingan quyidagi gaplarda ajratilgan so’zlar qavs ichidagi qaysi so’z bilan almasha oladi?

1. Hikki umrini oddiy, deyarli **bir xil** ssenariyda o’tkazadi. (zerikarli, ayni, oddiy)
2. Bir narsani unutmaslik kerakki, shunchaki mana shu turmush tarzini yoqtirib, qulay hisoblab tanlaganlar ham **talaygina...** (har qancha, qanchadir, bir qancha)
3. Hikkilar uchun **haqiqiy** hayot tunda – hamma uxlagandan keyin boshlanadi. (tabiiy, rosmana, odatiy)
4. Yaponiyada hikikomori muammosiga yechim topish va uni hal qilishga davlat **miqyosida** e’tibor qaratiladi. (darajasida, dasturida, homiyligida)
5. Albatta, bu yapon fenomeni boshqa mamlakatlarda ham **uchrab turadi...** (ko’p, mavjud, xos)
6. Hikkilarni davolash uchun odatda ota-onalarning o’zlari **harakat qilib** ko’rishadi. (hal qilib, urinib, boshlab)

7.5-mashq. Jamiyatimizga xos quyidagi odat va tartiblarga munosabat bildiring. Sinfda ularga “kerak” va “kerak emas” bahosini beruvchilar sonini aniqlang va natijalarini xattaxtaga yozing.

T/r	Jamiyatimizdagi odat va tartiblar	“Kerak” (dona)	“Kerak emas” (dona)
1.	saharda yangi kelinnning ko’cha supurishi		
2.	ota uyining kenja farzandga qolishi		
3.	sinfxonadagi old partalarda a’lochilar o’tirishi		
4.	chaqaloqni beshikka belash		
5.	tilanchilarga pul berish		

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. Rasm asosida tasviriyl matn tuzing va yozing.



Matn quyidagi qismlardan iborat bo’lsin:

Kirish. Bu qismda matnda qanday jarayon tasvirlangani haqida ma’lumot berasiz.

Asosiy qism. Bu qismda rasmdagi detallar mantiqiy izchillik bilan tasvirlab chiqiladi. Rasmda yo’q narsa haqida yozilmaydi.

Xulosa. Bu qism 1-2 ta gapdan iborat bo’lib, unda rasmdagi jarayon yoki rassomning mahorati haqidagi xulosangiz yoritiladi.

So’zlar soni 80 – 120 ta oralig’ida bo’lsin.

8-dars

Topshiriq. Behbudiying 1915-yilda “Oina” jurnalida chop etilgan maqolasini o’qib chiqing. Eskirgan so’zlar va qo’shimchalarga e’tibor qarating.

BIZNI KEMIRGUVCHE ILLATLAR

Bizni kemirguvchi illatlar deganda zaxm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoinki sil, silariya va maxavliknimi dersiz? Yo’q, andan ham yamonroq va andan ham **jonxarosh**, bevoya, xonavayron va g’arib etguvchi bir dard, biz – turkistoniyarlari shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg’acha istilo etib, butun tirikligimizg’ a sorilgon va bizni inqirozg’a va tahlikag’a va jahannamg’a yumalataturgon to’y, azo ismindagi ikki **qattol** dushmanni derman.

Ma’lum bir shaharda yahudiylar ba’zan o’luklarini oqshom eltid ko’marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo’lsa, o’luk va to’y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore’i a’zam, payg’ambari akram salollohi alayhi vasallam hazratlari o’lganni tez ko’mub va ko’mgandan so’ngra tez tarqalib, ishg’a ketmoqg’a va **o’lukxona** xalqini uch kundan ziyoda ta’ziya tutmasg’a, qaro kiymasg’a, kir, falokat bo’lmasg’a amr etarlar. Ey xalq! Ey musulmonlar! Biz na uchun Xudo va rasulni so’zig’a va o’zimizni naf’imizg’a amal qilmaymiz? Biz devonami? ...Besh-olti ma’raka va xudoyi, 8-10 jum’a oqshomi deb butun mahalla va qishloq xalqig’a palov berarmiz. Ba’zi bir bechora **sag’ir** va **mushtipar** ayollar merosdan va haqlaridan noqis olurlar. Ba’zi qarzxohlarni haqqi xudoyi va **xayrot**, noxudoyi va **sharrot** sababi ila kuyub ketar. Bechora o’lukni zimmasi qarzdan qutulolmay qolur. Xudo uchun aytингiz, bu xayrotmi, bu xudoyimi? Besh-olti kun so’ngra bu xudoyi va xayrotlar uchun varasani haqqi bo’lgan mol va yerlar sotulur. Berilgan dangga adres, azoyi va g’anilarni olgan yirtish va sadaqalari uchun berilur. Endi bechora varisa darbadar, ham otadan, ham vatandan ayrildi-ketdi. Bir o’rtahol, bir bechora faqir o’lar. Oning **g’ani** yaqini o’lukni egasi bo’lub, varisa molini «obro’y» etarman, deb isrof va barbod etar. Natijada bechora **varisa** darbadar. Ey, uying obod, obro’y qilg’uvchi! O’lgan ul, sanga nima? San, g’ani, o’z o’lukkingg’ a obro’ qilgoning bas emasmi?

Nikoh, xatna. Bu ikki balo shundog’ qattiq bir illatki, o’limguncha qutulub bo’lmaydurd. Shaharlarda o’rtahol, ya’ni o’turarg’a xona va bog’i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so’m sarf etar va o’g’ul xatnasi uchun hech bo’limganda ming so’m. Har bir **benavo** kishi bu mavridlarga 200 so’mdan 1000 so’mgacha sarf etar. Boy va zo’raki boylar esa besh ming, o’n minglab sarf etar. Oxiri nima bo’lur? Nima bo’lur deysiz? Ota-bobosidan qolgan mulk va vatanini o’z ixtiyori ilan zo’raki boyni o’zi o’lgandan so’ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabiyg’a sotib, to’y va ta’ziya qarzini berar. O’zi sotmaganda sudg’a sotilur. Mana, yuqoridagi sarlavhada «Bizni kemirguvchi illatlar» degan odatlarimiz, shu to’y va ta’ziya ismindagi devonaligimizdan iboratdur.

Bir do'konchi, bir gulkor, bir faqirhol, bir kosib uchun bu to'y va ta'ziyalar o'lumdan qatig'durki, muning uchun bechora har kun o'lur. Har kun o'lgon ila-da qutulmas. O'zidan so'ngra ahli ayolig'a bu yo'qsullik va bu musibatni meros qo'yar.

...Bizg'a lozimki, to'y va ta'ziyalarni kichik qilib va holimizcha harakatda bo'lub, kelar zamonamizni o'ylayluk. Valloh, xor-u zor-u **munqariz** bo'lmoq ertag'a oftobni chiqishidek muqarrardur.

...Din uchun, masjid va maktab uchun aqcha, **sarvat**, davlat, somon kerakdur. To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur.

Maqola qisqartirish bilan berilmoqda.

8.1-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Maqlada ko'tarilgan masala bugun ham ahamiyatlimali? Nima uchun?
2. Muallif keraksiz odatlarni deb isrof qilinayotgan mablag'ni nimalarga sarflash lozimligini aytadi?
3. Maqola yozilganiga bir asrdan ko'proq vaqt bo'libdi. Shu vaqt ichida muammo kichraydimi yoki yiriklashdimi? Javoblaringizni izohlang.

32

ESKIRGAN SO'ZLAR

Til ham vaqt ta'sirida o'zgaradi: unda ham eskirish va yangilanish jarayoni ro'y beradi. So'zlar asosan ikki sababga ko'ra eskiradi, ya'ni umumiste'moldan chiqib ketadi:

- 1) **bu so'zlar orqali nomlangan tushuncha yo'q bo'lib ketishi;**
- 2) **bu so'zlar o'rnila boshqa so'z(lar) faol qo'llanib, unga ehtiyojning yo'qolishi.**

Bugun *palaxmon*, *kanizak*, *jizya*, *hudaychi*, *jallod*, *qutidor* kabi so'zlar (tarixiy so'zlar) birinchi sababga ko'ra; *mujgon*, *dudoq*, *ilig*, *g'ani*, *sarvat*, *gardun* kabi so'zlar (arxaik so'zlar) esa ikkinchi sababga ko'ra umumiste'molda qo'llanmaydi. Ular o'rnila *kiprik*, *lab*, *qo'l*, *boy*, *boylik*, osmon so'zlari ishlatiladi.

Ko'hna (eskirgan) so'zlardan hozir ham ma'lum maqsadlarda foydalанилди. "Navoiy" (Oybek), "Yulduzli tunlar" (Pirimqul Qodirov) kabi qator tarixiy asarlarda davr ruhini berish uchun, ilmiy asarlarda esa xronologik mantiq talabi bilan ishlatiladi. Ayrim arxaik shakllardan esa she'riyatda foydalanib turiladi. *Mujgon*, *yog'iy*, *erur*, *ila*, *vale*, *-dur*, *-chun*, *-la*, *-mak* kabi birliklarni XXI asr she'riyatida ham uchratish mumkin.

8.2-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga mos ma'nolarni aniqlang.
Diqqat! Ikkita ma'no ortiqcha va ularga mos so'zlarni matndan toping.

boylik

boy, davlatmand

merosxo'r

bechora, sho'rlik

ojiz, zaif

o'lik chiqqan xonadon

yetim

jonne tirnalovchi

o'ldiruvchi, qotil

qarzdor

qashshoqlik

xor-zorlik

yomonlik

yaxshilik



USTOZ OTANGDAN ULUG'

Inson uchun tevarak-atrofda ota-onasidan ulug'roq kishi yo'q. Shu bois "Ustoz otangdan ulug'", "Mehmon otangdan ulug" kabi maqollar mantiqsizdek ko'rindi. Hatto bu maqollardagi -dan qo'shimchasini -dek/-day shakliga o'zgartirib ishlatuvchilar ham topiladi. Unutmaslik kerakki, maqollarda ta'sirchanlikni kuchaytirish maqsadida bo'rttirish unsuri qo'llanadi. "Otangni o'dirganga onangni ber" maqolida yomonlik qilganga ham yaxshilik qilish kerakligi shu usul vositasida yetkazilyapti. "Ustoz otangdan ulug" maqolida ham ustozning ulug'ligini ta'kidlash maqsadida bo'rttirish usuli ("u hatto otangdan ham ulug'roq") qo'llangan.

8.3-mashq. "Bizni kemirguvchi illatlar" matnidan olingan quyidagi gaplarning bir qismi ajratilgan bo'lib, siz shu qismni bugungi adabiy me'yorlar bo'yicha yozib chiqing.



Namuna. Biz bo'lса, о'luk va to'y uchun *haftalar*, hatto oylar ila ishdan qolurmiz. – ... haftalab, hatto oylab ishdan qolamiz.

1. Bizni kemirguvchi illatlar deganda *zaxm-u maraznimi guman etarsiz?*
2. Biz *na uchun Xudo va rasulni so'zig'a* va o'zimizni na'f'imizg'a amal qilmaymiz?
3. Har kun *o'lgонila-da* qutulmas.
4. Bizg'a lozimki, to'y va ta'ziyalarni kichik qilib va *holimizcha harakatda bo'lub*, kelar zamonamizni o'ylayluk.

33

8.4-mashq. Quyidagi rasmlar orqali jamiyatimizdagi qanday illatlar ko'rsatilgan? Har bir rasmga nom qo'ying. Nomlashda imkon qadar qisqalikka harakat qiling.






34

Mustaqil bajaraman.

Siz ko'rib turgan rasmda jirafa olma va shisha idish tasvirini ishlamoqda. Jirafaning ijod mahsuliga qarab atrofimizdag'i qanday odamlar nishonga olingani haqida fikr yuriting.

Topshiriq. Jamiyatimizdag'i "jirafalar" kimlar va ular nimasi bilan xavfli ekani haqida so'zlab bering. Og'zaki matningiz bir daqiqadan oshmasligiga erishing. Uyda audiomatn tayyorlang.



9-dars

9.1-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Ismingiz qanday ma'noni bildiradi?
2. Ismingizni kim qo'ygan? Sizga nega shunday ism qo'yishgan?
3. Ismingiz o'zingizga yoqadimi? Uni o'zgartirish haqida o'ylab ko'rganmisiz?

9.2-mashq. Jadvaldagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. Undan ism qo'yish bilan bog'liq odatlar o'rinni olsin.

ISMLAR	ODATLAR (niyat, vaziyat, irim)
Muqaddam	Oiladagi to'ng'ich farzandga qo'yilgan.
Soniya	Oiladagi ikkinchi farzandga qo'yilgan.
Robiya, Chori	Oiladagi to'rtinchi farzandga qo'yilgan.
Panji	Oiladagi beshinchi farzandga qo'yilgan.
Oltmishboy, Yetmishboy, Saksonboy, To'qsonboy	Otasi keksayganda tug'ilgan farzandlarga qo'yilgan.
Teshavoy, Boltavoy, O'rzbek, Qilichbek	Hovlida tug'ilgan chaqaloqning kindigi pichoqdan boshqa tig'li vosita bilan kesilganda qo'yilgan.
Jumavoy, Jumagul, Odina	Juma kuni tug'ilgan chaqaloqqa qo'yilgan.
Navro'z(a), Murod	Navro'zda tug'ilgan chaqaloqqa qo'yilgan.
Yodgor	Otasi yoki onasi vafot etgan chaqaloqqa qo'yilgan.
O'g'iloy, Basanda, Ul-bo'lsin	Oilada ketma-ket qiz farzandlar tug'ilaversa, keyingisi o'g'il bo'lishini niyat qilib qo'yilgan.
Yashar, Turdi, Tursun, O'lmas, Qo'sintosh	Chaqaloqlar nobud bo'laversa, keyingisi yashab ketishini niyat qilib qo'yilgan.
Xolbek, Xolbibi, Tojimurod, Tojixon, Norqobil, Anora	Oddiy yoki qizil xol (nor) bilan tug'ilgan chaqaloqqa qo'yilgan.

Ortiq, Nishon, Qo'shoq	Biror a'zosi juft yoki ortiqcha tug'ilgan chaqaloqqa qo'yilgan.
O'rol	Bola kindigiga o'ralib tug'ilganda qo'yilgan.
Bo'rivoy, Bo'rigul	Bola tishi ko'ringan holda tug'ilganda qo'yilgan.
Ochil	Bola tug'ilganda eshitmayotgani yoki ko'rmayotgani aniqlansa qo'yilgan.
Safar, Muharram	Qamariy oylar – safar va muharram oylarida tug'ilgan farzandlarga qo'yilgan.
Hasan, Husan; Fotima, Zuhra; Hasan, Zuhra; Fotima, Husan	Egizak farzandlarga qo'yilgan.
Tohir, Zulayho	Egizaklardan keyin tug'ilgan farzandlarga qo'yilgan.

9.3-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Vaziyatga qarab qo'yiladigan yana qanday ismlarni bilasiz?
2. Siz "vaziyat talab qiladigan" ismlarga qanday qaraysiz?
3. Siz tanigan-bilganlar orasida kamyob ismli kishilar bormi? Misol keltiring.

36

BOSH HARFLAR IMLOSI

Tilimizga bosh harf degan tushuncha XX asr 1-yarmida kirib kelgan. Arab alifbosini asosidagi eski o'zbek yozuvida bosh harf, kichik harf degan shakl yo'q edi.

Amaldagi qoidalarga ko'ra, quyidagi so'zlar bosh harf bilan yoziladi:

1. **Kishi nomlari:** Aziza, Olimov, Nosir qizi, Beruniy kabi.
2. **Joy nomlari:** Yaqin Sharq, Janubiy Koreya, Andijon kabi.
3. **Osmon jismalari nomlari:** Quyosh, Oy, Mars, Hulkar, Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi) kabi.
4. **Qo'shtirnoq ichida yoziladigan nomlar:** "Xalqlar do'stligi" (san'at saroyi), "Biz" (o'quv markazi), "Jajji akademik" (jurnal), "Paxtakor" (stadion), "O'zbekiston xalq artisti" (unvon), "Qo'rhma" (roman), "Ermak" (pista) kabi.
5. **Bayram nomlari:** Mustaqillik kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi.
6. **Gaplarning birinchi so'zi:** Bir kuni Afandi ovga chiqibdi kabi.
7. **She'rning har bir satridagi birinchi so'z:**
Sen qaydan bilasan, balki, meni ham,
Kimdir qaydadir jim o'layotgandir. (Abdulla Oripov)
8. **Birinchi harflardan iborat qisqartmalar:** BMT, DTM, AES kabi.

9.4-mashq. Nuqtalar o'rniqa qavs ichidagi so'zlarning mos shaklini qo'yib ko'chiring.

1. Bulutlar orasidan ... ko'rindi. Yer ... atrofida aylanadi. (Quyosh, quyosh)
2. Bizning ...da uy-joy biroz qimmat. Men O'zbekiston ... fuqarosiman. (Respublika, respublika)
3. Menga ... adabiyoti juda yoqadi. Uch chaqirimdan so'ng yana ... tomonga qarab yurdik. (Sharq, sharq)
4. Yaqinda "...lik" filmini tomosha qildim. Asarim Yerga bir ...lik adashib qo'nishidan boshlanadi. (Mars, mars)

9.5-mashq. Matnlar bilan tanishing. Inkor shaklini hosil qiluvchi vositalarga ahamiyat bering. Ular o'rtasidagi farqni tushuntiring.

1-matn

Mening ismim – Tuflibek. Hozirgacha ismimdan uyalaman. Aslida, tagli-tubli bo'lzin deb Tubli ismini qo'yishgan ekan, lekin hujjatga Tuqli bo'lib tushibdi. Ismimni o'zgartirmay qo'ymayman. Temur yoki Tolib ismini tanlasam kerak.

2-matn

Mening ismim – Tog'ay. Marhum amakimning ismini menga qo'yishgan. Bu ism bilan oldin tog'asinikida tug'ilganlarni nomlashgan ekan. Tanadagi tog'aylarga aloqasi bor-yo'qligini bilmayman. Tog'ay Murodga hurmatim sababli ismimni o'zgartirmoqchi emasman.

9.6-mashq. Ismni o'zgartirish haqidagi ma'lumot bilan tanishib chiqing. Ismingizni o'zgartirish fikri tug'ilganda qaysi ismni tanlagan bo'lar edingiz? Nega?

16 yoshga to'lgan fuqaro o'z ismini (familiyasini, ota ismini) o'zgartirish uchun yashab turgan joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limiga (FHDYga) ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Ariza bilan pasport yoki ID-karta (shaxsiy guvohnoma)

nusxasi, tug'ilganlik haqidagi guvohnomasini, 3x4 o'lchamli suratini ham taqdim qiladi. Ushbu hujjatlarni FHDY bo'limi mudiri tasdiqlagach, hududiy ichki ishlar bo'limiga tekshiruvga jo'natiladi. Ichki ishlar bo'limi qarshi emasligini bildiruvchi xulosani taqdim etgach, fuqaroga FHDY tomonidan yangi guvohnoma, avvalgi ism-familiyasi o'zgartirilgani to'g'risida ma'lumotnomasi beriladi.



Agar fuqaro o'z ismidan -bek, -jon, -xon, -bonu, -bibi, abdu-qo'shimchalarini, familiyasidan -ov(a), -ev(a), -yev(a) qo'shimchalarini, ota ismidan -yevich, -ovich, -yevna, -ovna, -iy, -zoda qo'shimchalarini yoki qizi, o'g'li so'zlarini olib tashlashni istasa, bu holat shaxsning yoshidan qat'i nazar, dalolatnoma yozuviga qo'shimcha kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu unsurlarni qo'shish uchun ham tartib – shu. Xizmatlar uchun belgilangan tartibda to'lovlar undiriladi.



9.7-mashq. So'nggi yillarda yurtimizda chaqaloqlarga qaysi ismlar eng ko'p qo'yilmoqda? Quyidagi jadval Davlat xizmatlari agentligi bergan ma'lumotlar asosida tayyorlangan. Ushbu ma'lumotlar asosida aksar yurdoshlarimiz ism qo'yishda ni-maga urg'u berishayotgani haqidada xulosa chiqaring. Sizningcha, 2-, 3-o'rinnarni qaysi ismlar band qilgan?

38

YIL	ISM	
	o'g'il bola	qiz bola
2017	Azizbek	Madina
2018	Mustafo	Soliha
2019	Muhammadali	Soliha
2020	Muhammadali	Soliha
2021	Muhammadali	Soliha
2022 (1-yarmi)	Muhammadali	Soliha

Mantiq vaqtı

So'nggi yillarda ommalashgan bu ism – qizlar ismi. 6 harfdan iborat. Agar 1-harfini olib tashlasak, qizlarga qo'yiladigan boshqa ism hosil bo'ladi. Qolgan 5 ta harfdan oxirgisini olib tashlasak, o'tmishdagi lavozimlardan birining nomi paydo bo'ladi. Qolgan 4 ta harfdan birinchisini olib tashlasak, ayrim erkak ismlarining boshlanmasi kelib chiqadi. Qolgan 3 harfdan oxirgisi olib tashlab, notalardan birini hosil qilamiz. Ushbu 6 harfli ismni toping.

Mustaqil bajaraman

1-topshiriq. Jadvaldagı xorij ismlari o'zbek tilida qanday shaklda qo'llanishini aniqlang.

Isaak	
Avraam	
Maykl	
Gabriel	
Iakov	
Jesus	
Iosif	
Solomon	

39

2-topshiriq. Jadvalda berilgan ismlarning qaysi shakli to'g'ri? Topshiriqni bajarishda ismlar haqidagi kitoblardan foydalaning.

Shohruh	Shoxruh	Shohrux	Shoxrux
Aslbek		Asilbek	
Bekzod			Bekzot
Hasanxo'ja	Xasanxo'ja	Hasanho'ja	Xasanho'ja
Abdisalom			Abdusalom
Mayram			Maryam
Isxoq	Ishoq		Is'hoq

10-dars

Topshiriq. Xurshid Davron tahriri ostida berilayotgan she'rnı o'qing.

PRUSSIYALIK ONALAR ALLASI

Qadimiy Prussiya.
Ona alla aytmoqda:
«Vatanga yov bostirib kirdi.
Ikki qo'shin bir-birin qirdi.
Nogahon halok bo'ldi prusslar sarkardasi,
Oqibatda parokanda bo'ldi Pruss lashkari,
Yovga mag'lub bo'lib qochdi janggohdan.
Shahar zabit etildi.
Tahqirlandi bola-yu qari...
Nega bunday bo'ldi?
Sababini topaylik:
Nega shahar dushman qo'liga o'tdi?
Chunki qo'shin yengildi...
Qo'shin nega yengildi?
Chunki sarkarda halok bo'ldi...
Sarkarda qanday halok bo'ldi?
Otdan yiqilib o'ldi...
Otdan nega yiqiladi?!
Chunki otning taqasini qoqayotganda
Taqachiga bir dona mix yetmay qolgandi...
Bir dona mix deb butun bir xalq qu
bo'ldi...»

(kh-davron.uz saytidan olindi)



10.1-mashq. "Prussiyalik onalar allasi" she'rida xalqning mag'lubiyatiga nima sabab bo'lgani ayttilmoqda: temirchi(taqachi)ning mas'uliyatsizligimi yoki jamiyatda temirchilarga yetarli e'tibor berilmaganimi? Javobingizni she'rning tegishli satrlari bilan asoslang.

10.2-mashq. Quyida berilgan jumlalardan birini tanlang va davom ettiring. Hayotda har bir kasbning o'z o'rni borligini mantiqan asoslang, misollar keltiring.

Hayotda farroshlarning muhim o'rni bor...

Uy bekalarining xizmatlarini ham yuqori baholashimiz kerak...

Sartaroshlar xizmatisiz hayotni tasavvur qilish qiyin...

Tarjimonlar hamisha kerak bo'lgan...

Obodonlashtirish xodimlari mehnatini qadrlashimiz lozim...

OLMOSHLARNING QO'LLANISHI

Olmoshlar nutqimiz ravon bo'lishida, muallifning ijobiy yoki salbiy munosabatini yaqqolroq ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi misollarga e'tibor qarating:

1. Shoir chekinmadı, **u** chekinishi mumkin emas edi. (ortiqcha takrorning oldini olish)
2. Sizda ham ayb bor – **O'zlarida** ham ayb bor. (kesatish)
3. Men ham qarab turmayman – **Biz** ham qarab turmaymiz. (kamtarlik)
4. Yana **anavining** gapiga kirdingmi? (hurmatsizlik, mensimaslik)
5. Aka, **siz** ham biroz dam oling. (hurmat)
6. Sizlarga aytilgan edi – **Senlarga** aytilgan edi. (hurmatsizlik)
7. Qorbolani o'zim yasadim – Qorbolani **men o'zim** yasadim. (ta'kid)

41



KIMSAN

Yaqin o'tmishda ham bolaga nima ism qo'yishga ikkilanilgan paytda uni Kimsan deb atashgan. Va bu odad uzoq o'tmishdan meros sifatida ko'rildi. Rostdan ham shundaymikin? Bobolarimiz ism topishga qiynalib bolani "Sen kimsan o'zi?" ma'nosidagi so'z bilan atab yuborishaverганми?

Eshqobil Shukur o'zining "Boboso'z izidan" kitobida Kimsan ismining izidan tushadi va quyidagilarni yozadi:

"So'rab-so'rab Makkani topishibdi deganlariday, Kimsanning kimligini "Navoiy asarlari lug'ati"dan aniqladik. Unda izohlanishicha, *kimsan* (*kimson*) – oltinga o'xshash sariq yaltiroq modda (bronza), uni maydalab narsalarga oltin tusli bo'yoq berish uchun ishlatalishgan ekan.

*Ki, kimsandin oltunni farq aylagay,
Qizil tobadin kunni farq aylagay. (Navoiy)*

Demak, "Kimsanboy" shunchaki "kimsan" emas, u – oltin bo'lmaganda ham, otinga o'xshash sariq yaltiroq modda".

10.3-mashq. "Sizmi yo sen?" matni bilan tanishib chiqing. Ajratib ko'rsatilgan olmoshlar qanday maqsadda qo'llangani haqida fikr yuriting.

SIZMI YO SEN?

Bizning boshqa ko'p ellardan bir farqimiz shuki, sizlab gaplashamiz. Boshqalar umrida endi ko'rib turgan, buning ustiga yoshi katta odamga ham sensirab muomala qilsa, biz o'zimizdan kichiklarga, hatto notanish yosh bolaga ham siz deb gapiramiz. Qonimizga singgan-da. Ayrim viloyat odamlari hatto o'z bolalarini ham sizlaydi: "O'g'lim, siz shu ishni peshingacha bitirib qo'ying", – deydi, qizini-ku, qo'yavering – "Ona qizim", "Poshsha qizim" deb boshiga ko'taradi. Negaki bir xirmon bug'doyning barakasi bitta donda bo'ladi, shuning uchun **hech bir** donni uvol qilmaslik kerak degan udumimiz bor.

"**Sen** boshla" deyish o'rninga "**o'zlaridan** bo'lsin", "**anavi** aytdi" emas, "**u** kishi aytdilar" kabi. Bir-birimizni ulug'laymiz, izzat qilib boshga ko'taramiz. Tanishlarga ehtirom-ku, o'z-o'zidan, ammo notanish bo'lsa, hurmat izhori yana ortadi. Bir-birimiz bilan ko'rishib qolsak, qo'l ko'ksimizda, bosh egib, ta'zim bajo etamiz. Qo'shqo'llab so'rashib, kaftimizni yuzga sartamiz – bu, **ba'zilar** o'ylaganday, duysi fotiha emas, tavofning erkaklarga xos shakli. Umuman, **har bir** kishiga inson deb qarash, uning odamligini ulug'lash o'zbekka ayricha ravishda xos. Bir qarashda "mayda" bo'lib tuyilgan ana shunday xususiyatlar majmui o'zbek xalqining mentalitetini hosil qiladi.

Oddiy bir misol. Metroga tushsangiz, har bir vagon eshigiga "Iltimos, suyanmangiz" degan muloyim kalom bitilganini ko'rasiz. Ostidagi "Ne prislyonyatsya" degan taqiq esa taqillab ko'zga uriladi. **Shuginaning o'zi** ikki xil dunyoqarash, ikki xil mentalitet fargini ayon ko'rsatib turibdi.

...Sochi bo'yniga chulg'angan bir qizgina (keyin ma'lum bo'ldiki, yigit ekan) noz uyquda. Soat qo'ng'irog'i chalinadi. U apil-tapil o'rnidan turib, yuzini ham yuvmay ko'chaga otiladida, **allaqaysi** muyilishga borib, soatiga qarab **birovni** kuta boshlaydi. Bir mahal **nima uchundir** velosipedini minish o'rninga orqalab olgan yana birovi shu yerga kelib qoladi. – **Hamma** qayerda? – deb so'raydi chilvirsoch yigit (Na salom-u na alik!). – "F1"da! – deydi

unisi va allanima esiga tushganday, velosiped hamon yelkasida, chopqillab orqasiga qaytadi. Tavba, u nima dedi-yu bunisi nima deb javob qaytardi, tushungan kishi bo'lsa, aytisin. O'zbek tilida **birov** boshqa odamdan "falonchi qani" yo "boshqalar qayerda" deb so'rashi mumkin, ammo "hamma qayerda" deyish mumkin emas, o'zbek bunaqa deb gapirmaydi.

Ori rost, xalqqa sen deb muomala qilish o'zbeklarda mutlaqo yo'q emas. H. Olimjonning "Qo'lingga qurol ol!", E. Vohidovning "Erkin o'g'lingman, qabul et, O'zbegim, jon o'zbegim!", A. Oripovning "Ona xalqim, sen o'zing buyuk..." kabi misralari bunga misol. Lekin bu holatda butun xalqqa yalpi murojaat bor.

Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, yomon gap bilan qilich qinidan, degan maqolimiz bor. Yana aytadilarki, siz ham bir og'izdan chiqadi, sen ham. Bu – otalar so'zi. Ular o'zbek



xalqining tiynati qandayligini ko'rsatadi. O'zbekning ruhiyatini teran bilgan G'afur G'ulom ham shuni ko'zda tutib, o'z she'rida "Bir og'iz shirin so'z – nondek arzanda" deb yozgan edi. Shunday ekan, mayli, bug'doy noningiz **o'zingizga** siylov, ammo bug'doy so'zingizni darig' tutmang...

(Zuhriddin Isomiddinov)

10.4-mashq. Quyidagi gaplarda *birov so'zi* qanday vazifalarda kelyapti? Uni qaysi so'z bilan alishtirish mumkin?

1. O'sha kungi voqeani birov bilmisin.
2. Qolaver biz bilan: birov seni haydayaptimi?
3. Biz tirikmiz-ku, bo'tam, birovlardan qarz olishing nimasi?!
4. "Birovlarga atirimizning hidi yoqmas emish", – dedi Obidov xotiniga shama qilib.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. "Mening hayotdagи vazifam" mavzusida esse yozing.

Esseda kirish, asosiy qism va xulosa bo'lishi, mavzu doirasidagi fikrlar misollar bilan quvvatlanishi kerak. So'zlar soni 120–140 oralig'ida bo'lishiga erishing. Kelajak haqidagi tasavvurlaringizni aniqroq ifodalang.



HUQUQDAN BURCHGACHA

11-dars

Topshoriq. Matnni o'qing.

Qadimda bir podshoh katta hovuz qurdiribdi. Xalqni jamlab, e'lon beribdi:

- Men bu hovuzning sut bilan to'ldirilishini xohlayman. Hamma kechasi bir kosadan sut olib kelib hovuzga quysin. Ertalab hovuz bo'yida yig'ilamiz. Dunyoga dong'i ketgan hovuz bo'lsin!

Hamma uy-uyiga tarqalibdi. Voqeamiz qahramoni ham uyga qaytibdi. U yarim tunda bir kosa sutni olib uydan chiqibdi. Bir-ikki qadam tashlagach, xayoliga shunday fikr kelibdi: "Hozir yarim tun. Hech kim ko'rmayapti. Keyin hamma sut quyganda, men bir kosa suv quysam, bilinmay ketadi. Qaytaga bir kosa sut yonimga qoladi". Uyga qaytib, sut o'rniغا bir kosa suvni olib, hovuzga quyib kelibdi.

Tong otibdi. Podshoh, amaldorlar va butun xalq sut bilan to'ldirilgan hovuzni tomosha qilgani yetib kelishibdi. Ming hayajon bilan ko'rsalarki, hovuz to'la suv ekan...

Hamma bizning qahramonimiz kabi "Men suv quysam, qolganlarniki bilan bilinmay ketadi. Sut quyganim bilan biror narsa o'zgarib qolarmidi? - deb o'ylab, suv quyib ketishgan ekan.

O'sha qahramon kimligini bilasizmi?

Siz va men!

Siz-u bizning o'zgarishimiz butun jamiyatni o'zgartiradi. Odam yukini boshqalarga tashlayvermasdan, mas'uliyatni zimmasiga olib, butun insoniyatga foyda keltirishni maqsad qilib yashay boshlashi kerak. Afsuski, biz ko'pincha huquqmizni talab qilamiz-u, majburiyatlarimizni unutib qo'yamiz. Aslida, bizning huquq va majburiyatlarimiz qaysi nuqtada birlashadi? (Internetdan)



11.1-mashq. Matnga mos sarlavha o'ylab toping.

ATAMALAR

Atama (termin, istiloh) – fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z. Atamaning qo'llanishi chegaralanganligi boshqa soha kishisi uchun tushunarsiz degani emas. Masalan, *to'g'ri chiziq, gap, so'z turkumi, tezlik atamasi* ko'pchilik uchun tushunarli. Atama ko'pincha umumiste'mol so'zidan ma'lum bir ma'noning maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, *fotija, ega, ot, qo'shish, ayirish so'zlari* - umumiste'mol so'z, lekin ular fanga atama bo'lib o'tgan.

Atamalarning ikki xili farqlanadi:

- a) *ilmiy atamalar;*
- b) *kasb-hunarga oid atamalar.*

Ilmiy atamalar ma'um bir fan-texnika, san'at, madaniyatga tegishli bo'lsa, kasb-hunarga oid atamalar esa turli kasb-hunar egasi nutqida qo'llanuvchi so'zlardir.

11.2-mashq. Yuqorida berilgan matndan huquqshunoslik sohasiga oid atamalarni ajratib yozing.

11.3-mashq. Testlarning javobini toping.

1. 1887-yilning 7-yanvarida 300 nafar eng taniqli adiblar, shoir, musavvir, bastakorlar birlashib, me'mor Gustav Eyfel yangicha uslubda barpo ettirayotgan minoraning qurilishiga qarshi shahar munitsipalitetiga protest yo'llaganlar. Ular orasida kichik Aleksandr Dyuma, Sharl Guno, Gi de Mopassan va boshqalar bo'lgan.


Berilgan matndagi protest so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A	Tashakkurnoma.
B	Norozilik bayonoti.
C	Ayblov xati.
D	Madhiya.

2. Quyida berilgan fikr yuzasidan o'z mulohazangizni yozma bayon qiling.

Aslida bizning huquq va majburiyatlarimiz qaysi nuqtada birlashadi?

11.4-mashq. Rasmni diqqat bilan tomosha qilib, unga mos sarlavha toping. O'z munosabatingizni yozma ifodalang va uni tengdoshlaringizga asoslab berishga harakat qiling.



46



(Fahriddin 77)

NAFSI HAKALAK OTMOQ



Bu ibora tilda ko'p qo'llanadi. Ibora tarkibidagi **hakalak** so'zi o'zbek tilida *bir oyog'i yo'q* va bolalar o'yini ma'nosida ishlatiladi. Yerga chizilgan kataklar bo'ylab bir oyoqlab sakrab o'ynayotgan qizaloqlarni ko'rgan bo'lsangiz kerak. Ular o'ynayotgan o'yining nomi – hakalak.

Hakalak otmoq iborasi bir oyoqlab irg'ib-irg'ib yurishni bildiradi.

Nafsi hakalak otmoq iborasi esa ikki xil ma'noga ega:

1. Ishtahasi juda ochilib, yeyish, ichishdan o'zini to'xtatolmaslik.
2. O'ziniki qilish, o'zlashtirishda ishtahasi karnay bo'lmoq. (Daryo.uz)

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Faraz qiling: siz huquqshunossiz. Fuqarolardan tushgan quyidagi murojaatlarga internet yordamida javob tayyorlang.



1. Milliy valyuta – so'mga putur yetkazmaslik, uni asrab-avaylash, unga nisbatan ehtiyyotkor munosabatda bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?



2. Men chet el fuqarosiman, O'zbekistonga faqat ishslash uchun ko'chib keldim. Ayting-chi, menga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qoidalari tatbiq etiladimi?



3. Savdo do'konlarida qaytim sifatida xaridorlarga gugurt, konfet, saqich va boshqa mayda mahsulotlarni berish mumkinmi?

12-dars

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing va o'z fikringizni ravon ifodalab bering.

Mualliflik huquqi – keng ma'noda – fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, foydalanish va qonuniy himoya qilishda vujudga keladigan munosabatlarni **tartib**ga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi; fuqarolik huquqining bir bo'limi. Tor ma'noda – asar muallifiga tegishli bo'lgan va qonunlarda mustahkamlanib qo'yilgan shaxsiy va mulkiy huquqlar tizimini tashkil etadi.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish **fan**, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalash usuli (qo'lyozma, tasvir, audio, video yozuv, haykal va h. k.)dan qat'i nazar, **tatbiq** etiladi. Barcha turdag'i kompyuterlar uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari ham mualliflik huquqi **obyehti** hisoblanadi.

Muallif o'z asariga nisbatan quyidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega: muallif sifatida e'tirof etilish huquqi; asarni o'z ismi, taxallusi yoki anonim tarzda e'lon qilish huquqi; asar **daxlsizligiga** bo'lgan huquq; asardan har qanday shaklda va usulda foydalanish huquqi; asarni e'lon qilish huquqi; asardan foydalanilganlik uchun haq olish huquqi; asarni tasarruf qilish huquqi.

48

Asardan muallif yoki uning merosxo'ri bilan mualliflik shartnomasi tuzish orqaligina foydalanish mumkin. Chop etilgan begona asardan muallifning roziligidiziz va mualliflik **haqini** to'lamagan holda shaxsiy **maqsadlarda** foydalanishga, basharti bunda asardan foydalanishga ziyon yetmaydigan va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetmaydigan bo'lsa, yo'l qo'yiladi. Asardan muallifning ism-sharifini va olingan manbani ko'rsatgan holda ilmiy **tadqiqotlarda**, ta'lim va o'quv nashrlarida, axborot maqsadlarida **iqtibos** olishga ruxsat beriladi.

Mualliflik huquqi asar yaratilgan paytdan boshlab muallifning butun hayoti davomida va vafotidan keyin 50 yil davomida amal qiladi. **Muallif** vafotidan keyingi mualliflik huquqi uning merosxo'rlariga tegishli bo'ladi va meros bo'yicha bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tadi. Amal qilish muddati tugaganidan keyin asar **ijtimoiy** boylikka aylanadi, ya'ni har qanday shaxs mualliflik haqini to'lamagan holda erkin foydalanishi mumkin bo'ladi.

(Qomus.info)



12.1-mashq. Savollarga og'zaki javob bering.

1. Mualliflik huquqi deganda nimani tushundingiz?
2. Nima uchun mualliflik huquqining buzilishi dolzarb masalaga aylandi?
3. Sizningcha, mualliflik huquqini kimlar buzadi? Buning asosiy sababi nima deb o'ylaysiz?

12.2-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qiling. Ularning yozilishi va talaffuzidagi farqni izohlang.

UNDOSH TOVUSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Tilda so'zlar va qo'shimchalar ma'lum qoidalar asosida yoziladi. Bu qoidalar yig'in-disi imlo (orfografiya) deb yuritiladi. Undosh tovush talaffuzi esa adabiy tilda undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalari (orfoepik me'yorlar) sanaladi. Undosh tovush orfoepiyasi ko'proq fonetik hodisaga bog'liq bo'ladi.

1) **b**, **d** jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz **p**, **t** tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor: *kitob* > *kitop*, *borib* > *borip*, *yozib* > *yozip*, *savod* > *savot*, *obod* > *obot* kabi;

2) **b**, **d** undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda **p**, **t** holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yorini hisoblanadi: *ibtidoiy* > *iptidoiy*, *badqovo-q>batqovoq*, *ketdi* > *ketti*;

3) *qibla*, *tobla* kabi so'zlarda ba'zan **v** aytilda ham, **b** harfi yoziladi;

4) **j**, **z** undoshining jarangsiz undoshlar ta'sirida **sh**, **s** deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yordir: *ijtimoiy* > *ishtimoiy*, *iztirob* > *istirob* kabi;

5) **n** undoshi *shanba*, *yonbosh*, *jonbozlik*; *yonma-yon* kabi so'zlarda **m** aytilda-da, lekin **n** yoziladi;

6) **q** undoshi *maqsad*, *taqsimot*, *to'qson*, *iqtisod* kabi so'zlarda **x** kabi talaffuz qilin-sa-da, lekin **q** yoziladi;

7) **v** undoshi chetdan kirgan avtobus, avtomat, *Petrov so'zida f* kabi aytilda-da, lekin **v** yoziladi;

8) **f** undoshi fakt, asfalt, futbol kabi so'zda **p** kabi aytilda-da, lekin, **f** yoziladi.

49

12.3-mashq. Testlarni yeching va izohlang.

1. Texnik rivojlanish ma'lumotlarni ko'paytirish va tarqatish jarayonini o'ta oson va arzon ishga aylantirib qo'ydi.

Ushbu gapda talaffuzi va imlosi farq qiluvchi undosh qatnashgan so'zlar mavjud.

T

N

3. Erta tongda toqqa chiqamiz.
Ushbu gapda imloviy xatolik kuzatiladi.

T

N

2. Asardan muallifning ism-sharfini va olingan manbani ko'rsatgan holda, ilmiy tadqiqotlarda, ta'lim va o'quv nashrlarida, axborot maqsadlarida iqtibos olishga ro'xsat beriladi.

Ushbu gapda talffuzi va imlosi farq qiluvchi undoshlar qatnashgan so'zlarni topib yozing



Sapcha haqida gapcha



So'zlashuvda va badiiy uslubda "Boshingni sapchadek uzib tashlayman" degan tahdidli gap ishlatib turiladi. Sapcha aslida pishib yetilmagan kichkina qovun degani. Oldin tilimizda faol ishlatilgan.

Juda ko'p tushunchalar, narsalarning otini unutdik, ishlatmay qo'yidik. Bitta-yarim yoshi ulug' kishining yoki tili boy odamning gapida uchraydigan bunaqa topildiq so'zlarni qulog'imiz yotsirab qabul qiladigan bo'lib qoldi. Izohli lug'atda keltirilgan misollarga e'tibor bersangiz, sapcha so'zi XX asr o'rtalarida va undan keyin ham jonli tilda qo'llanganiga ishonch hosil qilasiz:

– Qovun tushiradiganlarga yordamlashaman, sapcha berishadi, – dedi Otaboy. (G.G'ulom, "Shum bola")

"Boshni sapchadek uzib tashlamoq" iborasida nega aynan sapcha so'zi ishlatilgan? Qovunning moyasi bodring moyasiga o'xshash. Har ikki ekinning mevasi oson uziladi. Ters qayirsangiz, "tirs" etib uzilib ketadi. Nega qovun emas, sapchaga o'xshatilgan? Bunga sapcha kichikroq bo'lgani, bosh hajmiga to'g'ri kelishi sabab. Bunda tahdid qilinayotgan kishini yerga urish, boshini pishmagan qovunga o'xshatish orqali aql-idrokida nuqson borligiga ishora qilish ham bo'lishi mumkin. ([Daryo.uz](#))

12.4-mashq. Rasmlardagi mualliflar va ularning asarlarini moslashtiring. Bu kitoblardan qaysi birini sevib o'qigansiz?

1



2




3




4



5



6



Mustaqil bajaraman

52

Topshiriq. “Ko‘chirmakashlik illati” mavzusida ijodiy matn tuzing. Matn tuzishda quyidagilarga amal qiling:

- ko‘chirmakashlikni paydo bo‘lish sababini izohlang;
- ko‘chirmakashlik qanday oqibatlarga olib kelishi haqida mulohazalaringizni bayon eting;
- ko‘chirmakashlikni yo‘qotish uchun nimalar qilish kerak, deb o‘ylaysiz?
- fikrlaringizni adabiy til me’yorlariga amal qilib bayon eting.

13-dars


Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing. Ajratilgan so'zlarning talaffuzi va yozilishini izohlang

GENDER TENGLIGI

Gender tengligi (erkaklar va ayollarning tengligi) – oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtaсидаги huquqlar tengligiga erishishni nazarda tutadigan tushuncha. Ayollar va erkaklar o'rtaсида tenglikka erishish **rivojlanish** sohasидаги xalqaro kun tartibining asosiy maqsadlaridan biri va ajralmas qismidir. Xotin-qizlar huquqlarining himoya qilinishi va ularning manfaatlari ifoda etilishida siyosiy hayotda va qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning erkaklar bilan tengma-teng ishtiroki talab etiladi.

Gender tengligi – bu:

1. Inson huquqlarining muhim va ajralmas qismi.
2. Hozirgi zamonning eng muhim masalalaridan biri.
3. Jamiyatda tinchlik va **ijtimoiy** hamkorlik о'rnatishning muhim omili.



4. Ayollarni, xotin-qizlarni jamiyat hayotiga teng jalg etish.
 5. Ma'naviy va **iqtisodiy** taraqqiyotning kafolati.
- Shaxslar – ijtimoiy mavqeyi, jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlaridan qat'i nazar - inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishsa, gender tengligi yuzaga keladi. Bitta huquq



54

ham erkakda, ham ayolda bo'lsa-yu, erkak bu huquqdan foydalansa, ammo ayol ayol bo'lgani uchun ham foydalana olmasa, mana shu nuqtada gender muvozanati buziladi. Bunday buzilishlarning bo'lishi esa jamiyatda erkaklar ustunroq, ayollar quyiroqda degan tushunchani paydo qilishi mumkin. Aslida esa huquqlar baravar, lekin shu huquqdan foydalanish imkoniyati turli to'siqlar bilan kamaytiriladi.

Gender tengligi insonning asosiy huquqlari tizimiga kiradi. Biroq inson huquqlari ko'pincha jinsiy **mansublik**, jinsga asoslangan zo'ravonlik, qurolli **to'qnashuvlar**, qashshoqlik, **reproduktiv** faoliyat kabi omillar ta'sirida poymol bo'lishi ko'zga tashlanadi. Ta'lim, ish bilan ta'minlash va siyosiy qarorlarni qabul qilishda to'la va teng **ishtirok** etishda to'siqlar mavjud. Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik dunyodagi barcha jamiyatlarda saqlanib kelmoqda va barcha ijtimoiy guruhlarga ta'sir qilmoqda. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik genderga asoslangan zo'ravonlikning eng jiddiy shakllaridan biridir.


Tarixda ayollarga nisbatan zulm ko'rinishlari turlicha bo'lgan. Arabiston yarimorolida qiz bolalarni **tiriklayin** ko'mish kabi johiliyat davrining **shafqatsiz** odatlari hukm surgan. Hindistonda eri vafot etgan ayolni tiriklain gulxanda yoqish (sati) udumi mavjud edi. Qadimgi Xitoyda qiz bolaning tug'ilishiga **falomat** sifatida qaralgan.

Sharqda esa ayol doimo erkak kishining do'sti, yor, oqila, mehribon, oilaviy tinchlikning rahnamosi sifatida ulug'langan. Sharqona tafakkurda, turkiy xalqlarda ayollarning jamiyatdagi mavqeyi juda yuqori bo'lgan. **Arab** tarixchisi Ibn Battuta **xabar** beradi: «Turk xoqonlari imzo chekayotganda «sulton va uning xotinining amri bilan» deb yozganlar».

Turkiylarning qadim tasavvurlaridan nishona berguvchi Umay ona, Ayoz momo, Momoqaldiroq, Chir ine (ona yer) kabi kultlar ham bizning tariximizda ayolga-yaratuvchiga bo'lgan munosabatdan darak beradi.

Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchi bevosita oqila, **farosatli**, tarbiyalı ayollar qo'lida ekanligiga alohida urg'u bergen. Sohibqiron Amir Temur ham oila qurish masalasida quyidagi fikrlarni bildirgan: «O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'ligini, jismoniy kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'ligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'sagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim».

Buyuk alloma Alisher Navoiyning muhabbat, vafo, er-xotin munosabatlari, burchlari, ayollar fazilati, ularning oilada tutgan o'rni haqidagi qarashlari beqiyosdir. «Mahbub ul-qulub» asarining «Uylanish va xotinlar to'g'risida»gi bobida mutafakkir uylanish va uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning fazilatlari haqida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Navoiy ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to'xtaladi: «Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa, ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa, jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi».



notenglik namoyon bo'ladi – otalar va o'g'illar, ishlayotgan erkaklar va ishlamayotgan erkaklar, yuqori **mansabdagi** erkaklar va kamroq maosh olib kun ko'rayotganlar, kuchlilar va kuchsizlar...

Gender notengligini bolalarga nisbatan muomalada ham ko'rish mumkin. Onalar o'g'il bolalarni kaltaklashi hollari bor. Bu o'g'illar keyinchalik katta bo'lganda xuddi shu harakatlarni o'zi ham takrorlamasligiga kim **kafolat** beradi?

Mamlakatimizda jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash gender tengligi masalalaridir. Gender tenglikka erishish xotin-qizlarning jamiyatdagи mavqeини kuchaytirish, oila institutini mustahkamlash, komil **avlodni** voyaga yetkazish va jamiyat barqarorligini ta'minlashning garovi hisoblanadi.

Gender notengligi faqatgina erkaklar va ayollar o'rtasida emas, o'zaro ayollar orasida yoki o'zaro erkaklar orasida ham kuzatilishi mumkin. Qaynanalar va kelinlar, qizlar va onalar, ishlayotgan ayollar va ishlamayotgan ayollar orasida ham notengliklar bor. Jamiyatda nohaqliq faqat qizlarga nisbatan amalga oshirilmaydi. Shu jumladan, erkaklar orasida ham bu

13.1-mashq. Matn asosida savollarga og'zaki javob bering.

1. Gender tengligi deganda nimani tushundingiz?
2. Gender notengligi qaysi vaziyatlarda, ayniqsa, ko'p namoyon bo'ladi?
3. Gender tengligini Sharqona anglash bo'yicha mulohazalaringizni ayting

YONMA-YON KELADIGAN UNDOSHLARNING IMLOSI

- 1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht kabi so'zlarda d, t tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi*
- 2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: metall + lar-metallar, gramm + mi = kilogrammi kabi;*

13.2-mashq. Quyidagi matn asosida jadvalni to'ldiring.

56

Ma'lumki, Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda Mavarounnahrga chet ellardan ko'plab sayyoohlar, elchilar tashrif buyurgan. Kunlarning birida o'zga yurtlik mehmonlar bir ko'chadan o'tib ketayotib, har bir darvoza tagidagi bo'sh idishlarni ko'rib hayron bo'libdilar va: «Bular nima uchun?» – deb so'rabdilar. Shunda bir erkak kishi quyidagi javobni bergen ekan: «Bizning jamiyatimizda ayollarning og'ir yuk ko'tarib yurishi erkaklar uchun uyatli holdir. Ko'chadan o'tib ketayotgan har bir erkak ushbu idishlarni suv bilan to'ldirib qo'yishni o'zining burchi deb biladi».

Tarkibida juft undoshlar mavjud so'zlar	Tarkibida qator kelgan undoshlar mavjud so'zlar

13.3-mashq. Quyidagi rasmlar juftligi solishtirib, ularga mos sarlavha topib yozing.

1



2



YOG' BO'LMASA, CHALPAK QIL, UN BO'LMASA – PATIR

Bu maqol xalq o'rtaida yuradigan bir latifadan kelib chiqqan.

Bir maqtanchoq odam o'z odatiga ko'ra choyxonada maqtanib o'tirgan ekan, bolasi kelib: "Dada, uyda yog' tamom bo'libdi, yog' olib berarmishsiz", – debdi. Shunda dadasi: "Bor, oyingga borib ayt, yog' bo'lmasa, chalpak qilsin!" degan ekan. O'g'li shunda: "le, dada, chalpak qilishga uyda un yo'q-ku", – debdi. Haligi odam atrofdagilarga sir boy bermaslik, o'z mavqeyini saqlash uchun: "Un bo'lmasa, patir qila qolsin", – degan ekan, choyxonadagi odamlar xaxolab kulib yuborishibdi.

Mazkur maqolni mana shunday quruq maqtanchoq odamlarga nisbatan istehzo bilan aytadilar.

(*"O'zbek maqollarining izohli lug'ati"*dan)

57

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing. Matn mazmunini bugungi kunga qiyoslagan holda xulosangizni yozma bayon qiling.

TARBIYANING ZAMONI

Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, «birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinci, mакtab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur», – deb javob bersak, bir kishi deyurki, «qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarimi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar», der. Mana, bu so'z kishining yuragini ezar, bag'rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak , qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmak, tarbiya qilmak lozimdu», – der. Mana bu so'zni eshitgach, umid qo'llari qo'l tuqq'a urilur.... Mana bu so'z bizlarni tarbiyadan mahrum, huquqning na ekanin bilmaganlig'imizni bildirur.

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur.

(Abdulla Avloniy)

14-dars

Topshiriq. Matnni o'qing. Unga sarlavha qo'yib, savollarga javob bering.

"Mas'uliyat" so'zini bilasizmi? Keling, uning lug'aviy ma'nosini ko'rib chiqamiz. Mas'ul so'zi – **javobgar** degani. Mas'uliyat esa biror ish, xatti-harakatning oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlikdir. Masalan, sinfdoshingiz Jasur ertaga o'tkaziladigan hasharga barcha bolalarni jamlab ishtirok etish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. Yoki **o'qituvchingiz** "Bu juda mas'uliyatli topshiriq, uni kimga ishonsak bo'ladi?"- dedi. Demak, mas'uliyatli vazifani his qiladigan, uddasidan chiqadigan, uyaltirib qo'ymaydigan o'quvchiga topshiriladi.

Endi uning aksi bo'lgan mas'uliyatsizlik nima ekanligiga to'xtalamiz. Mas'uliyatsiz, dangasa, qo'rkoq, loqayd odamlar hech qachon biror-bir javobgarlik talab qiladigan vazifa, topshiriq yoki yumushni o'z zimmasiga olmaydi. Chunki ular javobgarlikni sezmaydilar. Ular shunchaki beparvo va loqayd. Mas'uliyat talab qilinadigan lahzalarda bir chetga chiqib, indamaygina hech narsani tushunmagandek "o'zi nima keragi bor shularni" deb qarab turadi. Yoki sen menga tegma, men senga qabilida ish tutadilar.

Yaqinda internetda bir aviahalokat haqida o'qidim. Unda yozilishicha, "Boing – 737" samolyoti havoda qattiq titrashni boshlaydi. Qo'nishga 1 **kilometr** masofa qolgan. **Samolyot**

58



dvigatellari ishdan chiqqan holatda magistral yo'ldan o'tib qulaydi. O't o'chiruvchilar **voqeа** joyiga yetib kelishadi. Omon qolganlar, jarohatlanganlarni qutqarishadi, halok bo'lganlarni olib chiqishadi. Chunki har bir daqiqa g'animat, samolyot yong'in holatida, kuchli portlash ehtimoli xavf solar edi. Halokat sabablari o'rganilganda ma'lum bo'ladi, dvigatel orasidagi o'nlab parraklardan biri singan va boshqalarining harakatiga xalaqit bergen. Bu parrak samolyotga chala mahkamlangan, ya'ni uning murvatni oxirigacha buralmagan ekan. Demak, murvatni burayotgan ishchi o'z vazifasini mas'uliyat bilan bajarmay, biror narsaga chalg'ib qolgan. Vaholanki, bunday ishlar mutaxassisdan o'ta hushyor va mas'uliyatli bo'lishni talab qiladi. Ana shu chala buralgan bittagina murvat sabab katta samolyot halokatga uchradi, 47 yo'lovchi hayotdan ko'z yumdi, qolganlar shifoxonalarga yotqizildi, yana necha yo'lovchi nogiron bo'lib qoldi. Bir qancha ekspertlar uning natijasini aniqlashga vaqt sarfladi. Zero, bu **rusumli** samolyotlar eng xaridorgir, xavfsiz **layner**lar hisoblangan.

Aslida men sizlarga ushbu **mavzu** oqibatlarini kichikroq bir tafsilotli misollar **bilan** tushuntirib bersam ham bo'lardi. Lekin **aviahalokat** hodisasi orqali siz kichik mas'uliyatsizlikning katta **talafotlari** qanday sodir bo'lishini, uning mudhish natijasini

yanada teranroq anglashingizni istadim. Bugun sizga o'tilayotgan darslar, uy vazifalari, oilada ota-onangiz yuklagan **yumushlar** biroz og'ir tuyulib, ularni oxiriga yetkazmay, chala bajargan bo'lishingiz mumkin. Ertaga-chi?.. Aytaylik, ota-onangiz ishda, kichik singlingiz bog'chada. Singlingizni kech **soat** oltigacha bog'chadan olish kerak. Siz o'rtoqlaringiz bilan bo'lib yoki televizor qarshisida o'tirib, bog'chani **unutib** qo'ydingiz. Tasavvur qiling-a, ishdan qaytgan ota-onangiz kichik qizini bog'chada yolg'iz, mung'ayib o'tirganini o'ylab qanday ahvolga tushadi? Bu voqeadan so'ng ular sizga biror mas'uliyatliz vazifani topshira olishadimi? Mas'uliyat va mas'uliyatsizlik haqida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin eng muhimi - bularni siz qanday **tushunib** yetishingizda.

1. Siz boshqalarga bergen va'dangizni bajarasizmi?
2. Siz qanchalik ishonchlisisiz? O'zingizni mas'uliyatli deb bilasizmi? Nima uchun?
3. Kelajak uchun maqsad belgilaganmisiz va buning uchun nimalar qilyapsiz?

UNLI TOVUSHALAR TALAFFUZI VA IMLOSI

A unlisi O ga moyil aytilda ham, A yoziladi: varaq, asqatmoq, tamom, hasharot, talafot, zamon, palov, naqarot, xavf, gavda, navbat, vafo kabi so'zlarda;

A unlisi ayrim so'zlarda cho'ziq talaffuz qilinadi va ikkita A yoziladi: mutolaa, mudofaa, manfaat, taalluqli, taajjub, taassurot, murojaat kabi so'zlarda;

Qator undoshli ayrim o'zlashgan so'zlar oxirida A qo'shib aytildi, ammo yozilmaydi: disk, tank, stol kabi so'zlarda.

Rus tili orqali o'zlashgan ayrim so'zlarda O unlisi O' ga moyil aytilda ham, O yoziladi: tort, opera, bolt, tok (elektr), tonna, kubok, bochka, nota kabi so'zlarda;

Ayrim o'zlashma so'zlarda O unlisi I kabi talaffuz qilinsa ham, O yoziladi: traktor, direktor, ekspeditor, kartoshka kabi so'zlarda;

Ayrim so'zlarda O unlisi A kabi talaffuz qilinsa ham, O yoziladi: tomon, taqozo, tovon, farovon, sazovor, talon-toroj, kamolot, axborot, inshoot, motor, monitoring, dekoratsiya, okulist, notarius, fontan kabi so'zlarda.

O'zlashma so'zlarda qator undoshlar orasida I tovushi talaffuz etilsa-da, ammo yozilmaydi: sinf, aql, fikr, ilm, ufq, matn, litr kabilarda;

I unlisi ayrim so'zlarda cho'ziq aytildi va ikkita I yoziladi: badiiy, tabiiy, suiiste'mol kabilarda;

I unlisi ayrim so'zlarda U aytilda ham, I yoziladi: mumkin, mudir, muhim, kulgi, tulki kabilarda;

I unlisi ayrim so'zlarda E ga yaqin aytilda ham, I yoziladi: mashina, fojia, andisha kabilarda;


E unlisi I ga moyil aytilda ham, E yoziladi: telefon, teatr, okean, material, ehtimol, eshik, ehson, ertak kabi so'zlarda;

U unlisi ayrim so'zlarda I deb talaffuz qilinsa-da, U yoziladi: unsur, urchuq, tushuncha, qovun, ovul, tovuq, sovuq, tarvuz, quvur, supurmoq, qutulmoq kabi;

Tarkibida U bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarning oxirgi ikki undoshi o'rtasida u aytilda ham, yozilmaydi: umr, uzr, rukn, hukm kabi.

14.1-mashq. Matnda ajratib berilgan so'zlarni daftaringizga yozing. Bu so'zlar tarkibidagi unlilarning talffuzi va imlosini izohlang.

14.2-mashq. Rasmlarda berilgan so'zlarni daftaringizga bexato yozing. Yozuv mas'uliyati haqida fikr bildiring.



60

14.3-mashq. Fikrlarni davom ettiring.

1. Qachonki inson oilasi oldidagi burchni anglab yetsa, ...
2. Agar biror kishi muhim ishlarni bajarish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olsa, ...
3. Siz uchun aziz bo'lganlarning baxti, farovonligi va xavfsizligi uchun javobgarlik ...
4. Hayotda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va yaqinlaringizga yordam berish uchun javobgarlik...

14.4-mashq. Matnni o'qing. "Qo'shnichilik mas'uliyati xususida o'z fikringizni ikki – uch jumlada yozma bayon qiling.

HAYOT DARSI

Amerikalik bir qariya viloyat miqiyosida o'tkazilgan yarmarkada eng sifatli makkajo'xori yetishtirgan dehqon sifatida tan olindi. Uning makkajo'xorilari sifat va unumdoorlik borasida haqiqatda yaxshi edi. Muxbirlar undan muvaffaqiyat sirinini so'radilar.

– Bari juda oddiy, - dedi muxbirlarning savoliga javoban soddadil qariya. – Men o'zimdan jo'xori donini so'ragan har bitta qo'shнимга saralangan, eng yaxshi donlardan ularshganman.

– Lekin sizning muvaffaqiyatingizga buning nima dahli bor?
– Nega dahli bo'lmasin? Axir yetishtirgan jo'xorilarim qo'shnilarimning makkajo'xorilaridan changlanadi...

Ayting-chi, siz qanday qo'shni ekaningiz haqida o'ylab ko'rganmisiz?

(Internetdan)



MENDAN KETGUNCHA, EGASIGA YETGUNCHA

Variantlari: "Qo'ldan ketguncha, egasiga yetguncha", "Bizdan ketguncha, uyiga yetguncha".

Bu maqollarni ko'zbo'yamachilik, mas'uliyatsizlik bilan nardan beri ish qilib, "usti yaltiroq, ichi qaltiroq" narsa tayyorlab, tezroq pulini undirish niyatida bo'lgan kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llaydilar.

14.5-mashq. Mavzular va epigraflarni moslashtirib daftaringizga yozing..

Mavzu		Epigraf
1	Tabiat va inson	<p>Yoshlikda bilgani- toshga yozgani, Qarilikda bilgani- muzga yozgani. (Maqol)</p>
2	Yaxshi so'z – inson qalbining kaliti	<p>E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur, Asli siz oftobim, men ziyoisman. Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur, Baxtim shul – ozbekning Zulfiyasiman. (Zulfiya)</p>
3	Vafo va sadoqat kuychisi	<p>Tabiat – ezgulik va go'zallikning bevosita ifodasi. (Aqsad Muxtor)</p>
4	Vaqt qadri	<p>So'zning o'zida shaxs zimmasidagi zalvorli yuk bor. Elchiadolat va ezgulik yo'lida haq so'zni aytishga burchli inson. (Erkin Vohidov)</p>

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o'qing. Unga mos sarlavha toping va xulosangizni qisqa qilib yozing.



Burgut o'z farzandlariga qanday qilib ota tanlaydi?

Bu jarayon judayam hayratlanarli kechadi. U daraxt yoki biror butadan kichik shoxcha sindirib oladi, uni tumshug'ida tutgancha balandga ko'tariladi va shu holda aylana boshlaydi. Atrofida nar burgutlar yig'ilib parvoz etadi. Shu payt u tumshug'idiagi shoxchani tushirib yuboradi va kuzatadi. Burgatlardan biri shoxchani tutib olib, ohistalik bilan unga olib kelib topshiradi. U esa shoxchani olib, uni yana tashlab yuboradi. Burgut yana tutib oladi va unga qaytaradi. U esa yana tashlab yuboradi...



Bu hol juda ham ko'p marta takrorlanadi. Shundan so'ng burgutlar havoda raqsga tushadilar. Nihoyat, bir-birlarini sinovdan o'tkazgach, ular oila quradilar.

Xo'sh, ushbu harakatlarda qanday ma'nno yashirin? Buni ularning keyingi hayotidan tushunib olasiz...

Ular birgalikda tog' cho'qqisiga ko'tariladi, mustahkam o'simlik poyalaridan in quradi. Ikkala burgut ham tanasidan o'z tumshug'i bilan patlarini yilib, inlarini to'ldiradi, barcha teshiklarni yopib, uyani yumshoq va shinam makonga aylantiradi. Ona burgut bu yerga tuxum qo'yadi va ikkalasi polapon burgutchalar dunyoga kelishini kuta boshlaydi.

Burgutchalar tuxumdan chiqqach (ular juda kichkina, zaif va yalang'och holatda bo'ladi), otanonasi ularni biroz quvvatga kirgunicha parvarishlaydi. Qanotlari bilan yomg'irdan, quyosh nurlaridan asraydi, ularga suv, ozuqa tashiydi. Burgutchalar asta katta bo'lib boradi. Ularning patlari o'sib, tanasini qoplaydi,

qanotlari va dumlari baquvvatlashadi. Shunda ota va ona burgut vaqt kelganini anglaydi...

Ota burgut uya chetiga qo'nib olib, inni qanotlari, tumshug'i bilan urib silkitadi. U uyadan hamma pat va puxni tushirib yuborishi, boshida o'zları shox-shabbadan yasagan skeletnigina qoldirishi kerak. Qiziq, nima uchun? Polaponlar esa bu qattiq, noqulay uyada o'tirishar ekan, nima bo'layotganini tushunishmaydi: axir ota-onalari ularga juda g'amxo'r va mehribon edi-ku. Bu orada ona burgut qaerdandir kichik bir baliqchani tutib kelib, atayin polaponlari ko'rib turishi uchun, uyadan, chamasi, besh metr uzoqlikka qo'nib olib, uni asta maydalab yeya boshlaydi. Polaponlar uyada turib chug'urlab, o'zicha shikoyat qilib baqira boshlaydi: axir, ilgari bunday emasdi-ku... Ota-onasi ularga yemish berardi, suv berardi. Endi esa hammasi tamom bo'ldi: inlari qattiq va noqulay, ota-onasi esa ularga ozuqa ham bermayapti. Nima qilish kerak? Axir och qolishadi-ku. Indan chiqishga harakat qilish kerakmikin?

Shunday qilib, polaponlar asta harakatga kela boshlaydi va ilgari hech qachon urinib ham ko'rmagan harakatlarni bajaradi. Agar ota-onalari ularni erkatalishda davom etaverishsa, ular keyinroq ham harakat qilishga jur'at qilmagan bo'larmidi...

Polaponlar uyalaridan sudralib chiqqa boshlaydi. Oh, mana, kichikkina polapon tushib ketmoqda, axir uya tog' chetida, noqulay xarsanglar orasida joylashgan-ku. Polapon avval silliq xarsang uzra biroz sirg'alib, keyin jarlikka tomon qulaydi. Shu payt, qachonlardir ona burgut uloqtirgan shoxchalarni tutib keltirgan ota burgut yordamga shoshadi. U o'zini katta tezlikda pastga otib, yelkasiga polaponchasini qo'ndirib qaytadi. Bu hol bir necha marta takrorlanadi. Polapon noqulay uya va silliq xarsangdan pastga tomon qulayveradi, ota burgut uni tutib kelaveradi.

Burgutlarning birorta polaponi ushbu jarayonda halok bo'lmas ekan.

Axiyri, qulashlarning qaysi biridadir polapon burgutcha qanotlarini yozib, shamol yordamida parvoz qila boshlaydi. Shu tarzda burgutlar polaponlarini uchishga, keyin esa ov qilish va o'zini himoyalashga o'rgatishadi.

... Ona burgut shoxchanini uloqtirish orqali o'z farzandalariga ota tanlagani bejiz emas edi. Axir, u farzandlari halok bo'lishini xohlamaydi.


15-dars

MUSTAHKAMLASH

Topshiriq. Matnni o'qib chiqing.

IXTIROCHI AVTOGIGANTLARGA QARSHI

Oynaartkichlar avtomobilarning muhim qismlaridan bo'lib, uning "otasi" amerikalik Robert Kyorns sanaladi. Biroq olim ixtironi o'ziniki qilib olishi uchun juda **uzoq** yelib-yugurishiga to'g'ri keladi. Bu voqeа mualliflik huquqi uchun kechgan eng mashhur kurashlardan biri bo'lib tarixga kirgan.




1953-yilda Robert uylanadi. To'y bazmida shampan shishasini ochish chog'ida bir ko'zini shikastlab oladi: shisha tiqini uning ko'ziga kelib uriladi. Shundan so'ng Robert avtomobilni boshqarishda qiyinchilikka duch kela boshlaydi. Ayniqsa, yomg'irli kunlarda unga havas qilib bo'lmasdi.

1962-yilda olim yomg'irli kunda avtomobil boshqaradi. O'sha paytlarda avtomobil oynasini artuvchi maxsus cho'tkalar **to'xtovsiz** harakatlanar va bu haydovchiga

noqulaylik keltirib chiqarar edi. O'sha onda Robert Kyorns oynaartkichlar inson kipriklari singari, ya'ni to'xtab-to'xtab ishlashi kerakligini anglab yetadi. Uyiga kelib, yerto'lasiga kirib ketadi va olamshumul ixtiroga qo'l uradi. 1964-yilda yangicha oynaartkichga patent oladi.

Tabiiyki, ixtirochi bu yangiligi ortidan katta mablag'ga ega bo'lishni ham maqsad qiladi. Axir o'n minglab transport vositalarida endi Robert Kyorns yasagan oynaartkichdan foydalaniishi kutilmoqda. Olim ishga kirishadi: o'z ixtirosi haqida o'sha paytdagi yirik avtomobil kompaniyalariga xabar jo'natadi, ishslash prinsipini tushuntiradi, shartnoma tuzishga rozi ekanini bildiradi. Biroq barcha takliflariga rad javobini oladi.

1969-yildan avtomobillar Kyorns ixiro qilgan oynaartkichlar bilan chiqa boshladi. Olimning taklifini rad etgan kompaniyalar bu ishga muallif ruxsatsiz qo'l urishgan edi. Ixtirochi darrov avtokompaniyalarga murojaat qildi – ular olimni eshitishni xohlasmadi. Bir necha yillik sarsongarchilikdan so'ng Robert Kyorns "Ford", keyinroq "Kraysler" kompaniyalari ustidan sudga arz qildi. "Ford" kompaniyasi bilan 12 yil, "Kraysler" bilan 10 yil davom etgan sud jayronlari Robert Kyorns g'alabasi bilan yakunlandi. Uzoq yillik sudlashuvda ixtirochi tom ma'noda yolg'iz harakatlandi. Aksar advokatlar bu ishda ishtirok etishdan bosh tortishdi, kamiga, bu ishlardan charchagan turmush o'rtog'i ham uni tashlab ketdi. Biroq hech kim va hech narsa olimni oxirigicha kurashishdan qaytara olmadidi. Uzoq davom etgan kurashdan so'ng ixtirochi sud hukmi bilan "Ford"dan 10 ming, "Kraysler"dan esa 30 ming dollar miqdoridagi tovon pulini qabul qilib oldi.



15.1-mashq. “Ixtirochi avtогигантлага қарши” матни асосида quyидаги саволларга жавоб беринг.

1. Yirik kompaniyalar ixtirochining shartnoma tuzish taklifini nega rad etishdi?
2. Nima deb o'ylaysiz: mualliflik huquqi uchun uzoq vaqt kurashish oilani, vaqtini yo'qotishga arziydimi? Siz Kyorns o'rнida qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

15.2-mashq. “Ixtirochi avtогигантлага қарши” матни асосида quyидаги testlarning to'g'ri javobini belgilang.

1-test. Matn mazmuniga zid fikrni aniqlang.

A	Kyorns o'z ixtirosini yaratishda inson a'zosi ishlash prinsipidan ilhomlangan.
B	Sudma-sud yurishlar Kyorns oilasi parokanda bo'lishiga ham sabab bo'ldi.
C	Kyornsga qadar avtomobillar oynasini artuvchi moslama bo'lмаган.
D	Mualliflik huquqini buzган avtokorxonalar ixtirochiga tovon puli to'lashga ma-jbur bo'lishdi.

2-test. Matn qanday uslubda yozilgan?

A	adabiy so'zlashuv uslubida
B	ommabop (publitsistik) uslubda
C	badiiy uslubda
D	sof ilmiy uslubda

15.3-mashq. “Ixtirochi avtогигантлага қарши” матnidan olingan gaplarda ajratib ko'rsatilgan birliklarni sinonimi bilan almashtirib ko'chiring.

1. Biroq olim ixtironi o'ziniki qilib olishi uchun juda **uzoq** yelib-yugurishiga to'g'ri keladi.
2. 1953-yilda Robert uylanadi. To'y bazmida shampan shishasini ochish chog'ida bir ko'zini **shikastlab oladi...**
3. O'sha paytlarda avtomobil oynasini artuvchi maxsus cho'tkalar **to'xtovsiz** harakatlanar va bu haydovchiga **noqulaylik** keltirib chiqarar edi.
4. 1969-yildan avtomobillar Kyorns ixiro qilgan oynaartkichlar bilan **chiqa boshladi**. Axir o'n minglab transport vositalarida endi Robert Kyorns yasagan oynaartkichdan foydalaniishi **kutilmoqda**.
5. Aksar advokatlar **bu ishda** ishtirok etishdan bosh tortishdi, kamiga, bu ishlardan charchagan turmush o'rtog'i ham uni **tashlab ketdi**.

15.4-mashq. Quyidagi birliklarni “to‘g’ri yozilgan” va “noto‘g’ri yozilgan” kabi 2 ta guruhga bo‘lib chiqing. “Noto‘g’ri yozilgan” guruhibiga kiritilgan birliklarni to‘g’rilang va daftaringizga ko‘chiring.

muomala	bo‘ysunish	mazxara	passport	metalllar
dimog‘li	mabodo	odamzot	ohangrabo	orzuqib
tarjimayi hol	chanqovbosti		nes-nobud bo‘lmoq	
melodiy	mutloqo	naqarot	noshut	no‘xat
daromat	davomat	poyafzal	boloxona	urushqoq
dapdurustdan	baynaminal		dasturilamal	

16-dars

Nazorat ishi

17-dars

Nazorat ishi


18-dars

Nazorat ishi tahlili

MEN VA BOSHQALAR

19-dars

Topshiriq. Quyida rasmi keltirilgan tarixiy shaxslar haqida nimalar bilasiz? Bilganingizni sinfdoshlar bilan o'rtoqlashing.



Shuhrat qoldirmoqqa **Gerostratdek**.
Diana ma'bardin yoqmoq shart emas.
Ko'plar baxti uchun o'zlikni jamlab,
Shu ulkan binoga bir g'isht qo'ysak bas.
(G'afur G'ulom)

66

Odam o'g'li, o'zing bilmay,
Qadam-qadam o'tajaksan.
Egangning amrini qilmay,
O'z ko'nglingni kutajaksan.
Istarsan olamni olsang,
Qorun bo'lib, ganjga botsang,
Halol-harom – har ne topsang,
Ko'zing yumib, yutajaksan.

(Maxtumquli)



Fir'avn, Qorun shayton so'zin mahkam tutti.
Bul sababdin yer yorildi, ani yutdi.
Muso kalim nosih bo'lib so'zlar aytti,
Quloq tutmay ul ikkisi bo'ldi murdor.

(Ahmad Yassaviy)

19.1-mashq. Quyidagi gaplarda men so'zi qanday ma'noda kelganini aniqlang. Uni qaysi so'z bilan alishtirish mumkin?

1. Har bir inson o'z "men"ini topishi kerak.
2. Saidni raqiblari emas, "men"i halok qildi.
3. Gapingga kirmasa, menga ayt: aqlini kiritib qo'yaman.
4. – Olimov.
 - Kasal ekan, – dedi kimdir.
 - Hasanova.
 - Men, – dedim qo'llimni ko'tarib.

NUTQ SOFLIGINI BUZUVCHI BIRLIKLER

Jamiyatning har bir vakili davlat tilini bilishi lozim. Biz nafaqat o'zbek tilidagi nutqni tushunishimiz, balki sof adabiy tilda so'zlay olishimiz ham kerak. Quyida adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalarga quyida misollar berilgan:

1. Man amaqimni himoya qimimanmi? (sheva so'zlari)
2. Ikkala avtomobilni ham "shapka"siz oldim. (ko'cha so'zlari, jargon)
3. Endi foydasi yo'q, uje kech qoldik. (varvarizm)
4. Menga qara, megajin, bu yerga hiding ham kelmasin. (vulgarizm)

Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalardan adiblar badiiy asar qahramonining hududiy tegishliligini, xulq-atvorini, madaniy saviyasini haqqoniy ko'rsatish maqsadida foydalanishadi. Shuningdek, ommabop matnlarda varvarizmlar ta'sirchanlikni oshirish uchun qo'llanadi. Bunda ular qo'shtirnoq ichida beriladi.

67

19.2-mashq. Nutq sofligini buruvchi birliklarga misollar yozing.

1. Sheva so'zlari:
2. Jargon so'zlari:
3. Varvarizmlar:
4. Vulgarizmlar:

19.3-mashq. Quyidagi fikr yuzasidan mulohaza yuruting. Bunda hayotda o'z "men"ini topa olmaganlar haqida ham to'xtalib o'ting.

Meni menda demang, menda emasman,
Bir men bordir menda mendan ichkari. (Yunus Emro)

Mantiq vaqtি

1943-yilda yurtimizda misli ko'rilmagan qashshoqlik hukm suradi. Xalq to'yib ovqatlana olmas ham edi. Bir yoqda urush. Urushga bormaganlar bor-budini frontga jo'natayotgan paytlar.

Yaqindagina o'g'lonini frontga jo'natgan 10-15 oila ayollari bir xonadonga yig'ilib o'zlarini biroz ovutgan bo'lishardi. Boshqalar o'z uyida, bu 10-15 oila esa bir xonadonda farzandlari haqiga duo qilish uchun to'planishar edi.

Doim yig'inlarga mezbon bo'ladijan oila xonadonida 10-15 ta oila uchun aziz bir narsa bor edi. O'sha narsani bir necha so'z bilan aytib bering.



68

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. "O'zim haqimda" nomli nutq tayyorlang.

Nutqingiz kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'lishiga, nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalardan xoli bo'lishiga erishing.

Og'zaki matnda qiziqlashlaringiz, boshqalardan farq qiluvchi jihatlarining, hozirga qadar sinfdoshlaringiz bilmaydigan tomoningiz yoritilishi mumkin. O'zingizga nisbatan tanqidiy munosabatingiz aks etishi ham maqsadga muvofiq.

Tavsiya etiladigan hajm: 2 daqqaq



20-dars

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Hozirgi kunda millat ma'naviyatiga xavf solayotgan tahdidlardan biri ommaviy madaniyatdir. Ommaviy madaniyat XX asr o'ttalarida shakllangan fenomen bo'lib, unga qisqaroq va tushunarliroq qilib ta'rif beradigan bo'sak, ommaviy madaniyat bizga chetdan kirib kelayotgan milliy va diniy qarashlarimizga yot ma'naviy va axloqiy illatlarni o'z ichiga olgan xurujlar yig'indisidir.

Yetakchi G'arb mamlakatlarida estetik va ma'naviy-madaniy ehtiyojlari nisbatan tor odamga mo'ljallangan ijodiy asar yoki buyumlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish tadbirkorlikning bir turiga aylangan. Ommaviy madaniyat bozor bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning qonunlariga muvofiq doimo foyda keltirishi kerak. Shunga ko'ra ommaviy madaniyat janridagi ijodiy asarlar (kino, musiqa, moda) axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini targ'ib qiladi.

Ommaviy madaniyat insonlarning madaniy va estetik talablari savyasini pasaytiradi. Ijtimoiy munosabatlarda insoniylik tamoyilini buzadi.

Ommaviy madaniyat xalqning eng katta boyligi bo'lgan yoshlarni o'ziga qaratib, ularni ma'naviy va madaniy qarashlarini mensimaslikka undaydi. **Bundan tashqari**, yoshlarni yengil hayotga chaqrib, mas'uliyatsiz ruhda voyaga yetishiga sababchi bo'ladi. **Xususan**, ommaviy madaniyat yoshlar ongida teleserial yoki videofilmdagi bosh qahramonlarning ichishi, chekishi, mushtumzo'rligi, axloqiy me'yorlarni mensimasligi bilan o'ta salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ommaviy madaniyatni targ'ib qilayotganlar hayotga bir marta kelasan bu hayotda xohlaganingcha yasha, qiyinchiliklarga qo'l silta, biz bilan bo'l, baxtli bo'lsan deb da'vat qiladi, ular hayotda barcha ishlarni qilish mumkin, imkon topsang bas deb uqtirishadi. **Albatta**, insonning nafsiga yengillik, xohlagan ishini qilish yoqadi. Ko'plab yoshlarni ommaviy madaniyatga ergashib ketayotganining sababi ham shunda.

Har zamonda buzuqlikni, faxshni, bexayolikni har xil nomlar, yaltiroq shiorlar bilan oqlashga intiladigan, targ'ib qiladigan axloqsiz toifalar chiqib turgan. Bunday buzuqliklarni Islom dini doimo qoralab kelgan.



Demak, ommaviy madaniyat kabi buzuqlikni targ'ib qilayotgan tahdidlardan chetda bo'lish har bir musulmon kishining zimmasidagi vazifa ekan. Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi vasallam: "...Hayo iymondan bir juzdir", – dedilar. Dinimiz hayoni iymon darajasiga ko'targan bir o'rinda, barcha mo'min kishilar ommaviy madaniyat kabi axloqsizliklardan chetda bo'lishi, farzandlari, do'st-u birodalarini ham bu ishlardan ogohlantirishi lozim bo'ladi.



20.1-mashq. Testlarni bajaring.

1-test. Matnda xalqning eng katta boyligi sifatida nima ko'rsatiladi?

A	milliy madaniyat
B	ijtimoiy tenglik
C	yosh avlod
D	bobolar merosi

2-test. Ommaviy madaniyat janridagi ijodiy asarlarda axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik targ'ib qilinishining sababi nima?

A	shu asar savdosi orqali ko'proq daromadga ega bo'lish
B	buni o'zlariga xos uslub sifatida ko'rsatishga urinish
C	tanqid va taqiqlar ortida mashhurlikka erishish istagi
D	asarni yaratishga sarflanadigan mablag'ni tejashga harakat

20.2-mashq. Mavzu doirasida quyidagi savollarga javob bering,

70

- Yurtimiz yoshlari orasida ham ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolayotganlar bormi?
- Ommaviy madaniyat qanday ko'rinishlarda qadriyatlarimizga ta'sir qilishga urinadi?
- Yoshlarning bu illatlar domiga tushib qolmasligi uchun qanday choralar ko'rish kerak deb o'ylaysiz?

Menimcha...

Ayrimlar ommaviy madaniyat tushunchasi noto'g'ri nomlanganini, uni olomon madaniyati deyish to'g'ri ekanini aytishadi. Bu ikki birikmani til nuqtayi nazaridan o'qituvchингиз bilan birgalikda tahlil qiling. Shu qarashga munosabat bildiring.

KIRISHLAR VA KIRITMALARNING QO'LLANISHI

Kirishlar gapda muallifning fikrga munosabatini ko'rsatadi. Fikrga taxmin, ishonch, tasdiq, inkor, hayrat kabi munosabatlarni ifodalaydigan, shuningdek, fikrning tartibi, dalillanishi, xulosalanishini ko'rsatadigan kirishlar mavjud. Doim vergul bilan ajratiluvchi bu birlklardan to'g'ri foydalanish jumlaning ta'sirchanligini oshiradi.

Misollar:

- Bizga turli xil takliflar bilan chiqishdi, **tabiiyki**, hammasini rad etdik.
- Sinfdoshlarimga, **xususan**, Anvar va Nozimaga o'z minnatdorchiligidini bildirib qolaman.
- Xullas**, bizga yana ikki qop un kerak ekan.

Kiritmalar gapda ko'pincha qavs ichida, ba'zan ikki tire orasida beriladi va asosiy fikrni qo'shimcha ma'lumot bilan boyitish vazifasini bajaradi. Muallif maqsadini tushunishda ularning o'ziga xos o'rni bor.

Misollar:

1. Avtobusga chiqqanimizda (yonimizda na pulimiz, na oylik yo'l chiptamiz bor) chiptachi xola xadigimizni tushunganday bizga qarab kela boshladi.

2. 1992-yilning 30-oktyabrida (oyim o'sha payt meni shifoxonada olib yotgan edilar) dadamning ishlari boshqa viloyatga ko'chdi.

Ba'zan nutqda kirishlarda noto'g'ri foydalanish kuzatiladi.

Misollar:

1. Aytishimiz mumkinki, Quyosh sharqdan chiqadi.

2. Menimcha, sizning fikringizga e'tirozim yo'q.

20.3-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan kirishlarning ma'no-vazifasini tushuntiring.

20.4-mashq. Quyidagi gaplar tarkibiga kiritma qo'shib, daftaringizga ko'chiring.

1. "Ilhaq" filmi xalqaro maydonda ham yaxshi kutib olindi.

2. Qish kunlarining birida uyimizga notanish mehmon keldi.

3. Abdusamat bobo xalqqa osh berdi.



CHAPPAR URMOQ

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda,
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim vatan tuprog'in...

XX asrning 60-yillarigacha bug'doyni xirmonjoyda yanchish jarayonida chapardan foydalanishgan. Bug'doy poyalarining yarmi yanchilib bo'lgandan so'ng xo'pga qo'shilgan ho'kizlarga chapar taqilgan...

Chappar/ chapar/chappor – uzoq o'tmishda qishloq xo'jalik xodimlari, g'allakorlar yaratgan, yasagan va xirmon yanchishda qo'llagan azaliy moslama.

XX asrning 60-yillari o'talaridan boshlab bu moslama keraksiz narsaga aylanib, nomi xalq xotirasidan chiqib ketgan. Lekin ibora tarkibidagi bu so'z ashyo nomi sifatida qolib, ma'nosi unutilgan. Uning birlamchi ma'nosi – zich va qalin qilib tiqilgan cho'p, shox-shabbali moslama. Chappar so'ziga urmoq kalimasi qo'shilib, qalin, zich, tig'iz, yoppasiga ochilmoq ma'nosi yuzaga kelgan.

To'ra Nafasov, Umida Abdullaeva
«Til va adabiyot ta'limi» jurnali

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. "Ommaviy madaniyat va milliylik" mavzusida og'zaki matn tayyorlang


Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

(1) Shaxslararo munosabatlarda ba'zan kishilar **bir-birlarining** egoistik **xulqidan** shikoyat qilishi kuzatiladi. Bunday xulq qanday **kechishini** tahlil qilib ko'ramiz. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, ajralish uchun kelganlarning ko'pchiligi oilaning ajrim ostonasiga **kelib qolganligi** uchun o'z juftini yoki yana kimlarnidir aybdor deb hisoblaydilar. Aksincha, oilaviy munosabatlardagi ijobiy jihatlar, ishdagi yoki boshqa sohalardagi muvafaqqiyat-larning sababchisini ko'rsatish lozim bo'lsa, albatta o'z ishtirokidan so'z ochishadi va bunday xususiyat ko'pchilikka xosdir.


(2) Ma'lum bir sohada bir xil muvaffaqiyatga yoki natijaga erishish uchun raqobatlashayotgan olimlar o'zlarining fanga qo'shgan hissalari haqida **gapiroayotganida** kamdan kam kamtar bo'lishi xorij psixologiyasining yetuk olimlaridan biri E. Ross tomonidan tasdiqlangan. E. Ross bu fikrining tasdig'i uchun quyidagi misolni keltiradi:

1923-yilda insulinni yaratgan Frederik Banting va Jon Makleodlar Nobel **mukofotiga** sazovor bo'lishganidan so'ng, Banting ommaviy chiqishlardan birida laboratoriyanı bosh-qarayotganda Makleod yordam berishdan ko'ra ko'proq xalaqit bergenligini ta'kidlaydi. Makleod esa ixtiroga qanday **erishganligi** haqida gapira turib nutqida biron marta ham Bantingning ismini tilga olmaydi.

(3) "Odamlarda hech bir mavzu o'zlari haqidagidan ko'ra katta qiziqish uyg'otmaydi. Bundan tashqari ularning ko'pchiligini o'z shaxsidan boshqa hech narsa qiziqtirmaydi", deb yozadi R. Baumaster. Amerikalik olim Patrik Byukenen o'zbekchaga tarjima qilin-ganda "G'arbning o'limi" deb nomlangan **kitobida** yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiriga



aloqador bo'lgan voqealarni: jamiyat ma'naviyatidagi inqirozlar, jumladan, oila va nikoh, tug'ilish va aholining tabiiy o'sishi borasidagi inqirozlarni tahlil qilar ekan, bu borada jamiyat a'zolarida kuzatilayotgan salbiy xulq-atvorlardan biri bo'lgan egoizmning jiddiy ta'sirini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, jamiyatda borgan sari birdan boyib ketish, to'kin hayotga erishish kabi egoistik intilishga ega bo'lgan kishilar **soni** ortib bormoqda, bu esa jamiyatda mavjud qadriyatlarga nisbatan munosabatlarda jiddiy inqirozni keltirib chiqarmoqda. Muallif bu holatni gedonistik psixologiyaning asosi deb baholaydi va buning oqibatida jamiyatda qator ijtimoiy muammolar kelib chiqayotganligini ochiq e'tirof etadi. Gedonizm bu – shaxs va uning xulq-atvor motivlarida bирgina istak – nimadandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo'lishga intilish ustuvorligidir. Bunda inson asosan to'q va farovon hayotga intiladi, boy-badavlat yashashni xohlaydi va bundan lazzat oladi. Muallif Yevropada tug'ilishning keskin kamayib ketganligini, ayollar o'zidan surriyod qoldirishni istamayotganligini, mablag'i yetarli bo'lsa-da, uni farzand tug'ilishiga va tarbiyalashga sarflashga qizg'anayotganligi kabi holatlarni qayd etadi. Bundan tashqari, gedonizmning eng katta salbiy ta'siri Yevropa kishilarida egosentristik dunyoqarashning shakllanishiga turki bo'lmoqda. Egosentrism insonning o'z fikr-o'yлari, manfaatlari doirasida qotib qolganligi, buning oqibatida atrof-muhitga va odamlarga oid bilimlarini hamda o'zgalarga munosabatini o'zgartira olmasligini bildiradi.



(4) Ma'lumki, egoizm kishilar orasida salbiy sifat deb qaraladi va egoistik xulq-atvor jamoatchilik tomonidan ham salbiy baholanadi. Altruizm esa aksincha ijobiy sifat deb qaraladi va altruistik xatti-harakat ijobiy munosabatga loyiq deb tanlanadi. Nega shunday? Buning sababi egoistik xulqning asosida birinchi o'ringa o'z manfaatini qo'yish yotsa, aksincha, altruistik xulqning asosida birinchi o'ringa o'zgalar manfaatini qo'yish yotadi. Demak, altruizm egoizmning antonimidir. Altruizm hech qanday manfaatni kutmagan holda boshqalarga yordam berish, birovlarga yordam qo'lini cho'zish demakdir.

"Ijtimoiy psixologiya" kitobidan olindi.

73

21.1-mashq. Matnni tushunish bo'yicha tuzilgan quydagi test savollarining to'g'ri javobini toping.

1-test. Fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Muallifning fikricha, ajralish uchun sudga murojaat qilganlarning barchasi oilaning barbob bo'lishida boshqalarni ayblaydi.

A	To'g'ri.
B	Noto'g'ri.

2-test. Fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Banting ham, Makleod ham ularga mukofot olib kelgan ixtiroda o'z hissalari ko'proq ekanini ta'kidlashgan.

A To'g'ri.

B Noto'g'ri.

3-test. Fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Banting bildirgan munosabat Makleodnikidan ko'ra keskinroq edi.

A To'g'ri.

B Noto'g'ri.

4-test. Rohatda yashash, ko'ngilxushlikni hayot mazmuni deb bilish – ...

A egoizm

B gedonizm

C egosentrizm

D altruizm

5-test. Matnning qaysi qismida Yevropadagi mavjud qadriyatlar inqirozining sababi keltirilgan?

A 1-qismda

B 2-qismda

C 3-qismda

D 4-qismda

21.2-mashq. Shaxslarga munosabatda ahamiyat berish kerak bo'lgan jihatlar mavjud. Quyidagi toifalar bilan suhbat qurishda nimalarga e'tibor berish kerak deb hisoblaysiz?

qarshi jins vakillari

nogironligi borlar

boshqa viloyat kishilar

chet el fuqarolari

g'iybatchi, ig'vogar kishilar

asabi tarang, tajang kishilar

21.3-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi egalik qo'shimchalari qanday vazifa bajarayotganini aniqlang va quyidagi guruhlarga joylashtiring.

1. Tegishlilikni bildiradigan shakllar:
2. Ish bajaruvchining shaxsini ko'rsatadigan shakllar:
3. Xoslikni ifodalovchi shakllar:

KO'PLIK QO'SHIMCHASINING QO'LLANISHI

Ko'plik qo'shimchasi (*-lar*) o'nga yaqin ma'noni ifodalay oladi.

Misollar:

1. Odamlar nima deydi? (*sof ko'plik*)
2. Tog'amlar keldilar. (*hurmat*)
3. Bu kishi oqsuyaklar: biz gapirsak, boshlari og'rib qoladi. (*kinoya*)
4. Bolangiz Jamshidlarnikida ekan. (*jamlash*)
5. Bu qizlardan kelgusida Nodiralar, Zulfiyalar chiqadi. (*ko'plik+o'xshatish*)
6. Boshlarim og'rib ketdi. (*kuchaytirish*)
7. Do'konga borib, suvlardan olib kel. (*ko'plik+tur*)

Sof ko'plik ma'nosi son vositasida ifodalanganda -lar yozilmaydi: 12 ta bola, 5-6 ta bola, o'ntacha bola kabi.

21.4-mashq. Quyidagi gaplarda ko'plik qo'shimchasi qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

1. Yog'lardan ko'ring, aka, yoqqanini olaverasiz.
2. Ma'ruzani eshitib uyqularim kelib ketdi.
3. Bugun iftorlikka Anvarlar kelishar ekan.
4. Biznikilar yutishadi, meni aytdi deysan.

75

Menimcha...



Savolda gap ketayotgan kinoqahramon hammangiz taniysiz.

Unda regeneratsiya juda tez kechishini ham bilasiz.

Tabiatdagi kichik mavjudotga nisbatan qilingan kichik shafqatsizlikni ham kechirmasligidan xabardorsiz.

Uning parvozdagi halokatidan so'ng o'sha yerda ko'p narsa o'zgarib ketganiga ham g'oyibona guvohsiz.

Savol: uning ismi nima?

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zgalarning alloviga chuv tushgan odamlar haqida ma'lumot to'plab, og'zaki bayon qiling.

RUHIY TARBIYA

22-dars

Topshiriq. Matnni o'qing.

Vijdon erkinligi har bir fuqaroning dingga e'tiqod qilish yoki qilmaslik, diniy rasm-rusum va marosimlarda ishtirok etish yoki etmaslik kabi dingga nisbatan o'z munosabatini mustaqil aniqlaydigan shaxsiy huquqidir. **Har bir** fuqaro o'z ixtiyori bilan diniy ta'lif olish huquqiga ega. Buning uchun fuqarolarni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. Davlatimiz tomonidan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar **O'zbekiston Respublikasi** fuqarolari bilan teng ravishda vijdon va e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanishi qat'iy kafolatlangan.

Diniy **bag'rikenglik** xilma-xil diniy e'tiqod va **dunyoqarashda** bo'lgan kishilarning oljanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va **hamjihat** bo'lib yashashi, kishilik jamiyatni ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadigan tushunchadir. Bugungi kunda mazkur g'oya jamiyatning barcha **tinchliksevar** a'zolari hamkorligini nazarda tutuvchi, osoyishtalik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartlaridan biridir.

Bugungi kunga kelib respublikamizda jami **2239** ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya adliya ro'yxatidan o'tgan. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, O'zbekiston **konfessiyalararo** Bibliya jamiyati, shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziylar xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Toshkent Islom universiteti, «Mir Arab» oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, 9 ta madrasa, 2 ta ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar o'quv yurti, Toshkent pravoslav seminariyasi, Toshkent xristian seminariyasi kabi diniy ta'lif muassasalari **faoliyat ko'rsatmoqda**.



O'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida faol **ishtirok etish** uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun bilan dinning yuksak madaniyat va ma'naviyat vositasi ekanligi, beqiyos axloqiy-tarbiyaviy qudrati, shuningdek, insonlarni kamtarinlik, **mehnatsevarlik**, halollik va poklikka undovchi qadriyatlari milliy qadriyatlar qatorida qonuniy **tan olindi**. Diniy qadriyatlarning **millatlararo** mojarolar, qonli to'qnashuvlarni qattiq qoralashi, turli din va millatdagи odamlarni o'zaro birodar, ahil bo'lib, tinch-totuv hayot kechirishga da'vat etishi kabi omillari hisobga olinib, mamlakatimizda turli din vakillarining **hech qanday** to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoit va qulayliklar yaratib berildi.

Yildan yilga musulmonlarning Ramazon va Qurbon hayitlari, xristianlarning Pasxa va Rojdestvo, yahudiylarning Pasxa, Purim va Xanuka bayramlari keng ko'lama nishonlanmoqda. Bundan tashqari har yili O'zbekiston Respublikasi hukumatining har tomonlama ko'magi orqali musulmonlar Haj va Umra amallarini bajarish uchun **Saudiya Arabistoniga**, xristianlar Rossiya, Yunonistonga, yahudiylar esa Isroilga ziyoratga yuborilmoqda.

22.1-mashq. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.


- Quyidagi fikr yuzasidan mulohazangizni bildiring: "Har bir fuqaro o'z ixtiyori bilan diniy ta'lif olish huquqiga ega. Buning uchun fuqarolarni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi".
- Matnda fakt va dalillarni keltirishdan ko'zlangan maqsadni izohlang.
- Oilangizda diniy munosabatlar va diniy e'tiqod masalasiga qanday qaralishini misollar bilan so'zlab bering.
- Vijdoni uyg'ondi, vijdoni qiyonaldi birliklarining mazmunini kundalik hayotda ko'rgan-eshitganlaringiz asosida tushuntirishga harakat qiling.

77

22.2-mashq. Quyida berilgan parchalarni o'qing. Ularda yashirin ifodalangan hukm haqida o'z fikringizni og'zaki bildiring.



- Nega uzoq yo'ldan yuryapmiz, dada?
- Qosim do'konchi borku, shuning do'konni yonidan o'tmaylik deyapman, o'g'lim. Qarzi bor mendan... ancha bo'ldi.... berolmayapti. Biz unga o'zimizni ko'rsatib o'tishimiz yaxshi emas. Uni hijolatga qo'ymaylik.



Keksa otaxon uyali telefon ustasiga telefoni o'chib qolganini aytib, uni tuzatib berishini so'radi. Usta tekshirib ko'rib, telefon o'chib qolmaganini, yaxshi ishlayotganini aytди. Shunda cholning ichidan bir nima uzildi: «Nega unda farzandlarim qo'ng'iroq qilishmaydi?»

Bir odam aeroport kassasiga kelib:

- Menga chipta kerak, - debdi.
- Qayerga? – so'rabdi xodim.
- Bolaligimga, - javob qilibdi haligi odam.

Xodim yana ham qiziqib so'rabdi:

- O'zi u yerga borib nima qilmoqchisiz?
- Ota-onamning diydoriga to'yib qaytmoqchiman...



ASLIDA

“Tuflı oyog’imga sig’madi” degan gap teskari ma’noda qo’llanilishini bilasizmi? Aslida tuflı hech qachon oyoqqa sig’maydi, aksincha, oyoq tufliga tufliga sig’ishi mumkin. Qadimda “Oyog’im bu kavushga sig’madi” deb to’g’ri gapirishgan.

(Azamat Qorjovov)

22.3-mashq. Matnni o'qing va testlarni bajaring.

Ilm egallahsha harakat qilish har bir mo'min va mo'mina uchun farzdir. Hadisi sharifda aytilishicha, bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir. Ilm doim sening hamrohing bo'lib, adashishingdan va qoqlishingdan asraydi. Ilm olish ko'r-ko'rona bo'lmasligi kerak, duch kelgan narsani o'rganaverish yaramaydi. Shu bilan birga, ilm olishga qancha erta harakat qilsang, shuncha ko'p muvaffaqiyatga erishasan.

Ajdodlarimizdan bir ulamo aygan ekan: "Ilm o'rgan, u sening yoshlik paytlaringda to'g'ri yurishingni ta'minlaydi. Katta bo'lganiningda buyuk shaxsga aylanishingda asosiy sababchi bo'ladi".

Har bir limning o'z sharafi va ulug'vorligi bor. Xoh diniy, xoh dunyoviy (kimyo, geografiya, hisob, tibbiyat kabi) bo'lsin, hammasining o'z o'rni, o'z ahamiyati bor. Barcha ilmlarni mukammal egallab olishning iloji yo'q, shuning uchun ham eng kerakli, hayotda asqatadigan, e'tiqodga xizmat qiladigan ilmlarni o'rgangan ma'qul.



79

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, "yurishingni" so'zining ma'nosini aniqlang.

A	qadamlab bir joydan ikkinchi joyga jilmoq.
B	kezmoq, sayohat qilmoq.
C	borib kelmoq, qatnamoq.
D	hayot kechirmoq, yashamoq.

2. Qaysi javobda matn mazmuniga mos keladigan gap berilgan?

A	Ilm olish uchun, albatta, oq-qoraning farqiga boradigan yoshga yetish kerak, shundan keyingina ilmni egallahning payida bolish zarur.
B	Ilm olishga yoshlikdan harakat qilish kerak, chunki yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh kabitidir.
C	Ilm o'rgatuvchi o'z ilmiga amal qilmasa ham, boshqalarga ilm o'rgata olsa bas.
D	Ilm olish uchun kerakli mablag'ni qanday yo'l bilan bo'lsa ham, topa olish kerak, agar bu mablag'ni topa olmasang, ilm olishga intilma.

3. Matnda quyidagi qaysi fikrlar ilgari surilgan?

1	Ilm egallash ibodat qilishdan ortiq ekanligiga urg'u berilgan.
2	Matnda foydali ilmlarni egallash insonni noto'g'ri yo'llaga kirib ketishdan asrashi haqida aytilgan.
3	Inson dunyodagi barcha ilmlarni mukammal egallab olmog'l shart.
4	Matnda ilm olish ayol va erkak uchun farzdir degan g'oya ham ilgari surilgan.
A	1,2,4.
B	2,3,4
C	2,3.
D	1,2,3.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. She'rni o'qing. O'zingiz va yon atrofingizdagilar nutqida ishlatiladigan ma'nosiz birliklar ro'yxatini tuzing.

80

NUTQ HAQIDA

Har so'zida "bu", "anu",
"Haligi", "so'ng", "anaqa",
"Bu-bu" deydi – nima bu?
"Unaqa"si – qanaqa?

Tiliga kelib qolgan
So'zdan qayta olmasa,
"Bu" qo'shmasdan savolga
Javob ayta olmasa.

Gohi qovushmay so'zi,
Gapidan to'xtab qolsa.
Yaxshi bilsa ham o'zi,
Zo'rg'agina "3" olsa.

O'zingiz o'ylab ko'ring,
Nima bu, qanaqasi?
Qachon qilar O'tkirning
"Nima", "bu", "anaqasi"?

Odatlanganman, deding,
To'g'ri, hamma gap shunda.
Lekin axir, o'z tiling
O'zingga bo'ysunsin-da.

To'g'ri, aniq gap tuzib,
Javob bergin so'roqqa.
Xizmat qilsin har so'zing
Fikringni to'latmoqqa.

Mazmun nomli mo'ljalga
So'z otilgan o'q bo'lsin.
Nishonga tegmay qolgan
Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.

Do'stim O'tkirjon, buni
Yodingda tut har doim,
Otashin notig'ini
Minbarlar kutar doim.

(Erkin Vohidov)

23-dars

Topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ko'chma ma'nosi bo'yicha o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

UMR SHUNDAY KECHADI

Bir guruh ulfatlar tijorat maqsadida chet elga borishdi. U yerda hayot **qaynar edi**. Ular daryo **bo'yidagi** sakson qavatli mehmonxonaning yetmish beshinchi qavatiga joylashishdi, chunki bundan pastda joy yo'q edi. Yuqorida shaharni tomosha qilish qulayligini o'ylab, shu qavatda qolishga rozi bo'lishdi. "Ammo shuni eslatib qo'yishim lozimki, – deya ularni ogohlantirdi mehmonxona xodimi, – ichki tartibimizga ko'ra, kech soat o'n birdan ertalabki yettigacha lift ishlamaydi. Shuning uchun soat o'n birgacha xonangizga chiqib olishni unutmang".

Ulfatlar birinchi va ikkinchi kunlari aytilgan vaqtgacha ishlarini tugatib, xonalariga ko'tarilib olishdi. Ammo uchinchi kuni ko'ngilochar tomoshada uzoqroq qolib ketishdi. Mehmonxonaga qaytishganida soat o'n birdan o'n daqiqa o'tgan edi. Xizmatchilardan liftni ishlatib berishni iltimos qilishdi, lekin foydasi bo'lmasdi: lift avtomatik ravishda o'char ekan. Pastda qolishning ham iloji yo'q, yetmish beshinchi qavatga zinapoya orqali piyoda chiqish esa azob. Shunda bittasi:

– Kelinglar, sekin suhbatlashib chiqib ketaveramiz. Avvalgi yigirma besh qavatda latifa aytamiz, askiya **to'qiyimiz**, hazil-huzul qilamiz. Keyingi yigirma besh qavatda esa qo'rqinchli voqealardan so'zlaymiz. Qarabsizki, xonamizga yetib olganimizni ham bilmay qolamiz, – dedi. Bu gap hammalariga ma'qul keldi.

Darhaqiqat, qiziq-qiziq hangamalar bilan **boshidagi** yigirma besh qavat ancha tez bosib o'tildi. Keyin jiddiy voqealarning, mardlik qissalarining navbatni keldi. Ulfatlar ikkinchi bosqichni ham amallab ortda qoldirishdi. So'nggi yigirma besh qavatni g'am-g'ussaga to'la hikoyalari, yurakni **ezadigan** alamlari rivoyatlarni aytib, ming azob bilan bosib o'tishdi. Nihoyat, sillalari qurib, hansirab, tillari osilib eshik oldiga yetib kelishdi. Shunda ulardan biri o'sha kunning eng musibatli qissasini aytdi: „Kalit pastda qolib ketibdi!“

Yuqorida o'qiganingiz bir majoziy hikoya edi. E'tibor bersak, insonning hayoti ham mazkur ulfatlarning safariga o'xshab ketadi.



81



23.1-mashq. Mant asosida majoziy ma'nolardagi birliklarni o'qituvchingiz yordamida toping va ularga mos izoh tayyorlang.

Namuna: mehmonxona – dunyo, inson umri.

23.2-mashq. Quyidagi qo'shma gapning sinonimlarini hosil qiling va mazmunda o'zgarish sodir bo'lgan-bo'limgani haqida so'zlang.

1.Ular daryo bo'yidagi sakson qavatli mehmonxonaning yetmish beshinchi qavatiga joylashishdi, chunki bundan pastda joy yo'q edi.

2.Xizmatchilardan liftni ishlatib berishni iltimos qilishdi, lekin foydasi bo'lindi: lift avtomatik ravishda o'char ekan.

3. Pastda qolishning ham iloji yo'q, yetmish beshinchi qavatga zinapoya orqali piyoda chiqish esa azob.

QO'SHMA GAPLAR USLUBIYATI

Qadrli o'quvchi! Nutqda bir mazmunni har xil ifoda shakllari bilan berish mumkin. Bunda mazmunga turli ta'sir bo'yoqlari yuklanadi. Shu bois nutq maqsadidan kelib chiqib, ifoda shakllaridan tanlab foydalilanildi. Masalan,

1. Zamon bilan hamnafas bo'lganlar boshqalardan bir qadam oldin yurishadi. (sodda gap)

2. Zamon bilan hamnafas bo'ling, shunda boshqlardan bir qadam oldin yurasiz. (bog'lovchisiz qo'shma gap)

3. Shuni bilingki, zamon bilan hamnafas bo'lganlar boshqalardan bir qadam oldin yurishadi. (ergash gapli qo'shma gap)

4. Kimki zamon bilan hamnafas bo'lsa, u boshqalardan bir qadam oldin yuradi. (ergash gapli qo'shma gap)

5. Zamon bilan hamnafas bo'ling va boshqlardan bir qadam oldin yuring. (bog'langan qo'shma gap)

Demak, nutqda bog'langan, ergashgan hamda bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'zaro ma'nodosh bo'lishi mumkin. Fikr ergash gapli qo'shma gaplar bilan ifodalanganda esa mazmun ta'sirli, bo'yoq dor bo'ladi.

23.3-mashq. Berilgan gaplarni qo'shma gapning turli shakllari orqali yozma ifodalang.

1. Yoshlikdagi xato ham foydadan holi emas, faqat uni to qariguncha sudrab yurmasak bo'lgani. (Gyote)

2. Siz kim bilandir bahslashib, g'olib chiqishingiz mumkindir, lekin hech qachon o'sha insonning xayrixohligiga erisha olmaysiz. (B.Franklin)

3. Qadam tashlang, yo'l o'z-o'zidan paydo bo'ladi. (S.Jobs)

4. O'z xatosini tan olish shunday sifatki, nafsda xokisorlik kuchayib, kibr kuchsizlanadi. (*Naqshbandiy*)



AYYUHANNOS – JARCHINING XITOBI

Ayyuhannos so'zi arab tilidan kirgan, asliyatda ey odamlar degan ma'noni anglatadi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ko'rsatilishicha, arabchada **ey** undovini ifodalovchi **ayyuha** so'zi, **al-** aniqlik artikel va odamlar ma'nosini bildiruvchi **nas** so'zidan tarkib topgan.

Bu so'z o'zbek tilida ikki xil ma'noda qo'llanadi:

1. Olomonga, to'daga qarata qilinadigan xitob, nido.
2. Shovqin-suron, hayqiriq; dod-faryod.

Ayyuhannos solmoq iborasi baqiriq-chaqiriq, dod-faryod bilan boshiga ko'tarish ma'nosini anglatadi.

Qadimda jarchilar odamlarga **ayyuhannos (ey odamlar!)** so'zi bilan murojaat qilgan. Jarchi baland ovozda, baqirib gapirishga majbur, chunki so'zlarini ko'pchilikka yetkazishi kerak. U birinchi bo'lib ishlatadigan **ayyuhannos** so'zi keyinchalik baqir-chaqir qilish, shovqin ko'tarish holatlariiga nisbatan ham qo'llana boshlagan.

23.4-mashq. Rasmni tomosha qiling. Aslida tushunchasiga munosabat bildiring.



Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o'qing. Unga sarlavha toping. Matnda yashiringan ramzlarni aniqlab, o'z xulosangizni yozing.

Zulqarnayn yarim kecha o'z qo'shini bilan bir g'ordan o'tib borar ekan, "Oyog'ingiz ostida uchragan narsalardan olib keting", – deya amr qildi. Qo'shindagilardan bir guruhi: "Ko'p yurdik, juda charchaganmiz, endi kechasi bilan oyog'imizdagi narsalarni ham yig'amizmi?" – deb hech nima olmadilar. Ikkinci bir guruhi: "Qo'mondonimiz aytgan ekan, bir oz to'play qolaylik, buyruqqa qarshi chiqmaylik", – deb ozgina narsa oldilar. Uchinchi guruhi esa: "Qo'mondon bejiz bunday demadi, bunda qandaydir hikmat bo'lishi kerak", – deya to'rvalarini to'lguncha qo'fga ilingan narsalar bilan to'ldirdilar.

Kun yorishganda qarasalarki, oltin konining yonidan o'tishibdi. Oyoqlariga tekkan narsalar oltin ekan. Buni bilganlarida esa, hech narsa olmagan birinchi guruhi: "Eh, nega olmadik- a! Nega qo'mondonimizning gapiga kirmadik? Bitta bo'lsa ham olsaydik", – deb pushaymon bo'ldilar. Ozgina olgan ikkinchi guruhdagilar: "Eh, yana ozgina olsak edi. Cho'ntaklarimizni, xaltalarimizni to'ldirsak bo'lar ekan", – deb qolishdi. Ko'p olgan uchinchi guruhi esa: "Koshki keraksiz narsalarimizni tashlab yuborsaydik, Hamma narsalarimizni to'ldirsaydik. Bundan ham ko'proq olib qolsaydik..." – deya ko'p olganlariga qaramay baribir xafa edilar.

Hikmat

Qanoat qo'rg'ondir – yerga kirsang, nafs yomonligidan qutulasan.

Tog'likdir u – yerga chiqsang, dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'lursan.

(Alisher Navoiy)

24-dars

Topshiriq. Matn bilan tanishing. Hayotda shu kabi voqealarni ko'rgan yo eshitganmisiz?

ALDANIB QOLMA!



Bir odam yo'lda ketarkan, dehqonga duch kelibdi va salom beribdi:

- Assalomu alaykum!
- Vaalaykum assalom! Yo'l bo'lsin, birodar?
- Sigirimga yem olmoqchi edim. Shu tarafda bir baqqol bor ekan, shuning do'koniga ketyapman.
- Shunaqami... unday bo'lsa, ehtiyyot bo'l, aldanib qolma!
- Meni hech kim alday olmaydi!
- Aytdim-qo'ydim-da...

U odam baqqolning do'koniga yetib kelibdi. Salom-alikdan so'ng yemning narxini so'rabdi. «Falon narx», - debdi baqqol.

- Yaxshi, menga o'n kilo bersangiz.

Baqqol o'tirgan joyidan qo'zg'almabdi. Qo'li bilan do'konning orqa tomoniga ishora qilib:

-O'sha yoqqa o'tib, yemdan keragini olgin-da, menga pulini to'lab ketaver. Yem to'kib qo'yilgan joyda tarozi ham bor, - debdi.

Xaridor ko'rsatilgan tarafga o'tib, xaltasini taroziga qo'yib, yem sola boshlabdi. O'n kilo bo'lgandan keyin qarasa, atrofda hech kim yo'q, baqqol o'tirgan joydan bu taraf ko'rinxaydi ham. Odam xaltasiga to'rt-besh kilo ortiqcha yem solibdi va baqqolga o'n kilo yem uchun pul to'lab, uni aldabdi.

Do'kondan chiqib, o'z yo'liga ketibdi. Yo'lda yana boyagi dehqonni uchratibdi.

- Oldingmi yem? – so'rabdi dehqon.

- Ha oldim. Siz aldanib qolma, degandingiz. Aldashni eplaydigan odam emas ekan-ku o'sha baqqol, bir joyda mudrab o'tiribdi. Qaytaga bopladi uni! To'rt-besh kilo ortiqcha yem oldim, sezgani ham yo'q...

Dehqon bu odamning yuziga achinish bilan boqib, boshini sarak-sarak qilibdi:

-Men senga aytgandim-a, aldanib qolishdan ehtiyyot bo'l, degandim-a! Afsus...Aslida sen aldanding! Arzimagan 4-5 kilo yem uchun xayr-barakangni qo'ldan boy berding, baqqolning gunohlarini o'z yelkangga olib, do'zaxni o'zingga tayin qilib qo'yding...

85

(azon.uz)

24.1-mashq. Aziz o'quvchi, hikoyadan siz qanday xulosa chiqardingiz? Quyidagi maqollardan qay bir(lar)i sizning xulosangizga mos keladi?

1. Halol topgan pulingga, olib yesang osh-u non, Shundagina ishtahang ochiladi begumon.
2. Bir harom luqma deb, ming halol luqmani yo'qotasan.
3. Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.
4. Chiroyli tovus o'z parlarini ehtiyyot qilar, Vijdonli kishi o'z shon-u sharafini saqlar.

24.2-mashq. “Aldanib qolma!” matnidan gap bo’laklari tartibi o’zgargan jumla(lar)ni aniqlab, daftaringizga yozing. Odatdagি tartibga aylantirib ko’ring va ma’noda qanday o’zgarish yuz bergenini izohlang.

GAP BO’LAKLARI TARTIBI USLUBIYATI

Gap bo’laklari tartibi ikki xil: a) odatdagи tartib; b) o’zgargan tartib.

Odatdagи tartibda ega (o’z aniqlovchisi bilan) oldin, kesim gapning oxirida keladi: Go’zal xulq va boshqalarga yaxshilik qilish, farzandlarga yaxshi o’rnak bo’la olish saodat saroyining kalitidir. (Tohir Malik)

O’zgargan tartib (bu inversiya ham deyiladi)da bu qoida amal qilmaydi Gap bo’laklarining odatdagи o’mi ahnashtirib berilishi nasrga nisbatan ko’proq she’riyatda uchraydi. Bunda ijodkor ma'lum so’zlarni ta’kidlash, ularning ta’sirchanligini oshirish maqsadida va she’riyat talabi bilan so’zlarning o’rnini almashtiradi: Ko’pkariga kirkanning Halollik erur dardi.(A.Oripov)

24.3-mashq. Matnni o’qing. Rivoyatdan chiqargan xulosangizni yozma ifodalang.

Hazrat Ali roziyallohu anhu otlarini bog’lab, masjidga kiraverishlarida bir tilanchiga ko’zlari tushibdi va unga ikki tillo tanga ehson qilishni niyat qilibdilar.

Namozlarini o’qib bo’lib, chiqib qarasalar, tilanchi ham, otlarining egari ham yo’q ekan.

Yangi egar olmoqchi bo’lib bozorga borgan ekanlar, masjid oldida ko’rgan tilanchilari o’zlarining egarlarini sotib turganlariga ko’zlari tushibdi. Tilanchiga borib, ikki tillo tanga berib, egarlarini sotib olibdilar...

Alloh taolo belgilab bergen rizqimizdan ortig’iga ham, kamiga ham ega bo’la olmaymiz, faqat shu rizqni halol yoki harom yo’l bilan topishimiz o’zimizga bog’liq.

(hordiq.uz)

24.4-mashq. Hikoyani davom ettiring va sinfdoshlaringizga o’qib bering.

Katta tanaffusga qo’ng’iroq chalinishi bilan bolalar “duv” etib tashqariga otilishdi. “Hozir hammasi maza qilib ovqatlanadi, – o’yladi Tolib. – Dadamning maoshi cho’zilib ketmaganda, menga pul berardilar. Men ham bufetdan issiqliqqa somsa olib yerdim”.

Tolib beixtiyor partadoshi Sobirning kitobini varaqnadi. Keyingi sahifani ochganda, u yerda bitta 10 000 so’mlik pul bor ekan. Tolib pulga tikilib qoldi, keyin esa birdan tok urgandek sekanib o’rnidan turib ketdi. Kirobni yopdi. Yopishga yopdi-yu, qandaydir kuch uni kitob tomon yetakladi...

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. “Ko’p gapirish – yomon odat” deb nomlangan komiksdagi fikrlarni izchil tartibda hikoya shakliga keltiring.



25-dars

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

... Kichik qishloqda gap tez tarqaladi: emishki, baqqol tarozidan urib qolib, odamlarni aldayotgan ekan. Hammasi novvoyning qishloq qozisi oldiga shakar sotuvchi savdogar ustidan shikoyat qilib borishidan boshlandi. "Men undan pishiriq uchun har kuni yuz misqol (500 gramm) shakar sotib olaman. Odatimga ko'ra, undan olgan shakarni ishlatishdan oldin taroziga tortdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, muttaham savdogar menga sotgan qadoqda yuz emas, sakson misqol shakar bor ekan. Bilasiz, pishiriqning mazali chiqishi uchun masalliq me'yorida bo'lishi kerak. Ammo, u har gal shuncha shakar urib qolsa, men xonavayron bo'laman. Sizning oldingizga adolat istab keldim", dedi jabrdiyda novvoy umidvor ko'zlarini qoziga tikkanicha.

Ko'p o'tmasdan nozirlar shakar sotuvchi baqqolni topib keldilar. O'ziga qo'yilgan ayblovni eshitgan savdogar avvaliga shoshib qoldi. Bir fursat o'tib xotirjamlik bilan gap boshladi:

– Oqil qozi janoblari, o'sha kuni odatimga ko'ra novvoydan tushlik uchun non olib, do'konga borgan edim. Aftidan, bolalar tarozini o'ynashgan ko'rindi, uning yuz misqollik toshini hech qaerdan topa olmadim. Noiloj tarozining boshqa pallasiga novvoy yuz misqol deb sotadigan o'sha nonni qo'yib, bir necha qadoq shakar o'lchashga majbur bo'lgan edim. Ammo, bu holat faqat o'sha kuni sodir bo'ldi. Ehtimol, novvoy olgan shakar ham o'sha kungi qadoqdandir.

Qozi bir oz o'yga cho'mgach, novvoyning do'konidan bir nechta non keltirishlarini buyurdi. Keltirilgan nonlar o'lchab ko'riganida ularning barchasi me'yordan ancha yengil ekani ma'lum bo'ldi. Tegishli jazoni olgan novvoy qishloqdoshlari qarshisida uyatdan mulzam bo'ldi.

(Shuhrat Sattorov tarjimasi va tahriri)

88

25.1-mashq. Quyida berilganlar orasidan hikoyatga sarlavha tanlang va xulosangizni tezis shaklida yozing.

1. Qilmish – qidirmish.
2. Savdodagi yolg'on barakani ketkazar.
3. Kim aybdor?
4. Yolg'onning umri qisqa.
5. Tarozi pallasidagi yolg'on.

25.2-mashq. Matnlarni o'qing. Bir mavzu ostidagi hadislarni ko'chiring.

1. Rasululloh s.a.v "Kim bir go'dak bolaga mana buni ol desa-yu, hech narsa bermasa, u odam yolg'onchi bo'ladi", dedilar. (Abu Hurayra r.a dan qilingan rivoyat)
2. Hasan Basriy deydiki: "Munofiqlik til bilan dilning, so'z bilan amalning, ichkari bilan tashqarining xilof kelishidir. Shak yo'qli, munofiqlik yolg'on ustida barpo bo'ladi".
3. Hazrati Ali (r.a.) Kumaylga shunday deganlar: "Ilm moldan yaxshidir, u seni himoya qiladi, molni esa sen qo'riqlashga majbursan, ilm - hokim, mol mahkumdir, ehson-nafaqa qilish bilan mol kamaysa, ilmni tarqatganing sayin ko'payib boradi".

4. «Nabiy alayhissalomdan so'rashdi:
- Mo'min qo'rroq bo'lishi mumkinmi?
 - Ha, – dedilar.
 - Baxil bo'lishi mumkinmi?
 - Ha, – dedilar.
 - Yolg'onchi bo'lishi mumkinmi?
 - Yo'q, aslo! – dedilar. (Imom Molik rivoyati)

25.3-mashq. Eng mashhur yolg'onlarni o'qing. O'zingiz ham shu yolg'onlarni ishlatasizmi? Misollarni davom ettiring.

- Seni laylaklar olib kelgan.
- O'tirsangiz, osh pishayotgan edi...
- Orqasidan gapiryapman, shu yerda bo'lsa yuziga ham aytaman...
- Oxirgisini sizga sotyapman, bundan boshqa qolmadni...
- Men ham senga endi telefon qilmoqchi bo'lib turgan edim.

25.4-mashq. Matnni o'qing. Undan foydali ma'lumot oldingizmi? Hayotiy misollar bilan fikringizni adabiy tilda og'zaki ifodalang.

10-15 yil avval Internetda tanishishni xayolga keltirib bo'lmash edi. Bugun buning aksi. Internet do'st yoki qayliq topishning ommabop vositasiga aylangan. Xavfsizlik organlariga murajaatlarning uchdan bir qismi VKontakte, Odnoklassniki, Facebook kabi ijtimoiy saytlarda muabbat izlab, jinoyatchilar to'riga tushib jabrlanganlar hissasiga to'g'ri keladi. Ta'kidlanishicha, firibgarlar va zo'ravonlar soxta akkauntlar ochib, tanishuv ilovalaridan mohirlik bilan foydalanishadi. Monitor ortida kim turganligi va uning qanday maqsadi borligini kim ham bilardi?

Xo'sh, onlayn yolg'onne fosh qilsa bo'ladimi? Agar odam jonli ravishda uchrashishni yoki hech bo'lmaganda aloqani Skype orqali muloqot yoki telefon suhbatiga aylantirishni xohlamasa, demak, bunday aloqani yolg'on deb hisoblash mumkin. Sevgi va niyatlarning jiddiyligi haqidagi barcha kafolatlar oflays tanishuv buzilganida bekor qilinadi. Uchrashishga kelishib, keyin esa uni bekor qilish - ekranning narigi tomonida firibgar borligi haqida yetarlicha signal. Jiddiy munosabatlar hech qachon sir bo'lib qolmasligi kerak.

(terabayt.uz)

89

ARGO VA JARGONLAR

Argo (fr. argot - «lahja») va **jargon** (fransuzcha g'argon - «buzilgan til») - ayrim professional yoki ijtimoiy guruhning qo'llanishi chegaralangan leksika tarkibi. Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko'pchilikdan ajralib turish, fikrni sir tutish maqsadida yoki qulaylik uchun qo'llaniladi. Masalan, programmist jargoni (*fleshka* – flesh, *vinchestr-vint*), yoshlar jargoni (ok-juda yaxshi, g'isht-xunuk, uxlatmoq-aldamoq), o'g'rilar jargoni (stukach-chaqimchi, shinner-sotqin), artistlar jargoni (*qistir-qistir* – pul, sezon-to'y mavsumi) kabi.

25.5-mashq. Berilgan gaplarni taqqoslab o'qing. Birinchi ustunda ajratib berilgan so'z va birikmalarni ikkinchi ustundagi gaplar asosida izohlang.

1	<ul style="list-style-type: none"> – Sessiyang nima bo'ldi? Yopdingmi yo yaxladingmi? – Amalladim. Ishqilib, vozduxga ilindim-da. 	<ul style="list-style-type: none"> – Sessiyang nima bo'ldi? Topshirdingmi yo yiqildingmi? – Amalladim. Ishqilib, stipendiyaga ilindim-da.
2	Telman onasidan ko'z uzmagan holda shaytonsuvdan ichib olgach, «Mamul nakaut», –deb kului. (Tohir Malik)	Telman onasidan ko'z uzmagan holda aroqdan ichib olgach, «Onam tamom bo'ldi», –deb kului.
3	Dahshat qiz ekan, jo'ra, gap otishniyam sindirding-da.	Chiroylı qız ekan, jo'ra, gap otishni ham qoyıl bajarding-da.
4	Menga gapiryapsanmi, g'irt sirkach ekansan-ku.	Menga gapityapsanmi, g'irt masxaraboz ekansan-ku.
5	Og'ayni, chorrahada tog'amning o'g'li turibdi, burilib ketma.	Og'ayni, chorrahada inspektor (DAN xodimi) turibdi, ehtiyot bo'l.

90

Menimcha

25.6-mashq. Uzbaza.uz saytidan olingan quyidagi mantiqiy jumboqning javobini toping.

Jon Smidt yakshanba kuni kechki payt o'ldirildi. Bu vaqtida uyda 5 kishi bor edi:

- 1) Janob Smidtning xotini;
- 2) shaxsiy oshpaz;
- 3) bosh xizmatkor;
- 4) xizmatkor;
- 5) bog'bon.



Detektiv ularning har biri bilan suhbat qilib, jinoyat sodir etilgan vaqtida nima bilan shug'ullanayotgan ekanliklarini so'raydi. Shunda:

- Smidt xonim o'z xonasida kitob o'qiganini;
- oshpaz nonushta tayyorlayotganini;
- bosh xizmatkor hovlida gul ko'chatlarini qabul qilayotganini;
- xizmatkor idish-tovoqlarni yuvayotganini;
- bog'bon tomorqaga suv quyayotganini aytadi.

Ushbu suhbatdan so'ng detektiv jinoyatchi kim ekanini darhol fosh qiladi. Savol: janob Smidtning qotili kim?

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi matnni o'qing. Yolg'on va vijdon haqida mulohazangizni yozing.

Avtobusda ketayotganimda, yonimda o'tirgan bolaning qo'l telefonini jiringladi.

– Uff, yana oyim telefon qilyaptilar. Gapirmay tur, – dedi u telefonni qulog'iga olib borarkan. Keyin muloyim ovozda onasi bilan gaplashdi:

– Oyijon, xavotirlanmang. Rashid ikkalamiz ingliz tilidan yaxshi javob berolmagandik, ustoz olib qoldilar. Hozir qo'shimcha mashg'ulot boshlanadi, xayr, – u telefonni o'chirib o'rtog'iga yuzlandi. – Ana endi bemalol ikki soat pleysteyshnda o'tirishimiz mumkin. Bugun sendan o'chimni olaman, – og'zi qulog'iga yetib tirjaydi u.

Odobligina ko'rigan bu bolaning hech uyalmay onasini aldagani menga yoqmadi.

– O'g'lim, nega oyingga yolg'on gapirding? – deb so'radim sekingina.

– Oyimga do'stlarim bilan dars tayyorlashimni aytsam, xursand bo'ladi. Agar musiqa tinglab ushlanib qolganimni eshitsa, qo'l telefonini ishlatalishimga ruxsat bermaydi, qattiq nazoratga oladi. Kompyuter kafesiga borib uyga kech qolsam, darslarimiz ko'payib ketganini bahona qilib, telefon orqali ogohlantiraman. Uydagilar tushlik uchun bergen pullarni tejab, do'stlarim bilan shahar aylanishga boramiz. Ustozimiz yoki ota-onamiz bunga ruxsat bermasligini bilganimiz uchun ham yolg'on gapirishga majburmiz, –javob berdi Sardor. Yonidagi Otobek esa Otobek esa, ishonarli yolg'on gapirish qiyin ekanligini tan oldi.

91



misol va masalalarni yechishga qiynalaman. Ustozim darsdan keyin o'zlashtirishda orqada qolgan o'quvchilar bilan qo'shimcha darsga qolishimni aytganda ham, yolg'on gapirib mashg'ulotlarga bormaganman. Bu haqida uydagilarni ogohlantirmoqchi bo'lib kundaligimga yozib yuborganda, past baho qo'yanida ham ota-onamga sezdirmadim. Ba'zida, darslarimiz kam bo'lgan kunlari, sinfdoshlarim bilan internet kafelarga kiramiz. U yerda pul to'lab o'ynay olmasak ham boshqalarning o'ynayotganini tomosha qilishimiz mumkin. Uydagilar surishtirganda, bilib qolmasliklari uchun, do'stlarimiz bilan maktab kutubxonasida edik, deb aytishga kelishamiz. Bu – yolg'on gapirish qiyin bo'lsa ham vaziyatdan chiqib ketishning oson yo'li.

Aslida ko'zimizga arzimas bo'lib ko'rigan yolg'onlar katta xatolarni keltirib chiqaradi. Bu aldovlarning oxiri yaxshilik bilan tugamaydi. O'zaro ishonch yo'qoladi. Siz qanday fikr dasiz? (gulxan.uz)

HUQUQDAN BURCHGACHA

26-dars

Topshiriq. Atoqli tilshunos olim Alibek Rustamovning “So’z xususida so’z” kitobidan olingan fikrlar bilan tanishing. **So’zshunos va so’zchi so’zlarini izohlang.**



Aziz so’zsevar, so’zshunos-u so’zchilarning so’ziga qaraganda, so’z xususida so’z ko’p. So’z siri-yu san’ati so’zchi sehri-yu sultanatin yaxshi bilgan ulug’ Navoiy:

So’z guharig’a erur oncha sharaf
Kim, bo’la olmas anga gavhar sadaf
degan.

Demak, har bir so’zga gavhardan quticha qilib saqlansa, shunda ham uning qiymatiga yarasha ish qilinmagan bo’lar ekan. Bunda hech qanday mubolag’a yo’q. Bu so’zga berilgan haqiqiy baho. Tirik jonning hayoti uchun havo qanchalik zarur bo’lsa, insonning inson sifatidagi turmushi va uning insoniyligini belgilovchi ma’naviy tirikligi uchun so’z shunchalik zarurdir. Bir nafas havoning o’rnini dunyodagi barcha javohir bosolmaganidek, bir so’zning vazifasini xazina-xazina oltinlar bajarolmaydi. So’z qiymatiga emas, qadrga ega, qadrlı narsalarning ahamiyatini moddiy boylik bilan baholab bo’lmaydi.

92

26.1-mashq. Matnni o’qing va so’zlovchining majburiyatlari nimalardan iborat ekanini yozma ifodalang.



Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy „Mahbub ul-qulub“ asarining voizlikka (notiqlik san’atiga) bag’ishlangan 24-faslida shunday yozadi: „Va’z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatin qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo’lni bormoq kerak, andin so’ngra elni boshqarmoq kerak. Yo’lni yurmay kirgan itar va g’ayri maqsud yerga yetar. Voiz uldurki, majlisig’a xoli kirgan to’lg’ay va to’la kirgan xoli bo’lg’ay. Voizkim, bo’lg’ay olim va muttaqiy – aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurub o’zi qilmag’ay, hech kimga foyda va asar aning so’zi qilmag’ay“.

SO’Z YASOVCHI QO’SHEMCHALAR USLUBIYATI

So’z yasovchi qo’shemchalarda, asosan, sinonimlikda uslubiy ma’no nozikligi ifodalanadi: mehnatkash – mehnatchi, jilvali – jilvakor – jilvagar, basavlat – sersavlat – savlatdor, suzuk – suzgun, kabi. Ba’zan ijodkorlar tomonidan ham o’ziga xos so’zlar yasalishi ko’zga tashlanadi: Bu dunyo asli bir **ko’ngilzor** edi. (B. Fazliddin) Ne baxt,

Quyoshiston ta'rifli diyor Nurli peshonamga bo'libdi nasib. (E. Vohidov). Gururimga **g'ururdosh** zamonga ming tashakkur. (A.Oripov) Nutqda ba'zan so'z yasovchi qo'shimchalarni yanglish va ortiqcha qo'llash holatlari kuzatiladi. Masalan, yog'lik osh emas, yog'li osh; befarosatsizlik emas, befarosatlik yoki farosatsizlik.

26.2-mashq. Erkin Vohidovning "sodda kashfiyat"lari aks etgan matn bilan tanishib chiqing va o'zaro fikr almashing. Siz ham har kuni foydalanadigan yasama so'zlar ro'yxatini tuzing.



So'zni eshitamiz, so'zlashni qotiramiz, lekin So'z mag'zini chaqish aksar xayolimizga kelmaydi. Nega shunday deymiz, deya o'zimizga savol bermaymiz. Bu sinoat to'la olam bamisol olisdagi yulduzlardek noayon qolaveradi. **Uzum yedim, "uzum" dedim, bilsam, tokdan uzib yedim,** degandek, o'z qo'lim bilan ishkomdan uzum uzturib, bu so'zning **uzmoq**dan olingani xayolimga kelgan edi. Axir **ungan** narsani **unum, g'uj** o'sgan mevani **g'ujum**, jamiyat **tuzilishini tuzum**, cho'g'ning **qo'ridan** qolgan kulni **qurum**, deymiz. Og'izga solib **yutganimiz yutum**, tomoqdan **qult** etib o'tgan suv **qultum** bo'lganidek ishkomdan **uzib** yeganimiz **uzum** bo'ladi-da, deya o'z sodda kashfiyotimdan suyungan edim.

93

Kuraydigan qurolimiz **kurak**, ichki a'zo **ichak**, gul tubida turadigan idish **tubak** – biz uni **tuvak** deymiz. Kaftni kaftga urish – olqish belgisi. Chiqqan tovush chapillasa **chapak**, qarsillasa **qarsak** bo'ladi. Buni anglash qiyin emas, lekin ko'ksimizda gursillab urib turgan yurakni **yurak** deyish to'g'rimi yoki **urak? Yurak** yuradimi, uradimi? Ko'krak-chi? Nega ko'ksimizni shunday ataymiz? **Ko'ksim osmon**, degandek bu nom **ko'k**, yani osmon bilan bog'liqmi? Undoq desak, emikdosh ma'nosida keluvchi **ko'kaldosh** so'zidagi **ko'k** o'zagi nimani anglatadi? Qozoqlar akani **ko'ka** deb chaqiradilar. Bu so'zlarning ko'krakka aloqasi yo'qmikan?.. Bunday jumboqlar yuzlab, minglab so'zlarimiz zamirida yotibdi. Ular bizni qilynashi, uyqu bermasligi kerak, Mahmud Qoshg'ariy bobomizning kitobi yostig'imiz ostida bo'lmog'i kerak.

26.3-Mashq. Nuqtalar o'rniغا mos so'zlarni tanlab, maqollarni ko'chiring. Nima uchun aynan shu so'zni tanlaganiningizga izoh bering.

1. Muzdan suv tomar, ... (so'zamol, so'zshunos, so'zchi)dan – bol.
2. ... (Shirali, shirador, sershira) so'zga qulqoq charchamas.
3. Har (yaltiragan, yiltillagan, yarqiragan) oltin emas.
4. Tekinxo'r qopib yeydi, ... (mehnatchi, mehnatkor, mehnatkash) topib yeydi.
5. Aqli o'tkirning so'zi ... (chopag'on, chopuvchi, chopqir).

26.4-mashq. Matnni o'qing. O'z munosabatingizni yozma ifodalang va uni jamoangizga asoslab berishga harakat qiling.



Xotinlarni falonchi xonim yoki beginm deb atash bor. Bu so'zlardagi *-im* qo'shimchasini egalik qo'shimchasi deb tushunadilar. U holda nima uchun egalik qo'shimchasi qo'shilganda *xon* bilan *bek* ayol kishiga aylanadi, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Vaholanki, "xonim" va "begin" so'zlaridagi *-im* qo'shimchasi egalik qo'shimchasi emas. Qadim turkiy tillarda ona ma'nosidagi "uma" so'zi bo'lgan. "Begin" va "xonim" so'zlar tarkibidagi *-im* ana shu "uma" so'zining ixchamlashganidir. Demak, aslida "xonim" "mening xonim" emas, ***xon-on*** va "begin" "mening begin" emas, ***bek-on*** degan ma'noda ekan.

(A.Rustamov. "So'z xususida so'z", 125-bet)



SHERIKLIK OSHNI IT YEMAYDI

94



Ayrim yigitchalar, ular bir lagandan yoki bir dasturxondan taom yeyishga taklif qilinganda, "**Sheriklik oshni it yemaydi, men yeymanmi?**" deb taklifni rad etadilar. Mazkur maqolni bunday ishlatalish mutlaqo noto'g'ridir. Chunki bu maqol oshni it va itga o'xshaganlargina yematdi, inson esa, aksincha, taomni o'zgalar bilan baham ko'radi, yolg'iz taom yeyolmaydi, degan mazmundadir. Ko'pchilikning bir lagandan osh yeyishi ahillik alomati hisoblanadi va bu bolalarni ahillikka hamda bir-biriga mehribon bo'lismiga o'rgatish uchun maxsus qilinadi. Shunda kichkina bolalar bir-biri bilan chiqisholmay qolsalar, ularga odam bolasi bir-biri bilan hech narsani talashmasligini, talashish, urishish hayvonga, ayniqsa, itga xos ekanligini tushuntirib, bolalarni tartibga o'rgatish maqsadida "sheriklik oshni it yemaydi", deyildai. Agar bola biror narsani o'zi ham yemay, birovga ham bermasa, unda u bolaga, itlik qildi, deyildadi. Chunki it o'zi to'ygandan keyin ham irillab, ovqat oldiga boshqalarni yo'latmaydi.

Demak, sheriklik oshni it yemas ekan, inson bolasi esa aqli, esi, hushi bo'lgani uchun sheriklik oshni yer ekan va bu uning insoniy xususiyati ekan.

(A.Rustamov. "So'z xususida so'z", 82- bet)

26.5-mashq. "Bo'sh o'tirma, bosh qotir".

Fors donishmandlari fikricha, sultanatda har doim egri va qing'ir ishlarni qiluvchi amaldorlar shoh yonidan joy olishgan. To'g'riso'z va vijdonli insonlar esa doimo chetda qolib ketishgan.

Savol: donishmandlar o'zlarining bu fikriga isbot sifatida nimani misol keltirishadi? Rasmlar orasidan javobni topib, izohlab bering.



Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Berilgan fikrni diqqat bilan o'qing. Basharti rassom bo'lsangiz, ona tilingizni qanday tasvirlagan bo'lar edingiz? Tasavvuringizni qog'ozda ifodalashga urinib ko'ring.

O'zbek tilim boshqalarga qandoq, bilmayman, lekin men uchun dunyoda eng boy, eng go'zal, eng barkamol til. O'zbekcha gapirib tilim chiqqan, qo'limga qalam olib o'zbekcha yozganman, qalbim sevinchlari va iztiroblarini o'zbekchada qog'ozga tushirganman. Unga mehrimni, minnatdorligimni izhor etib bir kitob yozsam, degan niyatim bor. Yozganlarim she'r bo'lmasa-da, she'rdek o'qilsa, deyman. Ona tilimning ko'rki, barvasta qomati sahifalardan bo'y ko'rsatib tursa, deyman. Orzularim ko'p. Qani edi parvozim orzularim qadar yuksak bo'lsa...

(Erkin Vohidov)

27-dars

Topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan birliklar ifodalayotgan tagma'nolarni izohlang. Ularning badiiy qimmatiga baho bering.



Hoji entikdi va:

- Rajabbeknikida bo'lg'an majlisni sen bilasanmi?.. — deb so'radi.
 - Bilaman.
 - Bilsang, — dedi hoji, — **manim ustimga mundog' tuhmat orttirishdan** uyal, bola!
 - Rajabbeknikida bu kengash bo'lmag'anmidi?
 - Bo'lg'an edi.
 - Bo'lg'an bo'lsa, tag'in nega o'zingizni **quruqqa olasiz?**
- Yusufbek hoji boladan kulgandek qilib iljaydi.
- Ba'zi **yengil** muhokamalaring onangnikidan qolishmaydir, Otabek! — dedi. — Majlisdan xabaring bo'lg'an bo'lsa, kim qaysi fikrda qolg'anini ham bilarsan?
 - Yo'q.
 - Majlisda nimadan bahs qiling'anini-chi?
 - Majlisda nima muzokarasi bo'lg'anini ham bilmayman va lekin o'sha majlis faqat qipchoqlarga qatli om uchun yig'ilgan ekan, deb kecha ishondim. Majlisingiz a'zolarining sizdan boshqasi nega yigit to'plab, Qo'qong'a ketdilar va ular Qo'qong'a yetmaslaridanoq nega bu vahshat boshlandi?
 - Bu muhokamang to'g'ri. Ammo otangni ham shu jonivorlar orasiga qo'shib o'lirishing **qisqalig'ingdir**, — dedi. Ko'ziga yosh oldi. — O'zing o'ylab ko'r o'g'lim, o'z qo'limiz bilan o'zimiznikini **kesishimizdan** mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka ishtirok qilg'an bo'lsam, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo'shilishqan bo'laman? Agarda manim yurt so'ramoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoqqa orzum bo'lsa, boshqalardan ham ko'ra o'z o'g'limg'a — senga ma'lum bo'lmasmidi? Nega har bir narsaga yetkan aqling shunga qolg'anda **oqsaydir**. Nega yong'an yurakimga yana sen ham zahar sochasan?!

Titralib va to'lqinlanib aytilgan bu so'zlar Otabekni o'kintirdi, **o'Iganning ustiga chiqib tepish** qabilidan bo'lg'an o'z hujuming haqsiz ekaniga tushundi.

27.1-mashq. Berilgan gaplardagi o'zbek oilalarida turmush o'rtoqlarini bosh farzand nomi bilan atash odati haqida mulohaza yuriting.

RA'NO I (Nigor oyim) Maxdum to'nni yoruqqa solib ko'rdi: – Yo'q, adres hayf , Ra'no, – dedi to'nni taxtiga solib, – haligi bo'zni beravur.

RA'NO II (Solih maxdum) – Hay, Ra'no! – dedi havlida ketib borg'an maxdumg'a, – nonlarimizning suvi qochqan, xamir qilishg'a vaqt oz, bozordan issig' non oldirasizmi?

(A.Qodiriy. "Mehrobdan chayon")

27.2-mashq. Gaplarni ko'chiring. "Yumshoq" va "qattiq" ifodalarni aniqlab, ularga izoh bering.

1. Bu kishi kimingiz? – deb so'ragan savoliga javob topishga ulgurmagan edim, o'zi yordam qildi:

- Ahliyatingizmi? (*Cho'lpon*)
- 2. Bunga o'xshagan bir kam yuzlar boplayapti-da jamiyatni. (*S.Ahmad*)
- 3. Birovning ojizasiga olayganlarning ko'zi chiqsin, - dedi yig'lamsirab. (*O.Yoqubov*)
- 4. – Marg'ilonliq xotiningizdan bolangiz bordir?
– Yo'q...
- Bo'lsa ham turmadimi, uylanganingizga ancha bo'ldi shekillik?
– Turmadi. (*A.Qodiriy*)

1. Tillani o'marib ketgan anavi nusxani tusmollagandayman. U yo uchkanalik Karim chillashir, yo bo'lmasa, ayritomlik Mamarajab bodi. (*N.Norqobilov*)

2. O'g'lim urushda... bedarak ketdi, – dedi Nazir ota. «O'Igan» deb aytolmadi. (*O.Umarbekov*)

7. Uning yonida bo'z yaxtak bog'ichini osiltirib, handalakdek bo'qog'i bilan o'ng tomog'ini ziynatlagan o'rta yashar yana bir «husni Yusuf» ko'rinar edi. (*A.Qodiriy*)

8. Albatta, albatta, – ilib ketdi Sobirova opa. – Men ot minib tog'-toshda yurganimda, hozirgilar burnini artolmay yurar edi. O'zingiz bilasiz-ku. (*Sh.Xolmirzayev*)

97

27.3-mashq. Matnni o'qib, shevaga oid so'zlarni aniqlang.

– Hoziram buloq suvidan ichaman. Bir ko'zasi choyimgayam, ovqatimgayam jetadi. Dunyo o'zimizdiki deb kerilib jurgan paytimiz, bir jil qishi bilan ariq qazidik. U vaqtlar traktir-praktir degan narsa o'rni-tuvi bilan jo'q, qopda tuproq toshib Toshlisoyni to'ldirdik, cho'kichminan manovu qirdi bovrini teshdik. Buni teshguncha, eh-hi, qancha azob tortmadik. Bu bizga osonga tushmagan. Ikki jigit tuproq tagida



qolib novud bo'ldi... Shuytib desang, lalmini bog' qildik, havorga paxta ek dik. Oradan sag'al o'tmay, shu bilmadim... baliq jilmidi, aniq esda jo'q, jer qimirlab, buloqdan suv qochdi. Mingbuloq ham o'sha jili qurib qogan... Bir zamonlar bundan uch tegirmon suv hayqirib oqardi, desang, birov ishonmaydi. Oquvi zo'r edi, kela-kelguncha nishoblikda. Ana qarag'in, haliyam izi bor. (N.Norqobilov)

SHEVAGA XOS SO'ZLAR

Ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos so'z shevaga xos so'z deyiladi: kallapo'sh (Buxoro) - do'ppi, g'o'z (Xorazm) - yong'oq, mishiq (Farg'ona) - mushuk.

Sheva so'zi fanda dialektizm deb ham yuritiladi.

Badiiy adabiyot va kinofilmarda mahalliy ruhni aks ettirish, asar qahramoni nutqini aniq berish maqsadida shevaga xos so'zdan foydalaniladi.

Ayrim so'z adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noda ishlataladi. Masalan, *irkit* so'zi abadiy tilda kir, iflos degan ma'no bilan qo'llansa, ayrim shevada *ayron xalta*, boshqasida esa *beo'xshov*, *qo'pol ko'rinishli* ma'nosiga ega. Yoki *lagan* so'zi Toshkentda osh suziladigan *chinni tovoq*, Samarcandda *kir yuviladigan tog'ora* ma'nosida qo'llanadi.

Sheva so'zini uning adabiy tildagi muqobiliga sinonim sanamaslik lozim.

27.4- mashq. Berilgan matnlarni qiyoslab, shevaga xos so'zlar lug'atini tayyorlang. Ularning qaysi birida o'ynoqi ohang ustun?


98

<p>Gunlarim o'tayotir sannan mosuvo, Osmonloni hamma buluti manda. Ustingnan ilganni na poydosи vo, Yuraking qulpini kiliti manda.</p> <p>(M.Abdulhakim)</p>	<p>Kunlarim o'tmoqda sendan uzoqda, Osmonlarning hamma buluti menda. Seni berkitganning ne foydasi bor, Yuraging qulfining kaliti menda.</p>
<p>Deshonnon qorosong – po'rimnon po'rim, Ichonino boqsong – dardi yoshirin. Shundo-do dastirxon atmayin sirin, Gulgan bir xolq akan shoir dagani.</p> <p>(B.Bekmatov)</p>	<p>Tashidan qarasang – porimdan porim, Ichiga boqsang gar – dardi yashirin. Shunda ham sirlarin qilmay dasturxon, Hazilkash xalq ekan shoir degani.</p>



PASHSHAMI YO CHIVIN?

Ba'zan bitta so'zning o'zi turli shevalarda turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "pashsha" so'zi adabiy til lug'atida «yozgi qo'sh parda qanotli hasharot» (ruscha "muxa") ni bildiradi. Biroq ayrim shevada u chivin (ruscha "komar") so'zi o'rnida ishlataladi. Ajal yetmay o'lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni («Alpomish») gapidagi chivin so'zi ham, Atrofda g'uv-g'uv pashsha: oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, quloqni uzadi (Oybek) gapida pashsha so'zi ham kunduzi uchadigan hasharot ma'nosida qo'llanadi. Unday bo'lsa, kechasi chivinlarga qarshi tutiladigan doka-uyni nega "pashshaxona" deyishadi? Qaysi biri to'g'ri ekan-a?



Bunday shevalararo farqlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Siz ham ana shunday shevadan shevaga tafovut qiluvchi so'zlardan qaysilarini bilasiz?

27.5-mashq. O'ylang, izlang va toping!

1. „Xato qilyapsiz!“ mazmuni qaysi qatorda eng yumshoq ifodalangan?

A	Siz kamchilikka yo'l qo'yayab
B	Fikringiz mutlaqo noto'g'ri.
C	Noo'rin gapirmang.
D	Haqiqatdan uzoqlashyapsiz.

2. Rasmda yashiringan maqolni topib, uning ma'nosini izohlang



Mustaqil bajaraman

100

Topshiriq. She'rni o'qing. Shoirning "o'lmoq" so'zini nozik ifodalash uslubiga munosabatingizni bildiring. She'rda ifodalangan "o'lmoq" so'zining yumshoq va qattiq shakllarini ro'yxat qilib yozing.

KUY AVJIDA UZILMASIN TOR

Kuy avjida uzilmasin tor,
She'r yarmida sinmasin qalam.
Yashab bo'lmay umrini zinhor
Bu dunyodan ketmasin odam.

Qo'ldan tushib sinmasin qadah,
Lab tekkanda to'kilmasin may.
To'xtamasin urib turgan qalb,
Boshlab qo'ygan qo'shig'i bitmay. (*Erkin Vohidov*)

28-dars

Topshiriq. Matnni o'qing. Keltirilgan dalillar asosoda bugungi savodxonlik darajasi borasida babs-munozara uyshtiring.

GLOBALLASHUV: TILLAR TARAQQIYOTI VA TANAZZULI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'tgan asrda rasman 2976 tilni qayd etgan bo'lsa-da, sohaning yetakchi mutaxassislari hozirgi paytda jami

6809 ta til mavjud ekanligini ta'kidlashmoqda. 2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati 6912 tilni qamrab oladi. Dunyodagi eng katta tillar olinadigan bo'lsa, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 200 tilning har birida 1 milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan ortiq, faqat 13 tilning har birida 50 mlndan ortiq kishi muloqot qiladi.

Til moddiy, ma'nnaviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. YUNESKO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga

yaqin tilning yarmi joriy asrda o'zining oxirgi sohiblaridan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga ko'ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o'layotganligi – dahshatli hodisa!

YUNESKOning 2017-yil 15-iyundagi xabariga ko'ra, o'lim yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15 tasi Markaziy Osiyo xalqlariga to'g'ri keladi. Jumladan, Markaziy Osiyo arablari tili, Buxoro-Samarqand yahudiylari tili, Markaziy Osiyo lo'lilari (paryo) tili O'zbekiston hududidagi o'layotgan tillardir.

O'lik tilga aylanayotgan tillarni saqlab qolish insoniyat oldidagi o'tkir muammolardan. Shuning uchun 1999-yil 17-noyabrda YUNESKO Bosh Anjumani 21-fevralni Xalqaro ona tili kuni (Международный день родного языка, International mother language day) sifatida e'lon qilib, 2000-yilning fevralidan boshlab bu sana har yili lisoniy, madaniy taraqqiyot va ko'p tillilikni ta'minlashga ko'mak berish maqsadida nishonlab kelinadi.

Til nega o'ladi? Chunki odamlar undan foydalanmay qo'yishadi, keng qo'llanishdagi va „obro'li“ tillarga ustuvorlik berilishi natijasida bolalar bu tilda ta'llim olmaydi. Tillar ham odamlarga o'xshaydi: yonma-yon yashaydi, bir-biriga ta'sir qiladi, o'zgaradi – rivojlanadi. Ammo taraqqiyot tezlashishi natijasida dunyoning yagona axborot makoniga aylanib borishi tillar taqdirida ham katta rol o'ynaydi. Masalan, o'tgan ming yillikda dunyo tillarining 500 tasi o'lik tilga aylangan bo'lsa, oxirgi yuz yillikda esa 1000 ta til tarix qa'riga singib ketdi.

Yuqorida aytiganidek, tillar xavfsizligi alifbo-imlo, ko'p sonli so'zlashuvchilarga egalik, davlat tili maqomi va axborot-kommunikatsiyalari sohalari, Internet tili ekanligi omillari bilan ta'minlanadi. Bular tillar yashovchanligi uchun yaxlit mezondir. Albatta, bizning ona (o'zbek) tilimizning ham o'z alifbo va imlosiga, davlat tili maqomiga egaligi, 30 milliondan ortiq so'zlashuvchisi borligi kishini xushnud qiladi. Biroq achchiq bo'lsa-da, ta'kidlash kerakki, uning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tili darajasiga ko'tarilmayotganligi va, ayniqsa, bu borada hech qanday na nazariy, na amaliy va na tashkiliy ishlar olib borilmayotganligi uning ham mazkur xavfdan butkul xoli emasligini ko'rsatadi.

101

Baxtiyor Mengliyev,
filologiya fanlari doktori, professor

28.1-mashq. Matndan qo'shimcha qo'shilishi bilan tarkibida o'zgarish yuz berган so'zlarni ajratib yozing va ularning imlosini izohlab bering.

ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

Ayrim so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida tarkibida quyidagi fonetik hodisalar yuz beradi:

1) **tovush o'zgarishi:** sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya- bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi; o'qi-o'quvchi, qazi-qazuvchi, sovi-sovuq; tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi; tayoq-tayog'i, qoshiq-qoshig'i, yaxshiroq-yaxshirog'i, yo'q-yo'g'i; tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan; ekkin,kichikkina; chopiqla, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek kabi;

2) **tovush tushadi:** o'r'in-o'rnim, qorin-qorni, burun-burning, o'g'il-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq-sarg'ay; ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov; meni, mening, meniki; seni, sening, seniki kabi.

3) **tovush ortishi:** issiq, achchiq; unda, bunday, shunda, o'shancha, buningiz, o'shanisi; parvoym, parvoying; parvoymiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying, obro'yimiz, obro'yingiz; avzoyi, mavzusi kabi.

28.2-mashq. "Mening Dog'istonim" asaridan olingen parchani o'qing. Muallif nima demoqchi? Uning fikrlariga qo'shilasizmi? Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning imlosini izohlang.

102



Belgiya. Dunyo shoirlarinинг anjumani. Turli mamlakat va turli millat shoirlari yig'ilgan. Men ham borman. Hammasi o'z xalqi, uning madaniyati, she'riyati haqida gapiradi. Shunaqa vakillar ham bor edi: londonlik venger, parijslik eston, san-fransiskolik polyak... Ne iloj, taqdир ularni o'z ona yurtlaridan **yiro-qqa**, necha tog'-u dengizlardan nariga uloqtirgan bo'lsa, ular gunohkormi? Hammasidan **meni** bir shoir hayratga soldi. U **shunday** dedi:

— Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqlarning vakillarisiz. Bu yerda hech bir mamlakat, hech bir xalqning va-

kili bo'lмаган – yolg'iz men. Men hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. Men she'riyatman. Men butun olamga teng nur **sochuvchi** oftobman. Men hamma o'lkalariga teng yog'uvchi yomg'irman. Men dunyoning hamma yerida teng gullaguvchi daraxtman.

Shu so'zlarni aytib, minbardan tushib ketdi. Ko'plar qarsak chaldi. Men o'yga cho'mdim: uning so'zлари to'g'ri, biz, shoirlar, dunyo oldida burchlimiz. Lekin o'zining tog'lariga butun

vujudi bilan band bo'lмаган одам оламнинг вакили бо'ла оладими? **Bunday** одам о'з ўртани ташлаб кетган, бегона ўртада уйланган ва қайнонасини она деб ўрган беватана о'xshaydi. Sendan, kimsan, деб сурисhtirganda, сен паспортини ко'rsatasan. Unda hamma narsa **yozig'liq**. Agar biror xalqdan, kimsan, деб сурисhtirsa, у паспорт сифатида о'з вакилини, олимини, шоирини,bastakorini, arbobini, lashkarboshisini ko'rsatadi.

Har bir одам дуньога келгanda шу нарсани билиши kerak: у дуньога о'з xalqining vakili bo'lmoq uchun kelgan. Har daqiqa ana шу vazifani bajarmoqqa shay **bo'lmos'i** kerak. (*R. Hamzatov*)



28.3-mashq. She'rni o'qing. Unda tilga olingen muammoning dolzarbligiga ahamiyat qarating. Siz ham shunday belgilardan foydalanaszimi? Sababini tushuntiring.

TIL VA TELEFON

Tuyg'ular-la bo'lsang yuzma-yuz,
Topilgaymi buning iloji?!
Kunda o'lar millionta so'z,
Kunda paydo o'nta "emoji".

Ermak bo'ldi ishq degan savdo:
Bu kun titroq, bayt-u g'azal xor.
Bir "yurakcha" yo'llanadi yo
"Kopirovat - vstavit" - izhor.

Ajab bozor - bu mobil bozor,
Hislaringni yerga ko'maylik.
Kulgi, g'azab, hayrat... ne darkor,
Jazzasidir bitta "smaylik"...

"Onlayin"da jam "talab-taklif",
"Jonlayin"dan arib borar taft.
Mehr uchun tayyor lab shakli,
Qarsaklarmi - bor qo'shaloq kaft.

Har yon Suvrat turar qad kerib,
Topolmaysan bironta Siyrat.
Kim tanirdi: sen ham ber firib,
"El qatori" ur, yiqit, qiyrat...

Sevgi, do'stlik, hamkorlik, biznes,
Uchrashuv, to'y, majlis... - "onlayin".
Bul o'rgimchak to'rlarini kes,
Yeb bo'lmasdan bizni xomlayin.

Tavallud kun, ayyom... telefon -
"Ting-ting" etar, qara - SMS.
Samimi SO'Z topolmay dil qon,
"Gif"chalarga qurban hisimiz...

Ey Navoiy, bu sho'r manglayga
Munosib bir voris bitmadi.
Bul g'ariblar tili - tanglayda,
"G'urbatda..." dan nari o'tmadi.

Tilimizdan ketdi fayz arib,
Tashbehlar hayf "opashka"larga.
Bir suyakday "guhari sharif"
Irg'itildi "sobachka"larga.

Ayo Bobur, bu "yuz qarolig'",
Har kim yasar o'zicha imlo.
Alifbomiz bag'ri yarolig',
"Xatti Net"ga kun qoldimi yo?

Ay, Julqunboy, Otabegingga
Yozdirmagin behuda xatlar.
Bir harf bitmas bu kun tekinga
"Tuproqbibi" bo'lgan avlodlar.

Bir So'z bilan yaralgan olam,
So'z-la aziz erur bandasi.
Ogoh bo'lgin, virtual odam,
"Emoji" lar - til kushandas.

Faryodiga bir zum quloq ber,
Yuragimni bir sas burg'ular.
Ayyuhannos,
"101"ni ter,
Yonyapti...
So'z va
Tuyg'ular...

28.4-mashq. Matnni o'qing. Muallifning so'z mas'uliyati ifodalangan asosiy fikriga mos maqollar topib yozing.

So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Tuzilgan jumlani yozuvchining o'zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo'lган fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir.

Qalam – o'qlog'i, adabiyot – ketmon bozori emas. Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlalar to'qimoq fazilat sanalmaydi. So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin. (*Abdulla Qodiriy*)



QULOG'I TOM BITGAN: TOM NIMA?

Tilimizda uch xil **tom** so'zi bor. Ikkitasining ma'nosi ko'pchiligidan yaxshi tanish:



uyning tomi, kitobning tomi (jildi). Sarlavhadagi iborada bu ikki **tom** so'zi qatnashmagan. U boshqa bir omonim. U arab tilidan kirgan **tom** so'zi bo'lib, asliyatda *to'la, to'liq, butun; mukammal* ma'nosini bildiradi. O'zbekchada *to'la, to'liq, butunlay, tamomila* ma'nolarida qo'llanadi:

*Tom ma'noda, tom ma'nosi bilan kabi iboralarda ham ana shu **tom** so'zi ishlatilgan. Bunda *to'liq, chin* ma'no nazarda tutiladi.*


Qulog'i tom bitmoq birikmasi quloq tamoman bitganini, eshitish qobiliyati yo'qolganini bildiradi. Bu ibora bo'yicha ba'zan etimologiya variantlari ham uchrab turadi: "tom ostida qolgan odamning qulog'i eshitmay qoladi, shuning uchun tom bitdi deyilgan" deganga o'xshash. Bu xato, albatta. (*daryo.uz*)

28.5-mashq. Zehningni ishga sol!

1. "Butun zamin-u osmon uyquga cho'mgan. Bo'ronlar tinib, to'fonlar to'xtagan lahzada ham "U" ziyrak turadi. "U" hamisha uyg'oq".

Ushbu jumlada yozuvchi Tohir Malik nimaga tarif bergen?

2. Rasmlarda yashiringan iboralarni yozma ifodalang.



Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o'qing va unda berilgan iboralarniizohi bilan birga daftaringizga yozing

TO'NNI KIM TESKARI KIYADI?

Tilimizda shunday iboralar borki, ularning asl kelib chiqishi ma'lum emas, mazmun boshqa, so'zlar boshqa. Ishing oshib-toshib yotganda ermakka **balo bormi**, deyiladi. Yoki birov xato ish qilsa, **qovun tushirdi**, deydilar. Bu jumlalarda **balo** ham, **qovun** ham gap ma'nosiga aloqasiz. **Og'ayni chalish** deymiz. **Og'ayni** ma'lum, lekin **chalish** nima? Og'aynilar bir-birini **oyog'idan chalgani** uchunmi? Tan berdi, tan oldi degan iboralarimiz bor. Biri qoyil qolish, ikkinchisi iqror bo'lishni bildiradi. Bu ma'nolarga **tan** so'zining nima aloqasi bor? **Dabdala** so'zining **dalaga**, **dabdurustdan** so'zining **durustga** bog'liq joyi bormi? Jahli chiqqan odamga nisbatan **to'nini teskari kiydi**, deyish ham majhul sanaladi. Darhaqiqat, jahning to'nga nima aloqasi bor?

Lekin shu narsa ayonki, hech bir so'z, hech bir ibora bekor aytilmaydi. Og'izdan og'izga o'tib so'zlar almashadi, tushib qoladi, harflar o'zgaradi va tanib bo'lmas holga keladi. **Og'ayni chalish** ham besabab aytilmagan. Maqol aslida **og'a-ini – bir juft kalish** bo'lishi kerak. Bamisolisi **er-u xotin qo'sh hokiz** degandek. Kalishning ikki poyi bir-birisiz butun emas. Og'a-ini ham shundoq. Xalqimiz shoirtabiat, qofiyaparvar emasmi, maqol chiroyli bo'lsin uchun bir ohagdosh so'z qo'shib, **og'a-ini chalish – bir juft kalish**, deydigan bo'ldi. **Chalish** shunchaki qofiya uchun. **Taq-tuq, tasadduq** degan kabi.

Og'a-ini aslida ikkita so'z. Aka-uka degani. Bora-bora bu ikki so'z qisqarib bir so'zga aylandi. **O'rtoq, oshno** ma'nosini bildiruvchi **og'ayni** holiga keldi. Og'ayni bir kishini bildirgach, **juft** so'ziga hojat qolmadi. Endi **og'ayni chalish – bir poy kalish** deyiladigan bo'ldi. Hozirda **bir poy kalish** ham iste'moldan chiqdi hisob. **Og'ayni chalish**ning o'zi qoldi va majhul iboraga aylandi....

To'nini teskari kiydi iborasi ham ma'nosiz emas. To'nni kim teskari kiyadi? Bu savolga boshqa bir maqol javob beradi. Kambag'alni urma, so'kma, to'nini yirt. G'azab otiga minib, mushtlashaman degan kambag'al teskari kiygan. Qon tegsa, loy tegsa astariga tegsin, yirtilsa astar yirtilsin, yamoq tushsa astarga tushsin deb **to'nni teskari kiygan**. Kambag'alning to'ni ikki bo'lмаган. Yirtilsa, boshqasini kiyolmagan.

Endilikda to'n kiyish urfdan qoldi. Kiygan yelim kamzulimiz yuz yilda ham yirtilmaydi. Mushtlashish ham udum emas. Qasd olish uchun mushtning keragi bo'lmay qoldi. Oyoqdan chalishning mimg bir usuli topilgan. To'nni teskari kiyishga hech bir zarurat yo'q. lekin qanotli ibora unut bo'lмаган. Bu ham So'zning sehri. So'z zamirida tarix yashirinib yotganiga misol.

Bir maqolning qulfini ochishga boshqa maqol kalit bo'ldi. Kim bilsin, balki **qovun tushirdi** iborasiga ham boshqa ibora, **tarvuzi qo'ltig'idan tushdi**, degan majoz ochqich bo'lar. Bni aniqlash endi sizlar – So'z ummonining g'avvoslariga havola. Izlang, bahs qiling, talashib tortishing. Lekin zinhor to'nni teskari kiymang! (*Erkin Vohidov*)



LOYIHA TAYYORLASH

Topshiriq. Quyida sizga bir nechta neologizm - yangi so'z taqdim qilinmoqda. Siz ularga o'zbekcha muqobil topishingiz kerak. Loyihani bajarishda tanlagan so'zingiz neologizmning ma'nosini qamrab olishiga, imkon qadar imkon bo'lishiga harakat qiling. Bir nechta variant taqdim etishingiz, izohli lug'atda mavjud bo'limgan so'z yasashingiz mumkin.

106

YANGI SO'Z	SIZ TAKLIF QILGAN SO'Z
lokatsiya	
fleshka	
onlayn	
oflaysn	
bodikamera	
xeshteg	
skaner	
skrinshot	
parol	
masterklas	
QR-kod	
sayt	
chellenj	
startap	
fastfud	
yuzer	
trening	
blyutuz	

29-dars

MUSTAHKAMLASH

Topshiriq. Matnni o'qing. Undagi faktlarni aniqlang.

DUNYO TILLARI HAQIDA QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

Dunyoda so'z jihatidan eng badavlat til arab va ingliz tillari hisoblanadi. Ingliz tili hisobida ikki yarim milliondan ortiq, arab tili hisobida esa uch yarim milliondan ortiq lug'at boyligi bor. O'zbek tili zaxirasi taxminan 1 400 000 – 1 600 000 atrofida so'zga ega ekan. Bu ma'lumotlar, albatta, ijtimoiy sohalarga nisbatan olingan, xolos. Tilshunoslik fanidan

ma'lumki, qaysi tilda sinonimlar – ma'nodosh so'zlar ko'p bo'lsa, o'sha til eng boy til; shuningdek, qaysi tilda shakldoshlar – omonim so'zlar ko'p bo'lsa, o'sha til kambag'al tillar sirasiga kiradi, deya yuritiladi. Masalan, shimoliy qutbda yashaydigan eskimos qabilasiga mansub millat tilida „qor“ so'zining 20 xil sinonimi mavjud. Arab tilida esa „cho'l“ so'zining 100 dan ortiq varianti bor.

Yer kurrasi bo'ylab eng keng tarqalgan til esa ispancha hisoblanadi. Ispan tilining bu qadar ommalashib ketishiga, avvalo, mashhur sayyoohlар, dengiz qaroqchilarи va ispaniyalik mustamlakachilar sabab bo'lib qolgan. Hatto AQSHning 50 ta shtatidan 23 tasida dav lat tili ispan tili hisoblanadi..

(M. Bobojonov)

29.1-mashq. Fikrni o'qing. Uning davomini hayotiy misollardan foydalangan holda adabiy tilda izchil bayon qiling.

Omad har bir insonning eshigini hech bo'limganda bir marta chertadi. Afsuski, ko'pchilik bu paytda yo internetda bo'ladi, yo televizor qarshisida o'tirgani uchun eshitmay qoladi.

29.2-mashq. Matndan informatika sohasi atamalarini aniqlang. Kompyuter texnologiyasida qo'llanadigan o'zbekcha so'zlar ro'yxatini tuzing.

Namuna: gipermatn, diskuristik, sichqoncha...

O'zbek tadqiqotchilari tomonidan „Leksik tahlil muhiti“ dasturi yaratildi. Bu dastur „Server – Mijoz“ texnologiyasiga asoslangan, uni global tarmoq (www)da yoki lokal tarmoqda qo'llash mumkin. Dasturiy tizimni ishlab chiqishda dasturlash tili sifatida Webga yo'naltirilgan tillar: PHP, Java Skript, HTML, Jqueri, Ajax, CSS dan biri tanlab olinadi, ma'lumotlar bazasi uchun esa MySQL dan foydalilaniladi. Tizim foydalanuvchiga uch til (ingliz, rus, o'zbek)da leksik ma'lumotlarni qidirish, izlab topish va ma'lumotlarning kerakli qismiga tez o'tish imkonini beradi.

29.3-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan gap asosida bahs-munozara uyushtiring.

Zamonaviy manqurtlik

- Yer kurrasida nima gap? — so'radi o'zga sayyoraliklar sardori.
- Bordim. Bir xalqni ko'rdim. Ahvoli yaxshimas!, — javob berdi boshqasi.
- Nega? Axborot ber-chi!
- Ota qo'ltelefonga yopishib qolgan; ona qo'ltelefon ichiga kirib ketgan; o'g'il qo'ltelefonga uylanyapti; qiz qo'ltelefonga erga tegyapti; miyasida telefon o'sib chiqqan avlod tug'ilayapti; butun xalq telefon vabosiga yo'lliqqan.
- Qo'ltelefon degani nima o'zi?, — hayratlandi sardor.
- Qurol bo'lsa kerak... **O'zini yeb bitirish uchun o'zlari o'ylab topgan quroll!**, — javob berdi boshqasi. (Qo'chqor Norqobil)

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi SMS xabarni imlo jihatidan tuzatib yozing. Yozish madaniyati xususida o'z mulohazalaringizni bildiring.

Sava! Tuzumsan iwla qaley bugn oqwga borasami borsen maniyam bor qildrb qoy vawe iwm kop tezro javop yoz.

108

30-dars

Nazorat ishi

31-dars

Nazorat ishi

32-dars


Nazorat ishi tahlili

FAN VA TEXNOLOGIYALAR

33-dars

33.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Nobel mukofoti haqida nimalar bilasiz? Bu mukofot qaysi yo'nalishlar bo'yicha topshiriladi?
2. Nobel mukofotini qo'lga kiritganlardan kimlarni taniysiz?
3. Markaziy Osiyodan ham kimdir bu mukofotga loyiq ko'rildi?



Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Adabiyot yo'nalishi **bo'yicha** Nobel mukofotiga ilk bor 1901-yilda fransuz shoiri Arman Syulli-Pryudom sazovor bo'lgan edi. Mana shu tarixiy, olamshumul voqeal bo'lmaganida, ehtimol, Pryudomni jahon tanimasmidt...

Ha, **hatto** o'z vatanida nomi unut bo'layozgan shoirni Shvetsiya akademiyasi mukofotga eng munosib nomzod deb topdi. **Biroq** butun dunyo adiblari ushbu mukofot jahonda asarlari eng ko'p o'qilayotgan ulug' rus adibi Lev Nikolayevich Tolstoyga berilishini kutayotgandi. To'g'ri, Pryudomning iste'dodiga shubha yo'q, u o'ziga xos serqirra shoir bo'lgan. Ammo uning ijodini Tolstoydek ulkan "tog" bilan bo'ylashtirib bo'lmasdi, albatta. Tolstoydan kechib, Pryudomning rag'batlantirilishi esa adabiyot olamida chin ma'noda hayratlanarli hodisa bo'ldi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan,

Tolstoyning o'zi bu mukofotni rad etgan, ikkinchidan, agar mukofot Tolstoya berilganda kelgusi nomzodlarga ham o'ta yuqori talablar belgilangan bo'lardi va Nobel cho'qqisi egallab bo'lmas marraga aylanib qolishi ehtimoldan xoli emasdi.

Bu bilan Syulli-Pryudomga mukofot nohaq berilgan, demoqchi emasmiz, albatta. Uning "asarlarining o'ziga xos badiiy obro'si, xususan, yuksak g'oyaviyligi, mukammalligi, shuningdek, iste'dod bilan samimiylikni ajoyib tarzda uyg'unlashtirgani **uchun**" mukofotga loyiq deb topilishi ushbu shoir ijodiga berilgan xolis bahodir...

Shvetsiya akademiyasi a'zolari ijodkorga shunday ta'rif beradilar: "Sinchkovlik, kuzatuvchanlik **hamda** ma'naviy ulug'vorlik bilan yo'g'rilgan zakovat Syulli-Pryudomni boshqalardan ajratib turadi". Amerikalik tadqiqotchilardan



biri shoir haqida shunday yozadi: "U poeziyani zulmat qa'ridan olib chiqdi, shuningdek, baxtga eltuvchi yo'l azob-uqubatlar, fidoyilik **va** qardoshlik muhabbatи **orqali** o'tadi, deb uqtirdi".

Uzoq vaqt falajlikdan azob chekkan shoir 1907-yil 6-sentyabrda Shatney-Malabri shaharchasida vafot etadi. Uning qanday inson bo'lganini asarlarida tarannum etilgan xayrli ishlarni nechog'lik amalga oshirganidan **ham** bilsa bo'ladi. Pryudom Nobel mukofoti **uchun** olgan pulini yosh shoirlarni rag'batlantirishga sarflaydi. Taassuf **ila** tan olish kerakki, o'z davrida adabiyot sohasida ham, olimlar doirasida ham, jamoatchilik ichida ham hurmatga sazovor bo'lgan ulug' Syulli-Pryudomni bugungi kunda hatto vatani Fransiyada ham kam eslashlari achinarli hol, albatta.

*Mahmadiyor ASADOV
saviya.uz saytidan olindi.*

33.2-mashq. Matnni tushunish bo'yicha tuzilgan quyidagi test savollarining to'g'ri javobini toping.

1-test. Adabiyot bo'yicha ilk Nobel mukofotining Syulli-Pryudomga berilgani ko'pchilikni hayratlantirdi, chunki...

A	ko'plar Shvetsiyada topshiriladigan mukofotning ilk sohibi ham shved adibi bo'lishini kutgan edi.
B	o'sha paytda shoir og'ir kasal bo'lib, taqdirlash marosimiga kela olmasligi ommaga ayon edi.
C	zamondosh adiblar orasida Syulli-Pryudomdan ham munosibroq boshqa vakil bor edi.
D	mukofotni Syulli-Pryudomga topshirish keyingi nomzodlarga katta talablar qo'yilishiga olib kelishi mumkin edi.

2-test. Matnda ...ga nisbatan muallifning achinish munosabati aks etgan?

A	Tolstoydek dahoning Nobel mukofotiga loyiq ko'rilmagani
B	Syulli-Pryudom nominining hozirda juda kam yodga olinishi
C	Bugungi kunda Syulli-Pryudomdek shoirlar yetishib chiqmayotgani
D	Adabiyot yo'nalishi bo'yicha Nobel mukofoti juda kech ta'sis etilgani

33.3-mashq. Matnda yordamchi so'zlar ajratib ko'rsatilgan.

1. Qaysi ko'makchi va bog'lovchilarni boshqasi bilan alishtirish mumkin?
2. Yuklamalar qanday qoshimcha ma'no yuklamoqda?


33.4-mashq. Abduqayum Yo'ldoshevning "Puankare" hikoyasidan olingen parcha bilan tanishib chiqing va testlarni bajaring.

Men... men uydagilardan yashirinib ishlardim. Ko'nglim nimanidir sezardi: gipoteza yechimi yaqinday, juda yaqinday. Men bu sirli qasrga olib kiradigan darvoza yonida, bir shoda kalit ko'tarib turardim go'yo. Endi qulfga mos kalitni topib olsam bas edi. Men yana bir narsani sezardim: menga yosh aql, tiyrak tafakkurli birlgina yordamchi kerak edi.

Shunday kunlarning birida... Shunday kunlarning birida... internetga qaradim-u... ko'zlarimga ishonmadim... dardi dunyoyim qorong'i bo'lib ketdi. **Sankt-Peterburg shahrida yashaydigan, institutda katta ilmiy xodim bo'lib ishlayotgan 41 yoshli Grigoriy Perelman degan matematik Puankarening gipotezasini to'la-to'kis nima qilibdi? Ha, isbotlab beribdi-**

qo'yibdi... Science jurnali Puankare teoremasi isbotini "Yil kashfiyoti" deb e'lon qilibdi. O'zimizning Silviya-Zulfiya Nazar isbot muallifini ko'klarga ko'targan maqolasini chop etishgayam ulguribdi. Perelman bizning sohada nufuziga ko'ra Nobel mukofotiga teng hisoblanadigan xalqaro "Filds medali" bilan taqdirlanibdi...

S h o i r l a r aldaydilar. Nima emish, qandaydir bir



mavzuni yozmoqchi bo'lib yursang-u, uni sendan oldin kimdir qog'ozga tushirib qo'ysa, bundan xursand bo'lising kerak ekan. Bekor gap! Ehtimol adabiyotda shundaydir, ammo aniq fanlarda emas. Men unaqangi bag'ri keng odam ham emasman. Men ichi qora odamman. Xudo shohid, bu olamshumul yangilikni o'qiganimda butun vujudimni hasad va alam fasodi to'ldirdi. Men o'zimni tishlab tashlaguday ahvolga tushdim: "Nega u? Nega u? Nega men emas..."

Hayot men uchun o'z ma'nosini yo'qotdi. Ammo bu hali holvasi ekan. Tez orada saytda Perelmanning gipoteza yechimi ifodalangan maqolalarini e'lon qilishdi... Axir... axir bu to'qson to'qqiz butun-u yuzdan to'qson to'qqiz foiz mening yechimim-ku!!! Axir men to'g'ri yo'ldan borgan ekanman-ku. So'nggi nol butun yuzdan bir foiz ish qolgan ekan-ku! Bir oygina, yo'q, yo'q, ko'pi bilan bir haftagina bosim o'tirib ilm qilganimdam, gipotezani o'zim isbotlagan bo'lardim. Agar zukko talaba ham yonimga qo'shilganida, ehtimol birgalashib bu ishni yanada tezroq nihoyasiga yetkazardik... Axir ozgina qolgan ekan-ku... Ozginagina qolgan ekan-ku...

Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim... Xudoyim, meni o'ttiz yil orqaga qaytar..."

O'zbek olimi maishiy hayot tashvishlari bilan ovora bo'lib Puankare teoremasini isbotlashga kech qoldi.

T

N

O'zbek olimini eng ko'p iztirobga solgan narsa Perelmandan biroz kech qolgani edi.

T

N

33.5-mashq. "Puankare" hikoyasida ajratib ko'rsatilgan gap mazmunidan o'zbek olimining kasbini aniqlash mumkin. Qanday?



YIL SO'ZI

112

Har yili turli nashr va tashkilotlar yilning eng ommabop so'zini e'lon qiladi. Britaniyaning "Kollinz" lug'ati tomonidan quyidagi so'zlar "Yil so'zi" sifatida e'lon qilingan:

2016-yilda – "Breksit" (Brexit)

2017-yilda – "feyk xabar" (fake-news)

2018-yilda – "bir marta foydalaniladigan" (single-use)

2019-yilda – "iqlim uchun kurash" (climate strike)

2020-yilda – "lokdaun" (lockdown)


2021-yilda – "NFT" (NFT – Non Fungible Token – almashilmas token)

Shuningdek, 2021-yilda "Oksford" lug'ati "vaksina" (vax), "Kembrij" lug'ati "qat'iyat" (perseverance), "Vebster" lug'ati "vaksina" (vaccine) so'zini "Yil so'zi" deb e'lon qilgan.

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. Ushbu darsda tanishilgan matnlar asosida 5 ta test tuzing.

Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma'lumotlarni tushunishni, qiyoslay olish va ulardan to'g'ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo'lsin.




34-dars

Topshiriq. Quyidagi ikki matn bilan tanishib chiqing.

1-matn

Nelson Mandelaning Nobel mukofotini qabul qilib olgan chog'dagi nutqidan parcha



113

Nelson Mandela

Janubiy Afrika Respublikasi davlat arbobi, sobiq prezidenti
Inson huquqlari uchun kurashgan, 27 yillik qamoq jazosi ham uni to'xtata olmagan.
1993-yilda Tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlangan.

Zoti oliylari, Oliynasab Qirollik xonadoni a'zolari, Muhtaram Nobel qo'mitasi vakillari,
Muhtarama Bosh vazir Gru Xarlem Bruntlann xonim, vazirlar, parlament a'zolari va
elchilar, o'rtoq laureat Frederik Villem de Klerk, qadrli mehmonlar, do'stlar, xonimlar va
janoblar,

Men ayni damda Norvegiyadagi Nobel qo'mitasiga bizni Tinchlik bo'yicha Nobel
mukofotiga loyiq ko'rganlari uchun samimiyl tashakkurimni izhor etaman...

Bu mukofotni pulga chaqib bo'lmaydi. Buni ajdodlarimiz izidan ergashgancha bosib
yurganimiz – Afrika tuprog'i qatlamlaridagi nodir metallar va qimmatbaho toshlarning
ulgurji bahosi deb tushunmaslik kerak.

Bu mukofotning qadri farzandlarimizning – har qanday jamiyatning eng zaif, ammo
eng buyuk xazinasi bo'l mish bolalarimizning kulgesi va salomatligi bilan o'lchanadi.
Bolalarimiz, hech bo'l maganda, ochiq qirlarda o'ynashi, tuyqus paydo bo'ladigan ochlikdan
azob chekmasligi, kasallik sabab halok bo'l masligi yoxud johillik, jinsiy tajovuz ofatlari bilan
qo'rqitilmasligi va yoshiga mos kelmaydigan og'ir mehnatga safarbar etilmasligi lozim.

Barcha mazlumlarga berilgan ushbu sovg'aning qiymati yurtimizdagи barcha insonlarning, о'rtalariga то'siq bo'lган g'ayriinsoniy devorni butunlay qulatajak xalqning shodligi va sihat-salomatligi bilan belginlangay va shunday bo'lishi ham kerak aslida.

Biz shunday yashaymiz, zero istiqbolda hamma teng ko'rildigan, yashash, muvaffaqiyat qozonish, huquqlaridan foydalanish va yaxshi hukumatga ega bo'lishga haqli ekanini anglaydigan jamiyat barpo etamiz.

Bunday jamiyat na kimningdir fikriga cheklov qo'yilishiga va na biron kishining insoniy haq-huquqi poymol etilishiga ortiq yo'l qo'ymasligi kerak.

Yelkama-yelka harakat qilayotgan barcha do'stlar, keling, kichik Martin Lyuter King "odamzot irqchilik va urushning zim-zio tuniga fojeiy tarzda bog'langan holida ortiq qola olmaydi" degan chog'ida haq bo'lganini isbotlaylik.

Keling, barchamiz u chin ma'nodagi birodarlik tarovati va osoyishtalikning olmos, oltin yo kumushdan qimmatliroq ekani haqida so'zlaganida bor-yo'g'i bir xayolparastgina bo'limganini isbotlaylik.

Yangi davr quyoshi porlasin!

Tashakkur.

Ingliz tilidan Shohruk Usmonov tarjimasi

ziyouz.uz saytidan olindi.

2-matn


Ernest Xemingueyning Nobel mukofotini qabul qilib olgan chog'dagi nutqidan parcha

(Xeminguey Nobel mukofotining topshirilish marosimida qatnashmagan. Adibning iltimosiga ko'ra, uning nutqini AQSHning Shvetsiyadagi elchisi o'qib eshittirgan)

Shvetsiya akademiyasining a'zolari, xonimlar va janoblar!

Men nutq so'zlashga unchalik mohir bo'lmasam-da, hotamtoy Alfred Nobel mukofotini menga taqdim etishni lozim ko'rgan barcha kishilarga o'z minnatdorligimni izhor qilmoqchiman.

O'zidan ilgari o'tgan buyuk yozuvchilarning ushbu mukofotdan benasib ketganini eslagan har qanday kishini beixtiyor istihola va xijillik kayfiyati chulg'ab olishi tayin. Menimcha, o'tib ketgan ulug' zotlarni nomma-nom sanab o'tirishning hojati bo'lmasa kerak – marosimda ishtirok etayotgan har bir kishi o'z bilim darajasidan kelib chiqqan holda, vijdon amriga qulq solgan holda bunday ro'yxatni o'zicha tuzib olishi mumkin.



Agar yozuvchi juda mashhur bo'lsa, uning hayoti odatda yolg'izlikda kechadi. Ehtimol, yozuvchilar tashkiloti uni yolg'izlik azobidan asrar, biroq uning ijodiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi dargumon. U yolg'izlikdan mahrum bo'ladi-yu, jamoat arbobi sifatida gullabyashnab, oxiri iste'dodi zavol topadi. Zotan, ijodkor sifatida faqat mustaqillikda yashash mumkin, xolos. Farosatli yozuvchi kelajakda o'zini abadiyat yoki zabunlik kutayotganini oldindan bilishi kerak.

Haqiqiy san'atkor har bir yangi kitobi bilan hali zabit etilmagan cho'qqi sari go'yo iz tushmagan so'qmoq bo'y lab safarga otlanishi lozim. Hech bo'lmasa, kimdir o'zidan ilgari ham yurgan-u, lekin so'nggi manzilgacha yetib borolmagan yo'ldan yurishi darkor. Agar adabiyot yaratish o'tmishda yozilgan, a'lo darajada yozilgan mavzular haqida sal boshqacharoq yozishdan iborat bo'lganda edi, hamma ish xamirdan qil sug'urgandek bitardi-qo'yardi. Afsuski, yiroq-yiroqlardan buyuk adiblar tog'dek bo'y cho'zib turgani uchun ham, hozirgi zamon yozuvchisi ovloq go'shalarga ketishga majbur. U shunchalar yiroqqa ketishi kerakki, qay bir zot yordam qo'lini cho'zishni istagan taqdirda ham, hech qanday yordam bera olmasin!

Nazarimda, juda ko'p gapirib yubordim shekilli. Yozuvchining xalqqa aytadigan gapi bo'lsa, va'zxonlik qilmay, muqim o'tirib ijod qilishi kerak. Yana bir bor tashakkur.

*Nabijon Boqiy tarjimasi
ziyouz.com saytidan olindi.*

34.1-mashq. Yuqoridagi ikki nutqdan qaysi biri sizga yoqdi? Nima uchun?

MINBARDA NUTQ SO'ZLASH

115

Nutq so'zlash og'zaki matnni shunchaki yodaki ayтиб berish yoki o'qib berish emas. Avvalo, nutq mazmuniga mos tarzda kiyinish lozim. Ilmiy, xalqaro davralarda matnni qog'ozdan o'qib berish mas'uliyat belgisi sifatida qaraladi. Bu orqali vaqt ham tejaladi, aytimoqchi bo'lgan ma'lumotlar izchil bo'lishi va yoddan ko'tarilmasligiga ham erishiladi.

Matn qismlari mazmuniga ko'ra yuz, qo'l ishoralaridan foydalanish, ovozni balandlatish, pastlatish, unga kayfiyat yoki g'amginlik ohangini qo'shish nutq ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, davradigalar va alohida shaxslarga salom berish, minnatdorchilik bildirish chog'ida yuzni ular tomonga qaratish, tabassum qilish tavsiya etiladi.

Muhim so'zlar: ismlar, tashkilot nomlari kabilarning to'g'ri talaffuz etilishi juda muhim.

LOYIHA TAYYORLASH

Topshiriq. Tasavvur qiling: Stokgolmdasiz. Nobel mukofoti bilan taqdirlandingiz. Sizni minbarga nutq so'zlash uchun taklif qilishdi.

Avvalo, matnni tayyorlashga kirishing.

Qaysi yo'naliш bo'yicha Nobel laureati ekaningizdan kelib chiqib asosiy qismni shakllantiring.

Matnni qayta-qayta o'qing. Ko'zgu qarshisida turib yuz, qo'l ishoralarining holatini kuzating.

"Qirol nutqi" ("The King's Speech") filmini ko'rib, undagi maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi.

Adabiy til me'yorlariga rioya qiling.

Tavsiya etiladigan hajm: 5 daqiqa.



35-dars

35.1-mashq. Minarda nutq so'zlash topshirig'ini bajarishda sinfdoshlaringiz qanday kamchiliklarga yo'l qo'ydi yoki siz ulardan nimalarni o'rgandingiz – shularni alohida varaqqa belgilab qo'ying. Aniqlangan kamchiliklar keyingi nutqlarda takrorlanmasligiga harakat qiling.

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Silikon vodiysi: yuksak texnologiyalar vatani



117

(1) Elektron va kompyuter texnikasi sanoati obyektlari, ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlari to'plangan, yuqori malakali mutaxassislar, ushbu sohaga katta-katta sarmoya sarflaydigan qo'shma korxonalar faoliyat yuritadigan hududga kirib qolgan har qanday inson o'zini fantastik kino qahramonidek tasavvur etishi shubhasiz. Biroq bunday hududning borligi allaqachon haqiqatga aylanib ulgurgan. Bu makon ilm ahli tomonidan Silikon vodiysi nomi bilan yuritiladi.

Silikon vodiysi (Silicon valley) nomini kaliforniyalik tadbirkor Ralf Verst o'ylab topgan. Muomalaga esa atama jurnalist Don Xofler tomonidan 1971-yilda kiritilgan. O'shanda «Electronic News» haftalik gazetasida AQSHning Silikon vodiysi mavzusiga bag'ishlangan turkum maqolalarida shu nom qo'llangandi. Nega yuqori texnologiyalar hududi Silikon vodiysi deb nomlanadi, degan savolga ham javob tayyor. Bu yerda faoliyat yuritadigan korxonalarda mikrosxemalar uchun yarimo'tkazgichlar qismlarini ishlab chiqarishda asosiy material sifatida kremniydan foydalilanadi. Kremniy esa inglizcha «silicon» so'zidan olingan.



118

(2) Silikon vodiysi tashkil etish g'oyasi qator omillar tufayli yuzaga keldi. Dastavval mazkur fikr Stenford universiteti vakillari tomonidan o'rtaga tashlandi va u odatdagidek moddiy manfaatlar asosida kelib chiqqandi. Chunki ikkinchi jahon urushidan so'ng universitet budgetida mablag' tanqisligi sezila boshlandi. Shunda universitet rahbariyati takomillashish uchun sarmoyani **o'ziga tegishli bo'sh 3240 hektar hududdan olishga qaror qiladi**. Biroq joyni sotish mumkin emas edi. Natijada yangicha texnologik ishlanmalar bilan shug'ullanadigan kompaniyalarga yerni uzoq muddat, aniqrog'i, 51 yilga o'rtacha to'lov bilan ijara berish fikri tug'iladi. Kompaniyalar ko'plab yangi ish o'rinlarini tashkil etishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, bunda Stenfordni tamomlagan salohiyat egalarining boshqa hududlarga ishga ketib qolishi muammosi ham hal etilardi. Kaliforniyada yosh, iste'dodli tadqiqotchilarni **saqlab qolish** uchun maxsus moddiy ko'mak dasturlari ishlab chiqilgan, biznes yuritish, ilmiy izlanishlar olib borish uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratilgan. Shu tariqa, Silikon vodiysi iste'dodli va malakali mutaxassislarga ega Stenford universiteti atrofida jamlana boshladи. Asta-sekin dunyonи ijobiy tomoniga o'zgartirish istagi bilan hududga kelgan insonlar korxona, kompaniyalarga asos solib, ularni rivojlantirdilar.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda Stenford universiteti professori Frederik Termanning mehnati va xizmatlari katta bo'lgan (hozirda uni Silikon vodiysining asoschisi deb tan olishadi). 1939 yili Terman o'zining shogirdlari Vilyam Xyulett va Devid Pakkardni shu yerda qolib, o'z korxonasini tashkil etishga ko'ndiradi. Oqibatda mazkur hududda informatsion texnologiyalarga ixtisoslashgan, hozirda jahoning yetakchi, o'sha davrda esa dastlabki "Xyulett-Pakkard" (Hewlett-Packard Co.) kompaniyasiga asos solindi. Bugun mazkur kompaniyada 100 mingdan ortiq xodim faoliyat ko'rsatadi. Universitetning bitiruvchilari Larri Peyj va Sergey Brin esa dunyodagi yirik qidiruv axborot tizimi «Google»ning yaratuvchilari bo'lishdi.

(3) Hozirda texnologiyalar parkida (bu vodiyning yana bir nomi) 2,5 millionga yaqin odam istiqomat qilib, ularning 25 foizi yuqori texnologiyalar sohasida ish yuritadi. Shuningdek, Karnegi Mellon, San-Xose, Santa-Klara, Stenford va Nordvestern politexnika universitetlari, 7 mingdan ziyod texnika jihozlari va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi dunyoning eng yetakchi korxonalari (Apple Inc., AMD, Dolby Laboratories Inc., Hewlett-Packard, Google, Intel, Juniper Networks, NVIDIA Corporation va b.) ham bor. Qisqacha qilib aytganda, o'ttizta shaharni o'z ichiga qamrab olgan Silikon vodiysi odamlar orasida «Mo'jizalar mamlakati» degan nomga sazovor bo'ldi.

Kompyuterlashtirish jarayonini global miqyosda amalga oshirish vodiyligi ahliga mislsiz daromad keltiradi. Aytgancha, amerikalik taniqli millionerlarning katta qismi aynan shu hududda yashaydi, shuning uchun bu yerni «Millionerlar vodiysi» deb ham atash mumkin. Qiziq, ammo bir paytlar ushbu hududga «O'lim vodiysi» deb nom berishgandi, chunki 1985-86-yillarda ish jarayonida kompyuterlardan keng foydalanish ish o'rinalining qisqarishiga olib kelgan.

(4) Silikon vodiysiga olamshumul shuhrat keltirgan, uni ulkan tafakkur va sarmoya egalarini tortish markaziga aylantirgan jihatlar talaygina. Ha, chindan ham bu mo'jizalar va uni yaratuvchilar vatanidir. Chunki bu zaminda tafakkur bilan tafakkurning, sarmoya bilan sarmoyaning tinimsiz kurashi va raqobati kechadi. Bu yerda o'zining aqlga sig'mas g'oyalari, takliflari va loyihalari bilan kulgiga qolishdan qo'rqlaydigan insonlar juda ko'p.

Vodiya tavakkal qilishdan, yangilik yaratish va uni hayotiy haqiqatga aylantirish uchun mablag' sarflashdan cho'chimaydilar. Texnologiyalar markazida qaysi millat vakili ekanligingiz muhim emas, balki mutaxassis sifatida o'zingiz, salohiyatingizga ishonch qay darajadaligi ahamiyatlidir. Mazkur hududda yiliga 365, haftasiga 7 kun, sutkasiga esa 24 soat ishlaydilar. Bu zaminda yuz berishi mumkin bo'lgan va ehtimol, bo'limagan narsalarga ham umid bilan qaraladi. Silikon vodiysisidagi odamlar yaratilayotgan yuksak texnologiyalar hayotni ijobjiy tomonqa o'zgatirishiga, insoniyatning kelajakdagagi «Raqamli texnika davri» yorug' bo'lishiga astoydil ishonadilar.

«Ma'rifat» gazetasidan olindi.

35.2-mashq. Testlarni yeching va javoblarini o'qituvchingiz bilan tahlil qiling.

1-test. "Silikon vodiysi" terminidagi "silikon" so'zi nimani anglatadi?	
A	tadqiqotlar marka tadqiqotlar markazi joylashgan hududning eski nomini zi joylashgan hududning eski nomini
B	yarimo'tkazgich qismlarini ishlab chiqarishdagi asosiy materialni
C	hududga asos solgan yirik kompaniyalar bosh harflari ketma-ketligini
D	Santa-Klara shahri yaqinidagi daryoning mahalliy aholi tilida atalishini

2-test. Matn mazmuniga ZID ma'lumotni aniqlang.

A	Hududning tashkil topishida Stenford universiteti vakillari asosiy rolni o'yan-ganlar.
B	Silikon vodiysining asoschisi sifatida Stenford universiteti vakillaridan biri e'tirof etiladi.
C	Texnologiyalar parkini yaratish uchun Stenford universiteti hududni 51 yilga ijara oladi.
D	"Google" axborot tizimining asoschilari Stenford universitetida tahsil olishgan.

3-test. Matnning 2-qismida ajratib ko'rsatilgan qismdagi uslubiy xatoni bartaraf qilish uchun...

A	bo'sh so'zini gektar so'zidan keyinga olish kerak.
B	-dan qo'shimchasini -ni shakliga almashtirish kerak
C	tegishli so'zi o'rniغا xos so'zini ishlatalish kerak
D	olishga so'zi tarkibidagi -ga qo'shimchasi o'rniغا uchun so'zini qo'llash kerak.

120

4-test. Matnning 2-qismida ajratib ko'rsatilgan birlik qanday ma'noda qo'llangan?

A	ilm-fandan yiroqlashishlariga yo'l qo'ymaslik
B	xavf-xatardan himoya qilish
C	o'lmay qolishlarini ta'munlash
D	ketib qolishlarining oldini olish

5-test. Matnning qaysi raqamdagagi qismida Silikon vodiysi aholisi tavsiflangan?

A	A) 2
B	B) 4
C	C) 1
D	D) 3

6-test. Fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Silikon vodiysida ishonish qiyin bo'lgan, kulgili g'oya va loyiha egalariga o'rinn yo'q.

A To'g'ri.

B Noto'g'ri.


7-test. Fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Silikon vodiysi – dunyodagi yagona texnologiyalar parki.

A To'g'ri.

B Noto'g'ri.

Mantiq vaqtি



O'ziga xos jadval bilan tanishing:

1-guruh: Jobir Ahmedov, Birodar Abdurayimov.

2-guruh: Mikki Maus, Rikki-tiki-tavi.

3-guruh: Timuchin, Monika Belluchi.

Guruhlardagi so'zlar bir qonuniyat asosida tanlangan. Shu qonuniyat asosida 10-guruhda 2 ta jonzot nomi joylashgan. Ulardan biri S, ikkinchisi esa T harfi bilan boshlanadi.

Har ikki jonzot nomini toping.


121

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. Matnni tushunish bo'yicha 4 ta test tuzing.

Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma'lumotlarni tushunishni, qiyoslay olish va ulardan to'g'ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo'lsin.

4 ta testdan 2 tasi fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlashga qaratilgan bo'lsin.



36-dars

36.1-mashq. Sizningcha, quyidagi kasblardan qaysilari so'nggi 20 yilda yo'qolib ketadi yoki robotlar qo'liga o'tadi?

kutubxonachilik

libos dizaynerligi

oshpazlik

hisobchilik

taksichilik

gidlik

bastakorlik

o'qituvchilik

tariimonlik

sozandalik

advokatlik

farroshlik

ofitsiantlik

degustatorlik

sotuvchilik

qorovullik

rassomlik

dublyaj aktyorligi

36.2-mashq. Olimlar e'tirof etgan quyidagi kelajak kasblari nima bilan shug'ullanishi haqida fikrlab ko'ring.

122




virtual dunyo dizayneri



koinot gidi



odam tanasi dizayneri



xotira terapevti



taym menejer

ZAMON QO'SHIMCHALARINING QO'LLANISHI

Fe'l zamonlarining alohida-alohida qo'shimchalari bo'lsa-da, biroq ularning qaysi zamonni ifodalab kelgani faqat matndan anglashiladi. Misollar:

1. Endi nima qildik? (o'tgan zamon qo'shimchasi -di kelasi zamon ma'nosi uchun xizmat qilyapti)

2. Indinga qishloqqa ketyapmiz. (hozirgi zamon qo'shimchasi -yap kelasi zamon ma'nosi uchun xizmat qilyapti)

O'tgan zamonning -di, -gan, -ib; kelasi zamonning -a/-y, -(a)r, -moqchi qo'shimchalari ma'nosiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Hozirgi zamon qo'shimchalarida esa faqat uslubiy farq bor xolos. -yap eng faol, ommabop qo'shimcha bo'lgani holda -moqda, -yotir badiiy nutqqa xos shakllar sanaladi. Kelasi zamonning -gay, -ajak, -gu, -ur shakllari ham faqat badiiy uslubda qo'llanadi.

123

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Nima uchun dunyoning ko'plab davlatlarida hukumat robotlardan foydalanishga ruxsat berdi? To'g'ri, savolga salbiy yoki ijobiy munosabat bildirish qiyin, tan olish kerakki, sun'iy aqlning odamlarga keltirayotgan foydasi ham ancha-muncha... Ammo tanganing ikkinchi tomoni undan-da hayratlanarli. Fantast-yozuvchilar sun'iy aqlning his qilish va yaratish funksiyalari ishga tushsa, uni insoniyat to'xtata olmasligini bashorat qilishmoqda. Texnologiya olamining "otalari" – fizik-nazariyotchi Stiven Hoking, Microsoft korporasiyasi asoschisi Bill Geyts, Tesla kompaniyasi rahbari Ilon Mask odamlar super intellektual mashinalar ustidan nazoratni yo'qotishi, ularning foydasidan zarari ko'proq ekanidan xavfsirashgani ham rost.



Ilon Maskning aytishicha, aqlli robotlar bir kunmas-bir kun odamzodni qirib tashlaydi. Uning xavflilik darajasi yadro qurolinikidan ham yuqori. Stiven Hoking esa, oddiy robotlar foyda keltirayotgani rost, ammo ertaga ular o'zini o'zi takomillashtirishga tushsa, unda odamzod hech nima qilolmaydi, ularning evolyutsion tezligi bilan musobaqada yengilamiz, deya ogohlantirgan. Bill Geytsning fikricha, avvaliga ular bizga foyda keltiradi. "Bir necha o'n yillardan so'ng esa faqat zararini ko'ramiz. Unda kech bo'ladi. Ayrim odamlarning bundan xavfsiramasligiga tushunmayman", – deydi u.

36.3-mashq. Matnda olimlar robotlarning kelajakda insoniyat uchun xavf bo'lishi haqida fikr bildirishgan. Ularning fikrlariga munosabat bildiring.

36.4-mashq. Quyidagi gaplardagi fe'llarning zamon qo'shimchalarini izohlang.

1. U bekor uyda o'tiribdi.
2. Yakshanba kuni dam olish uchun tog'ga ketyabmiz.
3. Olim maqolada robotlarning zararli tomonlari to'g'risida to'xtaladi.
4. Yur, ketdik, bu yerda qolishdan endi naf yo'q.
5. Bobosi gapiradi, nabirasi tinglaydi.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Rasmda qanday xavf tasvirlangani haqida fikr bildiring. Uni ikki-uch so'z bilan nomlang.

124



37-dars

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Tabiat va ixtiolar

(1) Jonli tabiat ajoyib konstruktor, muhandis, dizayner, texnolog, buyuk me'mor, quruvchi, betakror meteorology... Insoniyat qanday ixtiolar qilmasin, universal ustaxonada – tabiatda uning o'xhashi, prototipi topiladi. Buyuk ixtiolar ortida buyuk "josuslik" yotibdi.

(2) Radar, qog'oz, internet, protivogaz, reaktiv raketalar... Bularning hammasi – tabiatdan ilhomlanish natijasi. Daraxtdan qog'oz **tayyorlash** usulini odamzod nimadan o'zlashtirgan deb o'ylaysiz? Aridan ekan! Arilar o'z uyasiga material sifatida uzoq yillik daraxt va to'nkalardan foydalanadi. Ari yog'och tolani qirib olishda va silliqlashda jag'ini; uni yumshatish, ma'lum shaklga keltirish va yopishtirishda so'laklarini ishga soladi. Mana shu jarayonlar bugun insonlar tomonidan amalga oshirilmoqda va sifatli qog'oz tayyorlanmoqda.



(3) Kompyutertexnologiyalari va matematik modellashtirishning rivojlanishi olimlarga tabiatning ishoralarini tezroq va aniqroq ilg'ash imkonini berish bilan birga o'tmis olimlarining "sir"laridan ham voqif bo'lishga zamin hozirlaydi. Olimlar Eyfel minorasi boldir suyagimizning tuzilishidan ilhomlanib qurilganini **ta'kidlashadi**. Yoki bugungi uch o'lchamli kino va televide niye taraqqiyotini olaylik. Bu taraqqiyotga turtki bergen usul golografiya (to'lqinlar interferensiyasidan foydalanib buyumning fazoviy (hajmiy) tasvirini hosil qilish usuli) bo'lib, u 1971-yilda Dennis Gabor tomonidan kashf qilingan. Bugun buning sirini bilamiz: golografiya usuli ko'rshapalakning ultratovush tizimidan aynan ko'chirma ekan. Bu ko'chirma hozirda ma'lumotlarni kodlashda, fizika va texnikaning turli sohalarida ham keng **qo'llanmoqda**.

(4) Hindlar nilufargullar (lotuslar) ga bejiz ilohiy tus berishmagan. Axir ular eng iflos ko'lmak va botqoqlarda ham o'zini toza saqlay oladi. Bu suv o'simligi barglari yuzasining maxsus tuzilishi bilan bog'liq ekanı **aniqlandi**. Barg yuzasi silliqdek **ko'rinsa-da**, aslida, mikroskopik ignalar bilan qoplangan bo'lib, ular suv tomchilarini pastga xuddi simob pufakchalari kabi "**dumalatib yuboradi**". Ignachalar tufayli yuzaga na suv, na gard yuqadi. Olimlar nilufargulning xususiyatlarini uzoq vaqt davomida o'rganib chiqdilar va natijada suv va g'uborni "qo'ndirmaydigan" bo'yoqni yaratdilar. Bunaqasi hatto g'ozda ham yo'q. U bilan bo'yalgan devorlarni har besh yilda bir marta, hatto kamroq yuvish mumkin: quritgandan keyin sirtlar bo'yoqning mikro tuzilishi tufayli umuman **ifloslanmaydi**.




(5) Germaniyalik zoolog Gyotse XVIII asrda ajoyib jonzotni o'rganadi. Fanda "jimyurar", "tardigrad", "suv ayiqchasi" nomlari bilan ataluvchi yarim millimetrik bu jonzot deyarli



hamma joyda – tog' cho'qqilarida ham, dengiz tublari-yu Antarktida muzliklarida ham uchraydi. Olimlar uni kuchli radiatsiyada ham, kislorodsiz muhitda ham yashab qolishini **kashf qilishgan**. Jimyurar uchun quruqlikdagi o'simliklarning "bag'ri" – eng yaxshi sharoit. Agar u o'zi uchun qulay bo'limgan sharoitga tushib qolsa, shunchaki qurib qoladi – tamom. Bir yil yoki yuz yildan keyin u yana o'ziga kela oladi. Uning bu xususiyatidan vaksinalarni saqlash va tashishda foydalanish mumkin. Ayrim vaksinalar bir muddat elektr tarmog'ida nosozlik kuzatilganda yoki uzoq joyga yuborilish chog'ida transport bilan bog'liq muammolar sababli o'z xossasini **yo'qotadi**. Shu bois jimiyrarning qurish siridan voqif bo'lsak, vaksinalarni quritish texnologiyasi yordamida bezzar saqlash, tashish imkoniga ega bo'lismiz mumkin.

(6) Kompyuter sohasida doim kechagidan quvvatliroq protsessorga talab bor. Lekin bu talabni qondirish yo'lida katta muammo ham mavjud: tejamkor sovitish tizimi. Ha, ventilyatorlar (kulerlar), freonlardan foydalanib kelinmoqda, lekin ular "**bomba**" protsessorlarni sovita olmaydi-da. Bir necha yil oldin IBM qon oqimi prinsipiga asoslangan yangi texnologiyani taqdim etgan edi. Yangilik Cool Blue deb nomlanadi va quyidagicha ishlaydi: maxsus suyuqlik yuqori bosim ostida tizim bo'ylab aylanadi va protsessor yuzasida ellik mingdan ortiq mikroskopik kanallarga tarqaladi. Agar tushunmagan bo'lsangiz, internet izlash xizmatiga "kapillyarlar" so'rovini yuboring. Bordi-yu bu texnologiya amalda qo'llansa, kelajak protsessorlari yonoqlarimiz sovuqdan qizarib ketishi bilan bir xil prinsipda sovitiladi.



126

(7) Inson hamisha o'z hayotini yengillashtirishga, yanada yaxshilashga intiladi. Bu intilish tufayli yangi-yangi ixtirolarga qo'l uradi. Ishonamizki, yaqin yillar ichida tibbiyot lug'atidan "bedavo" so'zi olib tashlanadi, ekologik muammolarga yechim topiladi, inson qadami Marsga yetadi.

37.1-mashq. Matnni tushunish bo'yicha tuzilgan quyidagi test savollarining to'g'ri javobini toping.

1-test. Gil Shedning fikricha...

A	avvalgi tadqiqot xulosalari nanotexnologiya asrinikidan farq qiladi
B	bugungi har qanday ixtiro o'tgan asr tadqiqoti xulosalariga asoslanadi
C	eski tadqiqot xulosalaridan foydalanish taraqqiyotda ortga ketish deganidir
D	zamonaviy ixtiolar uchun ham avvalroq olingan xulosalar asos bo'lishi mumkin

2-test. Matnning 6-qismida ostiga chizilgan so'z qanday ma'noda qo'llangan?

A	portlaydigan
B	tezkor
C	o'ta kuchli
D	eng yangi

3-test. Matning qaysi qismidagi tadqiqot amalga oshgudek bo'lsa, inson Quyoshdan ancha uzoqdagi sayyoralarda ham jon saqlab qolishi mumkin?

A	4-qism
B	6-qism
C	7-qism
D	5-qism

4-test. Matnda qaysi sohaga oid ixtiroga inson tana tuzilishi asos bo'lgani bayon qilingan?

A	tibbiyot
B	dizayn
C	arxitektura
D	robototexnika

37.2-mashq. Tabiatdan ilhomlanib yaratilgan yana qanday ixtironi bilasiz? Internetdan foydalanib bitta shunday ixtiro haqida ma'lumot to'plang va daftaringizga yozing.

127

NISBAT QO'SHIMCHALARI QO'LLANISHI

Nisbat qo'shimchalari qo'llanishida ko'pincha ikki holatda xatoga yo'l qo'yiladi.

Majhul nisbat shaklidagi fe'l -ni qo'shimchali so'zlar bilan bog'lana olmaydi. Kitobni o'tirib o'qiladi gapida uslubiy xato mavjud. Kitob o'tirib o'qiladi deyish to'g'ri.

Qo'llaniladi, aytinadi kabi shakkarda ham uslubiy xato bor. Qo'llanadi, aytiladi shakkida yozish to'g'ri.

37.3-mashq. 2–5 qismlarda ajratib ko'rsatilgan fe'llarning nisbatini aniqlang.

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. Matnni tushunish bo'yicha 4 ta test tuzing.

Test savollari mayda va keraksiz detallarni eslab qolishni emas, balki ma'lumotlarni tushunishni, qiyoslay olish va ulardan to'g'ri xulosa chiqara olishni tekshirishga qaratilgan bo'lsin.

4 ta testdan 2 tasi fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlashga qaratilgan bo'lsin.

38-dars

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

INNOVATION RIVOJLANISH VAZIRLIGI

Ilg'or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlamalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilgan.

Vazirlik turli sohalarga innovatsiyalarni joriy etish bilan shug'ullanadi. Innovatsion g'oyalar, ishlamalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham vazirlikning zimmasida.

Vazirlikning rasmiy sayti – mininnovation.uz saytiga kirib, sohaga doir yangiliklar, tanlovlardan startap loyihalardan xabardor bo'lib turish mumkin. Shuningdek, vazirlik huzurida Yoshlar akademiyasi ham faoliyat yuritadi. Yoshlar akademiyasi iqtidorig'i yoshlarni qo'llab-quvvatlaydi, tadqiqot olib borishida imkon yaratadi, tashabbuskor yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltiradi.



128

**O'zbekiston Respublikasi
Innovatsion rivojlanish vazirligi**

Vazirlik ▾ Ochiq malumotlar ▾ Faoliyat ▾ Matbuot markazi ▾ E'lonlar ▾ ⏪ ⏴ Q 0'zb ▾

"Green Standart in Aral" mavzusidagi startap loyihalar tanlovi

08:48 08.06.2022 1801

Muddat : 10 iyul, 2022 y. 18:00

E'lonlar

Tanlovlardan
Savdolar
Startap

23.06.2022 1413
Tematic fundamental va amaliy loyihalar tanloving 68-turi qayta...
O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi "Butunjahon hukumatlari sammiti-2022" doirasida...

Muddat : 23.07.2022 Tur 68-turi qayta e'lon
18:00

23.06.2022 1132
Amaliy va innovatsion loyihalar tanloving 64-turi qayta e'lon...
O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ilmli faoliyatga old davlat dasturlari doirasida amaliy...

Muddat : 23.07.2022 Tur 64-turi qayta e'lon
18:00

Activate Windows
Go to Settings to activate e'lon

38.1-mashq. Nega ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ayrim qismlari bosh harf, qolganlari kichik harf bilan yozilganini izohlang.

38.2-mashq. Quyida berilgan fe'llardan qaysilari chiziqcha bilan yozilishini aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

gullab yashnamoq

borib qaytmoq

unib o'smoq

yig'lab gapirmoq

yig'lab siqtamoq

qo'llab quvvatlamoq

so'rab topmoq

so'rab surishtirmoq

yelib yugurmoq

QO'SHIB, AJRATIB, CHIZIQCHA BILAN YOZISH

Qo'shma ot va sifatlar qo'shib yoziladi: karnaygul, ochko'z.

Qo'shma ravish, son, fe'l va olmoshlar ajratib yoziladi: har kuni, o'n olti, olib keldi, hech kim.

Birpas, birmuncha, ozmuncha, biroz ravishlari qo'shib yoziladi.

Juft, takror va yarim takror so'zlar chiziqcha bilan yoziladi: hali-beri, xola-xola, qip-qizil.

Juft so'z qismlari orasida -u/-yu bo'lsa, asoslar orasi ajratib yoziladi: yosh-u keksa, ota-yu ona.

O'rtasida -dan bo'lgan takror so'zlar ajratib yoziladi: kundan kun, qizigandan qizidi.

Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: sharshara, pirpira

Ayrim yuklama qo'shimchalar va -la, -chun ko'makchilari chiziqcha bilan yoziladi: ayt-dim-ku, sen-chi, meni-ya, sen-la, sen-chun.

Qo'shimchalar qisqartma so'zlarga qo'shib, sonlardan esa ajratib yoziladi: O'zMUGa, 8 ga.

129

38.3-mashq. Quyida berilgan ifodalar natijasi qanday yozilishini aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

imum + insoniy

baxt + saodat

baxt + saodat + li

hay + hay + la

ketamiz + mi

ketsang + chi

shu + yoqqa

hech + nima

birdan + bir

so'z + ma + so'z

dum + dumaloq

liq + to'la

"Biz bilan birpas o'tiring", deymiz. Umuman birpas so'zini biz ko'p ishlatalamiz. Lekin uning tarixini, kechmishini, sakkiz og'a-inidan bir o'zi qolganini, yetti aka-ukasi esa tarix to'zonlarida yo'q bo'lib ketganini bilmaymiz. Qizig'i shundaki, birpas so'zidagi pas qismi tilimiz tarixida "kechaning sakkizdan biri" ma'nosini anglatgan...

Yaponlarda ham shunga o'xshash holat kechaning hayvonlari nomi bilan soatlarga bo'linishi bor.

Kechaning uch pasig'acha yo'l yurdik. ("Boburnoma"dan)

"Boboso'z izidan" kitobidan olindi.

Mustaqil bajaraman.

Topshiriq. "Mening ixtirom" nomli esse esse yozing.

Esse kirish, asosiy qism va xulosadan iborat shaklda, adabiy me'yorlarga amal qilgan holda yozilishi kerak.

Hayotimizni yengillashtiruvchi kichik yoki katta ixtiro o'ylab toping. Bu ixtironing insonlarga foydasini tushuntiring. Va albatta unga nom qo'ying. (Nom o'zingiz o'ylab topgan so'z ham bo'lishi mumkin)

Tavsiya etiladigan hajm: 170–220 ta so'z.



BOY BO'LSAM!

39-dars

39.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Siz boylik deganda nimani tushunasiz?
2. Bu so'zni eshitganingiz zahoti xayolingizda kim yoki nima gavdalanadi?
3. Asl boylik nima?

Topshiriq. Matn bilan tanishing.

BOYLIK

Ha, azizlar, bu masala bugungi kunda ham, avvallari ham o'ta jiddiy masalalardan biri bo'lgan. Chunki **boylik** haqida shu qadar turlicha qarash mavjudki, ularning barchasini o'qib, inson bir to'xtamga kela olmay qoladi. Ba'zilar: "Din boylikni **qoralaydi**, hadislarning aksari-ga qara, boylik zararli ekanligi aytilgan, shuning uchun iloji boricha inson kambag'al bo'lishi kerak!" – degan so'zlarni aytishadi.

Boshqa toifa kishilardan esa: "Islom tarixida juda ko'p badavlat kishilar o'tgan, jannatga tushishini tirikligidayoq eshitgan o'nta **sahobiyning** yarmidan ko'pi boy kishilar bo'lgan, nima uchun islam boylikni qoralar ekan, aksincha, musulmonlar qancha boy bo'lishsa, shuncha yaxshi" – degan gaplarni eshitamiz.

Umuman, boylik masalasi juda **nozik** bo'lib, ulamolar bu masalada ham **o'rtada** turmoq afzal ekanligini ta'kidlaganlar. Ya'ni islam boylikni qoramaydi, musulmonlar ichida boy-badavlat kishilar ko'paygani yaxshi, deydi. Biroq boylik insonning oxirati uchun zararli bo'lsa, undan xatarliroq narsa yo'qligini ham bayon etadi. Boisi payg'ambarimiz duo qilganlarida, **faqirlikdan** panoh so'raganlar va shu bilan birgalikda, oxiratda foyda bermaydigan boylikdan ham qochganlar.

131

Islom.uz

39.2-mashq. Matn asosida quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Ayrim insonlar boylik insonga zarar keltiradi deb bilishadi.

T

N

Islom boy bo'lishni qoralamaydi.

T

N

Mo'minlar qancha boy bo'lsa, shuncha saxovatli bo'lishadi.

T

N

Matndagi asosiy va yordamchi ma'lumotlarni aniqlash

132

Matn tuzuvchi o'zining mulohazalarini ifodalashda asosiy va yordamchi ditallardan, tasvirlardan, ma'lumotlardan foydalanadi. Bundan maqsad asosiy g'oyani to'ldirish, izohlash, batavsil ochib berish hisoblanadi. Shu bois matnni tushunishda o'quvchi undagi ma'lumotlarni saralashi – asosiy va yordamchi axborotlarni ajrata olishi, fahmlashi lozim. Masalan, serialarning insonga ta'siri haqidagi matnda ovchilar to'g'risidagi hikoya keltirilgan bo'lsa, bu yordamchi tasvir, ma'lumot hisoblanadi. Serialning psixologik, mavkuraviy ta'siri haqidagi faktlar esa asosiy ma'lumotlar bo'ladi.

39.3-mashq. "Boylik" matnidan quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping. Notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan ko'rib oling.

boylik

faqrlik

nozik

o'rtada

qoralamoq

sahobiy

xatarli



BOYLIK

1. Boy bo'lishlik, boy mavqeyi; mol-mulkning yig'indisi, majmui; mo'llik. Ota boyligi yerga singar, Mehnat boyligi – elga. Maqol.
2. Dunyo, davlat, mol-mulk. Muhabbat boy-likka boqmas. Maqol. Ro'zg'or o'lchov bilan, Boylik tejov bilan. Maqol.
3. Tabiiy, moddiy resurslar majmui. Yer osti boyliklari. Moddiy boyliklar. Tabiiy boyliklar. Qazilma boylik.
4. Aqliy, ruhiy, ma'naviy faoliyat hosilasi, majmui. Madaniy boylik. Ma'naviy boylik. Aqldan ortiq boylik yo'q. Maqol.

39.4-mashq. Quyidagi matn bilan tanishib chiqing. Undagi asosiy va yordamchi ma'lumotlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.

RIVOYAT

Hoji Ahror Valiy shogirdlariga saboq berayotga edi. Shunda xizmatkorlardan biri kelib: "Hazrat, karvoningizga zarar yetibdi", – debdi. Shunda Hoji Ahror Valiy: "Alhamdulillah", – deb, dars o'tishda davom etibdi. Birozdan so'ng o'sha xizmatkor qayta kelib: "Hazrat, boyagi xabar yanglish ekan. Anglashilmovchilik bo'libdi. Savdo karvoningiz juda katta foyda bilan kelmoqda ekan", – debdi. Hazrat yana "Alhamdulillah", – deb, ishida davom etibdi. Bundan hayratga tushgan shogirdlaridan biri so'rabdi: "Ustoz, karvoningiz zararga uchrabdi" desa ham, "Alhamdulillah" dedingiz, "Katta foyda bilan kelmoqda" desa ham, ayni shu javobni berdingiz. Buning bois ne?

Hoji Ahror Valiy "Karvoningizga zarar yetibdi" degan xabar kelganda, qalbimga qaradim. U bundan bezovta bo'lmay, Olloh bilan band ekan. Keyingi xabar kelganda ham yana unga boqdim, qalbim, bundan shodlanib ketmadi, Undan uzilib qolmadi. Shu bois Alhamdullah dedim.

133

Asosiy ma'lumotlar	Yordamchi ma'lumotlar

Ma'no ko'chishi

Shaxs, narsa-predmet, harakat-holatlarning shakli, belgisi va mazmunidagi o'xshashligi orqali ma'nosi ko'chishiga metafora deyiladi.

Masalan,

Yangi olgan uzugining **ko'zi** tushib qolibdi.

U aybini **yuvish** uchun hammaga yaxshilik qildi.

Shaxs, narsa-predmet va hodisalarini aloqadorlik asosida nomlash metonimiya usulida ma'no ko'chishi deyiladi.

Masalan,

– **To'qson besh**(benzin)dan yigirmata quying.

– Xo'p.

– **Ulug'bek Hamdam**(asarini)ni zavq bilan o'qidim.

– Men ham o'qiyan.

39.5-mashq. Rivoyatda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi qaysi usulda ko'chganini aniqlang.

Mustaqil bajaraman.

1-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing, moddiyatdan ustun turuvchi tushunchalar haqida fikr qiling.

LAFZ

134

Toshkentda Mamat akani tanimagan odam yo'q edi. Xalq hofizi Muhammadjon Karimov borgan to'yga ayricha fayz **qo'nardi**. Yoshi bir joyga borib qolgan, ixcham gavdali hofiz mumtoz g'azallarni shu qadar teran tushunib, shu qadar tiniq ovozda aytar ediki, tinglovchilar beixtiyor sehrlanib qolardi.

Men Muhammadjon Karimovning so'nggi qo'shig'ini eshitganman. Qaybir yili **Xumsonga** dam olishga bordik. Mamat akaning o'n chog'lι ulfati ham oromgoh yaqinida Ugam daryosi bo'yidagi choyxonada maskan tutib, bir-ikki hafta dam oladigan odati bor ekan.

Bir kuni oromgohdagi dam oluvchilar iltimosi bilan Mamat aka konser beradigan bo'ldi. Ochiq maydonda yuzlab odam to'plangan. Hofiz ikki-uch qo'shiqdan so'ng **Fuzuliyni** ayta turib, hushidan ketib qoldi...

...Mamat akaning hamma biladigan ajoyib odatlari bor edi. U "zakalat-pakalat" degan so'zni biron marta og'ziga olmagan. Qayerga borsa, sidqidildan xizmat qilgan. Bir **to'yni** chala tashlab, ikkinchisiga yugurmagan. To'y egasi haq bersa, olgan, bermasa, duo qilgan. Basharti to'y qilayotgan kishining qo'li qisqaroqligini payqab qolsa, to'plangan pulni ham "to'yana" deb tashlab ketgan...

Eng muhimi, "Mamat akaning **temir** daftari" el aro mashhur edi. Deylik, mahallaning yamoqchisi to'yga aytib keldi. Hofiz "temir daftari"ni varaqlab ko'rgan va o'sha kuni bo'sh bo'lsa, "Xudo xohlasa, albatta, xizmatda bo'laman", – deb daftariga yozib qo'yan. Ittifoqo, yarim soatdan keyin biron katta mansabdor yoki dong'i ketgan boyvachcha kelib qoladiyu, xuddi o'sha kuni to'y qilayotganini aytib, taklif etadi. Hofiz: "Ilojim yo'q, bir odamga va'da berib qo'yanman, so'zimdan qaytmayman", deb rad etadi. Hech qanday iltimos, hech qancha pul, hech qanday dag'dag'a o'tmaydi! Vassalom! ...

O'tkir HOSHIMOV. Matn qisqartirish bilan olindi.

2-topshiriq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi qaysi usulda ko'chganini aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

40-dars

40.1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Siz qashshoqlik deganda nimani tushunasiz?
2. Yo'qsillikni nima keltirib chiqaradi?
3. Asl qashshoqlik nima?

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Xalqaro ijtimoiy kuzatuv institutlari yo'qsillikni keltirib chiqaruvchi yetti asosiy sababni keltiradi. Ulardan hech bo'limganda ikkitasini to'g'rilashga harakat qiling. Ehtimol, mutlaqo yangi hayotiy darajaga erisharsiz.

1. Shaxsiy byudjyet. Bir o'ylab ko'ring – pullaringizni nimalarga sarflayapsiz? Bu ham kam. Tinch muhitda o'tirib, so'nggi haftadagi barcha xarajatlarin gizni birma-bir yozib chiqing. Endi fikrlang: xaridlar zarurat yuzasidan amalga oshirilganmi yoki yo'q? Ba'zi o'rinnlarda iqtisod qilishning iloji bormidi? Aniq byudjyet rejasining yo'qligi – iqtisodiy farovonlik kemangizdagi asosiy "nosozlik"dir. Hech bo'limganda, bir oylik shaxsiy byudjyetni shakllantirishni o'rjanmas ekansiz, moliyaviy jihatdan hech qanday yangilik kutmasangiz ham bo'ladi.



valyuta kursiga, bu esa sizning hayotingizga ta'sir qilishini tushunishga harakat qiling. Qarabsizki, pullar qayerdan kelishi haqida tasavvur hosil qilasiz.

3. Pul muhim emas! Pul asosiysi emas, ular sizni baxtli qilmaydi. Bu so'zlarga qo'shilasizmi? Afsuski, ko'pchilik bu fikrga qo'shiladi. Albatta, asosiysi pul emas. O'z oilangizga qulay sharoitlar yaratish uchun pulingiz yo'q bo'lsa ham yaxshi... Asosiysi – siz birgasiz. Shunday emasmi?



Ammo yodingizda bo'lsin, pullar farovon hayotning asosi bo'lishi mumkinligini anglab yetmaguningizga qadar boyishning uddasidan chiqqa olmay siz.

4. Kimdir bundan-da og'ir ahvolda-ku! Qashshoq reallikdan qochishning yana bir keng tarqalgan usuli. Tanishin gizdan ko'proq pul topishingizni anglab yetishingiz sizni boyroq qilib qo'ymaydi. Shunchaki, yupatadi va bir joyda qotib qolishingizga sabab bo'ladi.



135



Bu taxminan “Hechqisi yo’q, Afrika-da bolalar umuman och-nahor!” – deb o’ylashdek gap.

5. Shunchaki dangasalik. Soat to’qqizdan oltigacha ishlash qiyin-mi? Aslida inson bundan-da ko’p ishlay oladi. O’zingiz o’ylab ko’ring, tushlikka qancha vaqt sarflaysiz? Necha soat aniq ishdagi faoliyatiningizga yo’naltiriladi? Oradagi internet-ga sho’ng’ishni-ku gapirmasa ham bo’ladi. O’zingizni ayashni bas qiling. Yaxshi pul topmoqchimisiz, ko’proq ishlang.



6. Havoyi hayotga berilish. Yengil hayotga, rohatga, kayf-safoga mukkasidan ketish qashshoqlikni chaqiradi. Inson yoshligida rohatdan qochish, mashaqqatdan qochmaslikni anglab yetmaguncha farovon hayotga erisha olmaydi.

7. Boshqalarni ayblash. Bizning nochor yashashimizda boshqa odamlar aybdor emasligini aniq tushunib yetish – intellekt darajasiga ishora qiladi. Boshqalarga umid qilavermay, pul haqida o’zingiz qayg’uring.

Internet manbalari asosida tayyorlandi.

40.2-mashq. Matn asosida quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

136

Pulni boshqarishni bilish insonni badavlat qilmaydi.

T

N

Pul to'kis yashash uchun muhim emas.

T

N

Nochor, yo'qsil yashashimizga boshqalar aybdor emas.

T

N

Matnning maqsadini aniqlash

Matnning maqsadini aniqlash juda murakkab jarayon. Muallif nazarda tutgan muhim g'oyani idrok etish – matn, uning qismlari, unda q'llangan birliklarning mazmun-mohiyatini, ramzlarni to'g'ri tushunish bilan bog'liq. Shuningdek, matn tuzuvchining yashash makoni va vaqt ham bunda muhim hisoblanadi.

40.3-mashq. Quyidagi testlarni bajaring.

1-test. Yuqorida keltirilgan matnining asosiy maqsadi nima?	
A	Insonlarni boy-badavlat, saxiy bo'lishga undash.
B	Qayerda qanday qilib pul topishni o'rgatish.
C	Insonlarni qashshoq bo'lib qolmasligiga o'rgatish.
D	Insonlarga pulning kuchini ko'rsatish

2-test. Yuqorida keltirilgan matnga tayanib qashshoqlikni keltirib chiqaradigan sabablarni sanang.

40.4-mashq. Ustozingiz bilan birgalikda quyidagi ma'nodosh so'zlarni sinonimlaridan farqini aniqlab, izohini daftaringizga yozing.

137

KAMBAG'AL

QASHSHOQ

BECHORA

NOCHOR

YO'QSIL

FAQIR

QO'LI KALTA

Vulgarizm va varvarizmlar

Varvarizmlar – biror tilda tarjimasi bo'la turib, o'rinsiz ishlataladigan so'zlar guruhidir. Masalan: **znachit** (demak), **tak** (demak), **ostanovka** (bekat), **svet** (chiroq) kabi ruscha so'zlar; **yes** (ha), **vau** (qoyil) kabi inglizcha so'zlar shunga misol bo'la oladi.

Tilda so'kish, qarg'ash ma'holarini ifodalaydigan so'zlar **vulgarizmlar** deb ataladi. Masalan: **yer yutkur**, **oqpadar** va b.

40.5-mashq. Quyidagi parchalarda Vulgarizm va varvarizmlarni aniqlang.

1. Uzr, vazifalarga uspet qilmadim. (s.t.) 2.Maktabimiz qoshida "Education center" tashkil qilindi. (Gazetadan) 3. Messi vorotaga qaysi usulida gol urdi. (s.t.) 4.Tez orada hammaning og'ziga tushgan vunderkind bilan uchrashamiz. (Gazetadan) 5. "E, battol! Xotini bilan yana it-mushuk bo'pti shekilli! Bu og'iroyoq narsa bo'lsa... Hah, eshak!" (Hayriddin Sultonov)



O'ZBEKCHASI BOR!

"*bogatiy*" – boy-badavlat

"*shedriy*" – Sahiy

"*Meshayt qilmoq*" – halal bermoq

"*umniy*" – aqlii, donushmand

"*nobarod*" – teskarisi

"*Uje*" – allaqachon

40.6-mashq. So'zlashuv nutqingizda ba'zan ishlata digan varvarizm va vulgarizmlardan namunalar yozing. Uning nutqdagi o'rni haqida fikr yuriting.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Matnni o'qing. Uning bosh maqsadini aniqlang. Matnda qo'llangan haqorat so'zlarni toping.

138

Faqir kishi Janobi Haqqa noliy boshlabdi: "Ey Yaratgan egam, nega meni boshqa bandalaringdan kam ko'rding, rizqimni kam qilib yaratding?!" Uning bu gaplarini bir yo'lovchi eshitib qolibdi va so'rabdi: "Birodar, tinchlikmi? Nimadan norizosan?!" Shunda xaligi kishi: "Alloh menga ko'p rizq ato etmadni, tinmay mehnat qilaman, biroq faqirlikdan chiqib keta olmayapman!" Yo'lovchi bir oz o'ylanib turgach debdi: "Mayli, senga besh ming tilla beraman, evaziga bitta ko'zingdan voz kechasan!" Faqir qattiq qo'rqib ketib, ikki qadam orqaga chekinibdi: "Esing bormi? Qanday qilib besh ming evaziga ko'zimdan voz kechishim mumkin?!" Yo'lovchi savdolashishda davom etibdi: "Unda bitta qo'lingni beraqol. O'n ming tanga beraman? "Bo'lmaydi, – jahllana boshlabdi faqir, – yuz ming bersang ham qo'limni bermayman!" "Mayli, unday bo'lsa, shu o'n mingga bitta barmog'ingni ber!" – uni holi-joniga qo'yamabdi yo'lovchi. "Nega barmog'imni sotarkanman?! Butun dunyoning moliga almashmayman barmog'imni!" Uning bu gapini eshitgan yo'lovchi maqsadga ko'cha qolibdi: "Ey ahmoq, unda nega noliyapsan? Alloh senga qancha boylik bergani ni ko'rmayapsanmi? To'rt muchang sog', aql-u xushing joyida. Sen esa, faqirlikdan nolib o'tiribsan. Alloh bergen shuncha ne'matga shukr qilish kerak emasmi?!"

"Hidayat" jurnalidan olindi.

41-dars

BOYLAR: KECHA VA BUGUN

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Jadid bobolarimiz qanday boy bo'lishgan?
2. Zamonaviy boylar deganda kimni tushunasiz?



139

41.1-mashq. Quyidagi jadvalda jadid bobolarimiz va zamonaviy boylarning amalga oshirgan ezgu ishlarini qiyoslash uchun jadval berilgan. Siz jadvalning bo'sh tomoniga o'z hududingizdagi boylarning ezgu ishlarini yozing.

O'ZBEK JADID BOYLARI	O'ZBEK ZAMONAVIY BOYLARI
<i>Maktablar ochishdi.</i>	?
<i>Kutubxonalar qurishdi.</i>	?
<i>Gazetalar tashkil etishdi.</i>	?
<i>Teatrlar barpo etishdi.</i>	?
<i>Yoshlarni xorijga o'qish uchun yuborishdi.</i>	?
<i>Millatni yuksaltirishni umummilliy harakatga aylantirishdi.</i>	?

Mustaqil nutq

So'zlovchi muayyan mavzu yuzasidan o'zining shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon etishi mustaqil nutq hisoblanadi. Uni ifodalashda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- fikrlarni rejalshtirib olish;
- fikrlarni faktlarga va dalillarga tayanib ifodalash;
- aniqligi tasdiqlanmagan ma'lumot haqida gapirmaslik;
- hissiyotni boshqara olish;
- tinglovchining o'ziga xos xususiyatlari – yoshi, kasbi, jinsi va boshqalarni hisobga olish;
- shaxsiy mulohozlar bayonida menimcha, bizningcha, tushunishimizcha kabi birliklardan foydalanish;
- samarali til birliklardan foydalanish;
- til me'yorlariga amal qilish.

Mustaqil nutq tartiblariga amal qilish taqdimotlar, turli chiqishlar, shaxsiy fikrlarni himoya qilishning samarali bo'linishi ta'minlaydi.

41.2-mashq. Siz boy bo'lsangiz nimalar qilasiz? Fikringizni mustaqil nutq tuzish tartiblariga amal qilib og'zaki bayon eting.

MUTOYIBA VAQTI

140

41.3-mashq. Quyidagi latifalarni o'qing hamda yengil mutoyibani keltirib chiqarayotgan omilni izohlang.

Afandidan o'qituvchisi so'rabdi:

- "O'g'irladi" so'zi o'tgan zamonda qanday bo'ladi?
- "O'g'irlagan edi" bo'ladi.
- Kelasi zamonda-chi, qanday bo'ladi?
- "Qamoqda", – bo'ladi, ustoz!

O'qituvchi o'quvchidan so'rabdi:

- Shekspir nechanchi yilda tug'ilgan?
- 1564 yilda.
- 1565 yilda esa nima bo'lgan?
- Shekspir 1 yoshga to'lgan.

41.4-mashq. Pulning kuchi... Ikki guruhga bo'linib, bir guruh pulning ijobjiy xislatlarini, boshqa guruh pulning salbiy tomonlarini argumentlar asosida ochib berishga harakat qiling.

Salbiy tomoni	Ijobiy tomoni

MANTIQ VAQTI

Berilgan matndagi nuqtalar o'rniغا qaysi so'zlarni qo'yish kerak? Jumboqning javobini topishga urinib ko'ring.

Bir mamlakatda Rostgo'ylar, Yolg'onchilar, rostgo'ylar va ... aralash yashaydigan Aralash qishloqlari bor ekan. Mos ravishda, birinchi qishloqda faqat rostgo'ylar, ikkinchisida faqat yolg'onchilar, uchinchi qishloqda esa har ikki toifa aralashib ... qilishar ekan.

To'satdan o't o'chirish ... siga qo'ng'iroq bo'libdi:

- Bizning qishloqqa o't ketdi!
- Siz qayerda yashaysiz?
- Aralash qishlog'ida.

Savol: o't o'chiruvchilar qaysi qishloqda yashaydi?

O. Saimov

A	Yolg'onchilar, istiqomat, kompaniya; Aralash qishlog'ida.
B	Aldoqchilar, umrguzaronlik, ofis; Aralash qishlog'ida.
C	Yolg'onchilar, istiqomat, idora; Yolg'onchilar qishlog'ida.
D	Yolg'onchilar, istiqomat, idora; Rostgo'ylar qishlog'ida.

41.5-mashq. Nuqtalar o'rniغا zaruratga qarab qavs ichidagi (kelishik) qo'shimchalardan mosini qo'ying.

141

Mamlakat ishi...(-ga, -da, -dan) nafi eng ko'p tegadigan toifa uch xildir: birinchi...(-dan, -si, -ga) bilimli, donishmand kishilar, turli kasb egalari bo'lsa, ikkinchi...(-dan, -si, -ga) botir, sheryuraklardir. Ular bo'ri – yov...(-ni, -ga, -da) qarshi kurash paytida asqatadi. Nihoyat, uchinchi guruh...(-dan, -ni, -ga) so'zamol kotiblar tashkil etadi. Dono, zakovatli kishilar qiyin muammolar...(-da, -ni, -ga) hal etishda yordamga keladi. Botirlar qo'li...(-da, -ni, -dan) qilich tutguday bo'lsa, yov titroq...(-ga, -ka, -qa) tushadi. Yozuvchi-kotib esa el ishi...(-ning, -ni, -da) osonlashtiradi. U... (-ni, -da, -dan) mashaqqat tugunlari yechiladi. (Yusuf Xos Hojib)

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi hikmatlarni sharhab daftaringizga yozing.

- Sen dunyo ichida bo'l-u, biroq boylik sening ichingga kirmasin. (*Hikmat*)
- Puli yo'q inson emas, maqsadi yo'q inson qashshoqdir. (*Sugrot*)
- Inson dunyoda boy bo'lish uchun emas, baxtli bo'lish uchun yashaydi. (*Stendal*)
- Boylik insonni o'zgartirmaydi, balki asl basharasini ko'rsatadi. (*Maqol*)

42-dars

Topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

Xitoylik muvaffaqiyatlari biznesmen, «Alibaba» kompaniyasining asoschisi Jek Maning yoshlarga yo'llagan murojaatidan parcha.



Mening yoshlarga maslahatim, yigirma besh yoshingizgacha ko'proq xato qiling, bu haqida xavotir olmang. Eng muhim, yiqilganingizda qayta tura oling. Sinib qolmang, o'rningizdan turing... Yosh paytingizda hayot berayotgan darslardan xulosa chiqaring. O'ttiz yoshdan qirq yoshgacha hamma qilayotgan ishlaringizda **samarali** bo'lishga harakat qiling. Qirq yoshdan ellik yoshgacha siz o'zingiz ustasi bo'lgan ishlar bilan mashg'ul bo'ling, ammo siz ellik-oltimish yosh orasida bo'lsangiz, yoshlarni rag'abatlantiring. Chunki yoshlarni sizdan yaxshiroq ishlashi mumkin. Shunday ekan, ularga

yordam bering, umid bering va ishslashga undang. Ozgina vaqt o'tgach, ularning haqiqiy professional ekanligiga **amin bo'lasiz**. Agar siz 25 yoshgacha bo'lsangiz, omadsizlikdan qo'rwmang. Har bir bugungi xato ertangi kunning foydasidir. Bu siz uchun ajoyib imkoniyat. Kelajakda bilimlar uchun kurash bo'lmaydi, kurash yaratuvchanlik uchun bo'ladi. Bu kurash kashfiyotlar uchun bo'ladi. Ta'lim va noodatiy fikrlash uchun kurash bo'ladi. Agar siz xuddi mashinaday fikrlasangiz, sizda muammolar bo'ladi. Oxirgi yigirma yillikda odamlar mashinadek harakat qilishi. Keyingi yigirma yillikda mashinalar odamdek ishslashni boshlaydi. Shunday ekan, kelajak bilimli emas, balki dono va tajribali odamlar qo'lida. Bilim va ishlab chiqarish tarixda qoldi. Kelajak esa **kreativ** kishilar qo'lida bo'ladi. Mening o'ylashimcha, kelgusi o'ttiz yilda dunyoda juda katta o'zgarishlar bo'ladi. Yangi texnologiyalar hayotimizning har jabhasini o'zgartiradi. Men bunga ishonaman. Dunyo insonning aqliy qobiliyatini emas, sevish qobiliyatini ham inobatga olishi kerak. Agar o'zingizdan yomonroq, faqirroq yashayotgan kishilar hamda sizdan omadliroq kishilar haqida bir xil o'ylasangiz, siz bu dunyonni o'zgartira olasiz. Dunyoga kerakli narsa yarata olasiz. O'n besh yil oldin internet mojiza edi. O'sha paytlarda internet juda ham aqli va **aql bovar qilmas** edi. Hozir unday taassurot qoldirmaydi, chunki aql egalari undan samarali foydalanishadi.

Men ko'p xatolar qildim! Sizlarga kulgili tuyulishi mumkin, ammo boshlang'ich maktabning yakuniy imtihonidan ikki marta o'ta olmaganman, o'rta maktabnikidan uch marta yiqilganman. Meni doim onajonim qo'llab-quvvatladi. Universitetga kirish imtihonlaridan uch marta o'ta olmaganman, tasavvur qilyapsizmi? Uch marta universitetga kira olmadim. O'qishni bitirgach, ish izladim o'ttizta idoraning **eshigini qoqib bordim**. Birortasi meni ishga qabul qilmadi. Men politsiya bo'limiga ishga kirmoqchi bo'ldim, u yerda menga shunday deyishdi: "Yigitcha, sen bizga to'g'ri kelmaysan". Men hattoki Xitoyda endigina ochilgan "KFS"ga ishga kirishga harakat qilganman, esimda biz 24 kishi ishga kirishni xohlaganmiz, 23 kishi ishga olingen. Men esa qabul qilishmadim. Politsiyaga ham 5 kishi ishga kirish uchun borganmiz, 4 kishini ishga olishgan. Men esa yana muvaffaqiyatsizlikka uchragan-dim. O'shanda men bunga o'rganib qolgandim. Aytgancha, sizlarga Garvardga 10 martta hujjat topshirganim haqida aytdimmi? Ular ham meni xohlasmadi.



Men ko'p narsalarni Gollivud filmlaridan o'rganganman. Siz "Forrest gamp" filmini ko'rganmisiz? Men bu filmni juda yaxshi ko'raman. Sababi bosh qahramoni hech qachon taslim bo'lmaydigan oddiy bola edi. Odamlar uni ahmoq deb o'yashar edi. Ammo u nima qilayotganini yaxshi bilar edi. 2002 yoki 2003-yil men Amerika Qo'shma Shtatlarida edim. Bu filmni ko'rishni juda xohlagan edim, ammo menda internet yo'q edi. Keyinchalik do'stimning uyida bu filmni tomosha qilishga **muvaffaq bo'ldim**. Shunda tushundimki, o'zingiz qilayotgan ishingizga ishoning, o'z ishingizni seving. Odamlar sizning ishingiz haqida nima deyishi haqida o'ylamang.

O'n besh yil oldin men bilan bo'lgan kishilarga biz juda qattiq mehnat qilishimiz kerakligini, bu mehnatimiz o'zimiz uchun emas, yon-atrofimizdagi odamlarning baxtli bo'lishi uchun yordam berishi kerakligini aytgan edim. O'shanda hech qaysimizning boyvachcha qarindoshlarimiz yoki banklarda dollarlarimiz yoki hokimiyatda tanishlarimiz yo'q edi. Biz umumiy yutuqlarimiz uchun jamoa bo'lib harakat qilishimiz kerak edi va biz shunday qildik...

Hammamiz har xilmiz, o'zimizga xosmiz. Siz o'zingizining o'ziga xos yo'lingizga ega bo'lishingiz kerak. Bizning dunyomizda ko'pchilik doimo shikoyat qilishadi, ular: "Mening imkoniyatim yo'q", – deyishadi. Men ham yoshligimda juda ko'p shikoyat qillardim, bir kuni angladimki, shikoyatlar muammoning yechimini bermaydi. Qayerda insonlar ko'p shikoyatlar qilsa, o'sha yerda imkoniyatlar bor. Shikoyatlarning atigi birortasini yechishni **uddalay olsangiz**, Siz omadli bo'lish, yoningizdagilarga yordam berishdek ulkan imkoniyatlarga ega bo'lasiz. Men ham aynan shunday qildim. Agar siz tadbirkor bo'lishni xohlasangiz, qiyinchilik va mag'lubiyatdan qo'rqmang. Hech qachon taslim bo'lmasang. Biz biznesimizni boshlaganimizda 18 kishi korxonaga egalik qillardik. Bu 18 kishi Xitoyning eng aqlii odamlari deb o'yashadi. Ammo biz juda ham aqlii kishilar emasmiz. Biz shunchaki doimo oxirigacha bordik. Hammamiz oddiy maktablarni tugatganmiz. Biz barchamiz, omadning eng oddiy qoidasiga amal qilamiz. Biz kelajakka ishonamiz, biz juda ham optimistmiz, biz xatolardan o'rganamiz, biz hech qachon taslim bo'lmaymiz.

Manba: Nurli media

42.1-mashq. Matn asosida tuzilgan quyidagi testlarni bajaring.

1-test. Jek Maning fikri asosida quyidagilarni moslashtiring

I. Yoshlarni qo'llab-quvvatlang.	a) 20 yoshda
II. O'zingiz mohir bo'lgan ish bilan shug'ullaning.	b) 35 yoshda
III. Xato qilishdan qo'rwmang.	c) 45 yoshda
IV. Ishingizda sermahsul bo'ling.	d) 55 yoshda

2-test. Jek Maning fikricha, kelajakda kimlar ko'plab muvaffaqiyatga erishadi?

A	ko'plab bilimlarga ega insonlar
B	tartib-qoidalarga doim amal qiluvchilar
C	yaratuvchan, noodatiy fikrlaydiganlar
D	o'z kasbini sevadiganlar

3-test. Jek Ma muvaffaqiyatining asosiy siri nimada?

Eslatma. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

144

A	faqat o'z kelajagini o'ylashida
B	boshlagan ishining oxiriga yetkazishida
D	mashinadek mehnat qilishida
E	qilayotgan ishini sevishida
F	boshqalarning fikri bilan ish ko'rishida
G	xatolaridan xulosa chiqarishida

4-test. Yuqoridagi matn mazmuniga eng mos maqolni aniqlang.

A	Qo'rqqanga qo'sh ko'rindi.
B	Yetti marta yiqilib, sakkiz marta tur.
C	Boy boyga boqar, suv soyga oqar.
D	Yosh keladi ishga, qari keladi oshga.

Subyektiv munosabat ifodalovchi shakllar

Tilimizda -jon, -xon, -oy, -bek, -toy, -cha, -gina kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi qo'shimchalar bo'lib, ular nutqimizda birliklarga hurmat, ta'kid, kesatiq kabi turli ma'nolarni yuklaydi. Masalan, Ukaxon, menga to'g'ri yo'nalishni ko'rsatib yuboring. Ukaginam, qachon odam bo'lsan!

42.2-mashq. Yuqoridagi matndan subyektiv munosabat ifodalangan o'rirlarni topib ko'chiring.

42.3-mashq. Yuqoridagi matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimlarini toping. Notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan ko'rib oling.

samarali

kreativ

aql bovar qilmas

amin bo'lmoq

muvaqqaf bo'lmoq

uddalay olmoq

Yozma matnning kirish qismini shakllantirish

Yozma matn odatda uch qismga ajratiladi: kirish, asosiy qism, xulosa. Matn kirish qismini to'g'ri shakllantirish uning tushunilishini osonlashtiradi. Matnning kirish qismida mavzuga aloqador bo'lgan, qiyoslangan holatlar, uning ahamiyatliligi, zarurati bayon etiladi. Odatda, hajman bir yoki ikki xatboshidan oshmaydi. Shuningdek, yozma matnlar turlarida bu talablar bir-biridan farq qilishi mumkin.

42.4-mashq. "Boy bo'lsam!" matni uchun kirish qismini shakllantiring.

145



BURGAGA ACHCHIQ QILIB, KO'RPGA O'T QO'YMA

Arzimagan narsalarga jahl qilib, yaqinlaringni ranjitma, ko'nglini qoldirma. Zarar keltiruvchi kichik narsalarni yo'q qilaman deb, katta, muhim narsalardan ajralib qolma.

42.5-mashq. Yuqoridagi matnda asosiy mazmunni ifodalayotgan fikrlarni ajratib, daftaringizga yozing.

Mustaqil bajaraman


Topshiriq. "Milliarderlar hayotidan" matni asosida 5 ta savol tuzing, topshiriqlar yashirin ifodalangan ma'lumotni tushunishga yo'naltirilgan bo'lsin.

43-dars

43.1-mashq. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

1. Muvaffaqiyatlarga erishayotgan kishilarni bilasizmi? Ularning siri nimada deb o'ylaysiz?
2. Sizningcha, muvaffaqiyat nima?
3. Siz xato qilganmisiz? Xatolaringizni to'g'rilash haqida o'ylab ko'rorganmisisiz?
4. Insonlar nega muvaffaqiyatsizlikka uchraydi?
5. Siz matndan qanday xulosa chiqardingiz?

MANTIQ VAQTI



Mazkur rasmdan nimani tushunishimiz kerak?

A	Kimda pul, boylik ko'p bo'lsa, hammadan ustun bo'ladi.
B	Kimki faqat kitob o'qisa, hayotni to'la-to'kis fahmlay oladi.
C	Inson kitob o'qimasa ham, hayotda o'z o'rnini topa oladi, muvaffaqiyatga erishadi.
D	Kimki moddiy va ma'haviy hayotni teng tuta olsa, u borliqni to'liq idrok etadi

Yozma matnning asosiy qismini shakllantirish

Fikrni yozma bayon etishda matnning asosiy qismini to'g'ri shakllantirish juda muhim. Muayyan mavzu yuzasidan matn yozishga tayyorgarlik ko'rish chog'idayoq asosiy qismni to'g'ri shakllantirish uchun, avvalo, fiklarni rejalashtirib olish, nimadan boshlab nimada tugashini oldindan aniqlashtirib olish, shaxsiy mulohazalarni ishonchi va ta'sirchan chiqishi uchun mavzuga doir faktlar, sitatalar, maqollar, iboralarni to'plash lozim. Asosiy qismda muhim ma'lumotlar, fikrlar, faktlar, mulohazalar tartibli bayon etiladi. Bu qism umumiyl matnning beshdan uch qismni tashkil etishi mumkin. Asosiy qismda berilgan mavzuga, vaziyatga aloqador bo'limgan ma'lumotlarni bayon etish to'g'ri emas. Bu matnning sifatiga ta'sir etadi.

Topshiriq. Quyidagi matnda asosiy mazmunni ifodalayotgan fikrlarni ajratib, daftaringizga yozing.

HALOLLIK YO'LI

2012-yilning dekabr oyida Ispaniyaning Navarra viloyatida yengil atletika bo'yicha muhim musobaqa bo'lib o'tdi. Yutuqqa katta mukofot qo'yilgan, poygada dunyoning yetakchi sport ustalari qatnashardi. Ular orasida Londonda o'tgan Olimpiada o'yinlarining 3000 metrga to'siqlar osha yugurish bo'yicha bronza medali sohibi keniyalik Abul Mutoi ham bor edi. U bu galgi poygada yetakchi bo'ldi, hammadan o'zib ketdi. Biroq marraga o'n metrcha qolganda to'xtab qoldi. Keniyalik atlet marra chizig'ini kesib o'tdim degan yanglish xulosaga kelgan edi. Mutoi tomoshabinlarga qarab qarsak chalar, yutug'idan xursand edi. Odamlar unga ispanchalab bir nimalar der, o'n metr nariga ishora qilar, biroq u hech narsani anglamasdi.

Ikkinci bo'lib kelgan ispaniyalik poygachi Fernandes Anayya uni bemalol ortda qoldirib o'tishi va sovrindor bo'lishi mumkin edi. Biroq u raqibining xatosidan foydalanib qolish o'rniغا yelkasidan turtib, olg'a yurishga chorladi. O'n metr naridagi finishni qo'li bilan ko'rsatib, tushuntirdi. Ispaniyalik sportchi shundoq qo'lga kiray deb turgan g'oliblikdan voz kechdi, keniyalik raqibini marracha olib keldi, undan keyingina chiziqni bosib o'tdi.

147



Musobaqadan so'ng Fernandes Anayyanı savolga tutishdi:

– Nahotki g'olib bo'lischni istamadingiz?

5000 metrga yugurish bo'yicha Ispaniya championi bo'lgan Anayya shunday javob berdi:

– Yo'q, men g'oliblikni juda xohlagan edim. Ammo sovringa qo'shib Ispaniya termasi tarkibida Yevropa championatida qatnashish imkonini bergenlarida ham, shu yo'lni tutgan bo'lardim. Men g'alabaga loyiq darajada yugura olmadim. Agar raqibim xato qilmaganida, unga yeta olmasdim. Men uchun sovrindor bo'lishdan ko'ra sha'nimni saqlab qolish afzal. Odamlar juda ko'p hollarda xato yo'lni tanlaydi, axloqi tuban ekanini ko'rsatib qo'yadi. Men bunday yo'l tutmaganimdan, halollik yo'llini tanlaganimdan mammunman.

Orif TOLIB



KARNAYCHIDAN BIR "PUF!"

Bir odamdan nimanidir iltimos qilganda: "Bu ish siz uchun hech narsa emas", – degan ma'noda qo'llanadi.

NUQTA (.), SO'ROQ (?), UNDOV (!)

O'zbek adabiy tilida tugallangan ohang bilan aytigan gaplardan so'ng nuqta, undov, so'roq belgisi qo'yilishi mumkin. Odatda, darak va buyruq mazmunli gaplardan so'ng nuqta, so'roq mazmunli gaplardan so'ng so'roq va his-hayajon bilan aytigan gaplardan so'ng undov belgisi qo'yiladi.

Vazifani bajarib bo'ldim. Vazifani bajarib bo'ldingmi? Nihoyat, vazifani bajarib bo'ldim!

1. Ismi, otasining ismi qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng, nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng hamda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng nuqta qo'yilishi kuzatiladi. M: **A.I.Islomov, H.Rahimov; sh.k.** (shu kabilar); **s.t.** (so'zlashuv tilida), **G'. G'.** (G'afur G'ulom), **Nav.** (Navoiy); **2022.15.05.**

2. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki **jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz, izohtab-lab bo'lsa**, undan so'ng qavs ichida so'roq qo'yiladi yoki matn ichida **alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin esa** qavs ichida undov qo'yiladi. M: Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida (?) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi. «Boburnoma»da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

3. His-hayajon bilan aytigan so'roq gaplardan so'ng so'roq va undov ketma-ket qo'yiladi, shuningdek, ritorik so'roq gaplardan so'ng esa undov qo'yiladi. **Ha, ho'kiz uylaringga eltib berilsinmi?!** (A.Qahhor) **Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog'insang, qanday baxt bu!** (O'.Hoshimov)

4. Fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilda, ketma-ket uchta undov qo'yiladi. M: **Axir borilsin, arz qilinsin-da!!!** (A.Qahhor)

43.2-mashq. Matndan olingan quyidagi gaplarda tinish belgilaringning qo'llanish sababini izohlang.

1. Men ko'p xatolar qildim! 2. Eng muhimi, yiqilganingizda qayta tura oling. 3. Sizlarga Garvardga 10 martta hujjat topshirganim haqida aytdimmi? 4. Odamlar sizning ishingiz haqida nima deyishi haqida o'ylamang.

43.3-mashq. Gaplardagi uslubiy, tinish belgilari bilan bog'liq xatoliklarni aniqlang va ularni tuzating.

1. Hozir, kuyovimga telefon qilaman, qamoqdan bo'shaganimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan sur'atni olib keladi. (Said Ahmad) 2. O'zing bilasan – biz erkaklar palov damlashga ayollarga nisbatan o'zimizni ustasi farang sanaymiz. (Sunnatilla Anorboyev) 3. Bu voqeа ikkovimizning gurkirab falak ota boshlagan beg'ubor o'smir qalbimizni hayajonga solgan, o'tamizdagi sirli suhbat mavzusiga aynalib qolgan edi. (Odil Yoqubov) 4. Karl yagona yashar, onasi yetti yil burun vafot etgan, otasi taniqli etnograf Gerhard Myuller, ko'p vaqtini arxeologik safarlarda o'tqazar, nega bir nemis oilasi o'zbek mahallasida turib qolganini hech kim bilmasdi. (Uchqun Nazarov) 5. Yangi rahbar sinalmagan otni sirtidan o'tib, obro'sini tushirgisi kelmedi shekilli, shaytonga hay berib, alamini ichiga yutdi. (Shodmon Otobek) 6. Suqrot bir boy bilan yo'lga chiqqan ekan. Yo'lda, qaroqchilar shu o'ttada izg'ib yuribdi, degan xabarni eshitib qolibdi. Boy:

- Obbo, tangri urdi! Ular meni tanib qolsa, nima bo'ladi! – desa, Suqrot:
- Obbo, xudo urdi! Ular meni tanimay qolsa, nima qilaman? – debdi.


Mustaqil bajaraman

Topshiriq. "Boy bo'lsam!" mavzusida matn tuzing, matningizning asosiy qismini shakllantirishga alohida e'tibor bering.

KINO SANOATI

44-dars

Topshiriq. Quyida rasmi keltirilgan mashhur insonlarni tanidingizmi? Ularni nima birlashtirib turadi?



Topshiriq. Matn bilan tanishing.

BUYUKLAR SO'ZLAGANDA!

- San'at – ibodatning bir shakli, duoning bir turidir. Uning bosh maqsadi insonni o'limga hozirlamoqdir, uning botiniy olamini eng yashirin va nozik joyidan ushlaromoqdir (**Andrey Tarkovskiy**).
- Kino tuyg'ularni, orzular va fikrlarni izohlamoq uchun eng yaxshi vositadir (**Luis Bunuel**).
 - Men istaymanki, film siz kinozalni tark etgandan so'ng boshlansin (**Jak Tati**).
 - Spektakl qo'yayotganimda tomoshabin olqishlarini o'ylamaslikka harakat qilaman. Muhimi, tomoshabin menga hamdard bo'lsa... Ko'p aytganman, bu hamdardlikni gullar-u chapaklar ifodalab bera olmaydi. Spektaklimni do'stim ko'rdimikan, u qanday fikrda ekan? Uning ko'nglini topa oldimmi? Domlam To'la aka ko'rganda nima der edi, qayerini tuzatardi? Aleksandr Ginzburg yo Brim-chi? Asarni ularning nigohi bilan ham ko'rib chiqaman. Ba'zida ustozlarim "aytganini" qilaman. Bo'lmasa, o'zim ularga "tushuntiraman". Spektakl uchun tanlangan pyesa dil izhori yo iqrorga aylanishi zarur. Ishlarimning hammasi ham haqiqiy spektakl bo'lgan, deb ayta olmayman. Lekin taskin bor: qachonlardir kimdir ishingizdan boxabar bo'lib, bir onga bo'lsa-da, sizga suyansa, sizdagi haqiqatga ishonsa, "men endi bu ishni qilmayman, boshqacha hayot kechiraman", – deb o'z holi haqida o'lay boslasa, shuning o'zi kifoya. Ijodning ichki qonuniyati ham odamlarni o'ylantirishdir. Odamni o'ylantirolmagan, o'z xayoliga bo'ysundirolmagan kitob –bir hovuch qog'oz, xolos. O'y surish qobiliyatidan mahrum kimsaga ham achinasan, ham qo'rqasan (**Bahodir Yo'ldoshev**)

150

44.1-mashq. Yuqorida keltirilgan parchalar va o'z kuzatishlaringiz asosida kino va teatr san'ati haqida fikrlaringizni og'zaki bayon eting.

Fikr ifodalayotganda quyidagilarga amal qiling:

- kino va teatr san'atining insoniyatga ta'sirini ochib bering;
- film va sahna asarlarini o'zaro qiyoslang;
- fikringizni adabiy til me'yorlariga amal qilib ifodalang.

44.2-mashq. Quyidagi testlarni ustozingiz bilan birga bajaring.

1. To'g'ri yozilgan so'zni aniqlang.

- A) multifilm B) multfilm D) multefilm

2. To'g'ri yozilgan so'zni aniqlang.

- A) fotoapparat B) fotoaparat D) fotopparat

3. To'g'ri yozilgan so'zni aniqlang.

- A) senariy B) sinariy D) ssenariy

4. Qaysi so'z to'g'ri yozilgan?

- A) plonka B) pylonka D) pilonka

5. Qaysi so'z to'g'ri yozilgan?

- A) proyektir B) proyektor D) proektor

44.3-mashq. O'qing. Quyida dunyo tarixidagi eng kassabop filmlar haqida ma'lumot berilgan.



Film nomi: Garri Poter va ajal tuhfasi 2-qism
Kassa yig'imi: 1 341 511 219 \$
Rejissori: David Yates
Premyerasi: 2011



Film nomi: Forsaj 7
Kassa yig'imi: 1 516 045 911 \$
Rejissori: Jemes Van
Premyerasi: 2015



Film nomi: Qasoskorlar
Kassa yig'imi: 1 518 812 988 \$
Rejissori: Joss Vedon
Premyerasi: 2012



Film nomi: Yura davri dunyosi
Kassa yig'imi: 1 671 713 208 \$
Rejissori: Kolip Trevorrov
Premyerasi: 2015



Film nomi: Qasoskorlar. Abadiyat jangi
Kassa yig'imi: 2 046 687 478 \$
Rejissori: Antony Rosse, Joe Rosse
Premyerasi: 2018



Film nomi: Yulduzlar jangi 7
Kassa yig'imi: 2 068 223 624 \$
Rejissori: J.Abrems
Premyerasi: 2015



Film nomi: Titanik
Kassa yig'imi: 2 187 463 994 \$
Rejissori: Jemes Kemeran
Premyerasi: 1997



Film nomi: Avatar
Kassa yig'imi: 2 787 965 087 \$
Rejissori: Jemes Kemeran
Premyerasi: 2009

44.4-mashq. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

- Ushbu filmlardan birortasini ko'rganmisiz?
- Ushbu filmlarning eng kassabop filmga aylanishining boisi nimada deb o'ylaysiz?
- Nega yurtimizda ham shunday kasabob filmlar suratga olimmagan?
- Bizda ham xalqaro darajada e'tirof etiladigan filmlar olish uchun nima qilish kerak, deb o'ylaysiz?
- O'zingiz yoqtirib ko'radigan filmingiz haqida gapirib bering.
- O'zbek filmlaridan qaysi filmni yoqtirib tomosha qilasiz?
- Filmlarning muvaffaqiyatli chiqishida til ifoda imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishning ahamiyati haqida gapiring.



MA'NODOSH SO'ZLAR

TUSHUNMOQ – BIROR ISH-HARAKAT, NARSA-PREDMETNING MAZMUNINI, MOHIYATINI ANGLAMOQ

anglamoq, fahmlamoq, idrok qilmoq, bilmoq, uqmoq, tuymoq, sezmoq, ilg'amoq, farqlamoq, farqiga bormoq

152

44.5-mashq. Quyida kinodan hayotga ko'chgan jumlalar keltirilgan. Ularni davom ettiring.

1. O'g'lim ovqatingni ishmaysanmi? ("Mahallada duv-duv gap" filmidan)
2. Ketmoni uchmaydi? ("Adullajon" filmidan)
3. Birovning ustidan tuhmat qilish gunoh, tag'inam bilmadim! ("Shum bola" filmidan)
4. Sizni hatto magazinchi G'aybulla ham yomon ko'radi! ("Suyunchi" filmidan)
5. Iltimos, sekinroq gapirsangiz, yozib olay. (Leonid Gayday filmlaridan)
6. Ishlamagan tishlaydi. O'rgan, student! (Leonid Gayday filmlaridan)
7. Imtihon men uchun hamisha bayram. (Leonid Gayday filmlaridan)

OG'ZAKI NUTQNING XULOSA QISMINI SHAKLLANTIRISH

Fikrni og'zaki ifodalayotganda xulosani qay tartibda bayon etish muhim hisoblanadi. Xulosa lo'nda, ta'sirli hamda mazmundor bo'lishi kerak. Xulosa fikrning avvalida keltirilgan dalillar, fikr bayonida ifoydalangan faktlar, shaxsiy mulohazalar asosida hosil qilinadi. Xulosa nutqda *bir so'z bilan aytganda, demak, umuman, qissadan hissa, xulosa qilib aytganda kabi jumlalar bilan boshlanadi* va hukm mazmunida bo'ladi.

44.6-mashq. Yuqoridagilar asosida “kino” tushunchasiga o’zingizning xulosaviy ta’rifingizni yozma bayon eting.

44.7-mashq. Quyidagi jadvalda TIRE (–, –)ning qo’llanish sababi va misollarini moslashtirib daftaringizga ko’chiring. O’zingiz xulosa qiling.

QOIDA	MISOL
1. Dialoglardagi har bir gapning boshida qo’llanilgan.	A. Mard bir o’lar, Nomard – ming.
2. Muallif gapi bilan ko’chirma gap orasida qo’llanilgan.	B. O’zbekiston – Qozog’iston qo’shma korxonasi ishga tushirildi.
3. Asosiy gapdan so’ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida qo’llanilgan.	C. “Oddiylik – buyuklikning belgisidir”, – deydi xalqimiz.
4. Bog’lovchisiz qo’shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilgani uchun ishlataligan.	D. Quyidagi kitoblarni o’qib chiqing: – Abdulla Oripov “Sohibqiron” dramasi; – O’tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi.
5. Tenglik, taqqoslash ma’nolarini bildiruvchi so’zlar orasida qo’llanilgan.	E. – Ertaga qaytasizmi, do’stim? – Ha, safarimiz qarimoqda!

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Siz rejissor bo’lsangiz, qanday film olgan bo’lar edingiz? Shu film uchun dialog shaklda ssenariy tuzing.

45-dars

 **Topshiriq.** Quyidagi rasmni ko'rib, nimani tushunding.



154

45.1-mashq. Quyidagi so'zlarni lug'at daftaringizga ko'chiring hamda ma'nosini ustozingiz bilan birga izohlang.

XURUJ –

ONGOSTI –

G'AYRIIXTIYORIY –

PROYEKTOR –

KADR –

BESTSELLER –


Topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

"25-kadr" o'zi nima?

Sir emas, hozir biz axborotlashgan makonda yashaymiz. Bugun Siz uchun yangilik sifatida qabul qilingan hodisa zum o'tmay atrofdagilar uchun yangilik bo'lmay qolmoqda... Mazkur jadallashgan jarayonda internet va OAVning shaxs va jamiyatga ko'rsatayotgan bosimi haqida ortiqcha to'xtalib o'tish esa o'rinsizdek. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda insoniyat ulkan axborot xurujlari davrida yashashga mahkum. Boisi, zamonaviy axborot xurujlarini kundalik turmushimizning deyarli hamma yerida: katta yo'llar chetida ko'zimizga


tashlanadigan yaltiroq banerlar, kunda televizorda ko'rsatilayotgan reklama roliklari, bolalar uchun mo'ljallangan multfilmlardan tortib, o'sha biz katta qiziqish bilan tomosha qiladigan xorij seriallari va badiiy filmlarida uchratish mumkin bo'lib qoldi.

25-kadr tarixi



di. Gap shundaki, u "Piknik" nomli badiiy film tomoshasi vaqtida aynan filmning kinotasma-si kadrlarini almashtirish jarayonida qo'shimcha proyektor – kino tasmasidagi tasvirlarni uzatish vositasi yordamida "Coca-cola" va "Och qoldingmi? Pop-korn tanovul qil!" degan yozuvlarni namoyish etgan. D.Vaykerining ta'kidlashicha, mazkur "yashirin reklama"li badiiy filmning 1957-yilning butun yoz mavsumida tinmay kinoteatrda ko'rsatilishi natijasida ushbu kinozal oshxonasida "Coca-cola" ichimligi savdosi 17 % ga, "Pop-korn" savdosi bo'lsa 50 % ga oshgan. Shundan so'ng, J.Vaykeri yangi texnologiyani patentlab, o'zining xususiy reklama kompaniyasiga asos soladi va tadbirkorlarga yashirin reklama yaratish bo'yicha pullik xizmatlar ko'rsata boshlaydi. Ushbu "kashfiyat"ning o'sha paytlardagi AQSh OAVda yoritilishi bo'lsa, o'z-o'zidan katta shov-shuvga sabab bo'lib, ko'pgina olimlar, mashhur reklama agentlari hamda keng jamoatchilikning e'tibori-tortadi. Oqibatda, 1958-yilda AQShning o'sha vaqtlardagi yirik reklama tashkilotlaridan biri sanalmish "Advertising Research Foundation" J.Vaykeridan antiqa tajriba to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilgan, ammo muallifdan rad javobi olin-gan. Lekin mavzu atrof-dagi muhokamalar shu bilan tugamadi.

155



Keyinchalik bu mavzuda ilmiy referat yozish maqsadida Styuart Rodjers ismli talaba Nyu-Yorkdan Nyu-Jersiy shtatiga, ya'ni, aynan Vaykeri tajriba o'tkazgan kinoteatrغا tashrif buyuradi va tajribani amalda qaytarmoqchi bo'ladi, biroq... Kinoteatr rahbari Styuartga, o'zining kinoteatrida bu kabi tajribalar sinovdan umuman o'tkazilmaganini hamda bu haqda

Oramizda "25-kadr" haqida eshitganlar ko'pchilikni tashkil qilishi mumkin, biroq uning kelib chiqishi tarixi to'g'risida biladi-ganlar ozchilikni tashkil qiladi. Nazarimizda, sarlavhadagi savolga javob berish uchun dastlab "25-kadr"ning tarixiga to'xtalish maqsadga muvofiq.

...1957-yilda amerikalik tadbirkor Jeyms Vaykeri AQShning Nyu-Jersi shtatida joylashgan kinoteatrlaridan birida g'alati eksperiment o'tkazganini ma'lum qil-

undan birinchi bor eshitib turganini ma'lum qiladi. Oradan bir necha yillar o'tib esa, aniqrog'i 1962-yilda "25-kadr" texnologiyasi muallifi J. Vaykerining shaxsan o'zi 1957-yilda o'tkazgan olamshumul tajribasi tijorat maqsadida shunchaki o'ylab topilganini tan oldi. Inson on-gostiga yashirin ta'sir ko'rsatish xususidagi qizg'in bahs-munozalar shu bilan bir muddat to'xtagandek bo'ldi, ammo...

"New Scientist" xalqaro ilmiy-ommabop jurnali insonning ongostiga muayyan sharoitlarda yashirin tasvir va yozuvlar orqali ta'sir etish mumkinligini e'lon qildi. Jumladan, buning uchun namoyish etilayotgan yashirin yozuv juda qisqa fursat, ya'ni bir soniya ichida yigirma to'rtta tasvirdan ortiq bo'lishi lozim ekan. Soddarroq aytganda, sog'lom odamning ko'zlari bir soniyada ongli ravishda ko'pi bilan 24 tagacha tasvir (kadr)ni ilg'ay oladi. Shu sondan ko'p kadr bir soniyada ko'rsatilgan taqdirda, uni inson ongli emas, balki ongosti holatda g'ayriixtiyoriy qabul qilishni boshlaydi.

Keyinroq, "New Scientist" xalqaro ilmiy-ommabop jurnali ma'lum qilgan bu tad-qiqotlarning to'g'rilinga Gollandiyaning Neymegan universitetidagi Yoxan Karremans bosh-chiligidagi bir guruhi olimlar ham tasdiqlashdi.

Demak, 25-kadr – bu insonning aynan ongostiga o'ziga xos uslubda, ya'ni yashirin rasmlar va audio yoki videoyozuvlardan vositasida ta'sir ko'rsatish texnologiyasi bo'lib, u kutilgan natijani berishi uchun tomoshabinga mazkur yashirin tasvirlar juda katta tezlikda va ko'p marotaba takror ko'rsatilishi lozimligini xulosa qilish mumkin.

"25-kadr" va badiiy film, reklama, multfilmlar

Endi fikrlarimizni "25-kadr" qanday qilib mashhur xorijiy OAVning video va audio tasvirlarida yashirin ravishda namoyish etilayotganligi xususida davom ettiramiz. Quyida ularga qisqacha to'xtalamiz. Ta'kidlash o'rinniki, bunday inson ongostiga ta'sir etuvchi yashirin tasvirlarning aksariyati axloqiy buzuqlik, zararli odat va buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilib, insonning normal ruhiy holatini bevosita emas, balki bilvosita yemirib tashlashga qaratilgan.

Xususan, "25-kadr" texnologiyasidan birinchilardan bo'lib, gollivud rejissori Uilyam Fridkin 1973-yilda o'zining dahshatl "Ekzortsist" badiiy filmida mohirona foydalandi. Badiiy film namoyishi vaqtida tomoshabinlarda kuchli qo'rquv uyg'otish uchun bir necha bor "O'lim niqoblari" yashirin tasvirlari ko'rsatildi. Film keng ommada chinakam "portlash effektini" keltirib chiqqargan.

Shuningdek, gollivudning "Jang klubi" badiiy filmi, o'z davrining mashhur "Bobil-5" teleseriallarida ham "25-kadr" tasvirlarini uchratish mumkin. Qolaversa, "25-kadr" texnologiyasi qanday qo'llanilayotgani to'g'risida amerikalik publitsist Brayan Ki o'zining bestseller asari bo'lmish "Ongosti vasvasasi" kitobida atroflicha asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, mazkur kitobni o'qigan har bir kishi hayotida hech bo'Imaganda bir marotaba pastkash chayqovchilar yoki manfaatparast siyosatchilarning ongostiga ta'sir etuvchi "ko'ngilni sust kettiradigan" tasvirlar qurbanib bo'lib, reklamalarda tomoshabinning ongostiga ta'sir ko'rsatish uchun



odamning sezgisi ilg'amas turli tinish belgilari, axloqsiz tasvirlar, qisqa audio tovushlar va hokazolardan foydalanilgan. Bundan tashqari, "25-kadr"ni multfilmlarda ham uchratish mumkin.

"25-kadr"ga qonuniy taqiq o'rnatilganmi?

Etirof etish joizki, ko'pgina davlatlar qonunchiligi yashirin reklamalar va har xil tasvirlar namoyishi, ya'ni "25-kadr" texnologiyasini taqiqlab qo'ygan. Masalan, Rossiya Federatsiyasining 2006-yil 13-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi Federal qonunining 5-moddasi 9-bandiga asosan, yashirin reklama, ya'ni iste'molchilar tomonidan ongli ravishda idrok etmasdan turib ta'sir ko'rsatuvchi har qanday turdag'i reklamalar, shu jumladan, maxsus video-uzatma (qo'sh audio yozuv)lar yoxud boshqacha uslublarda, radio-, tele-, video-, audio va kinomahsuloti yoki boshqa mahsulotlarda foydalanish hamda tarqatish taqiqlangan. Mazzur yashirin reklama va ortiqcha signallarni aniqlash bo'yicha Rossiya Federatsiyasining TV va Radio Milliy tadqiqotlar instituti mutaxassislari tomonidan maxsus qurilma ham o'ylab topilgan.

So'zimizga yakun yasab aytishimiz mumkinki, kun sayin globallashib borayotgan dunyoda yuqorida kabi zamonaviy axborot xurujlaridan milliy manfaatlarimizni himoya qilish tobora murakkab va qiyin vazifaga aylanib borayotir.

45.2-mashq. Quyidagi matn asosida berilgan testlarning javobini toping.

1. "Piknik" nomli badiiy film yoz davomida muntazam namoyish etilishi natijasida "Coca-cola" ichimligi savdosi 17 % ga, "Pop-korn" savdosi esa 50 % ga oshgan. Buning sababi nimada edi?

- | | |
|---|--|
| A | filmning o'tkir syujetli ekanligi |
| B | filmdagi yashirini reklama ta'siri |
| C | mahsulotlar narxining arzonlashtirilgani |

2. "25-kadr" effektidan qanday maqsadda foydalanish mumkin?

- 1) mahsulotlar reklamasida; 2) vayronkor g'oyalalar tarqatishda; 3) ezgulik targ'ibotida.

- | | |
|---|---------|
| A | 1, 2 |
| B | faqat 2 |
| C | 1, 2, 3 |

3. "25-kadr" qay tarzda insonni boshqara oladi?

- | | |
|---|---|
| A | mazmundor, jarangli til birliklaridan foydalanish orqali |
| B | filmlarning umumbashariy g'oyalarni aks etirishi, o'tkir syujeti orqali |
| C | tasvirlar juda katta tezlikda ko'p marotaba takror ko'rsatilishi orqali |



ADASHTIRUVCHI SO'ZLAR

TOBLANMOQ – TOVLANMOQ

TOBLANMOQ. Issiqda, o'tda kuydirilmoq. Ko'chma. Qiyinchiliklarda yanada irodali bo'lib chiqmoq.

TOVLANMOQ. Quyosh nurida, yorug'likda yaltiramoq, yalt-yult etmoq.

ASIL – ASL

ASIL. Eng sifatli, "toza". M: Asil kiyimlardan oling.

ASL. Eng dastlabki, haqiqiy. M: Asl nusxa. Asl maqsad.

Topshiriq. Matn quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

1. "25-kadr" deganda nimani tushundingiz?
2. "25-kadr" ta'siriga tushganmisiz yoki tushgan insonni ko'rganmisiz?
3. "25-kadr" xurujidan himoyalanish uchun siz qanday tavsiya bera olasiz?

MATN MUALLIFNING NUQTAYI NAZARIGA BAHO BERISH

158

So'zlovchningning yoki muallifning fikriga tinglovchi, o'qirman sifatida baho bera olish juda-juda muhim. Negaki eshitilgan, o'qilgan axborotlar asosida xulosaga kelinadi. Xulosaga kelishdan avval nutq egasining fikri to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish lozim. Buning uchun, avvalo, fikrning xolis yoki noxolis, ko'p tomonlama yoki biryoqlama, obyektiv yoki subyektiv ekanligini aniqlash lozim bo'ladi. Muayyan mavzu yuzasidan keltirilgan fikr faqat salbiy bo'lsa yoki faqat ijobjiy bo'lsa ham, bunday fikr biryoqlama, noxolis bo'lib qoladi. Fikr ifodalovchi hamda o'zgalar fikrni tushunuvchi sifatida unutmaslik kerakki, tanganing ikki tomoni bor.

45.3-mashq. "25-kadr" o'zi nima? matni muallifining fikriga baho bering. Uning fikri biryoqlama, noxolis emasmi? Fikrlaringizni og'zaki bayon eting.

45.4-mashq. Quyidagi savolga yozma javob bering.

Internet tarmog'idagi duch kelgan ("25-kadr" effektidan foydalanilgan bo'lishi mumkin.) video tasvirlarni ko'rish, audio materiallarni eshitish insonni har xil harakatlar, g'oyalarga moyilligini oshirishi mumkin ekan. Shundan kelib chiqib o'zingiz uchun qanday xulosaga keldingiz? Xulosangizni yozma bayon eting.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Biryoqlama, noxolis bayon etilgan internet manbalardan namunalar topib, daftaringizga ko'chirib keling.

46-dars

Topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

SERIALLAR VA BIZ

Istanbul universiteti doktoranti, kinoshunos Otabek Tillayevning maqolasidan parcha

Oppoq qog'ozdag'i dog'

Atrofingizga sinchiklab nazar soling, g'arbona dunyoqarash va madaniyatimizni sintez qilishga urinish bizning ham qadriyatlarimizni yo'q qilmoqda. Endilikda nafaqat bolalar va o'spirinlar, hatto kattalar ham ekranda ko'rganlarini o'z hayotlariga olib kirishga harakat qilishmoqda.

Ammo gap bolalar haqida borar ekan, masalaning naqadar og'riqli va dolzarb ekani yanada oydinlashadi.

Bu – barchamizni sergak va hushyor torttiishi lozim. Chunki bolalar bamisoli oppoq qog'oz. Ammo, afsuski, bu oppoq qog'ozga bugun ajnabiylarning dog'i va nuqsi urmayapti, deb hech kim aya olmaydi.

Seriallarning yoshlar ongi va ruhiyatiga, ma'naviy dunyosiga jiddiy raxna solishi ko'plab ilmiy misollar bilan isbotlangan. Nottingem universitetining bolalar psixolog, professor Elizabet Nyusonning aytishicha, bola balog'at ostonasiga qadam qo'ygach, o'zi uchun namuna izlaydi. Ushbu model uning o'z oila a'zosi yoki biron san'atkori va hatto u tomosha qilgan filmlardagi zo'ravonlik timsoli ham bo'lishi mumkin. Bola o'zi intilgan ushbu modelga beixtiyor taqlid qilishga urinadi.

Endi yaqin o'tmishimizga qaytamiz. Esingizda bo'lsa kerak: "Ramayana" seriali namoyish etilganda, aksar bolalar Ram va Lakshmanga aylanib, kamon-paykon bilan bir-birining ko'zini chiqargan, "Jumong" namoyish etilganda esa o'zicha qilich yasashga tushib ketgandi. Bu – bizning xulosa chiqarishimiz kerak bo'lgan, yosh avlod o'zining boy tarixi bo'lgani holda o'zga yurting o'tmishi va madaniyatiga mahliyo bo'lib o'sgan yaqin tariximizdir.

Xo'sh, bugun-chi, bugun? Bolalarimiz nimalarni tomosha qilib ulg'ayyapti? Kunning necha soatini ijtimoiy tarmoqlar yoki televizor qarshisida o'tkazyapti? Maktab darsliklaridan tashqari oxirgi marta qaysi kitobni o'qidi?

Qancha umrimiz yelga sovurilmoqda?

Aslida, barcha seriallarning mushtarak bir xususiyati bor: serialning har bir qismi, odatda, eng kulminatsion nuqtada yakunlanadi va "Keyingi qismda nima bo'larkin?" degan savol tomoshabin miyasida aylanaveradi... Bu holda u keyingi qismni eng kamida bir kun, ba'zan esa haftalab yurak hovuchlab kutishiga to'g'ri keladi. Bunga esa hammaning ham sabri dosh bera olmasligi aniq va tabiiyki, endi uyda, ko'cha-ko'yda va hatto ishxonada ham serial muhokama mavzusiga aylanadi.

Ya'ni qiziqish maroqqa, maroq hayajonga, hayajon esa telbavor tutqunlikka aylanadi. Kunlar shu yo'sin o'taveradi, oltinga teng umr esa yelga sovurilaveradi.

Agar bugun televizor, internet va ijtimoiy tarmoqlarda kechirayotgan vaqtimiz hisoblab chiqilsa, ishonaveringki, labimizga uchuq toshiradigan darajadagi dahshatli raqamlar paydo bo'ladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, kuniga uch soat televizor tomosha qiluvchi inson bir yilda 45 sutkani, aytaylik, u 75 yil umr ko'rsa, shundan naq 9 yilini televizor ekraniga termilib o'tkazadi.

Bugun yangi multimedia platformalarining umumlashtirilishi biz odatlangan televideniya iste'moli o'rnni ham egallab bormoqda: endi ayrim odamlar har hafta serialning yangi qismi chiqishini kutish o'rniqa, butun bir mavsumni bittada tomosha qilib tugatib qo'ya qolyapti. Netflix xizmati, hatto buning uchun yangi atama ham o'ylab topdi: "binge-racer" (qaram poygachi).

Xo'sh, "binge-racer" kim? Bunday odam dastur yoki serial qismlarini ketma-ket tomosha qilgan holda hatto tunlarini uyqusiz o'tkazadi. Ya'ni uning ashaddiy giyohvanddan deyarli farqi qolmaydi.

Netflix ma'lumotlariga ko'ra 2013 yilda bunday foydalanuvchilar soni qariyb 8,4 million kishini tashkil etgan.

Agar bu raqam kundan kunga ortib borayotganini hisobga olsak, afsuski, bugun butun boshli "zombi" avlodlar yetishmoqda, deb aytish mumkin.

Seriallarning mafkuraviy ta'siri

Hukmron siyosiy elita va uning fikri teleseriallarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buni biz tomosha qilayotgan turk seriallari misolida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda hukmron partiya – AKP (Adolat va taraqqiyot partiyasi) vakillari Turkiya Respublikasini Usmonli imperiyasidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi, deb bilishadi.

Ularning fikricha, Turkiya – Usmonli imperiyasining davomidir. Shuning uchun Usmonli imperiyasining ulug'vorligi, ustunligi va umumiyligini bot-bot eslatib turishadi va ular bugun Usmonlilar ruhini tiklashga harakat qilishmoqda. Ushbu neo-usmonizm konsepsiyasiga parallel holda so'nggi o'n yillikda ko'plab film va seriallar suratga olindi. "Tirilish: Ertug'rul", "Muhtasham yuz yil", "Fotih" kabi seriallar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, inson dunyoqarashi va mafkurasiga xorijiy seriallarning ta'siri salmoqli. Chunki ular kishiga giyohvand moddaday ta'sir ko'rsatib, uni haqiqiy hayotdan uzib qo'yadi.

Ayon haqiqat shuki, bugungi kunda kino industriyasi pardasining ortida turganlar faqat reyting yoki pul ishlash uchungina film suratga olishmaydi. Shubhasiz, ularning boshqa bir maqsadi bor. Shuning uchun ham aksar seriallarda ijtimoiy qadriyatlarning umumiyligini negiziga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan mavzular targ'ib etiladi.

BBC siyosiy muharriri Xardiman Skott ta'kidlaganidek: "Siyosatchilar televideniyaning qudratini yaxshi bilishadi va undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga intilishadi". Xususan, seriallarda siyosiy qarashlar va mafkuraviy gegemonizm konsepsiysi turli yashirin tashviq-da'vatlar, manipulyatsiyalar orqali "eksport" qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, og'u singdirilgan qand zarqog'ozga o'rangan holda taqdim etiladi. Natijada esa jamiyatning ijtimoiy tuzilishi asta-sekinlik bilan tanazzulga yuz tutadi. Tili, dini, madaniyati g'orat qilingan millatni esa osonlik bilan yengish mumkin.

Seriallarning psixologik ta'siri

Serialning yangi qismini tomosha qilish va miyadagi mukofot tizimi o'rtasida bog'liqlik borligi aniq. Kataloniya universiteti nevrologi Diyego Redolarning fikricha, oldinda bema'lol ko'rsa bo'ladijan serialarning mavjudligi asab tizimiga yordam beradi, chunki asab tizimi kutishga, faollikka va serialga qaram bo'lib qolishga toqat qilolmaydi. Keyingi qismni

tomosha qilolmaslik bezovtalikni keltirib chiqaradi va kundalik hayotdagi boshqa vazifalar haqida o'ylashni qiyinlashtiradi.

Bir o'tirishda serialning juda ko'p qismlarini tomosha qilish esa kognitiv va psixologik zararning yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi. Bunday xatti-harakatlar oxir-oqibatda yakkalanishga va hatto kundalik shaxsiy hayotning qadrsizlanishiga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, serial tomoshasidan so'ng jismoniy charchoq va hissiy tushkunlikka tushish holatlari ham ko'p kuzatiladi. Shu bois olimlar har qanday serialni tomosha qilishdan oldin bu haqda obdon o'ylab ko'rishni maslahat berishadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, seriallar, ayniqsa, yoshlarning axloqi, ruhiy-ma'naviy dunyosiga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Ular bolalarning o'z ota-onalari bilan o'zaro munosabatiga, ularning o'qishi va fikrlashining chegaralanishiga, madaniy begonalashuvga, tilning buzilishiga, bolalik va beg'uborlikning erta yo'qotilishiga sababchi bo'ladi. Masalan, Angliyadagi bir maktab-internatda 13 – 16 yosh toifasidagi bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda tadqiqot o'tkazildi. Birinchi guruh 15 kun davomida hajviy va ijtimoiy dasturlarni, ikkinchi guruh esa zo'ravonlik aks etgan dastur va seriallarni tomosha qildi. Qizig'i shundaki, ushbu tadqiqot natijalari birinchi guruhdagi bolalarda bag'rikenglik va kirishimlilik, ikkinchi guruhdagilarda esa aksincha, jismoniy zo'ravonlik, axloqiy buzilishga moyillik ortganini ko'rsatdi.

kun.uz

46.1-mashq. Matndagi ma'lumotlardan beshta faktni yozing.

Namuna: 1. Netflix ma'lumotlariga ko'ra 2013 yilda bunday foydalanuvchilar soni qariyb 8,4 million kishini tashkil etgan.

161

46.2-mashq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Ushbu matn kimlar uchun mo'ljallanganini aniqlang hamda fikrlaringizni argumentlar bilan dalillang. 2. Muallifning seraillar haqidagi shaxsiy mulohazalaridan ayrimlarini xolis va ishonchli ekanligiga baho bering. 3. Muallif maqsadi hamda nuqtayi nazarini qanday usulda yetkazayotganini sharhlang.



SO'ZLAR ETIMOLOGIYASI

**adoq – adzoq – ayaq – oyoq
ko'n (teri) +lak – ko'ylak
ti-(demoq)+l- til
qo'sh+ug' – qo'shuq – qo'shiq**

46.3-mashq. Matndan olingan quyidagi gaplarda qo'shtirnoq ishlatalishining sababini izohlang.

1. Xardiman Skott ta'kidlaganidek: "Siyosatchilar televideniyaning qudratini yaxshi bilishadi va undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga intilishadi". 2. Xususan, seriallarda siyosiy qarashlar va mafkuraviy gegemonizm konsepsiysi turli yashirin tashvish-da'vatlar, manipulyatsiyalar orqali "eksport" qilinadi. 3. "Tirilish: Ertug'rul", "Muhtasham yuz yil", "Fotih" kabi seriallar shular jumlasidandir.

QO'SHTIRNOQ " ", « »

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi. Masalan, "Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa", – degan edi Sa'diy Sheroyi.
2. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, kesatiq, piching va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi. Masalan, ... oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning jinoyati o'n bir yillik qamoq bilan "taqdirlandi". (T. Malik)
3. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi. Masalan, "Ma'rifat" gazetasi. Lison ut-tayr" haqida suhbatlashdik.
4. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi. 1993-yilning 2-sentabr kuni "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

46.4-mashq. Quyidagi gaplardan qo'shtirnoq tushirib qoldirilgan gaplarni aniqlab, tinish belgisini qo'yib daftaringizga yozing.

1. Ey odamzod, oxir o'lib boshingga tushadurgon ish shu. 2. Gyote shunday deb aytgan edi: Donishmandlik faqat haqiqatdadir. 3. Amir Temur mulohazakor, tadbirli shoh sifatida tarixda nom qozongan. 4. Ta'lim to'g'risidagi qonundan ta'lim turlari keltirilgan. 5. Jajji akademik jurnali ko'plab mushtariylariga ega edi. 6. Kundan kunga olomon madaniyati ta'siriga tushgan zombi avlodlar ko'payib bormoqda.

YOZMA MATNNING XULOSA QISMINI SHAKLLANTIRISH

162

Matnning eng muhim qismi **xulosasidir**. Xulosa berishda matn qismlari ma'nosiga tayaniladi. Tuzilgan matnning kirish qismida keltirilgan mavzuning zarurati, mazmuniy bog'langan o'xshatmalar, asosiy qismda izohlangan dalillar, bayon etilgan fikrlar, mulohazalar asosida xulosaga kelinadi. Matnning xulosa qismi, odatda, umumlashma, taklif, tavsiya, yechim sifatida bayon etiladi.

MANTIQ VAQTI

Deyl Karnegi unga shunday ta'rif beradi: "U hech qancha turmaydi, ko'p narsaga qodir emas. U hadya qilingan odam boy bo'ladi, hadya qilgan odam esa kambag'allashib qolmaydi. Uning davomiyligi bir lahza, ammo xotiramizda abadiy qoladi. Uni sotib olish, so'rab olish, o'g'irlab olish behuda. Chunki u chin dildan taqdim etilgandagina qadri. "U" nima?"

A	ishonch
B	nigoh
C	tabassum
D	diyordi

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Seriallarning hayotimizga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz. Mulohazalaringiz hamda "Seriallar va biz" matnida keltirilgan fikrlar va faktlarga tayanib matnning xulosa qismini shakllantiring.

47-dars

47.1-mashq. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

1. Seriallar ta'siriga tushib qolgan insonlarni bilasizmi? Buning sababini "Seriallar va biz" matn asosida izohlang.
2. Sizningcha, serial ko'rishga kimlar mukkasidan ketadi? Fikrlaringizni argumentlar bilan asoslang.
3. Serial ko'rishga mukkasidan ketish qanday oqibatlarga olib keladi? Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan asoslang.

BAHSLASHISH ODOBI

Bahs – muayyan mavzu yuzasida o'zingizning shaxsiy mulohazalariningizni, qarashlariningizni himoya qilish, dalillash, ochib berish jarayoni. Fikringiz faktlarga (dalili tasdiqlangan ma'lumotlar) boy bo'lsa, uni vazmin ifodalasangiz, siz bahs jarayonida ustun chiqishingiz mumkin. Bahs jarayonida quyidagilarga, albatta, e'tibor qaratish lozim:

- raqib tarafni hurmat qilish;
- hissiyotni boshqarish;
- qisqa va mazmundor fikr ifodalash;
- raqib taraf fikr ifodalaganda uni bo'lmashlik, oxirigacha eshitish;
- raqib taraf keltirgan dalillardan o'zlariga qarshi foydalanish;
- yuqori ohangda fikr ifodalamaslik;
- fikrni nim tabassumda bayon etish;
- va boshqalar.

Umuman, bahs mulohazalarni oydinlashtiradi, har bir tushunchaning turli tomonlarni ochib berishda samarali hisoblanadi. Ammo bahsni tortishuvga, dahanaki janjalga aylantirib yubormaslik kerak, agarda shunday ehtimol bo'lsa, fikr bayon etishdan to'xtash maqsadga muvofiq. Bahslashishdan maqsad kim ustunligini aniqlash emas, balki bilim va tasavvurlarni kengaytirishdir.

163

47.2-mashq. Ikki guruhga bo'linib, quyidagi ikki fikr asosida bahs tashkillashtiring. Fikrlaringizni faktlar bilan asoslang.


1. Seriallar ta'siriga tushib qolgan insonlarni bilasizmi? Buning sababini "Seriallar va biz" matn asosida izohlang.
2. Sizningcha, serial ko'rishga kimlar mukkasidan ketadi? Fikrlaringizni argumentlar bilan asoslang.
3. Serial ko'rishga mukkasidan ketish qanday oqibatlarga olib keladi? Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan asoslang.

BIRINCHI GURUH	IKKINCHI GURUH
Serial ko'rish insonlarga salbiy ta'sir etadi.	Serial ko'rish insonlarga ijobiy ta'sir etadi.

MANTIQ VAQTI

Quyidagi testni bajaring.


Akvariumdagi baliqlarni har ikki tomonidan ham ko'rish mumkin. Ikki do'st akvariumni ikki tomondan bir xil vaqtda suratga olishga qaror qilishdi. Quyidagi rasmda akvariumning birinchi tomoni ko'rinishi berilgan bo'lib, unda sakkiz dona baliqning turli yo'nalishlarda suzayotganini ko'rish mumkin.




164

Quyidagilardan qaysi biri akvariumning ikkinchi tarafdan olingan surati hisoblanadi?


A




B



C



D





ADASHTIRUVCHI SO'ZLAR

YONDOSH – YONDASH

YONDOSH. Yonma-yon turgan,

YONDASH. Muayyan narsaga kirishmoq, aniq nuqtayi nazar bilan qaramoq.

NAQ – NAQD

NAQ. (yuklama) Xuddi, ayni M: Buqa naq arslondek o'kirdi.

NAQD. Pulli, pul bilan. M: Biz faqat naqdga savdo qilamiz.

NUQTALI VERGUL (;)

Nuqtali vergul quyidagi o'rinnlarda ham ishlataladi.

1. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandi-dan tashqari har bir bandi oxirida qo'llaniladi:

Quyidagilar demokratiyaning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- xalqning erkin xohish-irodaga ega ekanligi;
- fuqarolarning teng huquqliligi;
- inson huquqlarining barcha narsadan ustuvorligi;
- hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishga burchli ekanligi.

2. Uyushiq bo'laklar guruhanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni ajratib turuvchi so'zdan keyin qo'llaniladi:

Bozordan olma, gilos, anor; kartoshka, piyoz, sabzi; qovun, tarvuz; guruch, mosh, no'xot olib chiq.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda qo'llaniladi:

Bir qarasangiz, qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o'tiradi; bir qarasangiz, gung bo'lib boshini egib oladi.

165

47.3-mashq. Quyidagilarni moslashtirib daftaringizga ko'chiring.

QOIDA	MISOL
1. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida qo'llanilgan.	A. Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham; Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.
2. Uyushiq bo'laklar guruhanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin qo'llanilgan.	B. Uch oylik kurslarga taklif qilamiz: <ul style="list-style-type: none"> – buxgalteriya kursi; – video operatorlari kursi; – veb dasturlashga o'qitish kursi.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda qo'llanilgan.	C. Bog'imizda qovun, handalaklar; olma, o'rik, shaftolilar pishib yotibdi.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Internetdan muayyan bir mavzudagi debat – bahsni topib, ko'ring va undan olgan taassurotlaringizni gapirib bering.

48-dars

48.1-mashq. Quydagi rasmga qarab "Film va badiiy asar" mazusida ijodiy matn tuzing.



Bu haqida o'z fikringizni yozma bayon qiling:

- ijodiy matnni esse talablari bo'yicha yozing;
- fikrlaringizni izchil va savodli ifodalang;
- har ikki tushunchani to'liq izohlang;
- bu tushunchalar haqida o'z fikringizni misollar bilan dalillang;
- hozirgi davr va muhitdan kelib chiqib o'z xulosangizni bering.

Esse 120-150 ta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

SO'ZLAR SAFARI

TOBAKI degan so'zimiz bor. Uning qismati ajoyib. **Tob** o'zak so'zning qizitish, kuydirish ma'nolaridan kelib chiqqan **toba (yassi qozoncha, biz uni tova, tava deymiz), toblanish, obu tob, tobiga keltirish** singari kalimalar ko'p. **Tobaki** deb tobada pishirilgan yoki umuman qovurilgan taom aytildi. Xullas, tobaki degan so'z "safarga chiqib", Rossiyaga bordi va o'ris bo'lib qaytdi. Meliboy – Misha, Safarboy – Sasha, Ergashboy Erik bo'lib qaytgani kabi Tobaki degan nomini Tabaka qilib keldi. **Tobada** pishgan taom ekani esidan chiqdi va qovurilgan jo'jaga aylandi. Biz ham o'zimizning "bolamiz"ni tanimay, **Tabaka** deb chaqiradigan bo'ldik.

(Erkin Vohidov. "So'z latofati"dan)



IKKI NUQTA (:)

Ikki nuqta quyidagi o'rnlarda ham ishlataladi.

1. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng qo'llaniladi:

Mavzu: Inson va tabiat

2. Ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so'ng qo'llaniladi: Imam Buxoriy shundasy degan edilar: "Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'limgay."

3. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiy ma'lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin ishlataladi.

Toshkentda "Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari" mavzusida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

4. Sport musobaqlarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun qo'llaniladi: "Nasaf" va "Paxtakor" jamoalari o'rtasidagi o'yin 2 : 2 hisobida tugadi.

5. Izoh munosabatidagi bog'lovchisiz qo'shma gapda sodda gaplar orasida qo'llaniladi:

Mening bir jaydari falsafamdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (*A. Oripov*)

48.2-mashq. Quyidagi gaplarda tushirilgan ikki nuqtalarni qo'yib ko'chiring.

1. Gulzordagi turfa gullar atrgul, lola, chinnigul odamga zavq berardi.. 2. Kurashda bir tabiat qonuni bor polvon, davrada mag'lub bo'lsa, taqdirga tan berib ketmaydi. 3. Abdulla Avloniy shunday degan edi "Ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir, Ilm inson uchun g'oyat oliv va muqaddas fazilatdur". 4. Abror qizni darrov tanidi u qo'shni mahalladagi do'konda ishlar edi. 5. Mavzu "O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning olamshumul ahamiyati" 6. "Neftchi" va "Navbahor" futbol komandalari o'rtasidagi uchrashuvda hisob ochil-madi – 0 0. 7. Hamma narsa uylar devorlar daraxtlar qorong'ilikka jimgina cho'kdi.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Ixtiyorib biror film ko'rib, taassurotlaringizni yozib keling.

167




49-dars

MUSTAHKAMLASH

Topshiriq. Ijodiy matn tuzish (tavsiya yozing).

Sanjarbek filmlar sotiladigan do'kon ochmoqchi edi. U Yangihayot shaharchasidan filmlar sotiluvchi do'konni ijaraqaga oldi. Mazkur do'konda oldi-sotdi jarayoni to'liq raqamlashtirilgan edi, unda avvalgi yildagi sotuvlarning statistikasi bor edi. Sanjar sentabr oyida ishni boshlamoqchi. Quyidagi statistika natijalariga asoslanib, unga qanday filmlarni sotish uchun tavsiya berasisz.


Xorij filmlarning savdo ko'rsatkichi



168

(1-diagramma. Xorij filmlari disklarining 1 yillik savdo ko'rsatkichi)

Filmlar disklari savdosining oylardagi ko'rsatkichi



(2-diagramma. Xorij filmlari disklari savdosining oylardagi ko'rsatkichi)

Bu haqida o'z fikringizni yozma bayon qiling:

- ijodiy matnni tavsiya shaklida yozing;
- fikrlaringizni izchil va savodli ifodalang.

LOYIHA TAYYORLASH

Ta'til davomida telefoningiz yordamida qisqa metrajli film olishga urinib ko'ring. Filmingizni sinfdoshlaringizga qo'yib bering. Filmingiz ta'sirli bo'lisin. Bunda til birliklarining ifoda imkoniyatlariga alohida e'tibor bering.



169

50-dars

Nazorat ishi

51-dars

Nazorat ishi

52-dars

Nazorat ishi tahlili

INSON VA TABIAT

53-dars

Topshiriq.Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing.

Quyuq o'rmonzorlarni, serqirra tog'larni, baland-past qir-adirlarni, keng yaylovlarni sayr qilib, u yerda yashovchi turfa mavjudotlarni tomosha qiligan hamda noziknihol qirqquloqlar-u bahaybat daraxtlar, **mitti** qurt-qumursqalar-u beso'naqay hayvonlar xilmalligining guvohi bo'lgan bo'lsangiz, siz ekotizimning mumtoz namunasidan bahramand bo'lgansiz.

Ekolam faqatgina **so'lim** o'rmon, jilovlanmagan yovvoyi tabiat yoki go'zal manzara emas, balki karavot ostida yashaydigan suvarak, non yuzasida paydo bo'lgan zamburug', hatto idish tubida hosil bo'lgan mog'or ham uning namunalaridir. Sinchiklab kuzatsangiz,

170



atrof-muhitda tirik mavjudotlarning tarqalishi va ko'payishini tushunasiz, tushuntira olasiz. Masalan, sizning tomorqangizdagи **nabotot** olami dunyoning narigi tomonida yashayotgan tengdoshingiz bog'idagi o'simliklar, hayvonlar va zamburug'lardan o'zgacha ham **turfadir**. Tabiatdagi bunday farqlilik organizmlarning o'zaro ta'siri, ularning fizik, geografik va biologik olami bilan bog'liq.





Keling, ekoolamning bir-biriga ta'siri va bog'liqligini tushuntirishga harakat qilib ko'ramiz. Xitoy tarixda shunday voqea ro'y bergen. Ikkinci jahon urushidan keyin Xitoyda oziq-ovqat tanqisligi kuzatiladi. Buni bartaraf etish uchun keng maydonlarda bug'doyzorlar tashkil qilinadi. Bug'doy unib chiqqach, unga zarar yetkazmasligi uchun chumchuqlarni **qirish** haqida hukumat qaror chiqaradi. Chumchuqlarni qirganlar rag'batlantiriladi. Katta bug'doyzorlarda, yaylovlarda, butun Xitoyda chumchuqlar ommaviy yo'q qilinadi. Maqsad yanada ko'proq hosilga ega bo'lish edi, biroq

natija kutilganday bo'lindi. Bug'doy boshoglariga hasharotlar keltingan zarar oqibatida hosil rejadan bir necha barobar kam bo'ladi. Boisi chumchuqlar bug'doyzorlarni turli mayda hasharotlardan tozalab, "sanitar"lik vazifasini bajarar edi.

171

<https://uz.khanacademy.org materiallari asosida tayyorlandi>.

53.1-mashq. Quyidagi savollarga matn asosida javob bering, fikrlaringizni og'zaki bayon qiling.

1. "Ekoolam" deganda nimani tushundingiz?
2. "Ekotizimga odamzodning sun'iy aralashishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Mintaqamiz misolida izohlay olasizmi?
3. Tabiatdagi yashash uchun kurash qonuniyati hukm suradigan muhitda sanitar – tozalovchi vazifasini bajaruvchi hayvon va qushlarning insoniyatga qanday yordami bor, deb o'ylaysiz?
4. Ona tabiat o'zining go'zalligini, tarovatini yildan yilga yo'qotib borayotganini guvohi bo'lyapsizmi? Buning boisi nimada deb hisoblaysiz?
5. Ayrim insonlar yoki turli tashkilotlar o'z manfaatlari yo'lida ekoolamga atay zarar berishmoqda. Bunday hollarga munosabatingizni bildiring.
6. Sayyoramiz ekotizimini asrab qolish uchun nimalar qilish kerak?

53.2-mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini yozing.

Namuna: nabotot – flora, o'simliklar dunyosi

MATNNI QISQARTIRISH

Matn ustida ishslash, uni kengaytirish yoki qisqartirish murakkab jarayon hisoblanadi. Matnni qisqartirish ikki xil usulda amalga oshiriladi:

1. Matnni tahrirlash orqali qisqartirish.
2. Matnning mazmunini qayta ixchamlashtirib yozish.

Matnni tahrirlash orqali qisqartirish. Matnni, avvalo, diqqat bilan o'qib chiqish zarur. Dastlab matnning maqsadi, g'oyasi aniqlanadi. Undagi asosiy fikr va ana shu asosiy fikrni ochib berayotgan gaplar, so'z birikmalari, ifodalar ajratib olinadi. Shundan so'ng matnni qisqartirish amalga oshiriladi. Qisqartirish jarayonida quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

- matnning asosiy gaplari ajratib olinadi;
- gaplardagi uyushiq bo'laklar, kiritmalar, ilovalar, eslatmalar qisqartiriladi;
- so'z birikmalari sinonim so'zlarga almashtiriladi;
- yoyiq gaplar yig'iq gaplarga, qo'shma gaplar esa sodda gaplarga aylantiriladi;
- ko'chirma gaplar o'zlashma gaplar bilan almashtiriladi;
- matnning qo'shimcha fikr ifodalovchi gaplari, takrorlari tushirib qoldiriladi;
- badiiy-tasviriy ifodalar soddalashtiriladi;
- kirish va xulosa qismilar ejtijoja qarab olib tashlanishi mumkin;
- muallifning umumiy mulohazalari, qarashlari olib tashlanadi;
- matnning asosiy mazmunni ifodalamaydigan xatboshilar tushirib qoldiriladi.

Matnning mazmunini qayta ixchamlashtirib yozish. Avvalo, asosiy maqsad, g'oya belgilab olinadi. So'ng shu g'oyani ochishga xizmat qilayotgan fikr va mulohazalargina qog'ozga tushiriladi. Bunda, albatta, zarur so'zlarni tanlash, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishga alohida e'tibor qaratiladi.

172

53.3-mashq. Quyidagi jadvalda berilgan birliklarning qisqa qisqa ifodasini topib yozing.

BIRLIKLER	QISQA SHAKLDAGI IFODASI
Sayr-u sayohat qilmoq	aylanmoq
tabiatning "yashil qo'rg'oni"	
echkining bolasi	
yomg'irlar fasli	
tirik mavjudotlar	
sayyoramizni qoqikkigabo'lgan tabiiy belbog'	
insonning qanotli do'stlari	

53.4-mashq. Quyidagi qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

Namuna: Har birimiz shuni unutmaylikki, biz tabiatning ongli farzandlarimiz. // Biz tabiatning ongli farzandlarii ekanimizni unutmaylik.

1. Odamzod tabiat ishiga aralashaversa, bir kun kelib tabiat o'z o'chini olmay qo'ymaydi.
2. Texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya, bioxilma-xillikni asrash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolar bir mintaqasi yoki bir mamlakatgagina emas, balki barcha qit'alarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.
3. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, tabiatda turlarning rivoji bamisoli zanjirdek bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular o'zaro yaxlit ekotizimni tashkil etadi.
4. Hatto bir giyohning yo'qolishi ham yashil olamning muvozanati buzilishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.



O'ZBEKCHASI BOR!

- "musor" – chiqindi
"shtraf" – jarima
"optom" – ulgurji, ko'tara
"otdix" – dam

53.5-mashq. She'rni o'qing. Undagi qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirib, daftaringizga yozing.

173

BAHOR KECHASI

Quyosh botib ketdi.
Bir tutam nuri
Varrak dumlariga ilashib qoldi.
Onasi yetaklab ketgan boladek,
Chumchuqlar churq-churqlab tark etdi tolni.
Hovlim o'rtasida do'ndiq qiz kabi
Pushti ko'ylak kiyib turar shaftoli.
Gilos oq shoxi to'n kiygan kuyovmi,
Egilib kelinga pichirlardi u.
To'yni ko'rish uchun tom tepasiga
Shoshib chiqib olgan qizlar kabi oy –
O'rikka tirmashib, yongoqqa o'tib,
Terak tepasida ko'rsatdi chiroy...
Hovuzcha – kosaga bahor sharobin
Shildiratib quyar ariqchalar ham.
Ana, yulduz sanab bo'got labida
Qo'shnim mushugi ham kutadi yorin... (*Shukrullo*)

MATNNI QISQARTIRISH NAMUNASI

MATN. Katta xomashyo konlarini faol o'zlashtirish jarayonida yaqin atrofdagi tuproqlarning ifloslanish radiusi 40 kilometrgacha bo'lishi mumkin. Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararli ekanligiga qarab turli xil kimyoviy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Qachonki yerga ko'p miqdorda zaharli moddalar tushsa, daraxtlar, butalar va hatto o'tlar unib chiqmaydi. Binobarin, hayvonlar uchun ozuqa yo'q, ular nobud bo'ladi yoki yashash uchun yangi joy izlab ketishadi. Ushbu muammolarning yechimi sifatida atmosferaga zararli moddalar chiqindilarini chiqarishni kamaytirish, shuningdek, zarar ko'rgan hududlarni tiklash va tozalash bo'yicha choralarni ko'rish kerak.

QISQARTIRISH. Katta xomashyo konlarini faol o'zlashtirishda (*jarayonida*) yaqin atrofdagi tuproqlarning ifloslanish radiusi 40 **kmgacha** bo'ladi. (**bo'lishi mumkin**) Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararlilikiga (**ekanligiga**) qarab turli (**xil**) kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. (**duchor bo'ladi**) (**Qachonki**) Yerga ko'p (**miqdorda**) zaharli moddalar tushganda nabotot olami (**daraxtlar, butalar va hatto o'tlar unib chiqmaydi**) nobud bo'ladi. Ozuqa yo'qligidan hayvonlar qirilib ketadi yoki yashashga boshqa joy qidirishadi. (**Binobarin, hayvonlar uchun ozuqa yo'q, ular nobud bo'ladi yoki yashash uchun yangi joy izlab ketishadi.**) Ushbu muammolarning yechimi atmosferaga zararli (**moddalar**) chiqindilarini chiqarishni kamaytirish, shuningdek, zarar ko'rgan hududlarni tiklash va tozalash bo'yicha choralarni ko'rish kerak.

174

Berilgan matn	Matnning qisqartma shakl
<p>Yirik xomashyo konlarini faol o'zlashtirish jarayonida yaqin atrofdagi tuproqning ifloslanish radiusi 40 kilometrgacha bo'lishi mumkin. Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararli ekanligiga qarab turli xil kimyoviy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Qachonki yerga ko'p miqdorda zaharli moddalar tushsa, daraxtlar, butalar, o'tlar o'sishdan to'xtaydi, quriydi va hatto qayta unib chiqmaydi. Binobarin, hayvonlar uchun ham ozuqa yo'qoldimi, demak, ular nobud bo'ladi yoki yashash uchun yangi makon izlab ketishadi. Ushbu muammolarning yechimi sifatida atmosferaga xavfli chiqindilar chiqarishni kamaytirish, shuningdek, zarar ko'rgan hududlarni tozalash va qayta tiklash bo'yicha tezkor va muhim choralarni ko'rish kerak.</p>	<p>Yirik xomashyo konlarini faol o'zlashtirishda yaqin atrofdagi tuproqning ifloslanish radiusi 40 kmgacha bo'ladi. Tuproq qayta ishlanadigan moddalarning zararlilikiga ko'ra turli kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Yerga ko'p miqdorda zaharli moddalar tushishidan nabotot olami quriydi. Hayvonlar ham ozuqa yo'qligidan nobud bo'ladi yoki yashashga boshqa joy izlaydi. Atmosferaga xavfli chiqindilar chiqarishni kamaytirish, zarar ko'rgan hududlarni tozalash va qayta tiklash tezkor va muhim yechimlardir.</p>

53.6-mashq. Quyidagi gaplarda qavsning qo'yilish sababini izohlab, daftaringizga yozing.

1. "Muhaddislar imomi" sharafiga erishgan buyuk alloma Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome' as-sahih» ("Ishonchli hadislar to'plami") kitobi hadisshunoslikning eng nodir namunasi hisoblanadi. 2. Jannat onalar oyog'i ostidadir (Hadisdan). 3. Belgini (rang, maza-ta'm, hid, hajm-shakl, xil-xususiyat va boshqalar), o'rin-paytni, miqdorni, shaxsni, narsani bildiruvchi so'roqlarni aniqlang. 4. Musobaqada Ruslan Nuriddinov (Siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda. 5. **Qozi Nizom.** Kisht. (Bir dona surar). **Mir Vafo.** E... otimiz ketdi-ku! (M.Behbudiy) 6. So'zga egalik qo'shimchasi qo'shilgan, asos tarkibidagi "a" unlisi tushib qolishi kuzatiladi. Masalan, shah[a]rim (shahrim).

53.7-mashq. Quyidagi suhbatni o'qing. Jumlalarni qisqartirib, qayta ifodalashga harakat qiling. Matnda qavslarning nima maqsadda qo'llanganiga izoh bering. Dialog so'ngidagi "U" Komiljon uchun qanday yangilik bo'lgan bo'lishi mumkin?

SUHBAT

Komiljon. (qafasdagи qushda ro'y bergan o'zgarishdan tashvishga tushib) Ota, nega qushimiz ozib-to'zib ketyapti?

Abduqodir aka. (qafas eshigini ochadi) Yorug' dunyodagi har bir maxluqot, avvalo, ozod va erkin yashash uchun yaratilgan. Mana, o'zing ham bunga guvoh bo'lib turibsan. Kim ham tutqunlikda yashashni xohlardi...

Komiljon. Unda odamlar nega hayvonlarni ham, qushlarni ham qo'lga o'rgatishadi, qafasga solishadi?

Abduqodir aka. Bir vaqtlar odamzod ona tabiat bilan bir tan-u bir jon bo'lgan, endi esa tabiat ustidan zo'ravonlikka o'tdik, buning oqibati yaxshi bo'lmaydi.

Komiljon. ... (U uchun bu gap yangilik edi.)

175

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Rasmni diqqat bilan kuzating va unga muhokamaga undovchi sarlavha topping. Kuzatishingiz asosida global muammolar bo'yicha o'z nuqtayi nazaringizni yozing.



54-dars

Topshiriq. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

- Quyidagi Orol dengizining rasmlarini ko'rib, nimani tushundingiz?



176

- "Insonning tabiatga ta'siri" deganda nega ko'pchilik tabiatga zarar keltirishni tushunadi? Buning sababi nimada?

3. Bir jumlanı ko'pchilik har xil tushunadi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

- Quyidagi she'riy parcha yordamida rasmlarga sarlavha topib, o'z munosabatingizni qisqa jumlada ifodalang:

Xasta holing, xasta o'yga botursan,
Bemajol, bemador, behol yotursan.
Doding bilan dunyoni uyg'otursan,
Ketib qolma, Orolim! (Muhammad Yusuf)



UNUTILGAN SO'ZLAR

Tilmiz tarixida qo'llanib, hozirda uning o'rnnini boshqa tildan o'zlashgan so'zlar egallagan birliklarimiz ham bor. Quyida ana shunday "**Unutilgan so'zlar**"dan namunalar keltiramiz:

*im – parol // o'ron – parol
archi – sumka
utug – dazmol, utyuk
ulatu – dastro'mol*

N.Jo'raqo'ziyevning "Im bilsa, er o'lmas" maqolasi asosida tayyorlandi.



Topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

1994- yilda braziliyalik fotojurnalist Sebastyan Salgado Ruandadagi qatlom dahshatlarini suratga olib, uyiga qaytdi. U Braziliyaning o'zi tug'ilgan Minas-Jyerays hududidagi cheksiz or'monda xotirjamlikda yashab, o'ziga kelmoqchi bo'ldi.

Ammo u bu yerda ko'rganidan dahshatga tushdi: bir necha yil ichida yam-yashil va jonivorlarga boy bo'lgan or'mon qurigan, shovullagan daryo tashlandiq yerga aylangan, yovvoyi tabiat ham izsiz yo'qolgan edi. Bir paytlar quyuq or'mon bo'lgan yerning atigi 0,5 % hududidagina daraxtlar qolgandi.

Shunda uning turmush o'rtog'i Leliya or'monni avvalgi holiga qaytarish uchun harakat qilishlari kerakligini aytди. Sebastyan bu taklifni qo'llab-quvvatladи va oila ilgarigi or'mon hududiga daraxt ekishga qaror qildi.



4 mln tupdan ortiq daraxt o'tqazildi va 1 502 akr tropik or'mon tiklandi. Tashlandiq hudud yana ko'rkar holiga qaytdi.

Salgadolar dastlabki nihollarni 1998- yilda ekishdi, ammo bunday ulkan hajmdagi ish uchun ikki kishi kamlik qilardi. Maydoni 1 754 akr bo'lgan or'monni tiklash uchun ular 24 kishini yollashdi.

Shu bilan birga Sebastyan bu loyihani moliyalashtiradigan va qo'llab-quvvatlaydigan hamkorlarni ham izladi. O'z missiyasiga boshqalarning e'tiborini tortish uchun oila "Instituto Terra" ekologik tashkilotini tuzdi.

2019-yilga kelib 293 turdag'i



O'rmon tufayli butun ekotizim qayta tiklandi. Bu yerga jonivorlar qaytdi. Tropik mikroiqlim tiklanganligi bois yog'inlar miqdori ham oshib, qurigan irmoqlar to'lib oqa boshladi. ([Kun.uz](#))

54.1-mashq. Quyidagi testlarni matn asosida bajaring.

1. Sebastian Salgado nima sababdan o'zi tug'ilib-o'sgan joyga borish fikriga kelib qoladi?

A	ota yurtini sog'inganidan
B	qo'riqxona qurish uchun
C	dam olish maqsadida
D	ruhan ezilgani bois

178

2. Quyidagi hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

O'rmonni qayta tiklash Sebastian Salgadoning taklifi bilan boshlandi.

A	to'g'ri
B	noto'g'ri

3. Salgadolar oilasi o'rmonni qayta tiklash uchun qanday ishlarni amalga oshirdi?

Eslatma. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

A	Eski o'rmon hududiga daraxtlar ekib chiqishadi.
B	Xalqaro tashkilotlardan yordam loyihalari olishadi.
D	Atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tashkilot tuzadi.
E	Hukumat e'tiborini qaratish uchun namoyishlar o'tkazdi.
F	Ekoolamni tiklash uchun yollanma ishchilarni ishga olishadi.
G	Butun davlat bo'ylab xayriya marafonlari tashkil etadi.

4. Salgadolar oilasi o'rmonni qayta tiklashi natijasida nimalar yuz beradi?

A	"Qizil kitob"ga kiritilgan turlar ko'paya boshlaydi.
B	Yangi shaharcha paydo bo'ladi.
C	Kirish pulli bo'lgan qo'riqxona quriladi.
D	Ariq va daryolarga suvlar qaytadi.

5. Sebastyan Salgadoning o'rmonni qayta tiklashiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang.

Eslatma. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

A	hukumat yordami
B	kasbi
D	kuchli qo'rquv
E	turmush o'rto'g'ining turtkisi
F	otasining vasiyati
G	tabiatga muhabbati

TUSHUNISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Tushunish – biror gap, ish-harakat, imo-ishora va shu kabilarning ma'no-mazmunini anglamoq, asl mazmunini fahm etmoq. Odatda, o'qilgan matnni, o'zgalarning fikrini, xatti-harakatini doim ham suhbatdoshimiz yoki matn muallifi nazarda tutganidek tushunavermaymiz. Boisi insonning tushunishiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Ular quydagilar hisoblanadi:

- til birliklarining ifodasi bilan bog'liq omillar;
- tushunuvchilarning xususiyatlari bilan bog'liq omillar.

Til birliklarining ifodasi bilan bog'liq omillar. Nutq vaziyatida til birliklaridan o'rinli, to'g'ri, ifodali foydalanish yoki foydalanmaslik tushunishga, vaziyatni anglashga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun nutqda birlikklardan tanlab, hisobdorlik bilan savodli foydalanish muloqotni samarali qiladi. Shuningdek, og'zaki nutda imo-ishoralar, tana, ko'z, qo'l, yuz harakatlari ham ta'siri etadi.

Tushunuvchilarning xususiyatlari bilan bog'liq omillar. Suhbatda tinglovchining, matnni tushunishda esa uni o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari ham tushunishga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Ya'ni anglash jarayonida tushunuvchining yashash muhiti, yoshi, xarakter xususiyatlari, berilgan mavzu hamda vaziyatdan xabardor ekanligi yoki oldindan tanish emasligi tushunish jarayoniga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham o'zgalar fikrini tinglaganda yoki o'qiganda, boshqalar bilan muloqot qilayotganda inson o'zidan, yashash muhitidek kelib chiqib fikr bildirmasligi, balki vaziatni to'la o'rganib, keyin xulosaga kelishi turli ko'ngilxiraliklarning oldini oladi. Muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

54.3-mashq. Quyidagi jadvalda ko'pnuqtadan foydalanilgan gaplar va ularning qo'yilish sababi keltirilgan ularni moslashtiring.

Gaplar	Qo'yilish sababi
1. Qish... Butun atrof oppoq libosda...	A. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rnida qo'yilgan.
2. Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr	B. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilgani bois qo'yilgan.
3. – Tushundingizmi, Tushundingizmi? – deyapman? – ...	D. Fikr duduqlanib aytilgani uchun qo'yilgan.
4. Ilkimdin kelguncha... – deb boshlanar edi.	E. So'zlovchining cheksiz his-hayajoni ifodalan-gani uchun qo'yilgan.
5. Nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib ko'chirib yozing: xayri...x, a...loq, ...abar.	F. Jumla qisqartirilgani uchun qo'yilgan.

54.4-mashq. Quyidagi suhbatni o'qing, undagi ko'pnuqtaning qo'llanish sababini og'zaki izohlang.

SUHBAT

O'g'il. Ota har tongda juda chiroqli s....s....ayraydigan bulbulcha bugun s....s....ayramadimi?

Ota. Ha sayramadi, bolam.


O'g'il. Nega s....s....ayramadi? S....s....siz kecha bog'imizdagи darxtlarni kesib tashlagan edingiz. Ular ketib qoldimi?

Ota. ... (Ota o'g'liga nima deyishni bilmas edi.)

180

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi rasmni diqqat bilan kuzatib, u asosida "Inson va tabiat munosabati" mavzusida 10 ta savol tuzing, savollar ritorik so'roq gap shaklida bo'lsin.



55-dars

Topshiriq. Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing.

Qizil kitob! U qanday kitob?! Bu xavf va umid kitobidir, qayg'u-alam kitobidir. Chunki bu kitobda yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan noyob o'simlik va hayvon turlari qayd etiladi, ular sonining kamayishi sabablari yoritiladi, ularni saqlab qolish uchun tavsiyalar beriladi. Shuning uchun "Qizil kitob" insonlarni harakatga, mas'uliyatga chaqiruvchi eslatmadir. [1]

1948-yilda tashkil etilgan Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kamyob va yo'qolib ketish xavfida bo'lgan o'simlik va hayvon turlarining ro'yxatini tuzish g'oyasini amalga oshirishga kirishdi. 1966-yildan boshlab boshqa tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda xalqaro Qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiiga bag'ishlangan nashrlar chop etila boshlandi. Unga kiritiladigan o'simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan 4 guruhga ajratiladi:

- 1) yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar;
- 2) yo'qolib borayotgan (kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlar;
- 3) kamyob, bevosita yo'qolish xavfi bo'lmasa-da, kichik maydonlarda kamdan kam uchraydigan (muhofazaga muhtoj) turlar;
- 4) muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlar tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson ta'sirida qisqarib borayotgan (sonini nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar.

1- va 2- tomida sutemizuvchilar, qushlar haqida, 3- va 4- tomida esa suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar haqida so'z yuritiladi. [2]

"Qizil kitob" tabiatni sevuvchilar, mutaxassislar diqqatini o'ziga tortib, barcha mintaqada mashhur bo'ldi. Bu kitob xuddi kalendardek bezalgan bo'lib, uning har bir varag'i har xil rangda. Har qaysi rangning o'z ma'nosi bor. Masalan, qizil rangda yozilgan hayvon va o'simlik turlari jiddiy muhofazaga muhtoj ekanini bildiradi. [3]

Sayyoramizda hayvon va o'simlik turlari yo'qolib ketishining ikki sababi bor bo'lib, birinchi sababi iqlim va tabiiy sharoitning o'zgarishi bo'lsa, (tabiiy sabab), ikkinchisi antropogen (inson) harakatlar natijasidir. [4]

Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'simliklar dunyosi, ayniqsa, o'rmonlarning ahamiyati beqiyos. Hozirgi vaqtda yer yuzi quruqligining 25 % ini o'rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq aksar o'rmonlarga holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki har yili 3 mlrd m³ hajmda o'rmonlar kesilmoqda. Bu esa floraning kamayib ketishiga olib kelmoqda. "Qizil kitob" yaratilishiga ham aslida shu holat turtki bo'ldi. [5]



Yo'qolish xavfidagi turlar soni [6]

T/R	Taksonlar	Turlar	Kenja turlar	Jami	Umumiy turlar soniga nisbatan % hisobida
1.	Sut emizuvchilar	227	93	320	6.2
2.	Qushlar	264	167	431	4.6
3.	Sudralib yuruvchilar	74	61	135	1.8
4.	Amfibiyalar	34	7	41	2.8
5.	Chuchuk suvdagi baliqlar	169	25	194	3.5
6.	Yuksak o'simliklar	25000 dan kam emas			10 dan kam emas

182

O'zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonlari to'g'risidagi das-tlabki ma'lumotlar 1974-yil ta'sis etilgan "Qizil kitob"da o'z aksini topgan. Umurtqali hayvonlar (baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar) ning 63 turi, o'simliklarning 163 turi haqida ilk bor mukammal ma'lumotlar 1984-yil bosmadan chiqqan "Qizil kitob"da keltirilgan. Masalan, dunyoga dong'i ketgan lola va sallagullar, qimmatbaho o'simlik-yetmak, dorivor o'simlik bozulbang, shirach va shunga o'xshash nafis gulli o'simliklar, Buxoro bug'usi (xongul), sayg'oq, jayron, tog' qoploni, Tyanshan qo'ng'ir ayig'i kabi noyob hayvonlar. [7]

"Qizil kitob" – davriy nashr, uning sahifalari hech qachon tugallanmaydi, Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasiga mansub yana 138 turdagi o'simlikni "Qizil kitob"-ga kiritish lozimligini ko'satmoqda. 1998-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitob"iga kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 tani tashkil etgan bo'lsa, yangi nashrdan 48 oilaga mansub 313 tur o'simlik o'rın oladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: "Inson, sen nimalar qilyapsan? To'xta! O'z uyingni qachongacha vayron qilmoqchisan?" [8]

(Internet manbalaridan)

55.1-mashq. Bo'sh o'rirlarni matn asosida to'ldirib, gaplarni daftaringizga yozing.

1. Sut emizuvchilarning ___ foizi qirilib ketish xafi ostida qolmoqda.
2. Qushlarning ___ ta kenja turlari yo'q bo'lish arafasida.
3. Chuchuk suvlarda yashovchi baliqlarning ___ ta turi halokatga mahkum.
4. Yuksak o'simliklarning ___ foizi yo'qolib ketishi mumkin.
5. Sudralib yuruvchilarning jami ___ ta turi kamayib ketgan.

55.2-mashq. Matn mazmunidan kelib chiqib, quyidagi savollar yordamida fikr-mulohazalariningizni bildiring.

1. Bukanitob nima uchun "Qizil kitob" deb nomlangan? Uning paydo bo'lish sababini bayon eting.
2. Nima sababdan yer yuzidagi o'simlik va hayvon turlari kamayib ketmoqda?
3. O'simlik va hayvonlar himoyasiga bag'ishlangan qanday badiiy asarlarni o'qigansiz va filmlarni tomosha qilgansiz?
4. Ekoolamni asrab qolish uchun nimalar qilish kerak?
5. Tilimizdagagi muloqot jarayonidan chiqib ketayotgan so'zlar uchun "Qizil kitob" tuzish kerak emasmi? Bunga munosabatingizni ibildiring.

TALAFFUZ VA IMLOSI BIR-BIRIDAN FARQ QILADIGAN QO'SHIMCHALAR

1. Tarkibida [u] unlisi ishtirok etgan bir bo'ginli so'zlarga **-ir**, **-il**, **-ib** kabi [i] unlisi bilan boshlanuvchi qo'shimchilar qo'shilganda **-ur**, **-ul**, **-ub** tarzida talaffuz qilinsa-da, yozuvda asliga muvofiq yoziladi: *tushurmoq* - **tushirmoq**, *quvulmoq*-**quvilmoq**, *tug'ulmoq* – **tug'ilmoq**, *urunmoq* – **urinmoq**, *uzub olmoq* –**uzib olmoq**

2. Hozirgi zamon **-yap** qo'shimchasi undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, **-ayap** holida talaffuz qilinsa ham, **-yap** yoziladi: *kelayapti*- **kelyapti**, *borayapman*-**boryapman**

55.3-mashq. Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarni o'qing. Ularni o'zlashtirma gapga aylantirganda, qanday o'zgarishlar sodir bo'lismeni ayting.

183

1. "Qush bo'lib osmonda uchma, toshbaqa bo'lib yerda sudralma! Daraxt bo'l. Boshing osmonda, ildizing yerda bo'lsin", – deb yozgandi O'tkir Hoshimov.
2. Uorren Baffetdan shunday fikr qolgan: "Kimdir hozir salqin daraxt tagida dam olib o'tiribdi, chunki bir necha yil oldin shu daraxtlarni ekib qo'ygan".
3. "O'zingizni daraxt deb biling. Agar odamlar sizga tosh otsa, siz ularni mevalaringiz bilan siylang", – deyiladi hadislardan birida.
4. "Daraxt kabi bo'ling, – deydi donolar, – to'kilmoqchi bo'lgan barglarni ketishiga izn bering".
5. Psixologlar: "Hozirgi turgan joyingiz yoqmayotgan bo'lsa, harakat qiling. Siz daraxt emassiz", – deya maslahat beradilar.

NUTQIY VAZIYATLARDA MULOQOT QILISH

Nutqiy vaziyatlarda turli kishilar bilan muloqot qilish so'z, fikr egasidan alohida talabchanlikni, so'zga nisbatan hisobdorlikni, nozik fahm-farosatni, yuksak ma'naviyatni, chechanlikni, so'zamollikni talab etadi. Ya'ni bir mazmundagi fikrni suhabatdoshning yoshi, jinsi, nutq vaziyatidan kelib turli ifoda shakllarida bayon etishni taqozo etadi. Shuning uchun ham ayol kishilar va erkak kishilar bilan, o'zidan yoshi katta va kichiklar bilan, tanish va notanish kishilar bilan muloqot qilish bir-biridan farq qiladi.

55.4-mashq. Topshiriqlarni bajaring.

1. Quyidagi bir mazmunli gaplarni kimga nisbatan ishlatishimiz mumkinligiga ko'ra moslashtiring.

Gap	Kimga nisbatan qo'llash mumkin?
1. Menga yordam bering.	A) ukaga
2. Menga ko'maklashib yuboring.	B) notanish ayol kishiga
3. Menga yordam ber.	C) tanish yoshi katta kishiga
4. Menga qarashib yubora olasizmi?	D) notanish yoshi katta kishi
5. Tur o'rningdan, yordam ber.	E) do'stga
6. Kechirasiz, menga ko'maklashib yubora olasizmi?	F) ishyoqmasga

2. Testni yeching.

Qadimda shunday odat bo'lgan ekan: daraxt oldiga kelib ta'zim qilishgan, keyin daraxtga yaqinlashib uni silab qo'yishgan, shundan so'ng unga hatto ovqat ham olib kelishgan. Savol: bu g'alati odatlar so'ngida nima qilingan? (zakovat.uz)

A	Shu odatlar orqali daraxtdan uzr so'rab, keyin uni chopib tashlashgan.
B	Daraxt mo'l hosil bergani uchun shu tarzda minnatdorchilik izhor etishgan.
C	Daraxt ko'p meva berishi uchun shu xilda unga murojaat qilishgan.
D	Daraxtdagi mevalarni terib olish oldidan shunday marosim o'tkazilgan.

184



MAQOL SHARHI

Tekinga mushuk ham oftobga chiqmas. – Ushbu maqol "har narsaning o'z qiymati bor, qiymatini berib, unga erishish mumkin" degan ma'noni anglatadi. Biroq bu maqol noplak ishlarni qilishimiz uchun o'ziga tasallli berish, uni "shior" qilib olish maqsadida qo'llanmasligi lozim. Quyidagi maqollardan ham nutqiy vaziyatda o'z ma'nosida qo'llash xalq tafakkurini o'stiradi: *Quruq qoshiq og'iz yirtar. It hurar, karvon o'tar.*

55.5-mashq. Quyidagi maqollarni o'qing. Tushunganingizni hayotiy dalillar bilan izohlang

1. Achchiq savol berib, shirin javob kutma. 2. Har mevaning po'chog'i bor, Har so'zning o'ichovi bor. 3. Gapi to'mtoqning o'zi to'mtoq.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Do'stingiz, ustozingiz, otangiz, onangiz bilan suhbat dialoglarini tuzing, foydalilanilgan til birliklarining ifoda xilma-xilligiga ahamiyat bering.

56-dars

Topshiriq. Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing.

BMT bosh konferensiyasida nutq so'zlab, katta shov-shuvga sabab bo'lgan qizaloq Greta Tunberg kim va u nimaga erishmoqchi?

"Iqlim meni o'zgartirdi, mening hikoyam sizni o'zgartiradimi?"



2018-yilning 20-avgustida 15 yoshli Greta Tunberg **Rikstag** binosi oldida qo'lida plakat bilan paydo bo'ldi. Bu plakatga "Iqlim uchun muktab noroziligi" deb yozilgan edi. Greta global iqlim isishi oqibatida Shvetsiyada yuzaga kelgan qurg'oqchilik va o'rmon yong'inlari muammosiga siyosatchilarning e'tiborini qaratish maqsadida har juma kuni norozilik shakli sifatida muktabga bormasligini va parlament oldida namoyish o'tkazishini e'lon qildi.

Aytish joizki, Greta **piket** uchun juda qulay vaqt tanlagandi. Chunki aynan o'sha kunlari Rikstag sayloviga atigi uch hafta vaqt qolgan va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti juda avja chiqqan edi. Parlament binosi qarshisida yolg'iz o'zi norozilik uyushtirgan muktab o'quvchisi o'ziga qiziqish bilan yaqinlashgan odamlarga **flayer**lar ham tarqatgan. Unda Greta nima uchun piket qilayotganini qisqacha tushuntirgan: "Biz, bolalar, ba'zan kattalarning gapiga kirmaymiz. Biz ham o'zimizni kattalardek tutyapmiz. Mening ismim Greta va men to'qqizinchи sinfda o'qiyman. Men parlament saylovi gacha bo'lgan vaqtida muktabga borishdan bosh tortaman!"

O'sha kuni ijtimoiy tarmoqlarda bu holatga munosabat bildirilgan ko'plab xabarlar paydo bo'ldi. Haftaning oxiriga borib esa Greta yonida bir necha o'nlab odam to'plandi. Parlament a'zolari ham uni qo'llab-quvvatlab chiqishlar qildi. Mamlakatning eng yetakchi telekanallari Greta haqida axborot tarqatdi.

8-sentabr kuni, ya'ni parlament sayloviga bir kun qolganda, Greta namoyishni to'xtatish niyati yo'qligini ma'lum qildi va dunyodagi barcha tengdoshlariga "Kelajak uchun juma" nomli aksiya o'tkazish tashabbusini ilgari surib, ko'ngillilarni o'z mamlakatining parlamenti binosi oldida norozilik namoyishi o'tkazishga chaqirdi. Gretaning bu tashabbusini millionlab odamlar qo'llab quvvatladi va o'sha juma kuni ijtimoiy tarmoqlar **#fridaysforfuture** **xeshtegi** bilan e'lon qilingan minglab norozilik suratlariga to'lib ketdi.

"The Guardian" nashriga bergen intervyusida Greta o'z xatti-harakatlarini "Ayrim odamlarga barcha narsa o'z holicha qolaversa ham mayli. Lekin men unaqa emasman. Ayniqsa, biror narsadan xavotirda yoki qayg'uda bo'lsam, buni shunday qoldira olmayman. Kichik sinfda o'qiyotganimda o'qituvchimiz bizga okeandagi plastik uyumi, global iqlim isishi



sababli qutb ayiqlari jabr ko'rayotgani haqida film qo'yib bergandi. Men filmni ko'rib rosa yig'ladim. Sinfdoshlарим ham yig'ladi, biroq ular filmdan so'ng bemalol boshqa ishlar bilan shug'ullanaverdilar. Men esa unday qila olmayman. O'sha kadrlar miyamdan chiqmay qoldi", – deb izohlagan edi.

Greta nimaga erishmoqchi?

O'zining aytishicha, Greta Tunberg odamlarni, ayniqsa, siyosatchilarni global iqlim o'zgarishlariga mas'uliyat bilan

qarashga chorlamoqchi bo'lgan va bu muammolarga hech kimning befarq bo'lmasligi lozimligini maksimal darajada hammaga yetkazishni maqsad qilgan.

"Men his qilayotgan qo'rquvni hamma his qilishini xohlayman. Keyin esa hamma harakatga tushishini istayman. Uy yona boshlasa, uni boshqatdan qurish haqida o'ylashga tushmaysiz, aksincha, ko'chaga baqirib chiqib, o't o'chiruvchilarni chaqirasiz. Bu ham shunga o'xshash fikr", – degandi Greta Davos forumidagi nutqida.

Greta Shvetsiya hukumati iqlim o'zgarishi bo'yicha 2015-yilgi Parij kelishuvlarini real amalga oshira boshlamagunicha norozilik chiqishlarini davom ettirishga qaror qilgan. Eslatib o'tamiz, Parij kelishuvlariga ko'ra, sayyoramizdagi o'rtacha iqlim isishini 2°C dan oshirmslikka kelishib olingan edi. Bu raqam atmosferaga tashlanayotgan uglerod oksidlari miqdori 15 foizga qisqartirilsagina erishilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichdir. Greta shved hukumatidan shuni talab qilmoqda.

U shu chog'gacha nimaga erishdi?

Tunbergning aytishicha, "Kelajak uchun juma" chiqishlari paytida 50 dan ortiq mamlakatda 1,5 milliarddan ortiq odam uning noroziliga qo'shilgan. Jami 123 ta mamlakatda 2 ming martaga yaqin norozilik chiqishlari o'tkazilgan. Natijada "i-D" jurnali Greta Tunbergni "Avlod ovozi" deb atay boshladi, "Time" jurnali esa uni 2019-yilning 100 nafar eng ta'sirli odami ro'yxatiga qo'shdi. Qiz haqida "The Guardian", "New Yorker" hamda boshqa eng nufuzli nashrlar yozdi.

Hozirda esa 16 yoshli shved qizi Nobel mukofotiga tavsiya qilinmoqda. Aytish joizki, Greta Tunberg nafaqat iqlim muammolari, balki bolalar huquqi borasida ham keng ko'lamlı ishlarni amalga oshirmoqda. U bolalarning ham o'z fikri borligini kattalar hurmat qilishi kerakligi va bolalar o'zi uchun muhim deb bilgan narsalarni baralla aytishlari lozimligini ta'kidlagan.

23-sentabr kuni Greta Tunbergning BMT bosh **konferensiyasida** nutq so'zlashi juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Uning nutqidagi asosiy tezislari quyidagidir: "Katta avlod yolg'on-yashiq va vaqtinchalik hoy-u havasga berilgan, aslida esa tabiat haqida hech kim qayg'urayotgani yo'q; shu sababli endilikda yoshlar "kallasi katta" siyosatchilarga ishonishda davom etmoqchi emas".

"Men shunchaki bu muammoning yuziman va shu sababli barchaning nafrati menga qaratilgan. Men aslida hech qanday yangi gap aytayotganim yo'q. Men shunchaki olimlar o'n yillardan beri bong urayotgan muammoga hammaning e'tiborini qaratmoqchiman. Albatta, men bu muammo bilan shug'ullanishga yoshlik qilaman. Lekin bu muammo bilan hech kim shug'ullanmayotgani va kelajak xavf ostida qolayotgani uchun men o'z noroziliklarimni davom ettirish kerakligini his qilmoqdaman", – dedi Greta.

56.1-mashq. Quyidagi savollar asosida fikrlaringizni og'zaki bayon qiling.

1. Siz Gretaning jazoratiga qo'shilasizmi yo qarshimisiz?
2. Gretaning muammoni hal etishga bo'lgan yondashuvining qanday salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi mumkin?
3. Ekologik muammolarni keltirib chiqarayotgan holatlar haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?
4. Ekologik muammolarni hal qilishda Greta tanlagan yo'ldan boshqa qanday usullarni taklif qila olasiz?
5. Siz o'zingiz yashayotgan joyda atrof-muhitni asrash, himoya qilish, qayta tiklash uchun nimalardir qilganmisiz?
6. Atrof-muhitni muhofza qilishga qaratilgan qanday milliy qadriyatlarimiz bor? Shular haqida gapiring.

56.2-mashq. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini ustozingizdan so'rab, daftaringizga yozing.

MATNNI KENGAYTIRISH

187

Matnni kengaytirishdan oldin u nima maqsadda yoziligan, qanday fikrlar bildirilgani, g'oyasi aniqlab olinadi. Avvalo, matnni diqqat bilan o'qib chiqish kerak Shundan so'ng matnni quyidagi yo'llar bilan kengaytirish mumkin:

- matnning bosh fikri, g'oyasini shakllantiruvchi tayanch so'z va iboralar, gap yoki mikromatn aniqlab olinadi;
- matn mazmuniga mos kiritma, ilova, izoh, eslatma, lirik chekinishlar kiritiladi;
- lozim o'rinaliga mazmunga mos maqollar, ibora, hikmatli so'z va sitatalar, zarur hollarda badiiy-tasviriyl ifodalar ham qo'shiladi;
- yig'iq gaplarni yoyiq gaplarga, sodda gaplarni qo'shma gaplarga, o'zlashma gaplarni ko'chirma gaplarga aylantirib yoziladi;
- so'zlar so'z birikmalari bilan, sifatdoshlar o'xshatish kabi vositalar bilan almashtiriladi;
- turli stilistik usullar, ritorik so'roq, murojaat, undovlar qo'llanadi;
- matnni kirish, xulosa va shaxsiy mulohazalar evaziga ham kengaytirishi mumkin;
- matn mazmunini ochish uchun xizmat qiladigan tushuntirish va qo'shimcha detallar qo'shish;
- muharir muallif bilan kelishgan holda matnning qismlarini o'zgartishi mumkin.

Shundan so'ng matn qayta o'qib chiqiladi, xato va kamchiliklari tuzatiladi. So'ng oq qog'ozga sarlavha qo'yib ko'chiriladi.

56.3-mashq. Quyida berilgan sodda yig'iq gaplarni sodda yoyiq gaplarga aylantiring.

1. Men qatnashdim. //

Men kecha do'stlarim bilan mahallamizni obod qilish uchun tashkil etilgan hasharda qatnashdim.

2. Ertaga kelsin. 3. Boshlandi. 4. Asrab-avaylaylik. 5. Obod eting. 6. Ekaylik.



O'ZBEKCHASI BOR!

"*naushnik*" – *qulochchin*

"*svejiy*" – *yangi, barra, tabiiy*

"*otdelniy*" – *alohida*

"*tem boleye*" – *ustiga-ustak*

56.4-mashq. Quyida Gretaning nutqidan parcha berilgan. Matnni uning asosiy mazmunini saqlagan holda kengaytiring.

Biz bolalar ba'zan kattalarning gapiga kirmaymiz. Biz ham o'zimizni kattalardek tutyapmiz. Mening ismim Greta va men to'qqizinchi sinfda o'qiyman. Men parlament saylovi gacha bo'lган vaqtida maktabga borishdan bosh tortaman!

56.5-mashq. Quyidagi o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gaplarga, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring.

Namuna. Stiven Kovi ko'p odamlar fikrni tushunish niyati bilan tinglamasligini, balki javob qaytarish niyatida tinglashlarini aytgan edi. - Stiven Kovi shunday degan edi: "Ko'p odamlar tushunish niyati bilan emas, balki javob qaytarish niyatida fikrni tinglaydilar".

188

1. Stiven Kovi ko'p odamlar tushunish niyati bilan tinglamasligini, balki ular javob berish niyatida tinglashlarini aytgan edi.
2. "Agar ota-onalar mehnat qilayotgan bir paytda farzandlar kayf-u safo bilan band bo'lsa, bilib qo'yingki, ularning nabiralari tilanchilik qiladi", – deyilgan yapon xalq maqolida.
3. Donolar xorlik vaqtida qilinmagan mehnatning badali ekanligini ta'kidlaydilar.
4. "Boyaqishning umri yelday sovurilyapti", – dedi Saodat aya. (Said Ahmad)
5. Yahudiylar kun bo'yи ishsiz yurushdan ham og'ir yumush yo'qligini ta'kidlashadi.

Mustaqil bajaraman

Topshiriq. Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing. Matnni quyidagilarga amal qilib kengaytirib yozing:

- matnni kengaytirish qoidalariga amal qiling;
- asosiy mazmundan uzoqlashib ketmang;
- adabiy til me'yorlariga amal qiling

QIZIL PANDALAR



Ko'pchilik qizil pandalar haqida eshitmagan bo'lsa, ajab emas. Negaki bu momiq, yoqimtoy hayvonlar kamayib ketmoqda. Pandalrning o'rtacha umri 10-15 yildan oshmaydi. Ular qizg'ish mo'yna, niqobli yuz va momiq dumga ega. Kattaligi ham uy mushugidek. Bu ajoyib hayvonlar Himoloy tog'larning janubi-sharqida deyarli 4000 metr balandlikda hayot kechiradi. Qizil pandalar quruq, issiq iqlim sharoitida yashay olmaydi. Ularga harorat +25 darajadan yuqori bo'limgan joylar ma'qul keladi.

Qizil pandalar yenotlarning uzoq qarindoshlari bo'lib, ko'p vaqtini daraxtlarda o'tkazadi va vegetarian tarzda oziqlanadi. So'nggi yillarda qizil pandalar populyatsiyasi sezilarli darajada pasaygan. Himoloy tizmalarida ularning soni uchdan bir qismiga kamaydi. Bu esa ularni xavf ostidagi va yo'qolib borayotgan turlar sifatida qayd etilishiga olib keldi.

Ekologlar ta'kidlashicha, bu kamayishning asosiy omillari quyidagilar:

- mo'ynasi uchun ovlanishi;
- o'rmonzorlarning keskin qisqarib, daraxtlarning kesilishi;

– xonaki itlar keltirib chiqargan kasalliklar.

Shuningdek, iqlim o'zgarishi ham qizil pandalarning kamayishiga olib kelmoqda.

57-dars

MUSTAHKAMLASH

Topshiriq. "Inson va tabiat" mazusida ijodiy matn tuzing.

Bu haqida o'z fikringizni yozma bayon qiling:

- ijodiy matnni esse talablari bo'yicha yozing;
- fikrlaringizni izchil va savodli ifodalang;
- har ikki tushunchani to'liq izohlang;
- bu tushunchalar haqida o'z fikringizni misollar bilan dalillang;
- hozirgi davr va muhitdan kelib chiqib o'z xulosangizni bering.

Esse 200–250 ta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

TAKRORLASH

58-dars

O'qish savodxonligi

A VARIANT

I QISM

Quyidagi matnni o'qing va u asosida berilgan 1–5- topshiriqlarni bajaring.

QON TOPSHIRISH



Donorlik – hayotni asrab qoladi!

Inson qonining butunlay o'rnnini bosuvchi hech qanday modda mavjud emas. Shuning uchun inson umrini saqlab qolishda donorlik xizmati muhim ahamiyatga ega.

Transiyada har yili 500 000 nafar bemorga qon quyish orqali o'z xastaliklarini yengillashtirishiga amaliy yordam ko'stiladi.

Qon olish uchun bir martalik sterillangan asboblardan (shpris, naychalar, konteyner) foydalaniladi.

Qon topshirayotib, siz hech qanday tahlikaga duchor bo'lmasiz.

Qon topshirish begonalarga beg'araz yordam berishning eng keng tarqagan usullaridan biri bo'lib, u atigi 45 daqiqadan 1 soatgacha vaqt ni oladi.

Donordan 450 ml qon va tahlil qilish hamda yana tekshirish uchun bir necha tomchi qon olinadi.

Erkak kishi yiliga 5 marta qon topshirishi mumkin.

Ayol kishini esa yiliga 3 marta qon topshirishi maqsadga muvofiq sanaladi.

18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan insonlar donor bo'lislari mumkin. Har bir qon topshirilgandan so'ng, albatta, 8 hafta tanaffus bo'lishi kerak.

(“Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash” to'plamidan)

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

1. Matnda qo'llangan "sterillangan" so'zining ma'nosini yozing.

Javob: _____

2. Matnda «Qon olish uchun bir martalik sterillangan asboblardan foydalaniladi», deyilgan.

Nima uchun ushbu ma'lumot matnda kiritilgan?

A	Donorlik xavfsiz ekanligiga sizni ishontirish uchun.
B	Donorlik muhim rol o'ynashini ta'kidlash uchun.
C	Topshirilgan qon qanday ishlatalishini tushuntirish uchun.
D	Tahlil va tekshiruvlarning tafsilotlarini berish uchun.

3. Quyidagi gap matn mazmuniga mos tarzda to'g'ri davom ettirilgan jumlalarni aniqlang.

Insonlar qon topshirish oraqali...

1	...o'z kasalliklaridan forig' bo'ladi.
2	...o'zgalar hayotini saqlab qolishda ko'maklashgan bo'ladi.
3	...mo'maygina mablag' ishlab oladi.
4	...o'z hayotini xavf ostida qoldiradi.
5	...xolisona ezgu amal bajargan bo'ladi.
	Javob: _____

4. Quyidagi savolning to'g'ri javobini toping.

Yetmish kun oldin qon topshirgan 30 yoshli sog'lom erkak kishi yana qon topshirishi mumkinmi?

A	Ha
B	Yo'q

5. «Qon topshirish» matnining asosiy maqsadi nima?

A	Odamlarni qon topshirishga undash.
B	Qon topshirish bilan bog'liq xavfni tasvirlash.
C	Qayerda qon topshirish mumkinligini tushuntirish.
D	Ko'plab odamlar muntazam ravishda qon topshirishlarini isbotlash.

II QISM


Quyidagi matnni o'qing va u asosida berilgan 6 – 10-topshiriqlarni bajaring.

O'ZBEKISTON AHOLISINING KO'PAYISHI

Aholi sonining ko'payishi davlatning rivojlanishi va taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillardan biri. Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholishunoslik jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra (2018-y.) O'zbekiston aholi soni bo'yicha jahonda 44-o'rinda turadi va aholi soni o'sib bormoqda. Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekistonda tug'ilish soni o'lim soniga nisbatan ortganligi hisobiga aholi soni ko'payib bormoqda. Aholining ko'payish ko'lami diagrammada ko'rsatilgan(1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston aholisining ko'payishi (mln kishi hisobida).




2-rasm. Aholining ko'payishi (2018-yil, ming kishi hisobida).

193

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar kuzatildi. 1991-yilda respublikada 723,4 ming nafar bola tug'ilgan bo'lsa, keyingi yillarda tug'ilish soni kamayib, 2001-yilda tug'ilish 513 ming nafarni tashkil etdi. Keyinchalik aholining turmush farovonligi ko'tarilishi bilan tug'ilish soni ham ko'paydi. 2017-yilga kelib 716 mingdan ortiq chaqaloq tug'ilgan bo'lsa, 2018-yilda 768 mingdan ortiq bola dunyoga kelgan. 2019 yil esa 815,9 ming bola tug'ilishi ro'yxatga olingan bo'lib, 1000 aholiga tug'ilish darajasi 24,3 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 1 promillega ko'paydi. Umuman olganda O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2020 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 33905,8 ming kishini tashkil etmoqda.

Mehnatga yaroqli yoshdan kichiklar aholining 30,5 foizini, mehnatga layoqatli yoshdagilar 58,9 foizni va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 10,6 foizni tashkil etdi.

Aholi sonining oshishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan yana biri umr davomiyligi ko'rsatkichidir. Mamlakatimizda umr davomiyligi ko'rsatkichida ham so'nggi yillarda o'sish kuzatilgan, jumladan, 1991-yilda ushbu ko'rsatkich 66,4 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 70,8 yoshni, 2010-yilda 73,0 yoshni tashkil etdi. 2016-yilga kelib esa 73,8 yoshni tashkil etgan(3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston aholisining umr davomiyligi ko'rsatkichi (yosh)

Shuningdek, tibbiyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida respublikada o'lim darajasi, jumladan, bolalar va onalar o'limi ko'rsatkichlari pasaydi va bu esa respublika aholisi o'rtaida umr davomiyligi ko'rsatkichining o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, turmush darajasining ko'tarilganligi, hayotning farovonlashgani hisobiga O'zbekiston aholisi yiliga yarim mlndan ortiq kishiga ko'payib bormoqda. Ya'ni ko'plab mehnat kuchi, ko'p sonli iste'molchi vujudga kelayotganini bildiradi. Bu esa respublika rivojiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

(Internet manbalari asosida tayyorlandi, 310 ta so'zdan iborat)

194

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

6. 2018-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

Javob: _____

7. Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

1991-yilda tug'ilish ko'satgichi hozirgi ko'rsatgichdan ancha yuqori bo'lgan.

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

8. Berilgan ma'lumotga aloqador vizual ma'lumotni toping.

2000-yilda erkaklarning o'ttacha umr davomiyligi _____

A. 73.2 yosh B. 70.8 yosh D. 68.4 yosh

9. Matnda O'zbekiston aholisining umr davomiyligi ko'rsatkichilarida ayollar va erkaklar umr davomiyligi alohida berilganini sababini yozing.

Javob: _____

10. O'zbekiston aholisining o'sishiga ta'sir qilgan omillarni aniqlang va yozing.

Javob: _____

B VARIANT

I QISM

Quyida keltirilgan matnni o'qing va u asosida berilgan 1–5- topshiriqlarni bajaring.

OYDA O'SGAN PAXTA

O'simliklarni fazoda ham o'stirish mumkinmi? Olimlar bu savolga javob topish uchun uzoq yillardan buyon turli tajribalar qilib kelmoqda.

Hozirgacha eng yaxshi natijalar Xalqaro Kosmik stansiyasida qayd etilgan. Stansiyada maxsus "tomorqa" bo'lib, bu joyda o'simliklar parvarishlanadi. Shu kungacha bug'doy, kartoshka, turli ko'katlar va gullar o'stirilgan. Ularni bemalol yeish mumkin.

Shu yilning yanvar oyida yana bir ajoyib tajriba o'tkazildi. Tarixda ilk bor Oy sathida o'simlik unib chiqdi. Buni xitoylik olimlar amalga oshirdi.

Gap shundaki, 2020-yil 3-yanvarda Xitoyning Oyga muvaffaqiyatli qo'ndirilgan "Chan'e-4" qurilmasida maxsus quti ham bor edi. Qutining ichiga kartoshka urug'i, ipak qurti lichinkasi va paxta urug'i kabi biologik turlar joylashtiriladi. Bu bilan olimlar Oyning noqulay sharoitida ham o'simliklarni yetishtirishga urinib ko'rishmoqchi edi. Bir necha kun o'tib kutilgan natijaga erishildi. Paxta urug'i unib chiqa boshladi.

Demak, kelajakda odamlar Oyni yoki Marsni o'zlashtirishsa, u yerlarda turli o'simliklar ekishi mumkin ekan. Bu o'simliklar fazogirlarni nafas olish uchun kislorod va qorin to'yg'izish uchun ovqat bilan ta'minlab turadi. ("Jajji akademik"dan)

195

1. Matnda qo'llangan "tomorqa" so'zining matndagi ma'nosini aniqlang.

- A. ekin-tekin qilinadigan hovlining oldidagi yer
- B. barcha sharoitlarga ega bo'lgan maxsus yashash manzili
- C. uyning orqasidagi dehqonchilik qilib daromad olinadigan ekinzor
- D. o'ziga xos sharoitga ega bo'lgan o'simliklar yetishtiradigan joy

2. Matnda: "O'simliklarni fazoda ham o'stirish mumkinmi?" degan savol keltirilgan.

Ushbu jumlaning mazmunini aniqlang.

- A. O'simliklar faqat yerda o'sadi, boshqa sayyoralarda o'smaydi.
- B. Odamzod koinotdagi boshqa biror manzilda yashash uchun sharoit yaratish oladimi?
- C. Boshqa biror sayyorada bog'-rog'lar tashkil qilib daromad qilish mumkinmi?
- D. Koinotdagi sayyoralarda kislorod borligini aniqlash kerak.

3. Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

I. Fazoda birinchi o'stirilgan o'simlik paxta hisoblanadi.

II. Koinotdagi sayyoralarda yetishtirilgan mevalarni tanovul qilib bo'lmaydi.

A. To'g'ri

B. Noto'g'ri

Javob: I II

4. Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

I. Oyda faqat paxtani yetishtirish mumkin, boshqa o'simliklar o'smaydi.

II. Xitoyliklar birinchi bo'lib oyda o'simlik ko'kartirishdi.

A. To'g'ri

B. Noto'g'ri

Javob: I II

5. «Oyda o'sgan paxta» matnining asosiy maqsadi nima?

A. Insoniyat kelajakda koinotdan boshqa bir manzilgoh qilishi mumkinligini izohlash.

B. Paxtaning har qanday noqulay sharoitda ham o'sishini isbotlash.

C. Inson hoziroq oyga jamoa bo'lib ko'chib borib, erkin yashashi mumkinligini tushuntirish.

D. Koinotni o'zlashtirayotgan Xitoyning kuch-quvvatini ko'rsatish.

II QISM

**Quyida keltirilgan jadvallardagi ma'lumotlarni o'qib,
u asosida berilgan 6–10- topshiriqlarni bajaring.**

**Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar
(million so'm hisobida)**

(1-jadval)

196

	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.
O'zbekiston Respublikasi	1641,7	2118,0	2574,8	3142,1	3601,3	4805,2	5503,5	6227,8	7300,2	8908,4
Qoraqal-pog'iston Respublikasi	1209,3	1584,7	1925,8	2273,6	2680,9	3427,9	3856,1	4497,1	5474,6	6822,1
Andijon	1526,8	2043,6	2441,3	2995,2	3453,1	4446,4	5187,7	6010,2	6900,7	8466,9
Buxoro	2020,4	2573,6	3136,0	3800,4	4372,1	5836,4	6657,8	7707,8	9294,4	11078,1
Jizzax	1196,3	1539,2	1827,6	2285,6	2689,4	4288,4	4873,5	5574,6	6832,9	8148,5
Qashqadaryo	1461,3	1788,7	2195,4	2658,0	3039,1	4148,1	4908,9	5505,3	6274,8	7722,3
Navoiy	3021,6	3652,2	4218,0	5037,6	5878,9	7928,9	8874,4	9783,5	11450,7	14364,9
Namangan	1209,3	1515,2	1892,6	2274,9	2640,5	3699,3	4252,7	4911,9	5630,0	6987,0
Samarqand	1455,0	1818,3	2267,7	2747,4	3099,6	4151,9	4953,8	5608,5	6571,5	7829,9
Surxondaryo	1279,6	1707,8	2068,1	2518,8	2923,5	4130,9	4560,6	5054,7	6164,2	7607,2
Sirdaryo	1611,8	2101,8	2598,7	3348,7	3797,5	5141,3	5988,4	5806,5	6541,0	8038,8
Toshkent	1653,1	2347,3	2703,4	3306,9	3843,0	5507,7	6008,3	6570,1	7640,3	9081,6
Farg'ona	1385,5	1769,0	2233,8	2688,6	3077,3	4084,9	4508,6	4899,0	5847,8	6895,9
Xorazm	1572,9	1952,6	2401,1	3016,0	3398,4	4582,4	5220,3	6306,2	7634,7	9429,9
Toshkent sh.	3167,1	4131,2	5043,2	6294,3	7146,0	8486,1	10086,8	11770,1	13447,4	16923,1

(O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi saytidan olindi.)

**Respublika bo'yicha 2018, 2019-yillardagi
inflyatsiya(pulning qadrsizlanishi) darajasi
(% da)**

(2-jadval)

Yil/Oy	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XII	XII	Yil-lik
2018-y.	20,1	19,8	19,8	19,6	19	17,7	16,3	15,7	16,2	16,3	16,5	14,3	17,6
2019-y.	13	13,5	13,6	13,7	13,7	13,6	13,5	16,5	16	16,3	15,6	15,2	14,5

(O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi saytidan olindi)

6. 1-jadvalda nima haqida ma'lumot berilgan?

- A. Aholi jon boshiga barcha daromadlarning yillik taqsimlanishi haqida
- B. Real umumiylar o'sishida aholi jon boshining hissasi haqida
- C. Aholi o'sib borishi bilan real umumiylar oshib borishi ko'rsatkichlari haqida
- D. Real umumiylar daromadlarning aholi jon boshiga taqsimlanishi ko'rsatkichlari haqida

7. Dastlabki besh yillikda aholi jon boshiga real umumiylar eng kam ko'rsatkichni tashkil etgan viloyatni aniqlang.

Javob: _____

8. So'nggi yilda aholi jon boshiga real umumiylar eng ko'p ko'rsatkichni tashkil etgan dastlabki uchta viloyatni aniqlang.

Javob: _____

9. 2018-yilda inflyatsiya ko'rsatkichini hisobga olganda respublikada aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar qariyb 18 % ga o'sgan?

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

10.O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga real umumiylar 10 yil ichida 8 barobarga o'sdi?

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

59-dars

GRAMMATIK SAVODXONLIK

A VARIANT

Quyidagi parchalarni o'qib, 1 – 4-savollarning to'g'ri javobini toping.

Parchada raqamlar bilan ajratib ko'rsatilgan so'zlardan uslubiy (leksik-grammatik) xato qo'llanganlarini aniqlang.

Agarda barchasi to'g'ri qo'llangan bo'lsa, "Xatolik yo'q" deb yozing.

1	Ko'pchilik baliqlarning no'xatdekkina (1) miyasi bor va ular kun bo'yи u yoqdan bu yoqqa suzishdan boshqani bilishmaydi deb o'ylaydi. Bunning (2) ham yomoni, o'zimiz ham "Nemoni izlab" multfilmidagi Dori kabi baliqlar xotirasi atigi 3 soniyadan iborat, shu bois ular o'zlarining kichik akvariumlarini o'zları uchun qayta va qayta kashf etadilar (3) deb hisoblaymiz. Aslida ham shundaymi? Avstraliyalik olim Kulum Braun baliqlar ko'pchilik o'ylagandan ko'ra aqlli roq jonivor ekani va ularning xotira maydoni keng ekanini isbotlab bergen.
2	To'g'ri (1), baliqlarning miyasi kichkina bo'lishi mumkin. Hamda (2) baliq miyasi uning tana hajmi va og'irligi bilan taqqoslab ko'rilsa, miyasining nisbatan katta ekani bilinadi. Masalan (3), Nil daryosida yashaydigan uzun burunli fil baliq miyasi bu jihatdan odam miyasidan ham ustun turadi .
3	Baliqlar xotirasi bo'yicha olib borilgan tatqiqotlar (1) shuni ko'rsatdiki, juda ko'p baliqlar bir necha oydan bir necha yilgacha bo'lgan ma'lumotni eslab qolish imkoniyatiga ega ekan. Masalan, kanal laqqachasi o'ziga yemish berib yurgan odamning ovozini 5 yildan keyin ham eslagani yoki tillarang (2) tobon baliq o'ziga ozuqa beriladigan idishni bir yildan keyin ham tanigani olimlar tomonidan qayt etilgan .(3)
4	Baliqlarning naqadar aqli ekanini baliq oviga qiziquvchilar ham yaxshi biladi. Ular o'ta (1) ziyrak bo'lib, xavfli xo'rakni yodlab olishadi .(2) Qorni och bo'lishiga qaramay, shu xo'rakka yaqin yo'lashmaydi .(3)

1. Javob:_____

2. Javob:_____

3. Javob:_____

4. Javob:_____

5. Mazmuniy va grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang.

- A. Shuning bilingki, litsenziyasiz yo'lovchilarni tashish qonunga xilof.
- B. Shuni bilingki, yo'lovchilarning litsenziyasiz tashish qonunga xilof.
- D. Shuni bilingki, litsenziyasiz yo'lovchilarni tashish qonunda xilof.
- E. Shuni bilingki, yo'lovchilarni litsenziyasiz tashish qonunga xilof.

6. Qaysi qatordagi so'zlarda ko'chirish qoidalari buzilgan?

- A. ak-a-xon, ma-'lumot
- B. den-giz, tong-gi
- C. sin-fi, ke-ti-nglar
- D. sing-lim, ko-sho-na

7. Shogir...: "Odamgarchilik...a qanday erishish mumk...n?" – deb so'radi.

Nuqtalar o'rnida qaysi harflar bo'lishi lozim?

- A. d, g, i
- B. t, k, u
- C. t, k, u
- D. d, k, i

8. Qaysi javobda asos va qoshimchalar imlosi bilan bog'liq xatolik KUZATILMAYDI?

- A. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelayapti.
- B. Tepalikdan o'tkach, chavandozlar birin-ketin orqada qola boshladi.
- C. Qo'limda bir metr keladigan tayoq, belbog'imga bitta kulcha tugulgan.
- D. Pastda esa odamni oqizadigan katta suv shovullab oqmoqda.

9. Qo'shib yozilishi kerak bo'lgan qo'shma so'zni aniqlang.

- A. Markaziy Osiyo
- B. har doim
- C. ola qarg'a
- D. tim qora

10. Bosh harf bilan yozish qoidasi buzilgan qatorni belgilang.

- A. Davlat Test Markazi
- B. Islom Taraqqiyot Banki
- C. Oliy Sud Raisi
- D. Birlashgan Arab Amirligi

199

11. Qaysi javobda NOTO'G'RI yozilgan so'zlar qatori berilgan?

- A. afv etmoq, xayfsan
- B. tadbiq etmoq, iptidoiy
- C. isquvar, xatti-harakat
- D. yo'llamma, shafqat

12. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. aql, poyezd
- B. artist, nutuq
- C. do's, kilovatt
- D. sinf, balanroq

13. Quyidagi qaysi so'zda ' tutuq belgisi qo'yiladi?

- A. taqiqlamoq
- B. meyor
- C. namuna
- D. mezon

14. Qaysi gapda barcha so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?

- A. Yoshlarimizga bizdan ko'ra aqlliroq, bilimdonroq bo'lib o'sishyapti.
 B. O'zimizning obro'miz uchun shu ishga bosh qo'shamiz.
 C. Yigit jarohat olgan oyoqlarini sudrab boskancha zo'rg'a kelardi.
 D. Yil choraklarining hisobi esa yil boshidan yurutiladi.

15. Qaysi so'z bo'g'inga NOTO'G'RI ajratilgan?

- A. ta-as-su-rot
 B. xush-chaq-chaq-lik
 C. dek-abr
 D. tan-gens

16. Nilufar: "Akam qayerga ketdilar shu mahalda" – deb biroz xafa bo'ldi.

Berilgan gapda qaysi tinish belgi(lari) tushib qolgan?

- A. so'roq
 B. nuqta
 C. undov
 D. vergul

17. Bolalarning yurish-turishi ko'cha-ko'yda mahallada o'zini tutishi do'stlari orasidagi obro'-e'tibori bilan doimo qiziqib turish lozim.

Berilgan gapda necha o'rinda vergul tushib qolgan?

- A. 4 o'rinda
 B. 5 o'rinda
 C. 6 o'rinda
 D. 3 o'rinda

18. Qaysi qatorda tire NOTO'G'RI qo'yilgan?

- A. Duo – yo'llarni ochuvchi vosita.
 B. Opam ham – doktor.
 C. Hammasi – Olim, Qodir, Sodiq kelmadi.
 D. Ilm yorug'lik – jaholat zulmat.

B VARIANT**1. Quyidagi parchada nechta so'zdagi ko'pnuqta o'rniqa adabiy til me'yorlariga ko'ra tushum kelishigi qo'shimchasini qo'yish mumkin?**

Yaxshi tarbiya ko'rgan odam... xislatlari..., biri shuki, bunday odam o'z faoliyatida boshqalar... bir qadam oldinga o'tsa, darrov orqaga qaraydi, sheriklari... yor dam qo'li... uzatadi, safi... kengaytirib, yangi g'alaba... ko'zlaydi.

- A. 4 ta B. 3 ta C. 2 ta D. 1 ta

2. Qaysi javobdag'i so'zlar o'zaro ma'nodoshlik hosil qila oladi?

- | | |
|--------------------------|--------------------------|
| A. abzal, ortiq | B. rostgo'y, mehnatsevar |
| C. ko'nmoq, rozi bo'lmoq | D. chiroy, suluv |

3. Yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nosni ifodalagan ular olmoshi qatnashgan javobi aniqlang.

- A. Sakkizinchisinf o'quvchilari faol. Ular har bir tadbirda o'z chiqishlari bilan ishtirok etishadi.
B. Sobir tog'amni yaxshi ko'raman. Amm ular biznikiga bir yilda bir keladilar.
C. Ularning har ikkisi bugungi musobaqada ilk marotaba qatnashmoqda.
D. Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ularning miqdori 7000 ga yaqin.

4. O'smirlarimiz xalqaro turnirlarda g'alaba qozonmoqdalar. O'zbekning dovrug'ini olamga yoymoqdalar.

Ushbu gapda yoymoq so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?

- A. Taxlangan, o'ralgan narsalarni ochmoq
B. Tevarak-atrofga taralmoq, anqimoq.
C. Mashhur qilmoq, ovoza qilmoq.
D. Kichik-kichik guruhlarga bo'linib ketmoq.

5. Qaysi gapda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A. Imoratning o'pirilib tushgan joylari siniq pishiq g'isht bilan tiklangan, ustlari suvalgan edi.
B. Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf va shoni ni saqlaydi.
C. Buni jamoada tashabbus uyg'onishidan, ta'lim-tarbiya sifati yaxshilanishidan ko'rinish turibdi.
D. Qayerda intizom va hamjihatlik bo'lsa, o'sha yerda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

6. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniغا "u" unlisi yoziladi?

1) muq...m; 2) sup...rmoq; 3) tov...q; 4) sur...shtirmoq; 5) tug'...lmoq; 6) yut...q.

- A. 2, 3, 6
B. 1, 2, 3, 6
C. 2, 3, 5
D. 1, 2, 4, 6

201

7. Quyidagi so'zlardan nechtasi NOTO'G'RI yozilgan?

Yaxshiev, pyesa, poezd, sub'ekt, jamiyat

- A. 2 tasi B. 3 tasi C. 1 tasi D. 4 tasi

8. Qaysi gapda asos va qo'shimchalar imlosi bilan bog'liq XATOLIK kuzatiladi?

- A. Ko'chmas mol-mulk haqida tuzulgan bitimni bekor qilish kerak.
B. Manzilga yetgach sen bilan alohida gaplashaman.
C. Oradan qancha zamonlar o'tdi, uning nomini faxr bilan tilga olyapmiz.
D. Jamoatchilik ishtiroki qonun hujjalarda belgilangan tartibda ta'minlanadi.

9. Quyidagi juftliklardan qo'shma so'z hosil qilinganda qaysilari qo'shib yoziladi?

1)havo//rang; 2) liq//to'la; 3)mol//boqar; 4) tog'//olcha; 5) O'rta//Osiyo; 6)tarjimayi//hol.

- A. 1, 2, 3, 5 B. 1, 3, 4 C. 2, 3, 4, 6 D. 3, 4, 6

10. Quyidagi juftliklardan qo'shma so'z hosil qilinganda qaysilari qo'shib yoziladi?

1)har//kuni; 2)ko'z//oynak; 3)To'rt/ko'l; 4)bir//oz; 5)suv//osti; 6)o'n//ming.

- A. 1, 2, 3, 5 B. 2, 3, 4, 6 C. 1, 3, 4, 5 D. 2, 3, 4, 5

11. Qaysi so'z bo'g'inga NOTO'G'RI ajratilgan?

- A. mo-no-gra-fi-ya
- B. di-a-gram-ma
- C. si-lind-rik
- D. kon-gress

12. Chiziqcha bilan yozish qoidasiga amal qilinib yozilgan so'zlarni aniqlang.

- A. yildan-yilga, bayram-oldi
- B. vitse-prezident, och-sariq
- C. ertayu-kech, qadamba-qadam
- D. ko'chama-ko'cha, ko'pdan-ko'p

13. Qaysi javobda bosh harflar imlosi bilan bog'liq xatolik KUZATILMAYDI?

- A. Toshkent Davlat yuridik universiteti
- B. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining raisi
- D. Davlat Tilini Rivojlantirish Departamenti

14. Qaysi javobdag'i barcha so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A. taalluqli, taqozo
- B. taasurot, badiiy
- C. taassurot, taqazo
- D. talluqli, badiy

15. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan javobni belgilang.

- A. natarius, dealog, muovin
- B. monitoring, dialog, milliard
- C. notarius, mudofa, manitoring
- D. mudofaa, milliard, hayol

16. Quyidagi parchada necha o'rinda vergul tushirib qoldirilgan?

Darhaqiqat O'zbekistonning qayeriga borsangiz darxon kenagas jaloyir bahrin nayman kabi joy nomlariga duch kelishingiz mumkin.

- A. 6
- B. 4
- C. 7
- D. 5

17. Qaysi javobdag'i gapda // belgisi o'rnida tire QO'YIB BO'L MAYDI?

- A. Uylar, devorlar, daraxtlar // hammasi qorong' ilikka jimgina cho'kdi.
- B. A'lo o'qish // bizning va sizning asosiy hamda sharaflı vazifamiz.
- C. Otamning akalari ham // haydovchi.
- D. O'rinsiz g'azab / / o'zingga azob.

18. Qaysi javobdag'i birlikda qo'shtirnoq to'g'ri qo'yilgan?

- A. "Navoiy" nomidagi teatr
- B. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni"
- C. "Spark" avtomobili
- D. "Izbosgan" tumani

60-dars

YOZISH SAVODXONLIGI

1. Esse (qiyosiy esse yozish).

Mavzu: INTERNET VA KITOB

Bu haqida o'z fikringizni yozma bayon qiling:

- ijodiy matnni esse talablari bo'yicha yozing;
- fikrlaringizni izchil va savodli ifodalang;
- har ikki tushunchani to'liq izohlang;
- bu tushunchalar haqida o'z fikringizni misollar bilan dalillang;
- hozirgi davr va muhitdan kelib chiqib o'z xulosangizni bering.

Esse 200–250 ta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

61-dars


NUTQ SO'ZLASH SAVODXONLIGI

1-bilet

Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

Quyidagi diagrammada ifodalangan ma'lumotni og'zaki bayon qilib bering.

Kutubxonaga kitobxonlar tashrifi ko'rsatkichi




2-bilet


Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

Quyidagi diagrammada ifodalangan ma'lumotni og'zaki bayon qilib bering.

Muzeyga tomoshabinlarning tashrifi ko'rsatkichi



3-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.
Quyidagi diagrammada ifodalangan ma'lumotni og'zaki bayon qilib bering.



* FK – Futbol klubı

62-dars

O'QISH SAVODXONLIGI

A VARIANT

I QISM

Quyida keltirilgan matnni o'qing va u asosida berilgan 1 – 8-topshiriqlarni bajaring.

"O'ZBEKNING SODDASI"

O'shanda sakkiz yoshlarda edim. Ikkinci sinfda o'qiyotgan bo'lsam ham zehnim o'tkir ekanmi, savodim chiqib qolgan, ya'ni otam aytib tursa, men fakturasi(mahsulot narxi)ni yozib borardim. Otam rayon matlubot jamiyatida magazinchimi, bir nima bo'lib ishlar edi. U kishi shunday katta ishda tursalar ham, jussalari mendaqaning o'ntasiga teng kelsa ham, savoddari haligidaqa edi. Lekin otamni mahalla ahli hurmat qilar, u kishi bilan «Polvon bobo» deb so'rashishar...

Biz yoz oqshomlari alla-pallagacha gurunglashib o'tirardik. Otamning oshnalari kelganda, muk tushib, doston o'qishar, navbat bilan do'mbira chertishar, momom ham qozon boshidan jilmasdi. Esimda: biznikilar ayniqsa, «Alpomish» dostonini sevishar edi. Yusuf degan bir tanishimiz bo'lardi, uyga keldimi, lo'labolishni o'mroviga tortib, shu dostonni o'qishga boshlar edi. Men jiddiy quloq solib o'tirar, keyin uxbab qolganimni bilmas edim, ertalab supa pastidagi yog'och karavotda ko'rardim o'zimni.

O'sha kecha uyimizda mehmon ham yo'q edi. Otam ham qayoqqadir ketib, kelavermadidi...

Men zerikib, karavotimga chiqib yotdim. Bir mahal uyqu aralash payqab qoldim: supada g'o'dir-g'o'dir gap bo'lyapti. Ayniqsa, enamning ovozi baland-baland chiqardi. Otam bosiq, lekin u ham ba'zan «E! E!» deb qo'yardi, men shunda beixtiyor hushyor bo'lib ketdim. Otamning odatlari qiziq-da: meni hech vaqt «To'raboy, ke!» deb chaqirmaydi, shunchaki, «To'raboy!» deb qo'ya qoladi, demak, bu – beri ke, deganlari ham bo'ladi. «Ulim!» deb qo'yardilar, vassalom, men yugurib borishim kerak. Otam singillarimni ham «ulim» deb chaqirardi... U kishining «E!» deganini ko'p eshitganman. Dashtda bir sigirimizni cho'pon o'ziniki qilib, «bo'ri yedi»ga chiqargan ekan. Shunda enam cho'pondan sigirimizni undirish haqida ko'p gapirgan. Otam: «E! E!» deb turib, qo'l siltagan edi. Shundan keyin enam otamga gap kor qilmasligini bilib, cho'ponni qarg'ay-qarg'ay tinchigan edi.

- E! – dedi otam birdan baqrib. – Shu pul bilan biri ikki bo'larmidi, kampir?
- Siz shunday deysiz-da, hoy! – dedi enam. – Dashtdagি mol ham sanoqli qolgan, biz uni qaytib to'laymiz! O'ylaysizmi?
- Mol sizlarga, – deb to'ng'illadi otam. – Men endi manglayda borini ko'raman, kampir! E, gapirma! – otam qizishib ketdi: – Nima qilay? Selpo raisi o'g'irlik qildi, savodim yo'q, meni go'l bilib, shuncha pulga tushirdi, yordam qilinglar, deb arzga boraymi? – E, men bu ishti qilolmayman! Insofi bo'lsa, o'ylab ko'radi, kampir! Olti bolam bor, ko'rib turibdi o'zi. Nokaslik qilmas.

- O, sho'r boshim, sho'rgina boshim! – dedi enam kuyinib va idishlar taraqlab ketdi: – Siz arz qilmasangiz, men qilaman! Ertalab milisaga boraman, tekshirib ko'ringlar, bu odam selpodan hech mahal muncha pul olgani yo'q, fakturayam tuzgani yo'q. Tuzgan bo'lsa, kopyiasi o'zida bollardi-da!.. Bu odamni o'sal qilib, o'zlari padlo'k dakumit tuzgan, shuncha pulni buning bo'yniga urgan! Tekshirib ko'ringlar. Buning pakturalarini o'g'lim yozib berardi, uniyam keltirib so'roq qilinglar, deyman!

Otam jimidi. Men bu gaplarning ma'nosiga tushunmas edim. Biroq kimdir otamni aldagani, uning boshida xavf borligini sezdim. Biz bolalar tayyorga ayyor bo'lib o'sar edik: oilada paydo bo'ladijan qiyinchilik, kamchilikni ota-onamiz tuzatar, to'ldirar edi. Bizga o'yin bo'lsa, yonboshlab yotib doston eshitish bo'lsa yoki pistaga pul bo'lsa bo'ldi edi.

Men otamga faktura yozib bergenlarimni eslab, ichimda xursand bo'lib, ko'rpara o'raldim. ...

Otamning oxirgi so'zi shu bo'ldi:

– E, kampir, boshimni qotirma. Men aytdim aytgichimni unga. Nomard ekansan, uka. Mayli, shu o'tirik puldi deb ket, lekin biring ikki bo'lmasin. Bir kuni seni bolalaring ham ota deb qolsin, dedim. Bo'ldi shu gap, kampir. Yurakti bo'shatdim. Agar hayvon emas, odam naslidan bo'lsa, keladi u – ukkig'ar!

O'rtoqlarim bilan so'kishib yurganlarimni esladim, otam: «O'zbekning gapi bir bo'ladi», degich edi. Men yana, hamma vaqt bir so'zli bo'lishni o'yladim. So'ng nima uchundir shu tobda otamning tutgan yo'llini to'g'ri deb bildim va keyin uxbab qoldim.

Yopiray! Juda notinch bo'ldi-da, bu kecha!

Yana uyg'onib ketdim: supada g'o'dir-g'o'dir gap-so'zlar qulog'imga yetmasidan qozonda jiz-biz bo'layotgan go'shtning hidi dimog'imga yetdi. Hayron bo'lib, boshimni ko'tardim. Dashtdan otamning oshnalari kepti deb o'ylagan edim. Yo'q, lampa yoritib turgan dasturxonning bir tomonida matlubot jamiyatining raisi cho'kka tushib o'tirar, u otam bilan kulishar edi. Enam o'choq boshida.

Men bu odamni yaxshi tanir edim, qachon otamga ergashib uning omboriga borsam, shu kishini ham ko'rardim, u burchak-burchakda uyilib yotgan yong'oq, olmaqoqi va olchaqoqilardan hovuchlab olib hidlar, so'ng sochib tashlab, kaftlarini bir-biriga urib qoqar, keta turib, menga qoshini uchirib qo'yar edi. Lekin uyimizga hech kelmagan edi.

Qovurdoqning hididan uning hali yetilib pishmaganini sezdim. Uyda mehmon borida dasturxonidan chetda tur, hadeb o'rtaga qo'l uzataverma, bir ishora qil, o'zim beraman, xohlagan narsangni, der edi enam. Men o'zimning uyg'oq ekanimni enamga qanday bildirsam deb o'ylab turgan edim, ular yana kulib yuborishdi. Shunda otamning oqshomgi kayfiyatini eslab, ishi o'ngidan kelgani – tutgan yo'lli to'g'ri chiqqaniga ishondim va xursand bo'lib ketdim. Enamga tikilaman, harakatlaridan u kishining ham kayfi chog' ekani bilinib turibdi.

Lekin baribir turishga jur'at etolmadim.

– Ha, Polvon aka, menga yomon ta'sir qildi gapingiz, – dedi rais. – Men shuncha yoshga kirib, bunday gapni eshitmagan edim. Yashirmayman, mard odamsiz, tushunasiz... Bunday ishlar avval ham bo'lgan. Lekin birovi ham o'zimga havola qilib ketmagan edi. Odamga ta'sir qilar ekan, men ham odam bolasiman... Ana, faktura, dela! Yangamga bering, yoqib yuborsinlar. O'tgan ishga salovat, Polvon aka.

Men karavotdan sekin tushib, o'choq boshiga chopdim.

– Suv ichaman, suv – dedim enamga.

– Go'sht-chi, yemaysanmi, bolam? – dedi enam.

Men tirjayib, cho'nqaydim. Shunda rais meni chaqirib, qoshini chimirdi. Men o'rnimdan turib salom berdim.

– Berman ke, ulim, berman ke! – dedi otam. Bunday vaqtida borishim kerak. Enam ham yelkamga qoqdi. Otam yoniga o'tqazib:

– Sher ulim! – dedi. – Uxlamadingmi?.. Endi go'shtdan yeysiz-u kirib uxlaysiz. Xavotir olma, bolam! Mard odamning sadag'asi ketsang arziydi. Mana, amaking ham mard chiqib qoldilar...

Ular kulishdi. Shunday qilib, bu notinch kecha o'tdi.

Hozir men o'sha kecha, o'sha suhbatlardan yigirma besh yil beridaman. Ularni tushdagidek eslayman. ... (866 ta so'z)

Shukur Xolmirzayev, 1972

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

1. Matnda ajratib ko'rsatilgan "o'tirik" so'zining ma'nosini yozing
Javob: _____

2. Hikoyada Polvon tog'aning ayoli nutqida keltirilgan "O, sho'r boshim, sho'rgina boshim!" jumlalari asosida uni qanday ayol deyish mumkin?

- A. nohaqlikka chiday olmaydigan kuyunchak ayol
- B. qanoatli, har narsaga rozi bo'lувчи, itoatkor ayol
- C. boriga qanoat qilmaydigan, noshukr ayol
- D. gapga chechan, ko'p gapiradigan ayol

3–4. Berilgan obrazlar va unga aloqador tavsiflarni o'zaro moslashtiring.

ESLATMA! Javob variantlaridan ortiqchasi bor.

Ularga berilgan tavsiflar	Obrazlar
3. Yomonlikni o'ylamaydigan, hammaga Ollohdan insof tilaydigan, doim yaxshilikni ko'zlaydigan bir so'zli inson._____	A. Cho'pon
4. O'zgalar mol-mulkini o'ziniki qilib o'zlashtirib olgan, ham-xarishdan ham qaytmaydigan inson._____	B. Rais D. Palvon tog'a

208

5. Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

Bola o'z otasining tutumi, xarakterini, tanlovini har doim to'g'ri deb bilgan.
A. To'g'ri B. Noto'g'ri

6. Quyidagi surat va hikoya o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlikni qisqa qilib ifodalang.



ESLATMA. Fikrlaringizni lo'nda, ixcham ifodalang, 20 ta so'zdan oshib ketmasin.
Javob: _____

II QISM

Quyidagi matnni o'qing va u asosida berilgan 7–10- topshiriqlarni bajaring.

CHAQMOQ VA MOMAQALDIROQ

Osmomni qora bulutlar qoplagan vaqtida yarq etib chaqmoq chaqishi, uning ortidan esa momaqaldiroq gumburlashini ko'p kuzatgansiz. Lekin bu ajoyib tabiat hodisasi qanday hosil bo'lismeni bilmasangiz kerak-a?

Chaqmoq o'zida juda katta elektr zaryadi to'plagan bulutlarda paydo bo'ladi. Chaqmoq hosil bo'lgan paytda bulutlarning yuqori qismi yerdan 6-7 kilometrgacha, pastki qismi esa atigi 500 metr balandlikda bo'lishi mumkin. Bunday paytda bulutning yuqori qismida musbat, quyi qismida esa manfiy elektr zaryadlari yig'ilib qoladi. Ushbu qarama-qarshi zaryadlar bir-biriga yaqin kelgan lahzada yorqin chaqnash sodir bo'ladi. Elektr zaryadlari esa yirik plazma kanali bo'ylab harakatlanadi. Shu hodisani biz chaqmoq deymiz.

Chaqmoq nuri bizning ko'zimizga yorug'lik tezligida, ya'ni soniyasiga 300000 kilometr tezlik bilan yetib keladi. Bu juda katta tezlik. Uni biz deyarli shu zahoti ko'ramiz.

Chaqmoq chaqnagan joydagi havo 30000 darajagacha qizishi mumkin. Chaqmoqdagi elektr kuchlanishi esa milliard voltgacha yetadi, ammo hali-hamon chaqmoq energiyasidan foydalanish xususida hech qanday harakatlar amalga oshirilmagan.

Momaqaldiroq gumburlashining chaqmoqdan ancha keyin eshitilishi ham qiziq. Ammo buning sababi juda oddiy: momaqaldiroq – tovush hodisasi. Tovush esa yorug'likka qaraganda nihoyatda past tezlikka ega. Shu sababli siz momaqaldiroqni, odatda, chaqmoqdan bir necha soniya keyin eshitasiz.

Chaqmoqlar asosan tropiklarda va alohida olis tog' hududlarida ko'proq uchraydi. Dunyoda eng ko'p chaqmoq Kongo va Argentina davlatlari hududida chaqnaydi. Misrda esa, aksincha, taxminan 10 yilda atigi bir marta chaqmoq chaqadi, xolos.

(“Jazzi akademik” va internet materiallari asosida tayyorlandi)

209

7. Chaqmoq taxminan yerdan qancha balandlikda hosil bo'ladi?

Javob: _____

8. Nima uchun momaqaldiroq chaqmoq chaqqandan keyin eshitiladi?

Javob: _____

9. Matn asosida quyidagi hukmlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang va moslashtiring.

I. Issiq, cho'l hududlarda chamoq tez-tez bo'lib turadi. II. Chamoqdan hosil bo'ladigan elektr quvvatidan foydalanish imkonи topilmagan.	A. To'g'ri B. Noto'g'ri
---	----------------------------

Javob: I II

10. Eng mustahkam jismlardan biri olmos. U 3600° da yonib kulga aylanadi. Chaqmoq olmosni yondirib kulga aylantira oladimi?

- A. Ha, yondirib kulga aylantiradi.
- B. Yo'q, olmosni yondira olmaydi.
- C. Chaqmoq juda uzoq davom etsagina, yondirishi mumkin.
- D. Olmos yonmaydigan metallar sirasiga kiradi.

B VARIANT

I QISM

Quyidagi matnni o'qing va u asosida berilgan 1–6- topshiriqlarni bajaring.

11-bob. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari

65-modda. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.

Bolaning ota-onasi bo'limganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

66-modda. Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashagini taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bola (ushlab turish, qamoqqa olish, hibsga olish, davolash muassasasida bo'lish va boshqa hollarda) o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonunda belgilangan tartibda ko'rishish huquqiga ega.

67-modda. Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi

Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Bola ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiste'molliklardan himoyalanish huquqiga ega.

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganligidan, uning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagи vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi shart. Shunday ma'lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko'rishi shart.

68-modda. Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi

Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir. Bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning

fikrini, uning yoshidan qat'i nazar, ko'rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerak.

69-modda. Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi

Bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega.

Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi – otasining ismiga ko'ra beriladi.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-onal turli familiyalarda bo'lganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga ko'ra boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin. Ota-onal o'rtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo'yicha kelishuv bo'limganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

70-modda. Bolaning ismi va familiyasini o'zgartirish

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola o'n olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga, shuningdek unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqlidir.

Agar ota-onal alohida yashasa va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga o'z familiyasini berishni xohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini va ona (ota)ning fikrini hisobga olgan holda hal qiladi. Ota yoki onaning turgan joyini aniqlash mumkin bo'limganda, ular ota-onalik huquqididan mahrum qilinganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek, ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan uzsiz sabablarga ko'ra bo'yin tovlagan hollarda ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.

Agar bola o'zaro nikohda bo'limgan shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib, uning familiyasi onaning murojaat qilgan davridagi familiyasiga almashtirish uchun ruxsat berishga haqli.

O'n yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yildi.

211

(Oila kodeksidan olindi, 681 ta so'zdan iborat)

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

1. Ajratib ko'rsatilgan "shuningdek" birligi matnda qanday mazmunni ifodalayapti?

- A. Oldingi fikr keyingi fikrning xulosasi ekanligini ifodalamoqda.
- B. Keyingi fikr oldingi fikrni dalillayotganligini ifodalamoqda.
- C. Oldingi fikr keyingi fikrning tasdig'i ekanligini ifodalamoqda.
- E. Keyingi fikr oldingi fikrning davomi ekanligini ifodalamoqda.

2-3. Berilgan ma'lumotlar va unga aloqador tushunchalarni o'zaro moslashtiring.

ESLATMA! Javob variantlaridan ortiqchasi bor.

2. O'n besh yoshli bolaning huquqlari ota-onasi tomonidan toptaldi. Uning manfaatlarini himoya qilish uchun kim sudga murojaat qilishi mumkin? _____	A.Qo'shnisi
3. Muomala layoqatiga ega bo'limgan o'n yetti yoshli bola yaqinlari tomonidan jismoniy azob berib kelingani aniqlanganda, ota-onasi sudga murojat qilmadi. Shunday paytda uning huquqlarini himoya qilish uchun kim sudga murojaat qilishi mumkin? _____	B. Bolaning o'zi C. Vasiylik kengashi D. Vasiylik kengashi va boshqalar

4–5. Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

4. Sanjarning ota-onasi onasining axloqi yomonligi sababli ajrashib ketishgan. U otasi bilan yashaydi, ammo onasini ham sog'inadi. Kunlardan bir kuni onasi Sanjarni ko'rgani keldi. Otasini ularni ko'rishtirmadi. Shu to'g'rimi?

- A. To'g'ri B. Noto'g'ri

5. Sanjar dunyoga keldi. Otasi Soatov, onasi esa Temurov. Unga ota-onaning kelishuviga binoan onasining familiyasi Temurov familiyasi berildi. Shu to'g'rimi?

- A. To'g'ri B. Noto'g'ri

6. Bola dunyoga keldi. Ota-onasi kelishib unga Yusuf deb ism qo'yishdi. Bu ism unga yoqar edi. U o'n ikki yosharda edi, ular yashaydigan mahallada Yusuf degan giyohvand, aqli noqis, bezori yigit paydo bo'lidi. Shunda ota-ona undan so'ramasdan bolaning ismini o'zgartirib kelishdi. Shu to'g'rimi?

- A. To'g'ri B. Noto'g'ri

II QISM

Quyidagi matnni o'qib, u asosida berilgan 7 – 10- topshiriqlarni bajaring.

BOSH MIYA

Inson miyasi tabiatning qanday mo'jizasi ekanı bilan tanishamiz. Umuman nerv sistemasi inson organizmini boshqaruvchi sistema bo'lib, uning tafakkurini belgilab beradi. Ya'ni inson miyasi uning aqliy faoliyati, dunyoqarashi, fikrashi va ongning fiziologik asosi hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, organizmning tashqi muhit bilan aloqasini ta'minlaydi. Bosh miya kalla suyagining ichida joylashgan bo'lib, inson o'sib borgan sari u ham rivojlanib boradi. Insonning bosh miya o'rtacha 100 mlrd neyronidan tashkil topgan bo'lib, u jigarda ishlab chiqarilib qonga quylgan glukozaning 50% ini "iste'mol" qiladi. Bosh miyani tashkil etayotgan neyronlar o'zaro nerv impulslarini 270 km/soat tezlikda uzatadi. Neyronlarning soni ko'paymasligi haqida barchamiz o'qiganmiz, lekin neyronlar inson hayoti davomida o'sib turadi. Bitta neyron istalgan ensiklopediyadagi ma'lumotlardan ko'ra besh barobar ko'p ma'lumotni eslab qola oladi. Miya hujayralari oksibiont hujayralar qatoriga kirib, ular qon aylanish tizimiga tushgan kislorodning 20% ini ishlatadi. Shu bilan birga, miyaning 80% ini suv tashkil etadi, shu boisdan ham odam doimiy ravishda yetarli miqdorda suv ichib turishga ehtiyoj sezadi.

Bosh miya odam tana massasining o'rtacha 2% ini tashkil etadi. U o'rtacha 1000 – 2000 gramm oralig'ida bo'lishi mumkin. Ba'zan bu ko'rsatkich kam yoki ortiq bo'lishi mumkin.

Shunisi hayratlanarliki, insoning aqliy faoliyati uning o'lchamiga bog'liq emas. Misol uchun, buyuk kimyogar olim Dmitriy Ivanovich Mendeleev bosh miyaning og'irligi 1571 gramm, Ivan Sergeyevich Turgenevning bosh miyasining og'irligi esa 2012 gramm bo'lgan. Demak, insonning aqliy faoliyati bosh miyaning massasiga emas, uning po'stloq qismidagi nerv hujayralarining xususiyatiga bog'liq.

Bosh miya ikki qismdan tashkil topgan: miyaning stvol, ya'ni ust qismi va bosh miyani o'rabi turuvchi bosh miya katta yarimsharlari. Miyaning ustun qismi uzunchoq miya, miya ko'prigi, o'rtamiya, oraliq miya va miyacha kabi qismlardan iborat.

Uzunchoq miya bosh miyaning eng pastgi qismi bo'lib, yuqori tomondan miya ko'prigiga tutashadi. Uzunligi 3-3,5 cm bo'lib, og'irligi 7 gramm. Uzunchoq miya nafas olish, ovqat hazm qilish va qon aylanish kabi sistemalar ishini boshqarib, uning shikastlanishi nafas olish va yurak ishining to'xtab qolishiga sabab bo'ladi.

Miya ko'prigi uzunchoq miyaning ustki qismida joylashgan bo'lib, yuqoridan o'rta miyaga va yon tomondan miyachaga tutashib turadi. Miya ko'prigiga ko'z soqqasining harakati va yuzdagi mimika muskullarini harakatlantiruvchi nerv markazlari joylashgan.

O'rta miya miya ko'prigining yuqori tomonida joylashgan. Unda to'rtta tepalik bo'lib, oldingi ikkitasida po'stloqosti ko'rish, orqadagi ikkita teplikda esa po'stloqosti eshitish markazlari joylashgan. Bosh miyaning mana shu sohasida ovqatni chaynash va yutish reflekslari, ko'rish, eshitish, qo'l barmoqlarining nozik harakatlari va muskullar tarangligini ta'minlovchi nerv markazlari joylashgan.

Oraliq miya o'rta miyaning yuqori qismida joylashgan bo'lib, yuqori tomondan bosh miya katta yarim sharlari bilan qoplanib turadi. Oraliq miya ko'rish do'mbog'i va do'mboqosti sohalaridan iborat.

Miyacha inson tanasidagi turli harakatlarning asosi bo'lib, bosh miya katta yarimsharlarining ostki qismida joylashgan. Og'irligi 150 gramm. Agar miyacha zararlansa, tana muskullari bo'shashadi va odam tik turish, yurish, sakrash, yugurish mashqlarini bajarishi qiyinlashib, mast odamga o'xshab gandiraklab harakatlanadi.

Miyaning ikkinchi qismi bo'lgan bosh miya katta yarimsharları bosh miyaning yuqori tomonidan qoplab, uni himoya qilib turadi. U o'ng va chap yarimsharlardan iborat bo'lib, qadoqsimon tana yordamida bir-biridan ajralib turadi. U kulrang moddadan tashkil topgan tashqi qavat va oq moddadan iborat ichki qavatdan tuzilgan. Uning qalinligi 2,5-3 mm. Po'stlog'ining bunday tuzilishi unda juda ko'p sonli nerv hujayralarining joylashuviga imkon beradi. Binobarin, miyaning po'stlog' qismida 14-16 milliard atrofida nerv hujayralari mavjud. Qiziq'i shundaki, miya po'stlog'i pushtalarining soni deyarli barcha odamlarda bir xil bo'lib, lekin ularning tuzilishi xuddi inson kaft chiziqlari singari xilma-xil bo'ladi. Agar miya sharining bunday pushta va egatlari yozib chiqilsa, umumiy sathi 1468-1670 cm² ni tashkil etadi. Bosh miya katta yarimsharlarining hujayralari bajaradigan funksiyaga ko'ra po'stloq sathi uchta zonaga bo'linadi. Birinchisi ko'rish zonasidagi hujayralar barcha sezgi organlarining asosiy markazi bo'lib, teri, ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish kabi sezgi organlari retseptorlaridan qabul qiladi. Harakat zonasidagi hujayralar odam organizmidagi barcha muskul, suyak, pay va bo'g'implarning oliy markazi hisoblanadi. Assotsiativ zona hujayralari esa miya po'stlog'ining turli qismlaridagi nerv markazlarini bir-biri bilan bog'laydi. Bu zona hujayralari sezish va harakat zonasidan kelgan impulslarni analiz va sintez qiladi. Bosh miya organizmdagi hamma a'zolarning kelishib ishlashini ta'minlaydi. Shuningdek, u zararlansa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Tibbiyot sohasida "bosh miya chayqalishi" termini ostida bosh miyaning yengil chayqalishi va qisqa muddat ichida hushdan ketish tushuniladi. Bosh miya chayqalishining ikki xil darajadagi ko'rinishi farqlanadi:

Yengil bosh chayqalishi – markaziy nerv tizimi tomonidan jiddiy o'zgarishlar bo'lmaydi, hatto bemorni chuqur tekshiruvlar o'tkazganda ham. Bunda simptomlar uzog'i bilan 14 kunda yo'qoladi (ko'pincha undan ham oldinroq).

Kuchli bosh chayqalishi – ba'zi bir qon tomirlarning yorilishi bilan namoyon bo'ladi. A'zolarda gematomalar paydo bo'ladi, simptomlar biroz muddatdan keyin yo'qoladi.

Bosh miya zarba yegandan keyin – inson hushini yo'qotishi mumkin va bu qisqa muddatli yoki uzoq davom etuvchi bo'lishi mumkin. Lekin ko'pincha inson hushida bo'ladi va quyidagilarga shikoyat qilishi mumkin:

- qulqoqda shovqinlar;
- bosh aylanishi;
- umumiy holsizlik.

Jarohat olgandan so'ng boshning ensa sohasida lo'qillovchi og'riq, ko'ngil aynishi ham kuzatiladi, tana harorati normal ko'rsatkichlarda bo'lib, inson es-hushini yo'qotmaydi.

Agar bosh miya jarohatlangan bo'lsa zudlik bilan tez tibbiy yordamga murojaat qilish kerak. Ular kelgunga qadar quyidagi chora tadbirlar bajarilishi kerak:

-bemorni gorizontal holatda, boshi ostiga baland bo'limgan yostiq qo'yib yotqizish kerak;

-bemorga umuman ovqat va suv ichirish kerak emas;

-bemorga toza havo kelishini ta'minlash kerak;

-bemor tinch holatda bo'lishi kerak, u televizor ko'rishi, telefoniga qarashi, kitob o'qishi mumkin emas.

Agar bemor hushini yo'qotgan bo'lsa, uni harakatlantirish, joyidan ko'chirish mumkin emas. Uni o'ng yonbosh sohaga yotqiziladi, chap oyoq va chap qo'l bukiladi, boshni o'ng tomonga burib, iyakni ko'krak qafasi tomonga biroz egib qo'yish kerak. Shunday holatda bemorga havo kelishi oson bo'ladi.

(*Internet manbalari asosida tayyorlandi. U 889 ta so'zdan iborat*)

Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.

7–8. Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

7. Odamning dunyoqarashi, aqliy faoliyati yuqori darajada bo'lishi bosh miyasining hajmiga bog'liq.

- A. To'g'ri B. Noto'g'ri

8. Bosh miya hujayralari qondagi kislorodning asosiy qismini ishlataladi. Shuning uchun inson tez-tez suvsaydi.

- A. To'g'ri B. Noto'g'ri

9. Matn mazmuniga MOS KELMAYDIGAN ma'lumotni toping.

A. Miya po'stlog'i pushtalarning tuzilishi odamlarda bir-biridan farq qiladi.

B. Bosh miyaning assotsiativ zonasini hujayralari sezish va harakat qismidan kelgan impuls signallarni tahlil qiladi.

C. Bosh miya katta yarimsharlarining tashqi va ichki qavati o'zaro bir xil rangda bo'ladi.

D. Bosh miya katta yarimsharları sathi hujayralarining amalga oshiradigan vazifasiga ko'ra uchta katta qismiga bo'linadi.

10. Bir yigit boshi bilan qattiq yiqilib tushdi va birozdan keyin hushini yo'qotdi. Unga qanday birinchi yordamni ko'rsatish kerak?

ESLATMA. bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

A. Hushiga keltirtirib, suyuqlik ichirish kerak.

B. Tezda soya-salqin joyga olib o'tish kerak.

D. Uni o'ng yelkasi bilan yonbosh qilib yotqizish kerak.

E. Boshiga yostiq qo'yib to'g'ri holatda yotqizish kerak.

F. Yotqizgach, chap oyoq-qo'lini bukish kerak.

GRAMMATIK SAVODXONLIK

A VARIANT

1. Quyidagi so'zlardan nechta to'g'ri yozilgan?
pesa, atel'e, mone, kompyuter, tabiyat

- A. 3 ta
- B. 1 ta
- C. 2 ta
- D. 4 ta

2. Quyidagi so'zlardan nechta NOTO'G'RI yozilgan?
pulus, ukrayin, oila, uzur, teatr, hukum

- A. 4 ta
- B. 2 ta
- C. 3 ta
- D. 5 ta

3. Qaysi javobda NOTO'G'RI yozilgan so'zlar qatori berilgan?

- A. harajat, tatqiqot
- B. xoxlamoq, izchil
- C. afg'on, xibsga olmoq
- D. tasdiqlamoq, avzal

4. To'g'ri yozilgan so'zni aniqlang.

- A. hayfsan
- B. yo'llamma
- C. ischil
- D. tatqiqot

5. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. psixologiya, ilm
- B. past, gram
- C. hukm, uchchala
- D. komissiya, pilan

7. Yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nosini ifodalagan siz kishilik olmoshi qatnashgan javobni aniqlang.

- A. Albatta, sizga, guruhimiz a'lochilariga, hammamiz ishonamiz.
- B. Bolalar, ehtimol, siz oq ayiqni ko'rмагандирсиз? Men uni ko'рганман.
- C. Rahbarimiz о'quvchilarga yuzlanib: "Siz ertaga muzeyga borasiz", - dedi.
- D. Siz yoshlik qilib bunaqa xomxayollarga borib yurmang, usta!

8. Quyidagi gapda bitmoq so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?**Ozuqa zaxiralarimizning hammasi ertaga bitadi.**

- A. yozuv orqali ifodalamoq
- B. tugamoq, tamom bo'lmoq
- C. o'sib-unmoq
- D. et unib, birikib tuzalmoq

9. Qaysi gapda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A. Taom yeyilgandan so'ng rang-barang qimmatbaho va antiqa mevalar tortildi.
- B. Bu yerdan ham tun-u kun eshkaklarning shaloplagani eshitilib turardi.
- C. Kitobi bilan mamlakatnigina emas, butun jahonning e'tirofiga sazovor bo'ldi.
- D. Bu xushxabarni tezroq ota-onamga yetkazish uchun uyga chopdim.

10. Quyidagi juftliklardan qo'shma so'z hosil qilinganda qaysilari qo'shib yoziladi?**1)so'z//boshi; 2)Ur//to'qmoq 3) Ko'hna//Urganch; 4)foto//apparat; 5)tok//qaychi; 6) och//sariq.**

- A. 1, 2, 3, 5
- B. 2, 3, 4, 6
- C. 1, 2, 4, 5
- D. 1, 3, 4, 5

11. Qaysi javobdagи juftliklar ajratib yoziladi?

- A. to'q//qizil, xom//semiz,
- B. shu//yerga, yangidan//yangi
- C. jigar//rang, sotib//oldi
- D. alla//qachon, ish//yoqmas

12. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik MAVJUD EMAS?

- A. "Ha qat'iy qilib, aytmoqchi emas edim, endi aytaman.
- B. "Odob o'rgatsalar, qulq sol", – deydi Yusufiy.
- C. "Anvarjon uka – dedim unga, – siz o'sishingiz kerak".
- D. "Kenjatoyingiz qani?", – deb so'radi durodgor.

13. Qaysi gapda // shartli belgisi o'rnida tire tushirib qoldirilgan?

- A. Mening opam ham // talaba, bu yil oliyohoga kirdilar.
- B. Qachonki ortdagilar yetib kelsa // yo'lda davom etamiz.
- C. Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad // milliy o'zligimizni anglash.
- D. Eshik zarb bilan ochildi // chunki xonaga usta kirib keldi.

14. Quyidagi gapda // o'rnida qanday tinish belgisi qo'yiladi?**Tuhmat ko'mirga o'xshaydi // yonmaydi, lekin kuydiradi.**

- | | |
|---------------|-------------------|
| A. vergul | B. tire |
| C. ikki nuqta | D. nuqtali vergul |

15. Qaysi gapda imloviy jihatdan xatolik MAVJUD EMAS?

- A. Rejadagi ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapsizmi?
- B. Podsho vaziru-a'yonlari davrasida ot yetaklab borardi.
- C. Yurtimizda IX-may Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi.

D. Gapi to'g'rida, u tengi bolalar maktabga borishadi.

16.Qaysi javobda bosh harflar imlosi bilan bog'liq xatolik KUZATILMAYDI?

- A. Mustaqillik Kuni
- B. Jahon Tinchlik Kengashi
- C. Oliy Attestatsiya Komissiyasi
- D. Fanlar Akademiyasi

17. Qaysi javobdagи so'zlar NOTO'G'RI yozilgan?

- A. grammatika, yovvoyi
- B. minnaddor, karra
- C. afsuz, taraqqiyot
- D. tassurot, komisiya

18. Qaysi javobdagи barcha so'zlar NOTO'G'RI yozilgan?

- A. toifa, maxsulot, musobaqa
- B. jarrox, xususiy, jangovar
- C. toyifa, jarroh, tamosha
- D. maxsulot, musoboqa, hususiy

B VARIANT

1. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. stol, metall
- B. pilaneta, shtab
- C. darax, kongress
- D. uzur, to'rttala

217

2. Qaysi javobdagи so'zlarda ' tutuq belgisi qo'yiladi?

- A. qatiy, maqul
- B. mayus, namuna
- C. tazim, obekt
- D. nemat, taqiqlamoq

3. Qaysi javobdagи juftliklar ajratib yoziladi?

- A. Sharqiy//Afrika, bir//muncha
- B. ayta//oladi, bir//kuni
- C. Yakka//saroy, gul//beor
- D. nuqtayi//nazar, bira//to'la

4. Chiziqcha bilan yozish qoidasiga amal qilingan so'zlarni aniqlang.

- A. uy-uyiga, baland-parvoz,
- B. ich-ichidan, umum-davlat
- C. o'rin-bosar, klovatt-soat
- D. dam-badam, kuppa-kunduzi

5. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik MAVJUD EMAS?

- A. Hamma narsa uylar, devorlar, daraxtlar qorong'ilikka jimgina cho'kdi.
- B. Na qor, na yomg' ir, na bo'ron – hech narsa ularni qo'rqa olmadi.
- C. Muloyimlik rizq sari yetaklovchi kalit.
- D. Xullas shuni bilginki, qars ikki qo'ldan chiqadi.

6. Qaysi javobda bosh harflar imlosi bilan bog'liq xatolik KUZATILMAYDI?

- A. Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi gidrometeorologiya xizmati markazi bosh direktori
- B. Ta'lif Sifatini Nazorat qilish Davlat Inspeksiysi
- C. O'zbekiston Respublikasi Qarshi harbiy sudi Sudyasi
- D. O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasi

7. Qaysi so'z bo'g'inga to'g'ri ajratilgan?

- A. shog-ird
- B. tel-eks
- C. kon-trakt
- D. ta-nngens

8. Qaysi gapda barcha so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?

- A. Yigit jarohat olgan oyoqlarini sudrab bosgancha zo'rg'a kelardi.
- B. Yoshlarimizga bizdan ko'ra aqlliyoq, bilimdonroq bo'lib o'sishayapti.
- C. Yil choraklarining hisobi esa yil boshidan yurutiladi.
- D. O'zimizning obro'miz uchun shu ishga bosh qo'shamiz.

9. Quyida berilgan so'zlardan nechtasi imloviy jihatdan xato yozilgan? hordiq, muxandis, xakam, ko'hna, ahd, muxojir, halqum.

- A. 5 tasi
- B. 3 tasi
- C. 2 tasi
- D 4 tasi

10. Qaysi javobdagagi barcha so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A. taasurot, tamon, badiiy
- B. taalluqli, navbat, tamom
- C. manfaat, tomom, badiy
- D. taaluqli, tomon, baxr

11. Quyidagi parchada tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan berilgan?

Hunari va odobi bo'limgan kishidan deydi Mahmud Koshg'ariy baxt va davlat ketadi

- A.: " ".
- B. " ", – .
- C. " ,– ,–".
- D. " – ".

12. Qaysi javobda o'zaro zid ma'noli iboralar berilgan?

- A. do'ppisini osmonga otmoq, ko'kka ko'tarmoq
- B. tepe sochi tikka bo'lmoq, qovog'idan qor yog'moq
- C. tilining uchida turmoq, ko'z qorachig'iday asramoq
- D. ko'kka ko'tarmoq, yerga urmoq

13. Qaysi so'zlar qatorida boshqalari bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila olmaydigan so'z ishtirok etgan?

- A. yalqov, ishyoqmas, tanbal
- B. betob, bemor, xasta
- C. ayyor, quv, mug'ombir
- D. eplamoq, uddalamoq, sarflamoq

14. Qaysi javobda berilgan so'zlar juftligi o'zaro ma'nodosh emas?

- A. chopmoq – yelmoq
- B. husn – go'zal
- C. ayyor – makkor
- D. epchil – abjir

15. Quyidagi parchada necha o'rinda qo'shimcha xato qo'llangan?

Har bir inson ustozlarining e'zozlashi, ularning hurmat va ehtiromini ado qilishi shartdir. Negaki bu zotlar insonni ruhini tarbiyalaydilar.

- A. 4 ta
- B. 3 ta
- C. 1 ta
- D. 2 ta

16. Quyidagi gapda adabiy til me'yorlariga amal qilinmay uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan qo'shimchalar soni nechta?

Nayman onani o'g'li bir oldin jungjanglar tomonidan halok etilgan otasining o'chini olish uchun jangga otlanib, Sario'zakda bo'lган omonsiz olishuvga yarador bo'ladi.

- A. 2 ta
- B. 4 ta
- C. 3 ta
- D. 5 ta

17. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasining qo'llanishi bilan bog'liq xatolik MAVJUD EMAS?

- A. Xalq orasida: "Maqtanganni uyini ko'r", – degan gap bor.
- B. Men o'tgan yili yozga anhor bo'yidagi hovlimizda dam oldim.
- C. Ziyolilar ma'rifat urug'ini sochishda fidoyilik ko'rsatdilar.
- D. Elparvar kishilarni moddiy yordamisiz faoliyat ko'rsatolmas edi.

219

18. Quyidagi parchada nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchasini QO'YIB BO'LMAIDI?

Yaxshi tarbiya ko'rgan odam... xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati... boshqalar... bir qadam oldin... o'tsa, darrov sheriklari... yordam beradi.

- A. o'rinn-payt kelishigi
- B. tushum kelishigi
- C. qaratqich kelishigi
- D. chiqish kelishigi

YOZISH SAVODXONLIGI

1. Esse (qiyosiy esse yozish).

Mavzu: ZAMONAVIYLIK VA AN'ANALARGA SODIQLIK

Bu haqida o'z fikringizni yozma bayon qiling:

- ijodiy matnni esse talablari bo'yicha yozing;
- fikrlaringizni izchil va savodli ifodalang;
- har ikki tushunchani to'liq izohlang;
- bu tushunchalar haqida o'z fikringizni misollar bilan dalillang;
- hozirgi davr va muhitdan kelib chiqib o'z xulosangizni bering.

Esse 200-250 ta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

65-dars

NUTQ SO'ZLASH SAVODXONLIGI

1-bilet

Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

- O'zingizni tanishtiring;
- Farzandlik burchi deganda nimani tushunasiz?
- Ba'zilar ota-onasining hurmat-izzatini joyiga qo'ymaydi, ularga quloq solmaydi, ba'zilar esa ota-onalarini aytmoqchi, buyurmoqchi bo'lgan yumushlarini oldindan sezadi, ularni e'zozlab, boshida ko'tarib yuradi. Nega shunday?

2-bilet

Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

- O'zingizni tanishtiring;
- Adolat va teng huquqlilik deganda nimani tushunasiz?
- Ba'zilar adolatsizlik qilishadi, ba'zilar esa adolatli bo'ladi. Nega shunday?

221

3-bilet

Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.

MUSTAQIL NUTQ

- O'zingizni tanishtiring;
- Ijtimoiy tarmoqlar deganda nimani tushunasiz?
- Ba'zilar ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketib, qarli vaqtlarini, isrov qiladi, ba'zilar esa undan foyda chiqaradilar. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz

66-dars

Nazorat ishi

67-dars

Nazorat ishi

68-dars

Nazorat ishi tahlili

Izoh uchun

O'quv nashri

ONA TILI

**Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
10-sinfi uchun darslik**

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*

Rassom *Aziz Jabborov*

Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*

Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*

Dizayner va sahifalovchi *Oloviddin Sobir o'g'li*

Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*

Bosishga ruxsat etildi 23.06.2022 Bichimi 60x84 1/8.

Arial garniturası. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.

Shartli bosma tabog'i 26,04 Nashriyot-hisob tabog'i 25,99

Adadi ___ nusxa. Buyurtma № ___.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridaagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.